

B. TO'RAYEVA, U. KO'CHIMOV

# ADABIYOTSHUNOSLIK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

---

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON  
TILLARI UNIVERSITETI

TO'RAYEVA B., KO'CHIMOV U.

# ADABIYOTSHUNOSLIK

*Universitetlar va pedagogika institutlari filologiya,  
jurnalistika fakulteti talabalari uchun darslik*

TOSHKENT  
«MALIK PRINT CO»  
2021

UO'K: 82.09(07)

KBK: 83.3ya73

M 23

**To'rayeva B., Ko'chimov U.**

**Adabiyotshunoslik** [Matn]: darslik / To'rayeva B., Ko'chimov U.  
-Toshkent: «MALIK PRINT CO», 2021. - 192 b.

**Taqrizchilar:**

**E.Muratova** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**A.Ulug'ov** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Darslikda adabiyotshunoslik fani va uning nazariy qonuniyatları: adabiy tur va janrlar, oqim va yo'nalishlar, hayotni aks ettirish tamoyilari, badiiy uslub, shakl va mazmun hamda uning komponentlari masalalari tahlil qilingan. «Adabiyotshunoslik» badiiy adabiyotning umum nazariy qoidalarini o'r ganuvchi fan ekani, badiiy ijod ma'lum nazariy tushunchalarga asoslanishini talabalarga o'rgatishi bilan muhim ahamiyatga ega. Blum taksonomiyası asosida ishlab chiqilgan test topshiriqlari talabaning kreativ tafakkurini oshirishga va mustaqil izlanishiga qaratilgan.

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlari bakalavriat va magistratura bosqichi talabalariga mo'ljallangan.

The subject of literary criticism and its theoretical laws: literary genres, directions, principles of reflection of reality, artistic style, form and content, and its components have been in the textbook. It is worth noting that the «Literary criticism» is a science that deals with the general theoretical patterns of fiction, and the artistic creativity based on theoretical concepts, which play an important role in teaching students. Tasks provided for independent study on the basis of the Blum taxonomy are aimed at developing creative thinking and independent research skills of the student.

The textbook is intended for students and masters.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2021 yil 31 maydagi 237-sonli buyrug'iiga asosan darslik sifatida nashr  
etishga ruxsat berildi.*

ISBN 978-9943-7654-3-6

## KIRISH

Mustaqillik yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida azaldan mavjud ilmiy an‘analar bilan bir qatorda dunyo adabiyotshunosligidagi yangicha uslub va yondashuvlarni ijodiy o‘zlashtirish va tadqiqotlarda qo‘llash tendensiyasi shakllandi. Bipobarin, badiiy adabiyotda dunyoni obrazli badiiy qayta gavdalantirishning G‘arba taraqqiy topgan tamoyillarini sharqona adabiy an‘analar bilan uyg‘unlashtirish kuzatilmoque. «O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart»ligi<sup>1</sup> adabiyot nazariyasi fani oldiga tadqiqotlarni jahon andazalari darajasiga ko‘tarish majburiyatini qo‘yadi. O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish bugungi kunning dolzarb muammolari sirasiga kiradi. «Ayniqla, hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo‘layotgan, biz ilgari duch kelmagan g‘oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g‘oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so‘z san‘atining o‘rni va mas’uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Bundan yuz yil muqaddam buyuk o‘zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon «Adabiyot yashasa, millat yashar!» degan otashin da‘vat bilan maydonga chiqqan edi. Hayot va tarix sinovlaridan o‘tgan teran ma‘noli bu so‘zlar bugun ham o‘z ahamiyati va qimmatini yo‘qotgan emag. Darhaqiqat, adabiyot, san‘at va madaniyat yashasa, millat

<sup>1</sup> Узбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 23 дикабрдаги Олий мажлисга мурожаатномаси. – Халқ сўзи, 2017 йил 23 дикабрь. – №258 (6952).

va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi».<sup>1</sup> Chin adabiyot xalqlar o'rtasida ishonch ko'priklarini bonyod etadi, til, e'tiqod, odat, an'ana va tutumlardagi ixtiloflarni yo'qqa chiqarib, shodlik, g'am-tashvish, hayrat tuyg'ulari orqali bizlarni yakdilu yaktan qiladi<sup>2</sup>.

Yosh avlodga adabiyotning mohiyatini so'z san'ati sifatida tushuntirish, adabiy jarayonning nazariy muammolarini o'rgatish, kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirish, badiiy asarni tahlil qilish malakasini shakllantirish ko'zda tutilgan. Talabalarning adabiyotshunoslik nazariyasi fanidan o'quv maqsadiga erishganlik darajasini aniqlash, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, ularning evristik va kreativ qobiliyatini rivojlantirish maqsadida mustaqil ta'llim topshiriqlari, intellekt xarita, keys topshiriqlari, badiiy asar tahlili mezonlari, glossariy, foydalanish uchun adabiyotlar va elektron axborot resurslarining nomlari keltirilgan. Darslikni yaratishda mavjud qo'llanma va darsliklardan foydalanilgan. Adabiyot nazariyasi respublikamizning I.Sulton, M.Qo'shjonov, H.Boltaboyev, H.Umurov, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo'raqulov, A.Ulug'ov, G.Xalliyeva kabi taniqli olimlari, M.Baxtin, Yu.Borev, J.Kaller, V.Jirmunskiy, V.Xalizev kabi xorij olimlarining ilmiy asarlarida yetarli darajada yoritib berilgan. Shuning uchun darslikda badiiy asar tahlili bilan bog'liq masalalarga, Blum taksonomiysi asosida tuzilgan nostandard test topshiriqlariga va adabiyot olamidagi yangiliklarga e'tibor qaratilgan. Talabalarning Benjamin Blum taksonomiysi bo'yicha, ya'ni bilish, tushunish, amaliyatda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda nostandard test topshiriqlari ishlab chiqildi. Mazkur bilimlarni talabalar tomonidan o'zlashtirilganligini ob'ektiv va haqqoniy aniqlash hamda baholash maqsadida test topshiriqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

1 Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб килишининг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. 2018 йил 7 август/ <https://www.xabar.uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat>

2 <http://kh-davron.uz/kutubxonai/jahon/mario-vargas-losa-mutolaa-va-adabiyot-vasti.html> Mario Vargas Losa. Мутолаа ва адабиёт васфи/nobel ma'rzası

## **ADABIYOTSHUNOSLIK – BADIY ADABIYOT HAQIDAGI FAN**

### **Reja:**

1. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot haqidagi fan.
2. Adabiyot nazariyasi fanining ob’ekti, predmeti va vazifalari.
3. Fanning tarkibiy qismlari: asosiy va yordamchi sohalari.
4. Adabiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

*Tayanch tushunchalar: adabiyotshunoslik, adabiyotshunoslikning predmeti, adabiyotshunoslikning vazifalari, adabiyotshunoslikning maqsadi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya.*

Adabiyotshunoslik (ar. ادب – adab, fors. شناس – tanish, o’rganish) fanning nomidanoq uning o’rganish sohasi – obyekti adabiyot ekanligi ochiq-oshkor ko‘riniib turadi. «Adabiyot» so‘zi arabcha «adab» so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, «chiroyli xulqlar» ma’nosini ifodalaydi.

Adabiyot – inson ruhining bir oynasi. Odam qismati ba’zan shu qadar murakkab, shu darajada ziddiyatli bo‘ladiki, uning tub mohiyati va ichki bog‘lanishlarini faqat adabiyot suvratlantirib ko‘rsatishi mumkin. His-tuyg‘u, kayfiyat, ehtiros, aslini olganda, o‘tkinchi, ya’ni baqosiz narsa. Ammo ular adabiyotdan joy egallaganda, har biri odam ma’naviy-ruhiy olamining tirik bir «tilmoch»iga aylanadi<sup>1</sup>. Gao Sinszyanning e’tiroficha, adabiyot muallifga insoniy ongni saqlab qolish imkonini beradi, adabiyot bizning o‘zimiz bilan o‘zimiz gaplashadigan narsalardan boshlanadi. Bu o‘rinda o‘zaro aloqa ikkilamchi vazifa. Adabiyotni bizning ichki his-tuyg‘ularimizning amalga oshishiga bo‘lgan ehtiyojimiz paydo qiladi.

Adabiyotshunoslikning ob’ekti bo‘lmish badiiy adabiyotga tualluqli ilmiy muammolar ko‘lami – predmeti juda keng. Zero, adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning kelib chiqishi, mavjudligi, rivojlanish qonuniyatları, ijtimoiy aloqalarini chuqur va atroficha

<sup>1</sup> Нброхим Ҳакқұл. Мушохада ёғлуси. Адабий үйлар, хикматлар, лутфлар.

– Гифинсүр, 2019. – Б. 95.

o‘rganadi. Adabiyotshunoslikning predmetini tashkil qiluvchi muammolarning bir qismi umumestetik (ya’ni badiiy san’at sohalarining barchalariga xos) muammolar sirasiga kirsa, boshqa bir qismi sof adabiyotshunoslik muammolari sanaladi. Badiiy adabiyotga taalluqli muammolarni atroficha va chuqur ilmiy o‘rganish – adabiyotshunoslikning vazifasi; chiqargan ilmiy xulosa va umumlashmalari orqali badiiy adabiyot taraqqiyoti, badiiy tafakkur rivojiga xizmat qilish, badiiy didni tarbiyalash uning maqsadidir. Rolan Bart talqinicha, adabiyotshunoslikning vazifasi badiiy asardan aynan qaysi g‘oyani, ma’noni izlash lozimligini ko‘rsatish, degan fikrdan voz kechish kerak. Adabiyotshunos badiiy asarga hech qanday ma’no «bag‘ishlamaydi», balki asardagi har qanday ma’no mazmunning paydo bo‘lishi, yuzaga kelishi bilan bog‘liq mantiqni tahlil etadi, ta’riflaydi.

**Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari.** Zamonaviy adabiyotshunoslik fani uch asosiy sohadan tarkib topadi: *adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi* va *adabiy tangid*.

**Adabiyot tarixinining** predmeti o‘tmish adabiyoti bo‘lib, uni jarayon yoki shu jarayonning bir bo‘lagi (bosqichi) sifatida tadqiq etadi. Adabiyot tarixinining asosida tarixiylik prinsipi yotadi. Tarixiylik prinsipi adabiy jarayonni konkret ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog‘liq hodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Ya’ni adabiyot tarixi o‘tmishdagi adabiy hodisalarни, yaratilgan asarlarning g‘oyaviy-mazmuniy xususiyatlarini belgilagan, badiiy tafakkur rivoji, poetik usul va vositalarning o‘zgarishi va shu kabilarga asos bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy omillarni ochib beradi.

Adabiyot tarixi nuqtai nazaridan konkret badiiy asar tahlil qilin-ganida ham o‘sha asar yaratilgan davr, o‘sha paytdagi adabiy jarayon xususiyatlari, albatta, e’tiborga olinadi. Adabiyot tarixi tarixiylik prinsipi asosida konkret ijodkorlar faoliyatini ham o‘rganadi. Adabiyot tarixini ilmiy o‘rganish asosan uch aspektda amalga oshiriladi: 1) muayyan bir davr adabiy jarayonini tadqiq etish; 2) alohida olingen ijodkor hayoti va adabiy merosini o‘rganish; 3) alohida asarlar tadqiqi.

Adabiyot tarixinining maqsadi jahon estetik tafakkuri va adabiyotshunsligi erishgan yutuqlarni zamon talablari nuqtai nazaridan o‘rganish; adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyotidagi davriy bosqichlar-

ning mohiyatini aniqlash; Sharq va G'arb tafakkurlararo mushtarak va farqli jihatlarga tipologik yondashish; qadimgi davr, o'rta asrlar, Uyg'onish hamda XVI asrdan keyin yaratilgan adabiy-nazariy manbalarni o'rganish; adabiy yo'nalish va oqimlarning adabiy tafakkur tarixidagi o'rnini belgilash; XX asr yangi davr adabiyotshunosligining vujudga kelishida omil bo'lgan nazariya va konsepsiyalarning adabiyot tarixidagi o'rnini belgilashdan iborat<sup>1</sup>.

**Adabiyot nazariyasi** badiiy adabiyotning mohiyati, rivojlanish omillari va qonuniyatlar, jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalari, badiiy asar tabiatи hamda uning tuzilishi, badiiy til xususiyatlari, adabiy turlar va janrlar kabi masalalarni umumiy tarzda o'rganadi va shu asosda umumiy qonuniyatlarini ohib beradi. Shuningdek, adabiyot nazariyasi badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator umumestetik masalalarni ham so'z san'atiga tatbiqan o'rganadi. Adabiyot nazariyasi badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari, baholash mezonlari, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiyotshunoslik uchun zarur adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi.<sup>2</sup>

O'tmish adabiyot bilan hozirgi zamon adabiyoti o'rtasidagi doimiy vorislik (an'ana va yangilanish) masalalari ham adabiyot nazariyasiga aloqadordir. Turli xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bir-birlarini boyitishdan iborat ijobjiy tarixiy jarayonning qonuniyatlarini aniqlash ham adabiyot nazariyasining doimiy o'rganuvchi sohalaridan birini tashkil etadi. Badiiy adabiyotning o'tmishi, hozirgi ahvoli va istiqboldagi rivojlanish tamoyillarini belgilab berish adabiyot nazariyasining eng muhim vazifasi sanaladi. Sharqda adabiyot nazariyasining yuqorida qayd etilgan barcha muammolarini yaxlit o'rganuvchi maxsus fan sohasi bo'Imagan. Bu masalalar uch yo'nalishdagi mustaqil sohalar doirasida olib borilgan. Bular: aruz ilmi, qofiya ilmi va balog'a ilmi, ya'ni badiiy so'z san'atlari haqidagi sohalardan iborat. Shu bois Sharq mumtoz

<sup>1</sup> Адабийёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва наимлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: "Mumtoz so'z", 2015. – Б. 207.

<sup>2</sup> Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi mehniyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 15.

adabiyotshunosligi tarixiga nazar tashlansa, yuqorida ko'rsatilgan uch yo'nalishdagi ilmiy manbalar alohida-alohida bayon etilganligi ma'lum bo'ladi. Masalan, Muhammad bin Umar ar-Roduyoniying «Tarjimon ul-balogs'a», Rashididdin Vatvotning «Hadoiq us-sehr fi daqoiquish-she'r», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», Boburning «Muxtasar», Husayn Voiz Koshifiyning «Badoye ul-afkor fi sanoye-ul-ash'or», Atoullo Husayniyning «Badoye us-sanoye», Vohid Tabriziyning «Jam'i muxtasar» kabi asarlarida aruz, qofiya va badiiy san'atlar haqida alohida-alohida fikr yuritilgan. Sharq adabiy-nazariy ta'limoti asosan she'riyat materialiga asoslangan bo'lib, ularda badiiy nasr, dramaga oid nazariy kuzatishlar uchramaydi. Chunki Sharq mumtoz adabiyotida badiiy nasr va drama janrlari mavjud emas edi. Sharq adabiy-nazariy qarashlari rivojiga Abu Nasr Forobiy «Kalom fish-she'r va al-qavofi» («She'r va qofiyalar haqida so'z»), «Kitob fil-lug'ot» («Til haqida kitob»), «She'r san'ati», Ibn Sino «Uyun-al-Hikma» kabi asarlari bilan katta hissa qo'shdilar. O'zbek adabiyotshunosligida Adabiyot nazariyasiga oid haqiqiy yaxlit ilmiy asar 20-asrning 20-yillarida Fitrat tomonidan yaratildi. Uning «Adabiyot qoidalari» kitobida badiiy adabiyotning o'ziga xosligi, ijtimoiy tabiat, adabiy tur va janrlar, syujet, kompozitsiya, badiiy nutq va mahorat masalalari haqida ilk bor yaxlit ma'lumotlar berilgan. Abdurahmon Sa'diyning «Adabiyot nazariyasi» asari adabiyot nazariyasiga oid ilk asarlardan hisoblanadi. Shulardan keyin adabiyot nazariyasiga oid ikkinchi asar 1939 yilda Izzat Sulton tomonidan yaratildi. Keyinchalik O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan ikki jildli «Adabiyot nazariyasi» (1-jild 1978, 2-jild 1979), 1980-yilda I.Sultonning «Adabiyot nazariyasi» darsliklari chop ettirildi. Adabiyot nazariyasi rivojiga H.Yoqubov, M.Yunusov, M.Qo'shjonov kabi olimlar ham katta hissa qo'shdilar. G'arb adabiyotshunosligida Aristotelning «Poetika» asari Adabiyot nazariyasiga oid asosiy manba sifatida qo'llanilib kelindi. 17–18 asrdan boshlab Bualo, Didro, Lessing, Gerder, Gyote, Shiller kabi olimu adiblar tomonidan adabiyot nazariyasiga oid nazariy asarlar yaratila boshlandi. 18-asr oxiri – 19-asr boshlarida nemis faylasuflari Kant, Shelling, Gegel va boshqalar badiiy adabiyot qonuniyatlarini yaxlit o'rganuvchi adabiyot nazariyasi yaratishni boshlab berdilar. Rossiyada M.V. Lomonosov, A.N. Radishchev, V.G. Belinskiy, N.G.

Chernishevskiy, A.N. Dobrolyubov, A.I. Gersen va boshqa adabiy-nazariy qarashlar rivojiga muayyan hissa qo'shdilar.<sup>1</sup>

Adabiyot nazariyasi zamonaviy aspektda quyidagi yo'nalishlarda taraqqiy etmoqda: 1. Matnga asoslangan nazariyalar (formal-struktural yondashuv, yangi tanqid, narratologiya). 2. Muallifni o'rganishga qaratilgan nazariyalar (biografik, psixoanalitik yondashuv, shu bilan birga feministik adabiyotshunoslik, fenomenologik tadqiqotlar). 3. Kitobxonga qaratilgan nazariyalar (retseptiv estetika, asarni qabul qilish tarixi; tarixiy-funksional tadqiqotlar). 4. Adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga oid nazariyalar (reminissensiya, intertekstual) tadqiqotlar, sotsiologik va tarixiy-materialistik yondashuv<sup>2</sup>.

Adabiyotshunosligimizning keyingi taraqqiyoti davomida I.Sulton, M.Qo'shjonov, N.Shukurov, B.Sarimsoqov, B.Nazarov, T.Boboyev, H.Umurov, D.Quronov, A.Ulug'ov kabi qator olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiy tanqid** hozirgi adabiy jarayon muammolarini o'rganish, yangi paydo bo'lgan asarlarni (shuningdek, o'tmishta yaratilgan asarlarni ham) bugungi kun nuqtai nazaridan g'oyaviy-badiiy tahlil qilish va baholashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Adabiy tanqidning paydo bo'lishi va rivojlanishida, avvalo, kitobxonning ijtimoiy estetik ehtiyojlari yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki biror-bir badiiy asarni o'qib chiqqan savodxon o'quvchida o'z fikr-mulohazalarini bayon etish, qolaversa, muallif bilan fikrlashish istagi paydo bo'ladi. Ana shu ma'naviy ehtiyoj davrlar o'tishi bilan adabiy tanqidchilikning yuzaga kelishiga, maxsus fan sifatida shakllanishiga sharoit tug'dirgan. Adabiy-tanqidiy asarlarda badiiy asarning yutuq va kamchiliklari, ijodkorning badiiy mahorati haqida ilmiy mulohaza yuritilibgina qolmasdan, muayyan bir jamiyatning ijtimoiy manfaatlari ham aks etgan bo'ladi va, umuman, bu soha qadiindan falsafa, estetika, etika fanlari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlangan. Shuning uchun ham Epikur va Aristotel zamonidan boshlab, adabiy tanqidchiga faylasuf, tarixchi – siyosatshunos, huquqshunos, ruhshunos sifatida ham qarab keligan. Xullas, tarixiy-

<sup>1</sup> O'zbek. Birinchi jild. – Toshkent, 2000. / [https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_milliy_ensiklopediyasi)

<sup>2</sup> Адабиёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва ташрифлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: “Мумтоз со‘з”, 2015. – Б.198.

adabiy manbalar «adabiyotshunoslik», «adabiy tanqid», «tanqidchi» atamalari, jahon adabiyoti va ilmiy tafakkuri taraqqiyotida ko‘p yillik tarixga ega. Anatol Frans yaxshi tanqidchini ta’riflab, nafaqat o‘qigan asarlarini tahlil qilishi, balki u o‘z qalbining kechinmalari – sarguzashtlarini ham bayon qilishini ta’kidlagan.

I.Sulton, H.Yoqubov, V.Zohidov, G’.Karimov, M.Qo’shjonov, A.Qayumov, O.Sharafiddinov, L.Qayumov, S.Mamajonov, A.Rasulov, U.Normatov, I.G’afurov, N.Shukurov, S.Mirvaliyev, B.Nazarov, N.Xudoyberganov, S.Meli, B.Karimov, U.Jo’raqulov, A.Ulug’ov singari tanqidchilar adabiy jarayonda yuz berayotgan hodisa va o‘zgarishlarni o‘zlarining maqolalari hamda ilmiy ishlarida umumlashtirdilar. Ularning adabiyotimizning tarixi, o‘sha davrdagi adabiy jarayon haqidagi mulohazalari natijasida oltmishinchiyetmishinchı yillard o‘zbek adabiy tanqidchiligidagi uslubiy rangbaranglik, risolalar yaratish tanqidchining tarixiy-biografik yondashuvi borasida ma’lum muvaffaqiyatlarga erishildi.

**Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari.** Yuqorida sanalgan asosiy sohalar bilan bir qatorda, adabiyotshunoslik faoliyati uchun zarur bo‘lgan muayyan amaliy vazifalarni bajarish bilan shug‘ullanuvchi matnshunoslik, manbashunoslik, kitobiyot (bibliografiya) kabi yordamchi sohalar ham mavjud. Mazkur uch soha olimlar tomonidan adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari sifatida e’tirof etiladi.

**Matnshunoslik.** Matnshunoslik bobidagi ilmiy izlanishlarning pirovard natijasi adabiyot tarixi va nazariyasi uchun manbaviy asos – matnni tayyorlash bo‘lgani bois unga adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri sifatida qaraladi. Holbuki, matnshunoslikka filologik fanlarning alohida tarmog‘i, mustaqil bir sohasi sifatida qarash uchun ham yetarli asos bor. Chunki, birinchidan, matnshunoslik faoliyati adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarix fanlari kesishgan nuqtada kechadi; ikkinchidan, matnshunoslik ilmiy izlanishlarida qator yordamchi sohalarni o‘ziga xizmat qildiradi. Adabiy matnlarni o‘rganish va nashrga tayyorlash matnshunoslikning vazifasidir. Matnshunoslikning vazifasini juda qisqa qilib ifodalagan bo‘lsakda, uning amalga oshirilishi g‘oyat katta mehnatni, chuqur bilim va tajribani talab qiladi. Endi matnshunoslikning boshqa bir vazifasi – asarning ilmiy-tanqidiy matnnini tayyorlashni olaylik. Masalan,

Alisher Navoiy asarlarining turli davrlarda, turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmalari mavjud. Matnshunos qarshisida ularni qiyosiy o‘rganish, birining kamchiliklarini boshqalari bilan to‘ldirish va shu asosda eng mukammal – ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash vazifasi turadi. Tayyor bo‘lgan ilmiy-tanqidiy matnni nashr ettirish uchun matnshunos uni izohlar, sharhlar, lug‘atlar bilan ta’minlashi kerak.

**Manbashunoslik.** Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri sifatida manbashunoslik adabiyotga bevosita yoki bavosita aloqador bo‘lgan manbalarни izlab topish, tasniflash, ro‘yxatga olish kabi amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek, shunday manbalarни qidirish va o‘rganish yo‘llarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Qayd etish kerakki, bu o‘rinda «manba» so‘zi keng ma’noda bo‘lib, adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan barcha manbalar (asar qo‘lyozmalari, ijodkorlarning xatlari, kundalik daftarlari, adabiy jarayonga yoki muayyan ijodkor hayoti va ijodiga taalluqli hujjatlar va boshqalar)ni anglatadi.

**Bibliografiya (Kitobiyot)** adabiyotshunoslikning ilmiy-amaliy sohasi sanalib, ilmiy tadqiqot ishlari olib borish uchun zarur ma‘lumotlar – adabiyotshunoslikka oid kitoblar, maqolalar, ilmiy tadqiqotlar ro‘yxatlarini tuzish, muayyan tematik yo‘nalishdagi yoki xronologik asosdagi bibliografik ko‘rsatkichlar tayyorlash bilan shug‘ullanadi. Yordamchi soha sifatida adabiyotshunoslik bibliografiyasi tadqiqotlarning samarali bo‘lishiga ko‘maklashish maqsadini ko‘zlaydi. Darhaqiqat, bunday ko‘rsatkichlar biron-bir mavzu bo‘yicha izlanayotgan tadqiqotchingin vaqtini tejaydi, ilmiy faoliyati samarasini oshiradi, shu bilan birga, mavzu bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar bilan tez va to‘liq tanishish imkonini beradi, demak, ilmiy xulosalarning obyektiv va ahamiyatli bo‘lishiga ham zamin hozirlaydi<sup>1</sup>.

**Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.** Adabiyot, birinchi navbatda, o‘z tizimi va vazifasiga ko‘ra, filologik (folklorshunoslik va tilshunoslik) va falsafiy fanlar (axloqshunoslik, estetika, germenevtika), shuningdek, gumanitar tizimdagи fanlar

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. B. 28.

(tarix, ruhshunoslik, sotsiologiya) bilan aloqador.

Badiiy adabiyotning materiali so‘z, adabiy asar so‘zlardan tarkib topuvchi matndir. Badiiy matn esa, ravshanki, til qonuniyatlarini asosida tarkib topadi. Til qonuniyatlarini bilish matnning qurilishi, tagma’nolari, ishlatilgan stilistik figuralarning estetik qimmati haqida fikr yuritishda juda muhim. Odatda, badiiy matn tilini o‘rganishga qaratilgan ishlarni adabiyotshunoslilik va tilshunoslilik chegarasidagi ishlar deb qaraladi. Tilshunoslilik kishilar orasidagi muloqot vositasi bo‘lgan tilni, adabiyotshunoslilik esa ijodkor va o‘quvchi orasidagi badiiy muloqot vositasi bo‘lgan badiiy asarni o‘rganadi. Har qanday asar o‘z davrini muayyan darajada aks ettirar ekan, milliy adabiyot xazinasidagi asarlarda o‘sha millatning tarixiy yo‘li, taqdiri aks etadi. Bu esa adabiyotshunoslilikning tarix fani bilan uzviy aloqada bo‘lishini zaruratga, tabiiy va qonuniy holga aylantiradi. So‘z san’atining eng qadim namunalaridan boshlab ajdodlarning olam va odam haqidagi anglamlari, fikr-qarashlari – o‘ziga xos falsafasi aks etib keladiki, bu adabiyotshunoslilikning falsafa fani bilan mustahkam aloqada bo‘lishini taqozo etadi.

Adabiyotshunoslilik ijtimoiy-gumanitar fanlarning hammasi bilan u yoki bu darajada aloqador. So‘z san’ati sifatida adabiyot san’atning umumiy qonuniyatlarini asosida, boshqa san’at turlari bilan aloqada yashaydi va rivojlanadiki, bu adabiyotshunoslaring estetika fanidan xabardor bo‘lishini taqozo qiladi. Yoki asarda tasvirlangan inson ruhiyatini anglash, badiiy ijod psixologiyasi, badiiy asarni qabul qilish jarayonining ruhiy mexanizmlarini yaxshi tasavvur qilishda unga psixologiya fani yutuqlari asqotadi. Xuddi shu kabi fikrlarni etnografiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslilik, siyosatshunoslilik kabi ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bilan adabiyotshunoslilikning aloqasi misolida ham aytish mumkin. Bu esa adabiyotshunoslilikning fanlar tizimida yashashi va boshqa fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanishining yaqqol dalilidir. Shunday ekan, haqiqiy adabiyotshunos bo‘lib yetishish va kasbiy salohiyatni yuksaltirish uchun kishidan atroflicha keng bilim egasi bo‘lish talab etiladi.

## **Savol va topshiriqlar:**

Aforizmlarni tahlil qilib, xulosangizni taqdim eting.

1. Adabiyot chin ma’nosи ilo o’lgan, so’ngan qaralgan, o’chgan, yarador ko’ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg’on, o’tkur yurak kirlarini yuvadurg’on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug’ va ravshan qiladirg’on, chang va tuprog’lar to’lgan ko’zlarimizni artub tozalaydirg’on buloq suvi bo’lg’onlikdan bizga g’oyat kerakdir. (Abdulhamid Cho’lpon)

2. Adabiyot – ko’ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o’xshaydi – meva tugmaydi. Ko’ngil rozi bo’lgan asargina kitobxonning ko’ngliga yo’l topadi, kitobxonning ko’nglida meva tugadi. (Abdulla Qahhor)

3. Hozirgi dunyoda adabiyot murakkab sharoitga tushib qolgan. Favqulodda u keraksiz buyumga aylangandek, zero, qiziqishlar ham, his-hayajonlar ham oldingiday emas, bo’lakcha. Burungi kitobxonlarimizning o’y-xayollari endi boshqa narsalar bilan band. Bugungi kitobxonlar esa asl mutolaaning zavq-shavqidан, aftidan, bexabar. Shundan kelib chiqib endi nima qilish lozimligini birgalashib o’ylab ko’rishimiz kerak. (Chingiz Aytmatov)

4. Adabiyot va san’at inson faoliyatining shunday bir qirrasiki, unda iste’dodlar ham rang-barang, ularning hayotni yoritishlari ham rang-barangdir. Bu yerda har bir san’atkoring hayot tajribasi, uni anglash darajasi va iste’dod yo’nalishlarini hisobga olmasdan ilojimiz yo’q. (Matyoqub Qo’shjonov)

5. Badiiy ijod shunday daraxtki, shoxida umuminsoniy mevalar yetiladi, ildizi esa milliy zaminda yotadi. (O’tkir Hoshimov)

## Blum taksonomiyasи asosida tuzilgan test topshiriqlari

### I. Aforizmlarning mualliflarini aniqlang va muvofiq javobni belgilang. Adabiyot haqida o‘z qoidangizni yarating.

	Adabiyot muallifga insoniy ongni saqlab qolish imkonini beradi, adabiyot bizning o‘zimiz bilan o‘zimiz gaplashadigan narsalardan boshlanadi. Bu o‘rinda o‘zaro aloqa ikkilamchi vazifa. Adabiyotni bizning ichki histuyg‘ularimizning amalga oshishiga bo‘lgan ehtiyojimiz paydo qiladi. Kitob, jamiyatga ta’sir etadimi, yo‘qmi — bu boshqa masala, bu savolning javobi uning muallifiga mutlaqo bog‘liq emas.		Abdulla Qahhor
	Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga serif kilish kerak emas.		Gao Sintszyan
	Poeziya nafaqat dunyoni bilish, balki u hayotning o‘zi hamdir, butun borlig‘i bilan hayotning o‘zi. Shoirlik qabilachilik zamonida yerto‘lalarda yashagan odamning qalbida ham bor edi, u atom asri odamining ruhida ham yashaydi... Borki mayjudotga sadoqati bilan shoir bizga bizning dunyomizning boqiyligi va birligini his etishimizga yordam beradi... Va agar shoir o‘z davring xastalangan vijdonini gavdalantira olsa, unga boshqa talab yo‘q.		Sen-Jon Pers
	Yaxshi tanqidchi nafaqat o‘qigan asarlarini tahlil qiladi, balki u o‘z qalbining kechinmalari — sarguzashtlarini ham bayon qiladi.		Ernest Xeminguey
	Faqat o‘zing yaxshi o‘rgangan, yaxshi biladigan narsalar haqida yozish, yozganda ham samimiy va rost yozish kerak; tasvirlangan holat inson qalbini o‘rtab yuborsin, voqelikni baholashga yordam bersin, o‘quvchi boshidan kechirgan voqelikning bir qismiga aylanib qolsin.		Anatol Frans

Javob	1	2	3	4	5

### II. Adabiyot (A) va adabiyotshunoslik(B)ka oid fikrlarni to‘g‘ri tasniflang va jadvalning javob qismiga yozing.

- Inson tafakkurining mahsuli o‘larоq, dunyoga kelgan, o‘qish uchun mo‘ljallab yozilgan asarlar jami.
- So‘z san‘ati – badiiy adabiyot.

3. G‘arbda antik davrlardan boshlab, to XVII–XVIII asrlarga qadar «poeziya» deb atab, unga «proza»ni qarshi qo‘yishgan.

4. Badiiy adabiyotning kelib chiqishi, mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarini o‘rganuvchi fan.

5. Badiiy adabiyotning mohiyati, uning rivojlanish omillari va qonuniyatlari, badiiy (adabiy) asar tabiat, uning tuzilishi, badiiy (poetik) til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi muammolarni o‘rganadi.

6. Uch asosiy sohadan tashkil topadi: adabiyot tarixi, adabiyot nazariysi va adabiy tanqid.

7. Matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya singari yordamchi sohalari ham mavjud.

Javob	A-	B-
-------	----	----

### **III. Adabiyot nazariysi, adabiyot tarixi va adabiy tanqidga tegishli bo‘lgan izohlarning har biriga mosini aniqlang.**

1. Badiiy adabiyotning mohiyati, rivojlanish omillari, jamiyat hayotidagi o‘rnii va vazifalari, badiiy asar tabiat hamda uning tuzilishi, badiiy til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi masalalarni umumiy tarzda o‘rganadi.

2. Badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator umumestetik masalalarni ham so‘z san‘atiga tatbiqan o‘rganadi.

3. O‘zida adabiyotshunoslik ilmi, badiiy adabiyot va publitsistikaga xos jihatlarni uyg‘unlashtiradi.

4. Adabiyotshunoslikning operativ, joriy adabiy jarayonga bevosita aralashadigan sohasi hisoblanadi.

5. O‘tmishdagi adabiy hodisalarini, yaratilgan asarlarning g‘oya-viy-mazmuniy xususiyatlarini belgilagan, badiiy tafakkur rivoji, poetik usul va vositalarning o‘zgarishi va shu kabilarga asos bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy omillarni ochib beradi.

6. Hozirgi adabiy jarayon muammolarini o‘rganish, yangi paydo bo‘lgan asarlarni bugungi kun nuqtai nazaridan g‘oya-viy-badiiy tahlil va talqin etish, baholashni maqsad qiladi.

7. O‘tmish adabiyoti tajribalarini bugungi adabiyot xizmatiga

safarbar etadi, keng ko‘lamli nazariy xulosalar chiqarish uchun zarur material hozirlaydi.

8. Uning predmeti o‘tmish adabiyoti bo‘lib, jarayon yoki shu jarayonning bir bo‘lagi (bosqichi) sifatida tadqiq etadi.

9. Badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari, baholash mezonlari, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi.

Javob	adabiyot nazariyasi	adabiyot tarixi	adabiy tanqid

#### **IV. Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalarini izohlang.**

1	Matnshunoslik	A	adabiy matnlarni o‘rganish va nashrga tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi
2	Manbashunoslik	B	adabiyotshunoslikka oid ilmiy asarlar, maqolalar, shuningdek, badiiy asarlar ro‘yxatini tuzish bilan shug‘ullanadi
3	Bibliografiya	C	adabiyotga bevosita yoki bavosita aloqador bo‘lgan manbalarni izlab topish, tasniflash, ro‘yxatga olish kabi amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek, shunday manbalarni qidirish va o‘rganish yo‘llarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi

Javob	1	2	3

#### **V. G‘oyaviylik va dunyoqarash terminlariga oid izohlarning mosini aniqlang.**

1. Ijtimoiy hayotning in’ikosi. Olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilish

2. Falsafiy, ilmiy, ijtimoiy, tarixiy, estetik qarashlarni ifodalaydi.

3. Adabiy asarda ifodalangan ijodkorning kitobxonga aytmoqchi bo‘lgan fikri.

4. Ijod jarayonida san’at asarining g‘oyaviy yo‘nalishini, uning ijtimoiy-estetik ahamiyatini belgilaydi.

5. Yozuvchi dunyoqarashi asosida zohir bo‘luvchi, badiiy asarning ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatini belgilovchi omil.

Javob	Dunyoqarash	
	G'oyaviylik	

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев.— Тошкент: «Mumtoz so‘z», 2015. – 664 б.
2. Иброҳим Ҳаққул. Мушоҳада ёғдуси. Адабий ўйлар, хикматлар, лутфлар. — Т.: Тафаккур, 2019. – 256 б.
3. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 308 b.
4. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_milliy_ensiklopediyasi)
5. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018. – 478 b.

## BADIY ADABIYOT SAN'AT TURI SIFATIDA

### Reja:

1. San'at tushunchasi.
2. Badiy adabiyot – so‘z san’ati.
3. Adabiyot va hayot.

**Tayanch tushunchalar:** badiy adabiyot, badiy asar, badiylik mezonlari, san'at, didaktika, kompensatorlik, badiy-kontseptual, kommunikativ, badiy bashorat, iste'dod, xosiyat, an'ana va yangilik, mahorat, ta'sirdorlik.

San'at – «sun», ya‘ni «yaratmoq» so‘zidan olingan bo‘lib, badiylik yaratish demakdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida terminga quyidagicha ta’rif berilgan: san’at [a. – ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar] – ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlilik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi ayrim sohasi. Tasviriy san’at. Me’morlik san’ati.

XX asr boshlariga kelib dunyoning barcha borliq narsalariga bo‘lgan munosabatlarning o‘zgargani kabi so‘z san’atiga nisbatan ham qarashlar o‘zgardi. Endi uni *tabiatga taqlid* (Arastu), *ob’ektiv borliqning sub’ekтив ifodasi* (Hegel), *kishilar o‘rtasidagi tuyg‘u yetkazish vositasi* (L.Tolstoy) deb bilishlik bilan cheklanmay so‘zning kommunikativ imkoniyatlarini birinchi navbatga olib chiqishlar bo‘ldi. Forobiyning «Kitobu-sh-she’r» asarida Arastu hakimning «Fi sano‘ati-sh-she’r» («Poetika») asarida aytilgan fikr-mulohazalarni sharhlab, yunon she’riyatiga taalluqli bo‘lgan nazariy muammolar bayon qilinadi: «Bu san’atda shoirlikning tanlanishi odamda juda ham ulkan boylik sanaladi. Bu xuddi hozirgi zamondagi ba’zi shoirlar qilmishiga o‘xshab ketadi. Agar bir so‘zni she’rda boshqa so‘zga qofiyaday qilib qo‘yib, oldingi baytda lozim bo‘lgan narsalarni yoki tasvirlash niyatida bo‘lgan narsalarni yarata olsa, u holda odamda huzurbaxsh holat paydo bo‘ladi. Bu san’at ahli bilan rassom san’atida qandaydir munosabat bor. O‘sha ikkala yaratilgan narsada – ularning shakllarida va mazmunlarida bir-biriga muvozanat, o‘xshashlik hamda farq bor. Ammo ikkalasi ham odamlar tasavvuri va sezgilarida bir maqsadga, taqlid qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi» – deb izohlaydi

alloma Arastu hakimning *mimesis* nazariyasini<sup>1</sup>.

So‘z san’ati – adabiyot asosida ham badiiylik turadi. Adabiyot asarlarida hayot hodisalar o‘z ko‘rinishida emas, balki o‘zgartirilgan, boyitilgan holda aks ettiriladi. Shoir, adiblar ko‘rgan-kechirgan, eshitgan, xayolan tasavvur etgan voqealarini o‘zlarining hissiyot, kechinmalari bilan boyitishadi. Shuning uchun odatdagi voqealar ham she’r, hikoya, qissa, roman, dramalarda quvontiradigan yoki g‘azablantiradigan tarzda ko‘rinadi.

Adabiyot boshqa san’at turlari kabi millatning ruhi, qalbidir. Hatto boshqa san’at turlariga qaraganda xalq qalbiga ko‘proq daxldor va yaqin. Tarixda yuz yillab tasviriy san’atsiz, musiqasiz, kinosiz yashalgan zamonlar bo‘lgan, ammo inson tamaddun doirasiga kirdandan, ijod zavqini tuyib, ijod qilgandan beri adabiyotsiz, uning yo og‘zaki, yo yozma shaklisiz biron o‘n yil ham mavjud bo‘lollagan<sup>2</sup>. «Ma’lumki, san’at, shu jumladan, so‘z san’ati – adabiyot ham kishilarning ongiga his orqali – yurak orqali ta’sir qiladi... Yozuvchi o‘zi his qilmagan narsa to‘g‘risida yozsa, buni o‘qigan o‘quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. O‘quvchining qalbiga ta’sir qilmagan narsaning adabiyotga hech tegishliligi yo‘q<sup>3</sup>. Ernest Xeminguey o‘z tajribasidan kelib shunday degan edi: «Faqat o‘zing yaxshi o‘rgangan, yaxshi biladigan narsalar haqida yozish, yozganda ham samimiyl va rost yozish kerak; tasvirlangan holat inson qalbini o‘rtab yuborsin, voqelikni baholashga yordam bersin, o‘quvchi boshidan kechirgan voqelikning bir qismiga aylanib qolsin».

Mario Vargas Losa «Mutolaa va adabiyot vasfi» mavzusidagi Nobel ma’ruzasida badiiy adabiyotga shunday ta’rif bergan: «Adabiyot – hayotning yolg‘ondakam tasviri, lekin u borliq mazmunini anglashda ko‘makka keladi, inson tug‘ilib, adashib-ulqoqib, axiyri o‘lim topadigan uch-keti yo‘q turmush so‘qmoqlarida sarbon yanglig‘ yo‘l ko‘rsatadi. Real voqelikdagi omadsizlik va dilsiyohliklarni unutishga

<sup>1</sup> Болтабоев Х. Бадий сўз табиати./<http://hozir.org/badiiy-soz-qudrati.html>

<sup>2</sup> Nazar Eshonqul: Adabiyot inson qalbi uchun kurashdir. Xurshid Davron Id-hayot. ron.uz/nazar-eshonqul-adabiy ot-inson-qalbi-uchun-kurashdir.html 9/15. 26.10.13

<sup>3</sup> Умуров Х. Бадий ижод асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б. 17.

<sup>4</sup> Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – б. 20.

yordam beradi, adabiyot ko‘magida tirklikning qator jumboqlari yashirilgan maxfiy yozuvni qisman bo‘lsa-da, o‘qish mumkin, zotan, odamzod tabiatan qat’iyatdan ko‘ra shubha-gumonga moyil, aql yoki tajribaning ustunligi, shaxsiy va jamoaviy vazifalar, ko‘ngil amri, moziyning ma’nisi va ma’nisizligi, tafakkurning o‘zgarib turishi kabi masalalar ko‘pincha bizni boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘yadi».<sup>1</sup>

Badiiy ijod tabiatni, ijodkor dunyoqarashi, poetik tafakkur ko‘lamni, adabiy janrlar, badiiy tasvir vositalari, san’at asarida ijodkor shaxsining namoyon bo‘lishi, voqelikni tasvirlash usullari, shuningdek, badiiy uslub haqida turli-tuman fikrlar mavjud.

Arastu «Poetika»sining «Tasvirlashning turli vositalari» deb nomlanuvchi qismida shunday fikr mavjud: «Ba’zi kishilar mahorat, ba’zilar malaka sababli, yana ba’zilar tug‘ma iste’dodlari tufayli bo‘yoqlar va shakllar yordamida ko‘p narsalarning tasvirini – o‘xshashini yaratadilar. Hozirgina eslab o‘tilgan san’atlarning hammasida ham alohida yo ritm, yo so‘z va yoxud garmoniya yordamida yoki shularning hammasi uyg‘unligida tasvirlaydilar».<sup>2</sup> Arastu ta’rifiga ko‘ra, san’at asari hayotda mavjud voqeа-hodisalarни badiiy-estetik idrok etish, ularning o‘xshashini turli vositalar yordamida aks ettirish orqali dunyoga keladi. Badiiy adabiyotda bu jarayon, shubhasiz, so‘z orqali amalga oshadi. Badiiy tasvirga yo‘naltirilgan so‘z muayyan tartib, mantiqiy izchillik, poetik bo‘yoqdorlikni talab etadi.

Hayot adabiyotning mazmunini tayin etadi. Binobarin, badiiy asarlarning har birida hayotdan olingen taassurot va mazmun asarning shaklini ham tayin etganini ko‘rish mumkin. Hatto badiiy asar hayotda bo‘lishi mumkin bo‘Imagan hodisalarни tasvirlaganda ham baribir uning asosi, manbai – hayotdir. Jon Golsuorsining ta’kidlashicha, so‘z tuyg‘u.i, nutq ohanglari va ranglarini his etishni she’r o‘qish va yaxshi proza asarini mutolaa qilish orqali o‘stirsa bo‘ladi, ammo bu xususiyatlar, yaxlit ohangda, tug‘ma did va musiqiy tuyg‘uga bog‘liq. Hech kim yozuvchini hayotni bunday kuzatmaslikka va bunday his etmaslikka, balki boshqacha his qilib, boshqacha ko‘rishga

<sup>1</sup> <http://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/mario-vargas-losa-mutolaa-va-adabiyot-vasfi.html> Mario Vargas Losa. Мутолаа ва адабиёт васфи

<sup>2</sup> Арасту. Поэтика. Поэзия санъати ҳакида. – Т.: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 1980. – Б. 7.

majburlay olmaydi. O‘qish va yozishni o‘rganganidan so‘ng ijodkor boshqalardan faqat bir narsani, ya’ni qanday yozmaslik kerakligini o‘rganmog‘i mumkin. Yozuvchining haqiqiy ustozi hayotning o‘zidir. «San’atkor bizga ma’lum hodisalarni va voqealarni o‘z badiiy tafakkuri orqali yorqin bo‘yoqlarda tasvirlab, shu hodisalarga o‘zining munosabatini ham bildirib o‘tadi»<sup>1</sup>.

Kishi ongi bilan hayot orasidagi munosabatlar aniq amaliy mazmunga ega, ya’ni odam tabiat va jamiyat qonunlarini faqat bilib qo‘yish uchungina emas, balki o‘z hayotini saqlash va yaxshilash, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ham o‘rganadi. Adabiyot ham shunday o‘rganishning bir shaklidir. Badiiy usarlarda yozuvchi o‘zi aytmoqchi bo‘lgan g‘oyani o‘quvchiga bayon etishdan avval va, ko‘pincha, bu g‘oyani butunlay bayon etmay, bizning ko‘z oldimizda hayot manzarasini namoyon qiladi. Bu manzara shunday tasvirlanadiki, biz yozuvchi bilan birga hayotning hamma ikir-chikirlarini ko‘ramiz, kishilarning hayotida sodir bo‘lgan hodisalar va psixologiyasidagi o‘zgarishlarning guvohi bo‘lamiz. Adabiyotda hayot jo‘ngina aks etmaydi. Hayotning adabiyotdagи in’ikosi – bilingan, anglangan, ma’noli in’ikosdir. «Tarkibida «hayot» deb atalmish sehrli buyumdan asar ham bo‘limgan nimaiki bo‘lsa, hammasini Vaqtning ko‘z ilg‘amas shamollari uchirib ketadi. Adabiyot bo‘lmoq uchun asar o‘zida chinakam individuallik muhriga ~~egli~~ bo‘lmog‘i kerak. Mohiyat-e’tibori bilan bunday asar o‘zidan avval yaratilgan bironqa asarga o‘xshamasligi lozim. Hayot bo‘ronlaridan yuqoriroq ko‘tarilishga qobil bo‘lgan san’atning ildizlari ancha teran bo‘ladi va u jo‘shqin hamda ardoqli tuyg‘ularga asoslanadi»<sup>2</sup>.

### Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot boshqa san’at turlari kabi millatning ruhi, qalbidir. Hatto boshqa san’at turlariga qaraganda xalq qalbiga ko‘proq daxldor va yaqinligini izohlang.
2. Badiiy adabiyotning o‘ziga xosligini boshqa san’at turlari,

<sup>1</sup> Хрищенко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. — Москва: Писатель. 1975. — С. 58.

<sup>2</sup> Гонсурен Ж. Адабиёт ва хаёт./ Жаҳон адаблари адабиёт ҳакида. Озод Шарифиддинов таржималари. — Ўзбекистон: Маннаният, 2010. — Б. 70-71.

masalan, musiqa va rangtasvir bilan qiyoslang.

3. Badiiy adabiyotni kino va teatr san'ati bilan qiyoslang, o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsating. Kino va sahna asari tomosha qilinadi, adabiy asar o'qiladi. Badiiy asarni ikki xil yo'sinda qabul qilishning farqli tomonlari nimada? Insonning ma'naviy-ruhiy yuksalishida bulardan qaysisi kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin?

4. Adabiyot – hayotning yolg'ondakam tasviri, lekin u borliq mazmunini anglashda ko'makka keladi. Buni o'zingiz o'qigan asarlar misolida tushuntirib bering.

5. Nega tarkibida «hayot» deb atalmish sehrli buyumdan asar ham bo'Imagan nimaiki bo'lsa, hammasini Vaqtning ko'z ilg'amas shamollari uchirib ketadi?

### **Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan test topshiriqlari**

#### **I. Atamalar raqamini ularning ta'rifi bilan juftlang.**

1	Badiiy adabiyot	A	Borliq va inson siyimosini obrazli tasvirlash prinsiplaridan biri. Syujet takomili va kompozitsion markaz talabiga ko'ra qo'llaniladi. Masalan: A.S. Pushkin ertagida baliqchi chol yuvvoshligi va kampirining qanoatsizligini ko'rsatish uchun syujetga sehrli tilla baliqcha obrazining kirib kelishi shart edi.
2	Badiiy shartlilik	B	Og'zaki yoki yozma shakldagi badiiy so'z san'ati.
3	Badiiy to'qima	D	Adabiyot va san'atning biror tarixiy taraqqiyot bosqichida badiiy ijodga xos bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir qancha barqaror xususiyatlari, asosiy vosita va prinsiplari.
4	Badiy uslub	E	Yozuvchining turmush hodisalarini kuzatishi va o'z tajribalari asosida, hayotda aynan uchramaydigan, lekin uchrashi mumkin bo'lgan voqeja va kishilar obrazini badiiy fantaziya yordamida gavdalantirish.

5	Folklor	F	<p>Hayotni badiiy aks ettirishning zaruriy shartlaridan biri. San'at va uning turlari qaysi shaklda bo'lmasini, inson va u bilan bog'liq xatti-harakat hamda holatni aks ettiradi. Shu ma'noda inson va uning ko'p qirrali hayoti san'atning hamma turlari uchun asosiy ob'ekt hisoblanadi. Badiiy ijodda, ya'ni san'at va uning barcha turlarida inson, uning hayoti umumiy tarzda emas, balki konkret tarixiy sharoit, muhit zamirida yuzaga kelgan xarakter sifatida badiiy tahlil etiladi yoki tasvirlanadi. Bu orqali ijodkor u yoki bu davrga xos kishilar obrazini konkret xarakterlar vositasida mukammal aks ettira oladi.</p>
6	Lakonizm	H	<p>Fikrni ixcham, muxtsar va lo'nda bayon etish. Lo'ndalik badiiy ijodda muhim o'rinni tutadi. Shuning uchun ham lo'ndalik o'z navbatida obrazlilikni inkor etmaydi, aksincha, u ifodaning aniq yo'nalganligini, tasvirning jontiligini ta'minlab, o'quvchining asarga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Ko'p asrlardan buyon xalq orasida qo'llanilib kelinayotgan maqollar fikrini lo'nda ifodalashi bilan diqqatga sazovordir. Masalan, <i>halol ish – lazzatli yemish</i>.</p>
7	Individuallash-tirish	G	<p>Xalqaro miqiyosda keng tarqalgan bo'lib, Angliya, Fransiya, AQSh va boshqa ayrim mamlakatlarda xalq og'zaki badiiy ijodining turli sohalarini: og'zaki poeziya, xalq musiqasi, xalq raqsi, xalq naqqoshligi, og'zaki nasriy asarlar, xalq urf-odati va rasm-rusmlari, e'tiqodi bilan bog'liq asarlarni ifodalaydi. O'zbek adabiyotshunosligida bu termin o'rniga «og'iz adabiyoti», «el adabiyoti», «og'zaki poeziya» kabi atamalar qo'llanilgan. Qadimda u miflarga o'xshash sinkretik xarakter kasb etgan. Keyinchalik unda so'z san'ati yetakchilik qilishi natijasida sinkretiklik xususiyatini xalq qo'shiqlarida, do'mbira ijrosida aytiluvchi dostonchilik san'atida va ayrim mavsum-marosim yoki bolalar adabiyotida saqlab qolgan.</p>

8	San'at	J	San'at va adabiyotda badiiy asar yaratish vositasi va shartlaridan biri. Ijodkor biror asar yaratara ekan, albatta, hayotiy haqiqatlar asosida xayol suradi. U o‘z asarini, avvalo, miyasida, ya’ni tasavvurida yaratadi. Odatda badiiy ijod kishilarining xayoli keng va kuchli bo‘ladi. Ijodkor xayol kuchiga, tasavvur qibiliyatiga ega bo‘lgani uchun ham uzoq o‘tmish, olis kelajak haqida badiiy asarlar yarata oladi.
9	Tasavvur	K	Badiiy ijodning eng muhim shartlaridan biri. Ijodkor biror badiiy asar yaratara ekan, avvalo hayotiy faktlarni o‘z maqsadiga muvofiq saralaydi. Saralangan faktlarni ijodiy xayol tufayli yaxlit holga keltiradi. Haqiqatda bilmagan, ammo bilishi mumkin bo‘lgan hayotiy voqealar, obrazlarni o‘z asariga kiritadi. Bu voqe va obrazlar o‘zarbo‘lgan, ya’ni to‘qilgan bo‘ladi. Hayotiy fakt va ijodiy xayol badiiy asar yaratishning asosiy shartlaridir. Ijodiy xayol tufayligina yozuvchi individuallik va umumiylikni birlashtira oladi.
10	To‘qima	L	Borliqni badiiy obrazlar orqali ijodiy aks ettirish usuli. Ijtimoiy ong shakllaridan biri, insoniyat ruhiy madaniyatining alohida turi.

Javob									

## II. Asarlar muallifini aniqlang va har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

- 1) «Arbain»; 2) «Anor»; 3) «Xamsa»; 4) «Mubayyin»; 5) «Surat va siyrat»; 6) «Lison-ut tayr»; 7) «Onajon»; 8) «Dahshat»; 9) «Yulduzlar mangu yonadi»; 10) «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi»; 11) «Boburnoma»; 12) «Sohibqiron»; 13) «Xamsa»; 14) «Otamdan qolgan dalalar»; 15) «Obid ketmon»; 16) «O’tkan kunlar»; 17) «Toshpo ‘lattajang nima deydir?»; 18) «Tarixi anbiyo va hukamo»; 19) «Nasoyimul-muhabbat»; 20) «Munojot»; 21) «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan»; 22) «Ot kishnagan oqshom».



Javob

### III. Parchalarning qaysi asardan olinganligini aniqlang va mutanosiblikni ta'minlang.

1.	Bundan uch oy ilgari qong'ib-qong'ib bu shaharga kelganida, yigirma besh dinor puli hor edi. Tejab-tergab xarajat qilish orqasida bu maiblag'ni ancha cho'zdi. Mana endi qariyb ikki hatfiadan buyon tangasiz xunob... va'dani quyuq qilib ba'zi qassoblardan, oshpazlardan bir necha dinor qarzga ham ilindi. Sotligudek narsadan unda sopi fil tishi va kumush bilan ishlangan bir xanjargina bor. Lekin To'g'onbek ochdan o'tishga rozi bo'lsa ham bu buyumdan ajralishni istumasdi.	A.	«Padarkush» (drama-tragediya). Mahmudxo'ja Behbudiy
2.	Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladи. Muz tagida loyqalanib oqqa suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zları horq'in-horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul amguri erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Somyog'ochlarning uchlarida yulka-yulka qushlar ko'rina boshladи. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlurni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi...	B.	«Ikki eshik orasi» (roman). O'tkir Hoshimov

3.	Mani xayolimga dunyoning sababi, izzati – boylik. Oxiratga bo'lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyini mulladan ziyoda izzat qildurlar. Xususan, mana, banklar ko'paydi. Katta boyolar chilen bo'lub, har kim chilenlarni izzat qilur, hatto ishi tushaturganlar chilen molini qimmat olur. Azbaski, chilen ittifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so'ngra muomaladorlar sinib, mayda-mayda bo'lur, bildingizmi?	C.	«Hayotga muhabbat» (hikoya). Jek London
4.	Darbozasi sharqi-janubiya qaratib qurilgan bu dongdor saroyni Toshkand, Samarcand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to'la. Saroy ahli kunduzgi ishkuchlaridan bo'shab hujralariga qaytganlar, ko'p hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, shuning uchun kunduzgiga qaraganda saroy jonliq...	D.	«Navoiy» (roman). Oybek
5.	Peshindan keyin nuqul o'ng qovog'im uchaveradi. Qurib kestin! Shu ko'zim uchsa, xafa bo'laman. O'zimni chalg'itish uchun tappi qildim, hovlini chalib chiqqan bo'ldim. Dilim o'Igor hech yorishmaydi. Dardimni aytay desam, Robiya ham ishda. Qizim bechoragayam qiyin. Erta ketadi, kech keladi. Qiz bola boshi bilan traktor haydaydi. Bashoratxon o'zi yaxshi juvon-ku, jahli tezroq. Achchig'i chiqsqa, eriniyam nari oborib, beri opkeladi.	E.	«So'nggi saboq» (hikoya). Alfons Dode
6.	Havo juda ochiq va iliq edi... O'rmon chetida sayroqi qorayaloqlarning kuylayotgani, Taxta y'onish zavodi ortidagi River o'tlog'ida nemislarning safda yurish mashg'ulotlarini bajarayotganlilari eshi-tilib turardi. Bularning bari meni darsdag'i sifatdosh qoidalaridan ko'ra ko'proq o'ziga jalb qildi, lekin men o'zimni qo'liga olib, maktabga yugurdim.	F.	«Kecha va kunduz» (roman). Cho'lpox

7.	Tun bo'yisi kasal bo'ringin y'otalishi va ba'zan bug'u bolalarining ma'rashi eshitilib turdi. Atrofda hayot qaynamoqda, u kuch-quvvatga to'la, sog'lon hayot. U esa orqasidan kasal bo'ri ergashib kelayotganini, kasal odam avval o'ladi degan umidda ekanligini tushunar edi. Ertalab turib qarasa, bo'ri unga g'amgin va ochko'zlik bilan tikilib turibdi.	G.	«Asrga tatigulik kun» (roman). Chingiz Aytmamatov
8.	Ona Bayit qabristonining o'z tarixi bor. Rivoyatga ko'ra, o'tgan zamonlarda Sario'zakni bosib olgan jungianglar asirga tushgan jangchilarga nisbatan behad shafqarsizlik qilishar ekan. Ular kezi kelib bunday tutqunlarni qo'shni o'lkalarga qul qilib sotib yuborishar ekan. Bu tutqunning omadi kelgan hisoblanar ekan. Chunki sotib yuborilgan qul ertami-kechmi, bir kun o'z vataniqa qo'chib ketishi mumkin ekan-da.	H.	«O'tkan kunlar» (roman). Abdulla Qodiriy

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.

#### IV. Ketma-ketlikning mosini toping. Keltirilgan asarlar qaysi janrga mansub.

1.	Doston	A	«Oqqushlar, oppoq qushlar»
2.	She'riy to'plam	B	«Devbachcha»
3.	Hikoya	C	«Men, buvim, Iliko va «Illarion»
4.	Qissa	D	«Shamolni tutib bo'lmaydi»
5.	Ertak	E	«Kapitan Gastello»
6.	Roman	F	«Akatsiya gullagan joyda»
7.	Roman	G	«Faust»
8.	Roman	H	«Venera va Adonis»
9.	Roman	I	«Boris Godunov»
10.	Doston	J	«Antigona»
11.	Drama	K	«Xotiram sinqlari»
12.	Ertak	L	«Chorak asr devoni»
13.	She'riy to'plam	M	«Televizorga kirib qolgan Jip»
14.	Drama	N	«Temur Malik»
15.	Doston	O	«Robinzon Kruzo»
16.	Drama	P	«Tilsim saltanati»
17.	Hikoya	Q	«Kimning tashvishi yo'q»
18.	Qissa	R	«Yo'qtganlarim va topganlarim»

19.	Hikoya	S	«Yułduzlar mangu yonadi»						
20.	Qissa	T	«Hayotga muhabbat»						

<b>Javob</b>	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.
	11.	12.	13.	14.	15.	16.	17.	18.	19.	20.

**V. Obrazli ifoda terminiga berilgan to'g'ri izohni aniqlang va javoblar jadvaliga ha yoki yo'q so'zlarini yozing.**

1. Badiiy asar tiliga xos tasviriylik va obrazli nutq bilan bog'liq tushuncha: narsa, hodisa va insonning muayyan vaziyatdagi holati va o'ziga xos xususiyatini yaqqol tasavvur etishga, ijodkor fikrlari va his-tuyg'ularini obrazli ifodalashga imkon beradigan shoirona ibora.

2. Obrazli ifoda ma'noni konkret tushuntirish, voqeа va manzaralarni jonlan-tirish hamda fikrni badiiy tasvir etish vositalari orqali anglatish yo'li bilan yaratilib, kitobxonda konkret tushuntirish hosil qiladi, uning fikri va tasavvuriga estetik ta'sir ko'rsatadi.

3. Se'a't va adabyotda hayotni o'ziga xos badiiy shaklda aks ettirgan manzara va xarakterlar.

4. O'z xarakteri va mazmuniga ko'ra juda murakkab va ayni paytda keng qamrovli tushunchadir.

5. Bu termin faqat adabiyot va san'atda birmuncha chegaralangan ma'noda - faqat insonga nisbatan ishlatalidi. Shuning uchun ham adabiyot va san'atdagi qolgan barcha narsalar inson uchun xizmat qiladi.

<b>Javob</b>	1	2	3	4	5

#### **Foydalaniman adabiyotlar:**

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 352 б.

2. Болтабоев Х. Бадиий сўз табиати./<http://hozir.org/badiiy-sozqudrati.html>
3. Голсуюрси Ж. Адабиёт ва ҳаёт./ Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. Озод Шарафиддинов таржималари. – Т.: Маънавият, 2010. – 390 б.
4. Nazar Eshonqul: Adabiyot inson qalbi uchun kurashdir» Xurshid Davron kh-dav ron.uz/nazar-eshonqul-adabiy ot-inson-qalbi-uchun-kurashdir.html 9/15
5. Умурев Х. Бадиий ижод асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 120 б.
6. Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Писатель. 1975. – 477 с.
7. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:\\_O'zbek\\_badiiy\\_san'at\\_turlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:_O'zbek_badiiy_san'at_turlari)

## BADIYLIK – ADABIYOTNING ASOSIY XUSUSIYATI

1. Badiylik – bezavol yangilik.
2. Badiylik mezonlari.
3. Badiiy asar va unga xos xususiyatlar.
4. Badiiy adabiyotning vazifalari.

*Tayanch tushunchalar: badiylik mezonlari, badiiy to'qima, ijitimoiy, evristik, konseptuallik, emotsiyal (hissiy tarbiya berish), estetik zavq berish, muloqotga kirishish, axloqiy tarbiya, badiiy matn.*

Badiylik – go'zallik, ohorlilik, nafislik demakdir. Shu sababli «badiylik» atamasi adabiyotning eng nozik jihatni bilan aloqador. Yangilik asarning mazmuni hamda shakliga ham tegishlidir. Yangi narsa esa ohorlidir, diqqatni tez tortadi va jozibali ham maftunkordir, chunki u ma'naviy ehtiyoj tufayli kelib chiqadi. Ma'lumki, adabiyot go'zallik qonunlari to'g'risida bahsyuritadi va shu o'zanda rivoj topadi, go'zallik ichki va tashqi bo'ladi, ikkalasi uyg'un holda yashaydi. Bu hol badiylik bilan aloqador ekanligi tabiiy hodisa, chunki badiylik, yangilik ma'nodan, shakldan, go'zallikdan tashqarida yashay olmaydi. «Xudojnii» so'zi – umelets, ya'ni «mohir» degan ma'noni bildiradi, «xudojestvennost», ya'ni badiylik shu so'zdan yuzaga kelgan. «Badiylik» atamasi Yevropada dastlab Gegelda uchraydi, Rossiyada XIX asrda paydo bo'ldi. 20-30 yillarda Abdurahmon Sa'diy, Fitrat asarlarida, o'quv qo'llanmalarida «badiylik» atamasi o'rniда «nafis», «nafislik», «nafis adabiyot» atamalari qo'llanilgan (nafis, ko'pligi nafoyis, nozik, bejirim, ko'rkmak demakdir)<sup>1</sup>. Har qanday san'at asari markazida hamisha badiiyat turadi. Mazmun-shakl mohiyati san'at va adabiyotda badiiyat ehtiyojidan kelib chiqadi ... badiiy mushohada asosini muallif nuqtai nazari va munosabat xarakteri belgilaydi.

F.M. Dostoevskiy fikricha, «...badiylik, masalan, aqalli roman-navisni olsak, o'z fikrini romandagi shaxslar va obrazlarda shuncha aniq ifoda etish iste'dodidirki, kitobxon romanni o'qib, yozuvchi o'z asarini yaratib, o'z fikrini qanday tushungan bo'lsa, xuddi shunday

<sup>1</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 3-4.

tushunadi». Rodnyanskaya e'tiroficha, «Badiiylik – san'at sohasiga oid bo'lgan ijodiy mehnat samarasini belgilovchi ichki (tuzilishga oid) xususiyatlarning murakkab yig'indisidir»<sup>1</sup>.

Gegel adabiyotda mahorat va uning ta'sir qudratini, Dostoevskiy esa iste'dod masalasiga alohida urg'u bergan. V.G. Belinskiy fikricha, poetik asarning qiymatini belgilovchi o'lchov uning voqealikka inosligidir, Chernishevskiy nazdida, «Faqat haqiqiy ideani mujassam-lashtirgan asargina, agar shakli mazmuniga mutlaqo mos kelsa, badiiy bo'ladi».

Badiiylik – borliqni aks ettirishning, insonning olamga bo'lgan estetik munosabatlarini ifodalashning o'ziga xos shakli. Bu usulda anglangan voqelik qayta ishlaniib, san'at obrazlari orqali aks ettiriladi. Binobarin, badiiy obraz – voqelikni aks ettirishning badiiy vositasidir. Voqelikni nafosatli tarzda qayta anglash, qadriyat sifatida ifoda etish jarayonida san'atkorning nafaqat tafakkuri, balki hissiy idroki ham faol qatnashadi. Shu boisdan badiiy obraz bir vaqtning o'zida ham jonli voqelikning aksi, ham san'atkori o'zligining ifodasidir. Demak, badiiy obrazni real hayot hodisalarini bilan almashtirish ham bilishning ratsional bosqichi bo'lgan tafakkurga butkul bog'lab qo'yish ham durust emas<sup>2</sup>. Matyoqub Qo'shjonov badiiyat qonuniyatlar deb mazmun va shakl birligi, konflikt, syujet, kompozitsiya, qahramon, til va boshqalarni tushunadi<sup>3</sup>. Ozod Sharafiddinov «Xarakter – badiiylik mezonii» degan maqolasida shunday deydi: «Xarakter – adabiyotning badiiyligini, ta'sir kuchini ta'minlaydigan asosiy omillardan biridir... Xaraktersiz badiiy asar yo'q... Qahramon xarakteridagi biron belgini me'yordan tashqari bo'rttirish, bo'yoqni haddan ziyyod quyuq ishlatish xarakterning ichki mohiyatini buzadi, uni yaxlitlikdan, garmoniyadan mahrum etadi, ta'sir kuchini qirqadi<sup>4</sup>. **Xarakter yaratish badiiylikning o'zak masalasi** deb qarashimizning boisi shundaki, xarakter badiiy ijodning juda ko'p unsurlari (syujet, kompozitsiya, til kabi)ni

<sup>1</sup> To'ychiyev U. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning marommlari (tadqiqot nesli o'qiv qo'llanmasi) –T.: “Yangi asr avlod”, 2011. 4-bet.

<sup>2</sup> Ўйинчиев Ш. Ижодкор дунёкараши ва бадийи услуб. – Т.: Академия, 2009. – Б. 9.

<sup>3</sup> Еунжонов М. Мохият ва бадиият. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. – Б. 14

<sup>4</sup> Шарифиддинов О. Ҳақиқатга садоқат. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б.

o‘zida jamg‘aradi, to‘g‘risi o‘ziga «ishlash»ga majbur qiladi.<sup>1</sup>

Badiiy adabiyotning badiiyligini ta’minlovchi asar kompozitsiyasi, syujet chiziqlari, arxitektonikasi kabi poetik unsurlar ham, tildagi «go’zallikni vujudga keltiruvchi javharlar» orqali o‘z ifodasini topadi. Faqat ularning quvvati ijodkor mahorati, uslubi bilan turlicha ta’sir doirasiga ega bo‘ladidi<sup>2</sup>.

Badiiylik darajasini belgilashda ikki narsaga alohida ahamiyat beriladi, biri shuki, asar qaysi ijodiy metodda yozilganligini hisobga olish lozim; ikkinchisi shuki, badiiylik darajasi aniqlanuvchi asar adabiy jarayon, adabiy tanqid, kitobxonlar anjumani, davr yo davrlar sinovidan o‘tgan bo‘lishi shart.

Kitob kishini dunyoni tushunishga va yashashga o‘rgatadi. Badiiy asar ham tabiat va jamiyat tashidagi boshqa kitoblar qatori inson hayotida juda katta o‘rin tutib keldi va bundan keyin dam shunday bo‘lib qoladi. Badiiy asar har qanday kitobdan ko‘p o‘qiladi, jamiyatning hamma qatlamlari va hamma yoshdagi odamlar badiiy adabiyotga murojaat etadilar. Badiiy asar hayotning kishi ongidagi in’ikosi tariqasida maydonga keladi. Yozuvchi badiiy asarida inson obrazini va hayot manzarasini eng muhim, xarakterli xususiyatlari bilan tasvirlab berish uchun, to‘qimaga murojaat etadi. Badiiy asarning mazmuni hayotdagи hodisalarning jo‘n nusxasi emas, balki hayotiy hodisalarga suyanib, ularni estetik ideal nuqtai nazaridan baholab turib, san’atkorning fantaziyasi vositasi bilan yangidan yaratilgan hayot manzarasidir. Estetik ideal – badiiy ijodga xos eng muhim tushunchalardan biri bo‘lib, u ijodkorning xohishi, istagi asosida yotuvchi narsa yoki shaxsning qanday darajada bo‘lishini anglatadi. Aniqrog‘i, obrazning yozuvchi tasavvuridagi ko‘rinishi, uning aniq namoyon bo‘lishi estetik ideal tushunchasining asosiy mohiyatini belgilaydi. Bunda voqelik tarixiy zaruriyat qonuniyatlarini asosidagina emas, balki go‘zallik qonuniyatlarini nuqtai nazaridan ham tasvirlanadi. Ijodkor har bir obrazni estetik normalar asosida badiiy jihatdan mukammal yaratibgina qolmay, ayni bir vaqtning o‘zida shu obrazga o‘z munosabatini ham bildiradi, ya’ni uni yo tasdiqlaydi, yo

<sup>1</sup> Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariysi. – Samarcand, 2012. – В. 48.

<sup>2</sup> Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек киссаларида бадиий услуб муаммоси (Шоим Бўтаев ва Назар Эшонқул киссалари мисолида): Филол. фан.фал. д-ри ...дисс. – Т., 2017. – Б.85.

inkor etadi. Estetik ideal ijodkordan hamma vaqt hayotiy haqiqatning badiiy asar maqsadiga mos bo‘lishini talab etadi. Har bir badiiy asar yozuvchisi xayolida hayotiy taassurotlardan paydo bo‘lgan yangi bir dunyodir.

Fitratning e’tiroficha, adabiyot — fikr, tuyg‘ularimizdagи to‘lqinlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqinlarni yaratmoqdir. Bu ta’rif adabiyotning to‘g‘ri ta’rifidir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladir. Badiiy matn — yozuvchi ijodining mahsuli. U harflar, bo‘g‘inlar, so‘zlar, birikmalar, gaplar, parchalar, boblar tarzida moddiy ashyoga qayd etiladi. Fursat, vaqt, zamon o‘tgach, mo‘jiza ro‘y beradi: moddiy ne’mat tarzida paydo bo‘lgan matn ma’naviy-ruhiy ne’mat, qadriyatga aylanadi. Uning nomi san’at asariga aylanadi. U harflar, bo‘g‘inlar... ila yozilganligi unutiladi. Qachonlardir mashhur san’atkor tomonidan yaratilganligiga ishonila boriladi. Yaratilgan san’at asari — maftunkor, mangu olam sifatida odamzotga tanila boradi: qalblardan qalblarga, yurtlardan yurtlarga, zamonlardan zamonlarga o‘tadi<sup>1</sup>. Go‘zal va mukammal badiiy asardan boshqa bir narsaning adabiyotga keragi yo‘q. Adabiyot, eng avvalo, inson ruhiga sayohatdir. Shuning uchun adabiyot yo‘li — sir yo‘li, ilohiy go‘zallik va hayrat yo‘li. Asrlar mobaynida badiiy ijodda nima kashf etilgan bo‘lsa, ularning hammasi ruh va ko‘ngil olamiga kirib borish va sayohat qilishdan yuzaga kelgan<sup>2</sup>.

A.Rasulov badiiylikni inson ruhidagi yangilikni chuqur his etish, uni mangu bezavol qilib tasvirlashdir, deyata’riflaydi. Badiiy adabiyot inson borlig‘i va mehvarida sodir bo‘ladigan yangiliklar aks ettirilgan mo‘jizadir. Uning bezagi esa timsollar hisoblanadi<sup>3</sup>. A.Ulug‘ovning e’tiroficha, badiiylik hodisalarini hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta’sirlantiradigan, unda tasavvur uyg‘otadigan qilib tasvirlashdir. Badiiylik barcha san’at turlariga xos hodisadir. Badiiyiksiz san’at yo‘qdir. San’atning mavjudligi, mohiyati uning badiiyligidadir. Badiiylik shakl va mazmun mutanosibligi tufayli ta’sirchanlik kasb etadi. Adabiyotning badiiyligini ta’minlaydigan eng birinchi omil

<sup>1</sup> Рисулов А. Илми гарифани қўмсаб... – Т.: Маънавият, 1998. – Б. 47.

<sup>2</sup> Нброҳим Ҳаққул. Мушоҳада ёғдуси. Адабий ўйлар, ҳикматлар, лутфлар.

<sup>3</sup> Тағинсур, 2019. – Б. 44.

Рисулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 117.

uning tilidir. Chunki adabiyot so‘z san’atidir. Tasviriy san’at asarlariga ranglarning yorqinligi, ularning o‘z o‘rnida qo‘llanishi joziba baxsh etsa, adabiy asarni so‘z nafosatli qiladi. Adabiy asarda hayotning kundalik oddiy hodisalari so‘z tufayli yorqin, hayajonlantiradigan bo‘lib ko‘rinadi.<sup>1</sup>

H.Umurov badiiylikka quyidagicha ta’rif beradi: «Hayotni jonli va ta’sirli qilib tasvirlashning umumiy belgisi, qayta yaratilgan olamning – badiiy asarning tirikligini, mo‘jizakorligini, ta’sirchanligini ta’minlovchi universal hodisadir, ya’ni qayta yaratilayotgan hayotga jon ato etish, insoniylashtirishdir. Badiiylik – badiiy ijodning hamma unsurlarini (obraz, xarakter, tip, syujet, detal, kompozitsiya, badiiy til, ifoda-tasvir vositalari, poetik sintaksis, janr, tur, uslub, ommaviylik, xalqchillik, talant, ilhom, tasavvur va h.)ni o‘z ichiga qamrab oladi, ularning har biriga va ayni paytda, turli-tuman tarzda birlashib, yaxlitlashganlarida qon, jon va ruh ato etadi». Demak, badiiylik deganda hayotni jonli va ta’sirli qilib qaytadan yaratish san’ati, hayot hodisalari ustidan chiqarilgan «hukm», shu adolatli va insonparvar hukm ruhida tarbiyalash tushuniladi. Shunga binoan badiiyliksiz san’at (adabiyot ham)ning yuzaga kelishi mumkin emas, degan qat’iy xulosaga kelamiz. Ommaviylik va xalqchillik talantning individualligi va badiiylik adabiyotning milliyligi va umuminsoniyligini taqozo qiladi.

«Insonning ichki olami qanchalar boy va go‘zal, hayot sharobiga limmo-lim to‘la bo‘lmasin, buloq singari qanchalar qaynab toshmasin, u o‘ziga tashqi dunyo, jamiyat va insoniyatning manfaatlarini chuqur singdirib olmasa, nomukammaldir... Tirik inson o‘z ruhida, qonida jamiyat hayotini tashiydi, beixtiyor uning illatlaridan dard chekadi, uning izardiroqlaridan azob tortadi, uning salomatligidan yashnab ketadi, saodatidan baxtiyor bo‘ladi»<sup>2</sup> ekan, demak, san’atkor doimo milliydir. Uning milliyligi umuminsoniyligidan, insoniyatga muhabbatidan kelib chiqmog‘i lozim.

Adabiyotning badiiyligida bosh mezon iste’dod bo‘lsa, yordamchi mezonlar xosiyat, an’ana va yangilik, mahorat, ta’sirdorlikdir. Xosiyat

<sup>1</sup> Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 24.

<sup>2</sup> Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1977. – Б. 98.

milliy adabiyotni yaratuvchi sub'ektni anglatsa, yordamchi mezonlar milliy adabiyotning o'zi bo'l mish ob'ektni bilish va shu bilim asosida yozuvchilik ishini amalga oshirish bilan aloqador. B.Sarimsoqov ta'kidlaganidek: «Badiiylik miqdoriy hodisa emas, balki sifatiy hodisadir. Shu bois ijodkorlarga bir xildä mos keluvchi badiiylikning umumiylarini belgilab bo'lmaydi. U adabiy turlar, adabiy janrlar, ijodiy metodlar, adabiy oqim va maktablararo, individual ijodkorlararo, qolaversa, ayni bir ijodkorning turli davrlardagi asarlariaro tafovutlanuvchi hodisadir»<sup>1</sup>.

A.B. Temirbolat tomonidan tasnif etilgan badiiylik mezonlari yozuvchining badiiy mahoratini aniqlashga yordam beradi:

1. Gumanizm (insonparvarlik).
2. Estetik tuyg'uni shakllantira olish.
3. Hayotiy haqiqatga sodiqlik.
4. Chuqur mushohada.
5. Muallif g'oyasining mantiqiyligi va ijodiy fantaziyasining kengligi.
6. Umumlashtirish va tipiklashtirish qobiliyati.
7. Badiiy detallarning aniqligi va qaysidir g'oyaga xizmat qilishi.
8. Syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat.
9. Qahramonlar ichki dunyosini mahorat bilan oolib berilishi.
10. Asar tilining boyligi va rang-barangligi<sup>2</sup>.

Adabiy matn kitobxon tomonidan o'zlashtirilgach, o'quvchining o'ziga xos ijodi bilan to'yingach, badiiy asar huquqini oladi. Matn hali badiiy asar emas. Matnning badiiy asarga aylanishi – kitobxon tomonidan o'zlashtirilishi, tasdiqlanishi murakkab jarayon. Adabiyotning borliqqa chiqish shakli bu badiiy asardir. Asar matniy ko'rinishda bo'ladimi, og'zaki tarzda tarqaladimi yoki audiovizual yo'llar bilan kishilar ongi va tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadimi u, avvalo, estetik hodisa sifatida go'zallik tashuvchidir. Go'zal timsol va ezgu niyat qorishig'ida yaratilmagan asar har qancha «aqlli» va ta'sirchan bo'lgin u ezzulikka xizmat qilolmaydi. Shuningdek, badiiy asarning

<sup>1</sup> Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари, – Тошкент, 2004. – Б. 15

<sup>2</sup> Qurang' Xalliyeva G. Qiyoysi adabiyotshunoslik. – Тошкент: Mumtoz 2020. – В. 46. /Темирболат А.Б. Поэтика литературы. Учебное пособие. – Ашхабад, 2011.

yaratilishi ruhiy-amaliy jarayon bo‘lib, u o‘zgarishdagi dunyo va insonni anglashda yordam beradi. «Farzand, tabiiyki, ota-onaga o‘xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar san’atkor farzandi ekan, unda yozuvchining ruhiy holati, qarashlari, kayfiyati aks etmasligi mumkin emas»<sup>1</sup>.

Ijod jarayoni qonuniyatlarini umumlashtirgan holda adabiyotning ijtimoiy, evristik, konseptuallik, emotsiyonal (hissiy tarbiya berish), estetik zavq berish, muloqotga kirishish, axloqiy tarbiya quroli, vositasi bo‘lishlik kabi vazifalari yuzaga chiqadi:

1. Bilish (evristik) funksiyasi. Badiiy adabiyot borliqni badiiy bilish orqali bizning olam, odam va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi.

2. Badiiy-kontseptual funksiya. Badiiy adabiyot jamiyatning joriy holatini badiiy tahlil qiladi, baholaydi va u haqda yaxlit badiiy hukmni ifodalaydi.

3. Komunikativ funksiya. Badiiy adabiyot shaxslararo, avlodlararo, millatlararo muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi.

4. Axloqiy tarbiya quroli, vositasi bo‘lishlik (didaktik) funksiyasi. Badiiy adabiyot shaxsni aqlan va ruhan kamolga yetkazadi, jamiyatning ma’nан tozarishi va yuksalishiga xizmat qiladi.

5. Kompensatorlik funksiyasi. Badiiy adabiyotda inson hayotda ko‘rmaganini ko‘radi, undan o‘ziga yetishmayotgan narsalarni topadi va ruhiy qoniqish hosil qiladi.

6. Badiiy bashorat. Badiiy adabiyot kecha yoki bugunning badiiy tahlili asosida kishilik jamiyatining «erta»si haqida fikr aytadi.

7. Estetik zavq berish – odamlarning hislarini larzaga sola bilish, ularda zavq va hayajon qo‘zg‘ata bilishdir. Badiiy adabiyot insonda go‘zallik tuyg‘usini rivojlantiradi, badiiy didni tarbiyalaydi<sup>2</sup>.

Mamlakat va jamiyatlar rivoji o‘qilgan asarlarning sifat va saviyasidan tashqari, o‘sha vaqt dagi ruhiy-ma’naviy ehtiyojiga keraklik darajasiga ham bog‘liq. Nobel mukofoti sovrindori Mario Vargas Losa «Adabiyot tufayli, adabiyot uyg‘otgan tafakkur, intilish

<sup>1</sup> Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб... – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 28.

<sup>2</sup> Адабиёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев.– Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2015. – Б.192-194; Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. –В. 53-58.

va istaklar tufayli, xayolot sultanatiga safar chog‘i ko‘ngilda bosh ko‘targan kechinmalar tufayli bugungi sivilizatsiya odamiylashdi, najot topdi. Adabiyot ahli o‘ylab topgan badiiy to‘qima qumga singigan suvdek izsiz ketmadi, bil’aks, toshga aylangan yuraklarni mumdek eritdi. Yaxshi kitoblar bo‘lmaganida edi, insoniyatning bugungi holiga maymunlar yig‘lagan bo‘lardi, mustaqil fikrdan mahrum labbaychilar urchib ketardi, ko‘ngil birligi yo‘qolardi, mutelik kayfiyati keng tarqalib, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi – taraqqiyotning yetakchi omili yo‘qolardi», deb yozadi<sup>1</sup>.

Xullas, badiiy asar kitobxonni faollikka undashi, unda bahsli fikrlarni uyg‘otishi, asar muallifini munozaraga, tortishuvga chorlashi joiz. Kitob, kitobxon yozuvchi hayotida, ruhiy olamida beqiyos ahamiyatga ega. Badiiy asarning dunyoga kelishi bevosita va bavosita kitobxonlikka, ijodkor ruhidagi kitobxonga kelib taqaladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Milliy istiqlol mafkurasi adabiyotshunoslikka qanday yangiliklar berdi? Mafkura, g‘oya va adabiyotshunoslik munosabatlarini sharhlang?
2. Badiiylikning ommaviylik, xalqchillik, talant, ilhom va obrazli tasavvur unsurlarini izohlang.
3. Tasavvur materialni bunyod etishi, hissiyot uni harakatga solishi, aql esa boshqarish va nazorat qilish vazifasini o‘tashini badiiy asar misolida sharhlang.
4. Ernest Xemingueyning «Chol va dengiz» qissasini badiiylikning mahorat va ta’sirdorlik mezoni nuqtai nazaridan tahlil qiling.
5. Adabiyot, eng avvalo, inson ruhiga sayohatdir. Shuning uchun adabiyot yo‘li – sir yo‘li, ilohiy go‘zallik va hayrat yo‘li ekanligini izohlang.

<sup>1</sup> <http://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/mario-vargas-losa-mutolaa ва adabiyot-vasti.html> Mario Vargas Losa. Мутолаа ва адабиёт васфи

## **Blum taksonomiyasini asosida tuzilgan test topshiriqlari**

### **I. Avtointerpretatsiya terminiga berilgan to‘g‘ri izohlarni aniqlang va javoblar jadvaliga ha yoki yo‘q so‘zlarini yozing.**

1. Muallifning o‘quvchiga o‘z asarini tushuntirish, unga o‘zi nazarda tutgan ma’noni anglatishga qaratilgan harakati.

2. Kitobni biror shaxs (tashkilot, muassasa va sh.k.)ga taqdim etish chog‘ida uning titul varag‘iga muallif qo‘li bilan bitiladigan mo‘jaz yozuv, dastxat.

3. Muallifning o‘z asari (ayniqsa, asar bahs-munozaralarga sabab bo‘lsa) haqida matbuot orqali bildirgan fikrlari (suhbat, maqola, ochiq xat va sh.k.).

4. Muallif qo‘lyozmasi; adabiy asarning muallif qo‘li bilan yozilgan matni.

5. Turli shakllarda (so‘zboshi, sarlavha, epigraf, bag‘ishlov, so‘ngso‘z, satr osti izohlari va sh.k.) amalga oshishi mumkin.

Javob					

### **II. Badiiy adabiyot funksiyalarini tahlili bilan moslang.**

Bilish (evristik) funksiyasi	Odamlarning hislarini larzaga sola bilish, ularda zavq va hayajon qo‘zg‘ata bilishdir. Badiiy adabiyot insonda go‘zallik tuyg‘usini rivojlantiradi, badiiy didni tarbiyalaydi
Badiiy-kontseptual funksiya	Badiiy adabiyot kecha yoki bugunning badiiy tahlili asosida kishilik jamiyatining «erta»si haqida fikr aytadi
Kommunikativ funksiya	Badiiy adabiyotda inson hayotda ko‘rmaganini ko‘radi, undan o‘ziga yetishmayotgan narsalarni topadi va ruhiy qoniqish hosil qiladi
Didaktik funksiya	Badiiy adabiyot shaxsnı aqlan va ruhan kamolga etkazadi, jamiyatning ma’nani tozarishi va yuksalishiga xizmat qiladi
Kompensatorlik funksiyasi	Badiiy adabiyot shaxslararo, avlodlararo, millatlararo muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi
Badiiy bashorat	Badiiy adabiyot jamiyatning joriy holatini badiiy tahlil qiladi, baholaydi va u haqda yaxlit badiiy hukmni ifodalaydi

	Estetik zavq berish		Badiiy adabiyot borliqni badiiy bilish orqali bizning olam, odam va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi
--	---------------------	--	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Javob				*			

**III. Badiiy asar haqida bildirilgan hukmlarning qaysisi to‘g‘ri? Javoblar jadvaliga «ha» yoki «yo‘q» so‘zlarini yozing.**

1. Adabiyot va san’atning voqe bo‘lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot vositasi.

2. Adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi

3. San’atning u yoki bu turi (musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik, kino, teatr va b.)ga mansub bo‘lgan, insonning go‘zallik qonuniyatları asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsuli sifatida yaralgan yangi mavjudlik.

4. Til vositalaridan tarkib topuvchi matn, u ham mohiyat-e’tibori bilan nutq hodisaside.

5. Muloqot asosida dunyoga keladi: yozuvchi ijod onlarida tasavvuridagi o‘quvchi bilan muloqotda bo‘ladi – unga muayyan badiiy informatsiyani yetkazadi, o‘zining o‘y-hislari bilan o‘rtoqlashadi, u bilan bahslashadi, uni nimalargadir ishontirishga intiladi.

6. Hissiy munosabat badiiy konsepsiyanı shakllantirishda, asar mazmunining o‘quvchiga yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Ijodkor va o‘quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy muloqot vositasi deb tushuniлади.

8. Qismlardan tashkil topgan sistem butunlikdir. Har bir qism alohida va boshqa qismlar bilan aloqadorlikda, shuningdek, u bir butun holicha ham tasavvur etiladi.

Javob							

#### IV. Badiiy asarning muallifi va janrini aniqlab, muqobili bilan moslang.

t/r	Badiiy asar nomi	Muallifi	Janri
	«O'tkan kunlar»	Robert Byorns	Roman
	«Gobsek»	Nodar Dumbadze	Doston
	«Yor ko'nglining qiroliman»	Abdulla Qodiriy	Roman
	«Abadiyat qonuni»	Onore de Balzak	Roman
	«Urushning so'nggi qurboni»	Pirimqul Qodirov	Roman
	«Germaniya qish ertagi»	Mixail Sholoxov	Qissa
	«Otamdan qolgan dalalar»	Pushkin	She'r
	«Muvozanat»	Federiko Garsia Lorka	Roman
	«Ko'hna dunyo»	Shekspir	Hikoya
	«Yulduzli tunlar»	O'tkir Hoshimov	tragediya
	«Inson taqdiri»	Haynrix Hayne	Hikoya
	«Kapitan qizi»	Tog'ay Murod	Roman
	«Eng qayg'uli shodlik»	Ulug'bek Hamdam	Qissa
	«Romeo va Juletta»	Odil Yoqubov	Roman
	«Nur va soyalar»	Sergey Yesenin	Hikoya
	«Choliqushii»	Valentin Rasputin	Qissa
	«Sudxo'rning o'llimi»	Vilki Kollinz	She'r va dostonlar
	«Fors taronalari»	Rabindranat Tagor	She'r
	«Omon bo'lsang unutma»	Rashod Nuri Guntekin	Qissa
	«Oq kiyingan ayol»	Sadriddin Ayniy	Roman

#### Javob

	«O'tkan kunlar»		
	«Gobsek»		
	«Yor ko'nglining qiroliman»		
	«Abadiyat qonuni»		
	«Urushning so'nggi qurboni»		
	«Germaniya qish ertagi»		
	«Otamdan qolgan dalalar»		
	«Muvozanat»		
	«Ko'hna dunyo»		
	«Yulduzli tunlar»		
	«Inson taqdiri»		
	«Kapitan qizi»		
	«Eng qayg'uli shodlik»		
	«Romeo va Juletta»		
	«Nur va soyalar»		

	«Choliqushi»		
	«Sudxo'rning o'limi»		
	«Fors taronalari»		
	«Omon bo'lsang unutma»		
	«Oq kiyingan ayol»		

## V. Badiiylik bilan bog'liq atamalarни tahlili bilan moslang.

Badiiy asar tili	Adabiyot va san'atning biror tarixiy taraqqiyot bosqichida badiiy ijodga xos bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir qancha barqaror xususiyatlari, asosiy vosita va prinsiplari.
Badiiy adabiyot	Borliq va inson siymosini obrazli tasvirlash prinsiplaridan biri. Syujet takomili va kompozitsion markaz talabiga ko`ra qo'llaniladi.
Badiy uslub	Shoir va adiblar tomonidan ham jonli til, ham adabiy til normalaridan foydalangan holda voqelikni estetik ta'sirchan aks ettiruvchi poetik til.
Badiiy shartlilik	Asar qahramonlari faoliyatida qo'llaniladigan predmet, narsa.
Badiiy tamsiya	Og'zaki yoki yozma shakldagi badiiy so'z san'ati

Javob						
-------	--	--	--	--	--	--

## Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 263 б.
2. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. – 136 б.
3. Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб... – Т.: Маънавият, 1998. – 64 б.
4. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларининг маромлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 508 б.
5. Тўйчиева Ш. Ижодкор дунёқараши ва бадиий услугуб. – Т.: Академия, 2009. – 132 б.
6. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 308 b.

7. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2012. – 254 b.
8. Шарафиддинов О. Ҳақиқатга садоқат. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 57-60.
9. Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. – 232 б.
10. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018. – 478 b.
11. <http://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/mario-vargas-losa-muto-laa-va-adabiyot-vasfi.html> Mario Vargas Losa. Мутолаа ва адабиёт васфи

## BADIY ASARDA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI

### Reja:

1. Shakl va mazmun adabiy kategoriya sifatida.
2. Badiiy asarda shakl va mazmun mутаносиблиги.
3. Mazmunnig shaklga o‘tishi muammosi.
4. Shakl va mazmun unsurlari tasnifi.

*Tayanch tushunchalar: badiiy asar, mazmun, shakl, tema, ideya, xarakter, mazmun unsurlari, shakl unsurlari, syujet, kompozitsiya, til, mavzu, g’oya, konflikt, kompozitsiya, peyzaj, fabula, obrazlar sistemasi.*

Mazmun va shakl – falsafiy tushunchalar. Mazmun narsalarni aynan shu narsa sifatida ifodalovchi muhim element va o‘zgarishlarning yig‘indisidir. Shakl mazmunning mavjudlik usulini, ichki tuzilishini ifodalaydi. Ob‘yekтив olamda narsa va hodisalarga oid bo‘limgan sof mazmun ham, sof shakl ham yo‘q. Muayyan mazmun hamisha muayyan shaklda ifodalanganidek, muayyan shakl ham muayyan mazmunga egadir. Borliqdagi har bir narsa o‘zining mazmuni va shakl birligi tufayli mavjud. Mazmun o‘z mohiyatiga ko‘ra, shaklga nisbatan yetakchi o‘rin tutadi. Shakl esa, aksincha, mazmuni ifodalaydi. Shakl mazmunga mos kelishi lozim, mos kelmasa, ular o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi, bu ziddiyat eski shaklni yangi mazmunga mos yangi shakl bilan almashish (yoki eski shaklni yangi mazmunga moslash) orqali hal qilinadi.

Jan‘at va adabiyotda mazmun va shakl badiiy asarning bir-birini taqozo etuvechi ikki tomoni bo‘lib, bunda uning mazmuni muhim hisoblanadi. Badiiy asarning shakliy (uslub, janr, kompozitsiya, badiiy mitq, ritm), mazmuniy (mavzu, fabula, konflikt, xarakterlar va sharoit, badiiy g’oya, tendensiya) yoki shakliy-mazmuniy (syujet) xarakterdagi ayrim tomonlari, unsurlari mazmun va shaklning yagona, bir butun real ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotda mazmuni va shakl tushunchalari 18-19-asr boshlarida qurilgan bir-birdan farqlana boshladi. Lekin badiiy adabiyotga xos mazmun va shaklning o‘ziga xos birligi bu ikki tomonni bir-biridan ajratishga holda o‘rganib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Chunki adabiy asarning

mazmuni, mohiyati uning shakli orqaligina yuzaga chiqadi. Shuningdek, mazmundan uzoqlashgan shakl nutqning oddiy fakti, tilshunoslik, statistika yoki mantiq ob'yektiga aylanadi. Mazmunning shaklga (yoki aksincha) o'tish hollari falsafada ham, adabiyot va san'atda ham ro'y beradi. Hozirgi adabiyotda umumiy shakl bo'lib ko'ringan jihatlar qachondir mazmun bo'lgan. Janrning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan ko'pgina tomonlar dastlab shakl holatida emas, balki mazmunga aloqador bo'lib ko'ringan. Ular bir necha asarda, bir necha yozuvchi ijodida takrorlanib, qat'iy lashgandan keyingina shakliy hodisaga aylangan. Mas, novellalarga xos syujet, ixchamlik, lo'ndalik va boshqa dastlab janr belgilari sifatida emas, balki shakliy belgilardan kengroq, mazmundan ajralmaydigan xususiyatlar ko'rinishida namoyon bo'lgan. Shakl mazmunga tobe bo'lgani holda, o'zi ham nisbatan mustaqillik xususiyatiga ega. Bu nisbiy mustaqillik, badiiy asarning shakli nomukammal bo'lganda, ayniqsa, seziladi. Bunda asarning mazmuniga putur yetadi, mazmun yorqinligi va ta'sirchanligini yo'qotadi. Chinakam san'at asarida mazmun va shaklning birligi, yaxlitligi talab qilinadi<sup>1</sup>.

Badiiy asarning mazmun-mohiyati uning shakli orqaligina fahmlanadi. Shakl mazmunning muhim xususiyatidir: badiiy asarda hayot obrazlarda, obrazli tafakkur orqali o'z aksini topadi.

Obrazlilik, badiiylik – badiiy adabiyotda hayotni bilish va aks ettirishning o'ziga xos usuli, vositasi, ya'ni shaklidir. Bu adabiy hodisa badiiy asarda xarakterlar tasviri orqali ro'yobga chiqadi: badiiy adabiyot – xarakterlar yaratish san'atidir. Xarakterlar esa ma'lum bir janrda yozilgan muayyan badiiy asarda til, syujet, konflikt, kompozitsiya, peyzaj orqali yaratiladi. Shunday qilib, badiiy asarda bosh mazmun – muallif ifoda etmoqchi va o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgang'oyadir, adabiy asarning janri, tili, xarakterlar, syujet, konflikt, kompozitsiya, peyzaj va hokazolar esa shu g'oyaga nisbatan shakl rolini o'ynaydilar. Badiiy asar yaratish – shu g'oyani yorqin ifoda eta oladigan va uning o'quvchi zehnida yengillik bilan tug'ilishiga sabab bo'ladigan shaklini topa bilish demakdir. Ifoda etilmoqchi bo'lgan narsa (g'oya) badiiy asarning mazmunidir, hamma ifoda vositalari

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti , 2000. <https://www.wikizero.com/uz/O%CA%BBzME>

(til, xarakterlar, syujet, konflikt, kompozitsiya, peyzaj) shakldir.

HAR bir narsa-hodisa o'ziga xos shakl va mazmunga ega. Shakl va mazmun narsa-hodisa mavjudligining namoyon bo'lish tarzidir. Ular bir-biri bilan mustahkam bog'liqdir. Badiiy asarda ham hayot voqelegi muayyan shaklda ifodalanadi. Voqe-hodisalarning tashqi ko'rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish badiiy asarning shakl va mazmunidir. Roman, hikoya, qissa, doston shakli deyilganda obrazlarning o'zaro munosabatlari, ular bilan bog'liq voqe-hodisalardan kelib chiqadigan syujet, voqealarning joylashish tartibi nazarda tutiladi. Ana shu obrazlar harakat, faoliyat, asar syujeti va kompozitsiyasining muayyan maqsadga yo'naltirilgani esa o'sha asarning mazmunini belgilaydi. Har bir asarning matni muayyan ma'no bilan chambarchas bog'liq bolib, u muallifning maqsadini, ko'zda tutgan g'oyasini ifoda qiladi. Ma'no badiiy asar matnining o'ziga xos motoriga aylanib, uni harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi.<sup>1</sup>

Shakl – badiiy asar mazmunining «libosi»dir. Uning mazmunini tushunish shu «libos» bilan tanishuvdan boshlanadi. Badiiy asarning shakli undagi mazmunning «yashash usuli»dir. Mazmun shaklsiz yashashi mumkin emas.

HAR qanday mazmun muayyan, o'ziga xos shaklda ro'yobga chiqadi. Juhondagi har qanday mazmunning o'z shakli bor. Agar ijodkor ma'lum shaklni topa olmasa, demak, badiiy asar yo'q. Shakl mavzum narsa emas. Shakl mohiyati bu – so'z. Lekin oddiy so'z emas, badiiy so'z<sup>2</sup>.

Badiiy asar komponentlarini bu xilda ikki guruhgaga bo'lish faqat mazmalni aniqlash, murakkab masalalarni yengilroq hal etish va tushuntirish uchun qo'llaniladigan shartli usuldir. Aslida badiiy ikki mustaqil bo'lakka — mazmunga va shaklga bo'lish mumkin emas. Adabiy asarning bu ikki elementi muayyan darajada mutaqallikkva va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganlari uchun ilmiy iqtisadiyning ma'lum bosqichida (masalan, mazmun va shaklning o'ziga sostigini aniqlash kerak bo'lib qolganda) ular alohida-alohida

<sup>1</sup> Улупов А. Адабиотшунослик назари�аси. – Т.: Г'афур Г'улом nomidagi madaniyat matbuot ijodiy uyi, 2018. – Б. 43.

<sup>2</sup> Адабий – тисонин каниф қилиш/ Тўплам. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи роҳиб / Нустмуҳаммад. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – Б.61.

tahlil etiladi. Ularni bir-biridan ajratib tekshirish va talqin etish shartli hodisadir. «Mazmun voqelikning mohiyati, shakl mohiyatni ochib berish vositalaridir»<sup>1</sup>.

Badiiy asar qimmatini belgilashda mazmun va shaklning uyg'un muvofiqligi eng muhim mezonlardan sanaladi. Badiiyat go'zal shaklda ifodalangan aktual, umuminsoniy qadriyatlarga mos mazmunni taqozo etadi. Adabiyotshunos badiiy asarni tahlil qilarkan, uning diqqat markazida shakl yoki mazmun turishi mumkin. Lekin asosan shaklga e'tibor qaratgani holda ham, adabiyotshunos uning mazmun tomonlarini nazardan soqit qilolmaydi; asarning mazmun jihatini tekshirayotgan olim ham o'sha mazmunning muayyan shaklda ifodalanayotganini unutmasligi shart qilinadi. Modomiki badiiy asarda shakl va mazmun uyg'un birikar ekan, shaklni badiiyat, mazmunni g'oyaviylik (bunda ham, albatta, shartlilik bor) hodisasi sifatida tushunib, har ikkisiga birdek e'tibor berish zarur, bu – adabiyotshunoslikning «oltin qoida»si sanaladi. Shu o'rinda «shakl» va «mazmun» tushunchalarini farqlash, adabiy asar tarkibini shu ikki asosga tayangan holda anglash XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida nemis estetik tafakkurida, xususan, Gegel falsafasida qaror topganini eslatish joiz. Bunga qadar esa, to antik zamonlardan boshlab, asarga birbutun sifatida qaralgan, uni «shakl» va «mazmun» tushunchalariga (garchi ular yaxshi ma'lum bo'lsa-da), ajratib o'rganilmagan. Ta'kidlash kerakki, bu xil farqlash adabiy asarni, uning uzvlarini teranroq tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Avvaliga, buni Gegel misolida ham ko'rish mumkin, adabiy asarning mazmun tomonlariga ustuvor ahamiyat berildi, badiiy g'oya, badiiy xarakter masalalari chuqr tadqiq etildi.

Badiiy asarda shakl va mazunning birbutun mayjudligi, ularni ajratishdagi shartlilik shunchalarki, adabiyotshunoslikda shakl va mazmun komponentlarini tasnif qilishda hali hanuz bir xillik yo'q. Garchi «shakl» va «mazmun» kategoriya sifatida qariyb ikki asr ilgari qaror topgan va shundan buyon o'rganib kelinayotgan bo'lsa-da, tasnif masalasi hanuz tugal hal etilmagani shakl va mazmunga ajratishdagi shartlilikni yaqqol ko'rsatib turadi. Adabiyotshunoslikka oid asarlarni

<sup>1</sup> Содержание и форма литературного произведения / Крупчанов Л.М. Теория литературы. Учебник. -М.: Флинта, 2012 // [www.litmir.me](http://www.litmir.me)

ko'zdan kechirsangiz, ularda shakl va mazmun komponentlari tasnifi masalasida, qaysi unsurlarni shaklga, qaysilarini mazmunga daxldor deyish masalasida turlichalik mavjudligiga guvoh bo'lasiz. Biz quyida bunga ayrim misollarni keltirib o'tamiz:

1) tema, ideya, xarakter – mazmun unsurlari; syujet, kompozitsiya, til – shakl unsurlari (L.Timofeyev); \*

2) obraz, syujet, kompozitsiya, ritm, til – shakl unsurlari; tema, ideya – mazmun unsurlari (V.Gulyayev, G.Abramovich);

3) tema, problema, ideya – mazmun unsurlari; syujet, kompozitsiya, til, ritm, obrazlar sistemasi – shakl unsurlari (Shepilova);

4) tema, g'oya – mazmun unsurlari; obraz – ham shakl, ham mazmun hodisasi; til, badiiy tasvir vositalari, konflikt, kompozitsiya, tur, janr, she'r tuzilishi – shakl unsurlari (T.Boboyev);

5) uslub, janr, kompozitsiya, til, ritm – shakl unsurlari; tema, fabula, konflikt, xarakterlar, badiiy g'oya, tendensiya – mazmun unsurlari; syujet ham shakl, ham mazmun hodisasi (V.Kojinov);

6) syujet – shakl ham mazmun unsuri; tema, fabula, obrazlar sistemasi, konflikt – ichki shakl; kompozitsiya – tashqi shakl; poyaviy mazmun – mazmun (D.Quronov);<sup>1</sup>

Adabiyotshunos T.Solihov shakl va mazmun kategoriyasini quyidagicha izohlaydi: kompozitsiya, syujet, til – shakl. Unda mazmun nima? Jiddiyroq qarasak, shularning o'zi mazmun. Ro'yobga chiqqan syujet, kompozitsiya, so'z – mazmun<sup>2</sup>.

Xullas, adabiy asarning yaxlitligi, birbutunligi, birinchi navbatda, unda ifodalangan mazmun bilan belgilanadi. Mazmun esa biror hiklda ifodalananadi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Ijodkor – vogelik – fikr-maqсад – munosabat. Ketma-ketlik natija ida nima yaraladi?

2. Mazmun va shaklning bir-biriga o'tishi va ikkalasining yaxlitligini izohlangu.

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – 118 б.

<sup>2</sup> Адабиёт – инсонни кашф қилиши/ Тўплам. Тўпловчи ва нашрга тайёрловччи Абдулхалиммад. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – Б.144.

- Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» hikoyasini mazmun va shakl kategoriyasiga ko'ra tahlil qiling.
- Ulug'bek Hamdamning «Muvozanat» romanini D.Quronov tasnifi asosida tahlil qiling. Asarda qanday muammo aks ettirilgan?
- Chingiz Aytmatovning «Sohil yoqalab chopayotgan olapar» qissasini T.Boboyev tasnifi asosida sharhlang.

### **Blum taksonomiyasи asosida tuzilgan test topshiriqlari**

#### **I. Shakl va mazmunga daxldor bo'lgan fikrlarni tahlil qilib, mos raqamlarni jadvalning javob qismiga yozing.**

- U badiiy asarning qobig'idir, u ham eng kichik zarralarigacha yaratilishini nazarda tutsak, badiiy asarning go'zal va betakror «libosi» dir, degan xulosa haqqoniyidir.
- Uning nisbiy mustaqilligini mutlaqlashtirib, badiiyatning bosh mezoni sifatida qaraganlar formalistlar deb yuritilgan.
- Konservativroq hodisa bo'lganligidan uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega.
- Badiiy asarda o'zgaruvchanlikka moyil hodisa bo'lib, shu tufayli u har bir asarda o'ziga xos originallikka ega.
- Uning shaklga o'tish hodisasi genetik asosga ega.
- Badiiy asar matnining o'ziga xos motoriga aylanib, uni harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi

Javob	Shakl	Mazmun

#### **II. Shakl va mazmun komponentlarining mutanosib tasnifini belgilang.**

	tema, problema, ideya	A.	— mazmun unsurlari; obraz, syujet, kompozitsiya, ritm, til — shakl unsurlari
	tema, ideya, xarakter	B.	— mazmun unsurlari; obraz — ham shakl, ham mazmun hodisasi; til, badiiy tasvir vositalari, konflikt, kompozitsiya, tur, janr, she'r tuzilishi — shakl unsurlari

	tema, ideya	D.	— shakl ham mazmun unsuri; tema, fabula, obrazlar sistemasi, konflikt — ichki shakl; kompozitsiya — tashqi shakl; g'oyaviy mazmun — mazmun
	tema, g'oya	E.	— mazmun unsurlari; syujet, kompozitsiya, til — shakl shakl unsurlari
	uslub, janr, kompozitsiya, til, ritm	F.	— mazmun unsurlari; syujet, kompozitsiya, til, ritm, obrazlar sistemasi — shakl unsurlari
	Syujet	H.	— shakl unsurlari; tema, fabula, konflikt, xarakterlar, badiiy g'oya, tendensiya — mazmun unsurlari; syujet ham shakl, ham mazmun hodisasi

Javob						
-------	--	--	--	--	--	--

### III. Mazmun va shakl unsurlari tasnifi qaysi adabiyotshunosga da xildorligini aniqlang.

1.	tema, ideya, xarakter	mazmun unsurlari	syujet, kompozitsiya, til	shakl unsurlari	A.	T.Boboyev
2.	tema, ideya	mazmun unsurlari	obraz, syujet, kompozitsiya, ritm, til	shakl unsurlari	B.	Shepilova
3.	tema, problema, ideya	mazmun unsurlari	syujet, kompozitsiya, til, ritm, obrazlar sistemasi	shakl unsurlari	C.	V.Gulyayev, G.Abramovich
4.	tema, g'oya	mazmun unsurlari	til, badiiy tasvir vositalari, konflikt, kompozitsiya, tur, janr, she'r tuzilishi	shakl unsurlari	D.	V.Kojinov
5.	tema, fabula, konflikt, xarakterlar, badiiy g'oya, tendensiya	mazmun unsurlari	uslub, janr, kompozitsiya, til, ritm	shakl unsurlari	E.	L.Timofeyev

6.	g'oyaviy mazmun	mazmun unsuri	tema, fabula, obrazlar sistemasi, konflikt kompozitsiya	ichki shakl tashqi shakl	F.	D.Quronov
----	-----------------	---------------	---------------------------------------------------------	--------------------------	----	-----------

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.

#### IV. Berilgan parchalar qaysi asardan olingan va qaysi obrazlarning portretlari tasvirlangan.

1.	U esa xushchaqchaq, gapdon yigit bo'lib, tor va tanburni yaxshi chalar, o'z suhbati bilan majlisga jon kirkizar edi. Bundan tashqari u juda o'qimishli yigit bo'lib , forsiy va turkiy tilda she'r yozar edi.
2.	Otdan tushganda bo'yи o'sib, katta yigitlarga tenglashib qolgani bilindi. Qadam olishi ham xiyla salmoqli. Taxtga o'tirganidan beri o'tgan so'nggi uch yil uni juda tez ulg'aytirgan, ko'z qarashlari ko'pni ko'rgan odamlarnikiday vazmin. Faqat xipcha qomati va hali uncha to'lishmagan yelkalari endi o'n besh yoshga kirkaganini eslatib turardi.
3.	Qatorda eng so'nggi bo'lib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi saksandan oshib ketgan, noskash kampir edilar.
4.	U onadan ishq bilan tug'ildi. Uning ismi ham Qur'oni Karimda: «Al-asmo-u tanzil-u min-as-samo», ya'ni Ismlar osmonidan tushadi», deyilganidek, ishq osmonidan tushgan, favqulodda iste'dod, tug'ma qobiliyat ato etgan edi.

Javob	1	2	3	4

#### V. Maqollarni qaysi asardan olingenini aniqlab, muvofig'i bilan moslang. Asar mazmun-mohiyatini ochishda mazkur maqollarni ahamiyatini aniqlang.

1.	Qizi borning – nozi bor	A.	«Rustamxon»
2.	Yo'g'on cho'zilguncha – ingichka uziladi	B.	«Mehrobdan chayon»
3.	Dunyoda bir qo'rqqan yomon, bir quvongan yomon	C.	«Bemor»
4.	Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi	D.	«Sariq devni minib»
5.	Musofir bo'limasang, musulmon bo'lmaysan	E.	«O'tkan kunlar»
6.	Teng tengi bilan, tezak qopi bilan	F.	«Oq kema»

7.	Aytilgan so‘z otilgan o‘q	G.	«Hayrat – ul abror»
8.	Qarg‘aning yurishini qilaman deb chumchuqning buti yirtilgan ekan	H.	«Zarbulmasal»
9.	Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin	I.	«Temir xotin»
10.	Ko‘rga kelgan to‘y	J.	«Yulduzlar mangu yonadi»

Javob									

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Адабиёт – инсонни кашф қилиш/ Тўплам. Тўпловчи ва пашрга тайёрловчи Хуршид Дўстмуҳаммад. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – 118 б.
2. Содержание и форма литературного произведения / Крупчанов Л.М. Теория литературы. Учебник. -М.: Флинта, 2012 // [www.litmir.me](http://www.litmir.me)
3. Ulug’ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 308 b.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – 478 b.

## MAVZU VA G‘OYA

### Reja:

1. Mavzu va uning turlari.
2. Badiiy g‘oya va g‘oyaviy mazmun.
3. Badiiy g‘oya – obrazli fikr.

*Tayanch tushunchalar: badiiy asar, badiiy ijod, mavzu, g‘oya, abadiy mavzular, leytmotiv, yaxlitlik, butunlik, voqelik, g‘oyaviy mazmun.*

Yozuvchini hayajonga solgan va qo‘liga qalam olishga majbur etgan hayotiy material «mavzu» yoki «tema» deb ataladi. Yozuvchi biror asari uchun mavzu tanlar ekan, uni yoritishning hamma qirralarini boshdanoq to‘la tasavvur eta olmaydi, balki mavzuning umumiyligi chegaralarini, obrazli qilib aytganda, mavzuning «tilsiz xarita»sinigina ko‘radi. Mavzu hali asarning butun mazmuni emas, balki shu mazmumni aniqlashga va badiiy ifoda etishga chaqiruvchi bir ishoradir. Mavzu muallifning tajribasida tug‘iladi, hayot uni yozuvchining qulog‘iga quyadi, ammo uning taassurotlar xazinasida shakllanmagan holda uya solib yotadi, obrazlarni ifodalashni talab etib, yozuvchida uni shakllantirish uchun intilish tug‘diradi. A.Fitrat mavzuni shunday e’tirof etadi: «Adabiyotning mavzui butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o‘z ichki-tashqi dunyosida sezib onglag‘anlaridir. Bir tomchi suvdan tengizgacha, bir uchqundan buyuk bir yong‘ingacha, kichkina bir yaproqdan ulug‘ o‘rmonlarga gacha nima bor esa, hammasi adib – yozg‘uchi uchun mavzu bo‘lарlik narsalaridir»<sup>1</sup>. Haqiqiy yozuvchi mavzu tanlaganda uning yangiligiga va jamiyatning bugungi ehtiyojlari jihatidan muhimligiga alohida e’tibor beradi. Yozuvchi umum uchun mushtarak bo‘lgan intilishlarni ifodalaydi, o‘z qalbini va o‘z dunyosini ifodalaydi, bunda u inson tabiatining tug‘ma da‘vatiga bo‘ysunadi, shu bilan birga, u o‘zi yoza bilmaydigan, boshidan kechganlarini aytib berolmaydigan odamlarning ifodachisi bo‘lib qoladi. Mashhur amerika yozuvchisi

<sup>1</sup> Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 15.

Erskin Kolduellga o'xshab shunday deydi: «Men shuning uchun yozamanki, ko'rgan odamlarim va ashyolarim haqida hikoya qilib berishni istayman. Men hatto o'ylaymanki, bular to'g'risida hikoya qilib berishga majburman»<sup>1</sup>. Perulik mashhur yozuvchi, adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori \*Mario Vargas Losa shunday yozadi: «Har qanday mavzu yaxshiyam bo'lishi mumkin, yomon ham, yana takror aytamanki, bu narsa mavzuga bog'liq emas, balki mutlaq mavzuning nimaga aylanishiga bog'liq»<sup>2</sup>. «Mavzuning nimaga aylanishi» yozuvchi iqtidori, uning tafakkur quvvatiga bog'liq hodisa ekan, muallif shaxsiyati va badiiy asar uslubi birbutunlikni taqozo qiladi.

Adabiyotshunoslikdagi fikrlarni umumlashtirsak, badiiy asar mavzularini uchga ajratish mumkin:

**1. Adabiy mavzular.** Insoniyatga xos bo'lgan barcha fazilatu qusurlar(sevgi-muhabbat, mehr-oqibat, vafo-sadoqat, shodlik va quvonch, g'am va qayg'u, qasos, rashk, o'lim, saxiylik va baxillik, baxtu baxtiyorlik, matonat va shijoat, mehrli tabassumu yolqin nigoh, ehtiros, sog'inch, chanqoqlik va jo'shqinlik va h.) adabiy mavzulardir. Shu sababdan Oskar Uayld «Dorian Greyning portreti» («Jahon adabiyot», yanvar, 2000) asarida topib aytadi: «Fikr va so'z san'atkor uchun san'at vositasidir. Illat va fazilat – uning ijodi uchun materialdir». Bu xulosa hamma davr adabiyotlari uchun tegishlidir.

**2. Tarixiy mavzular.** Tarixda, o'tmish (moziy)dan tasvir predmetiga material tanlash va shu asosda zamondoshlarning diqqatini qiziqtirgan eng zarur muammolarga javob izlash – bosh xususiyat kasb etadi. Jumladan, «Navoiy» (Oybek), «Yulduzli tunlar» («Bobur») (P.Qodirov), «Ulug'bek xazinasi» (O.Yoqubov) – uzoq tariximizni yoritsa, «O'tgan kunlar» (A.Qodiriyy), «Kecha va kunduz» (Cho'lpon), «Qutlug' qon» (Oybek) – yaqin o'tmishimizni gavdalantiradi.

**3. Zamonaviy mavzular.** Bugungi zamondan, aniq bosqich – istiqlol davri kishilarining hayotini tasvirlash va shu orqali hayotdan dars berish – zamonaviy mavzularga xos bosh xususiyatdir. Bugun Istiqlol talabiga monand komil kishilarni – fikrlovchi, tadbirdor, el-

<sup>1</sup> Параповский Я. Сўз кимёси. /Жаҳон адаблари адабиёт хакида. Озод Шарафиддинов таржималари. – Т.: Маънавият, 2010. – Б. 248.

<sup>2</sup> Марио Варрас Льоса. Ёш романнависга мактуб // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2017. – январь. – Б. 140.

yurt uchun kuyib, yonib yashovchi, adolat va haq uchun kurashuvchi qahramonlarni tasvirlash, ularning murakkab obrazlarini yaratish – zamonaviy mavzularning kashfiyotlari bilan bog‘liq<sup>1</sup>.

Adabiyotshunos Y.Solijonov «bugungi o‘zbek she’riyati mavzularining ishlanish ko‘lami va darajasiga qarab» quyidagicha tasnif etishni taklif qiladi:

- ishqiy intim mazmundagi she’rlar;
- intim mazmunli she’rlar (bularning farqi shundaki, birida ohvoh, tushkunlik ko‘p; ikkinchisida – umidbaxshlik kuchli; yana ko‘ngilning turfa intilishlari, faqat yor emas, ona, yurt, do’st va h.k.).
- madhiya – bag‘ishlov she’rlar;
- uhroviy mazmundagi she’rlar (ruhoniylar she’rlar, ya’ni dunyoning o’tkinchiligi. Yaratganga iltijo, tavba – tazarru);
- tarixiy mazmundagi she’rlar;
- pand-nasihat she’rlar;
- Vatan va uning mustaqilligi haqidagi she’rlar;
- o‘lim mavzusidagi she’rlar;
- boshqa har xil mavzudagi she’rlar:

Albatta, olimning o‘zi aytganidek, bu tasnif g‘oyat shartli bo‘lib, uni yanada kengaytirish ham, qisqartirish ham, ba’zilarining o‘rnini almashtirish ham mumkin. Bu mavzular orasida ishqiy hamda intim mavzudagi she’rlar salmog‘i juda baland, hatto keyingi 20 yillik o‘zbek she’riyatining asosiy qismini egallaydi. Ammo ularning ko‘pchiligi o‘ta sub’ektivligi, tushkun kayfiyatda yozilganligi, o‘quvchini muhabbatning hayotbaxshligi, kuch-qudratiga ishonchini ottirishga o‘rgatish o‘rniga, nuqul hijron, yolg‘izlik, bevafolik, yo‘qotish, sarsonlikdan iborat ohu nolalarni ifodalayotgani ham sir emas (bu haqda qarang: Y.Solijonov. Haqiqatning sinchkov ko‘zлari. 158-168-b.)<sup>2</sup>.

Hozirgi yosh qalamkashlar haqiqiy adabiy asarni bunyod eta oladigan, yozishgga, mehnat qilish va azob chekishga arziydigan mavzu – odam o‘zi bilan o‘zi kurashishi muammosini unutib qo‘ydilar. Yozuvchi bular haqida o‘ylab ko‘rishi, qo‘rquv – eng pastkash hissiyot ekanini tushunib yetishi va nihoyat, o‘z

<sup>1</sup> Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2012. – B. 116.

<sup>2</sup> <http://volk.uz/2019/05/28/hozirgi-ozbek-sheriyatida-mavzu-va-goya-birligi/>

«ustaxonasidan» yurak haqiqatini, asarni abadiylikka doxil qiladigan muhabbat, or-nomus, muruvvat, g'urur, rahm-shafqat, fidoyilik kabi azaliy va abadiy qadriyatlardan boshqa barchasini chiqarib tashlamog'i kerak. Agarda yozuvchi shunday qilmas ekan, uning asari ustida la'nat toshlari o'ynab turadi. U muhabbat haqida emas, shahvoniyat, beziyon mag'lubiyatlar, umidsiz g'alabalar haqida va eng yomoni – achinmasdan, hamdard bo'lomasdan yozadi. Uning dardini hech kim tushunmaydi, bu dardlar hech qaysi qalbda iz qoldirmaydi. U insoniy qalb haqida emas, balki jismoniy faoliyat haqida yozgan bo'ladi. Yozuvchi shularni tushunib yetmaguncha, chetdan turib kuzatayotgan odamdek, insoniyatning halokatga yuz tutishi haqida yozadi<sup>1</sup>. Yozuvchi va shoirning burchi – shular haqida yozish, mardlik, or-nomus, umid, rahm-shafqat, muruvvat, fidoyilik kabi insonga xos azaliy iftixorni mustahkamlash yo'li bilan odamlar qalbiga madad berishdan iborat. Ularning ovozi, shunchaki aks-sado bo'lmasdan, odam hayot sinovlariga bardosh berishi va tantana qilishi uchun zamin, tayanch bo'lmoq'i lozim.

**Badiiy asarda yozuvchi ifodalagan asosiy fikr, tasvir predmetiga bergan bahosi «asarning g'oyasi» deb ataladi.** Badiiy asarda g'oya tasvir etilgan kishilarning psixologiyasi, taqdiri, voqealarning va narsalarning mohiyati ichiga singib ketadi. Shunchalik singib ketadiki, biz u g'oyaga muallif tomonidan ishora qilinmagan holda ham o'zimiz o'sha muallif chiqargan xulosaga kelamiz. Badiiy asarning g'oyasi oddiy adabiyotda (masalan, siyosiy adabiyotda) mavjud g'oyadan prinsipal farq qiladi. **Badiiy asarda g'oya – san'at asarining mazmuniga asos bo'lgan umumlashtiruvchi, emotsiyal obrazli fikrdir.** Oddiy g'oyalarday farqli o'laroq, badiiy asardagi g'oya «badiiy g'oya» deb ataladi.

**Badiiy g'oya – obrazli fikrdir.** U faqat ob'ektiv tasvir etilgan hayot manzarasi, kishilar taqdiri, voqealar mantiqi va mohiyatidan kelib chiqadi. Badiiy g'oyaning yana bir xususiyati umumlashtiruvchiligidir. Badiiy g'oya hayotdagi hodisa va kishilarni tipiklashtirib, individuallashtirib ifoda etadi. Badiiy g'oya hayotdagi hamma hodisa va kishilarni ko'rsatish yo'li bilan emas, balki bu hodisa va kishilarning

---

<sup>1</sup> <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/uilyam-folkner/uilyam-folkner-nobel-mukofotini-topshirish-marosimida-suzlangan-nutq/>

eng muhim xususiyatlarini tasvirlash orqali ifodalanadi. Bunday eng muhim sifatlar «xarakterli sifatlar» deb ataladi<sup>1</sup>.

Biror g‘oyadan ilhom oladigan yozuvchi bilan yozuvchilik instinkting undovi bilan ijod qiladigan yozuvchi o‘rtasida tafovut bor. G‘oyadan ilhom oladigan yozuvchi bir necha xil faoliyat qurollari orasidan qalamni tanlash uning uchun birdan-bir yagona imkoniyat bo‘lsa, oldiga qo‘ygan vazifasini ado etishi bilanoq qalamni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yadi. Ikkinci toifa yozuvchi uchun esa hayotdan ko‘z yumgandan keyingina ijod tamom bo‘ladi. Petrarka aytganidek, «Men yashashdan to‘xtaganimdan keyin yozishdan to‘xtayman»<sup>2</sup>.

Badiiy san’atga doir g‘oyalar, adabiyot va san’at asarlari tabiat va jamiyat hodisalarini, inson va uning hayotini badiiy obrazlar, kuylar va rasmlar orqali odamlarda go‘zallikka, yaxshilikka, ezgu ishlar qilishga yetaklovchi yangi-yangi g‘oyalar tug‘diradi va shu bilan birga ularda turli illatlarga nisbatan nafratli his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Hozirgi kunda, bizning yoshlarimiz uchun zamonamiz qahramonini ifodalovchi badiiy va san’at asarlari yaratilishi o‘ta zarur muammo bo‘lib qoldi. Badiiy g‘oya – adabiyot va san’at asarining asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadigan, undan ko‘zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o‘quvchida muayyan taassurot uyg‘otadi. Adabiyot va san’at – muayyan davr ma’naviy hayotining ko‘zgusi. Unda milliy an‘analari, millat hayoti, zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot doirasida har bir ijodkorning individual salohiyati va dunyoqarashi, g‘oyasiga binoan aks etadi.

Badiiy asardagi g‘oya turmush hodisalari ustidan chiqariladigan oddiy mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, sinchiklab tadqiq etish va obrazli, emotsiional ifodalash yakunidir. Bu yakun badiiy asar organizmining hap bir hujayrasiga singib ketgan bo‘ladi. Shu sababli badiiy asardagi g‘oyani faqat bu asarning obrazli mazmuni orqaligina anglash mumkin. L.Tolstoy ta‘biri bilan aytganda, har bir badiiy asarning g‘oyasini ifoda etish uchun u qanday yozilgan bo‘lsa, shunday qayta yozib chiqish kerak bo‘ladi.

<sup>1</sup> Султон И. Адабиёт назарияси.- Т.: Ўқитувчи, 1986.- Б.172-173.

<sup>2</sup> Парандовский Я. Сўз кимёси. /Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. Озод Шарафиддинов таржималари. – Т.: Матнавият, 2010. – Б. 242.

## **Savol va topshiriqlar:**

1. Jahon va o‘zbek adabiyotida adabiy mavzular asosida yaratilgan badiiy asarlarning mushtarak xususiyatlarini tahlil qiling.

2. R.Uellekning «Yozuvchi insonni, g‘oyaviy qarashlaridan kelib chiqib emas, avvalo, ezgu insonparvarlik g‘oyalaridan kelib chiqib o‘rganishi, tadqiq etishi, uning dardlarini baham ko‘rishi kerak», – degan fikrini izohlang.

3. Tarixiy mavzuda yozilgan asarlarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘rnini muayyan asar misoldida tahlil qiling.

4. Men barchaga – g‘arbliklarga ham, sharqliklarga ham birday taalluqli mavzularga qo‘l urishni istayman. Chingiz Aytmatov qanday mavzularni nazarda tutgan?

5. «Chol va dengiz» qissasida qanday g‘oya ilgari surilgan. O‘zbek adabiyotida shu g‘oya ifodalangan asarlar mavjudmi?

## **Blum taksonomiyasи asosida tuzilgan test topshiriqlari**

### **I. Mavzu va g‘oyaga daxldor bo‘lgan fikrlarni tahlil qilib, mos raqamlarni jadvalning javob qismiga yozing.**

1. Ar. – qo‘yilgan, tartibga solingen – badiiy mazmun komponenti.

2. Asarda qo‘yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma’naviy-axloqiy muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali.

3. Asarda qo‘yilgan problemaning qalamga olingan hayot materiali asosida idrok etilishi va baholanishi.

4. Asarda tasvirlangan badiiy voqealikka muallifning g‘oyaviy-hissiy munosabati.

5. Badiiy mazmunning muhim komponenti, asardan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikr.

6. Asarda tasvirlanayotgan voqeal-hodisalarga muallifning g‘oyaviy-hissiy munosabati, obrazlar sistemasi vositasida qo‘yilgan problematikaning badiiy idrok etilishi va baholanishi.

7. Uning asosiy mezoni, bir tomonidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muvofiqlik bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, obrazli tarzda, go‘zal va ta’sirli ifodalanganlikdir.

Javob	Mavzu	
	G'oya	

**II. Parcha qaysi badiiy asardan olingan, muallifi va janrini aniqlang. Keys-stadida qo'yilgan muammoga o'z yechimingizni taqdim qiling. Urush davrida insonning muqaddas tuyg'ulari poymol etilganligi, natijada inson hayotining oliy qonuniyatlarini buzilganligini siz qanday izohlaysiz?**

### **Keys: «KATTA QARZ»**

- Omonmisan, qutlug‘ dalam!
- Shukr. Keldingmi, To‘lg‘anoy? Bulturgidan ancha cho‘kib qolibsan. Sochlaring oppoq, qo‘lingda hassa.
- Umr o‘tib boryapti, ona-Yerim, oradan tag‘in bir yil o‘tdi. Bugun mening sig‘inadigan kunim.
  - Kelishingni bilardim. Kutayotgandim, To‘lg‘anoy. Bu safar nabirangni ham ergashtirib kelmoqchi emasmidинг?
  - Shunday edi-yu, lekin bu safar ham yolg‘iz keldim.
  - Demak, sen unga hali ham hech nima aytmabsan-da, To‘lg‘anoy?
  - Yo‘q, aytolmadim.
  - Ishqilib, ertami-kechmi, axir bir kun u ham eshitadi-da, To‘lg‘anoy. El og‘ziga elak tutib bo‘ladi, deysanmi?
  - To‘g‘ri aytasan. Ertami-kechmi, axir bir kuni biladi. O‘zi ham ulg‘ayib, yaxshi-yomonni tushunadigan bo‘lib qoldi. Biroq men uchun hali ham temir qanot palaponga o‘xshab ko‘rinadi. Bolalik qilib o‘tgan-ketganni to‘g‘ri tushunolmay, ko‘ngli sovib qolmasa deb tashvishlanaman. Bari bir odam haqiqatni bir kun emas, bir kuni bilishi kerakda. Men bilgan haqiqatni, sirdoshim xosiyatlari yer, sen bilgan va el bilgan haqiqatni hozircha yolg‘iz ugina bilmaydi, xolos. Bilganda nima der ekan, qanday o‘y-xayollarga borarkin, gapning tagiga yetolarmikin? Qanday qilib o‘sha dilini og‘ritmay, yoshligidanoq hayotdan ko‘nglini qoldirmay, sirimni ayta olsam ekan? Qani endi ikki og‘iz so‘z bilan bitadigan ish bo‘lsa...

Haligi cho‘pon yigitni topib, o‘rtaga oldik. Alimanning oy kuni yetib turibdi, uning uvol-savobini kim ko‘taradi, desak, bari bir hech nima chiqmadi. U o‘zi ayolmand ekan, ikkinchidan, vijdonini

yutib, men uningni ko'rgan emasman, bilgan emasman, deb tonib turibdi. Xotini ham bir shallaqi ekan, sezib qolib, betga chopib, itdek sharmandamizni chiqardi. Qaytib kelayotganimizda yo'l bo'yи yomg'ir yog'ib, kechki sovuq turib qoldi. Bunisi ham mayliya, Aliman endi nima qiladi?» – deb, Oysha yuzini to'sib yig'lab yubordi. «Yig'lama, men turganda Aliman xor bo'lmaydi» – deb chiqib ketdim. Boshqa nima ham der edim.

**Savollar:** Matnda keltirilgan vaziyatda qanday muammo ilgari surilgan? To'lg'anoy nevarasi Jonbo'lotga sirni qay tarzda yetkazadi, deb o'ylaysiz? Nevarasi bo'lmasa-da, Alimanga bo'lgan onalik muhabbatni bois bolani To'lg'anoyning o'zi katta qilganini qanday baholaysiz?

## KEYS YECHIMI UCHUN TAKLIF ETILGAN G'OYALAR

Muammo	Yechim	Natija
Keksa To'lg'anoy qalbining qat-qatida yashirib yurgan siri (nevarasi o'g'li Qosimniki emas, balki urushdan qaytiб cho'ponlik qilgan yigitning farzandi) ekanini nevarasi Jonbo'lotga qanday yetkazishi haqida onaning Yerga qilgan hasrati		Hatto bola emas, keksa ham bu ishni to'g'ri tushunmasligi mumkin.

### III. Izohlari keltirilgan terminlarni jadval ichidan toping.

...— payg'ambarlar va avliyolarning hayoti va sarguzashtlarini ifodalovchi hikoyalari.

...— asar voqealari boshlanmasidan avval unga ishora qiluvchi lavha.

...— muayyan adabiy turning hayot haqiqatini badiiy aks ettirish imkoniyatlarini ko'rsatuvchi bo'lagi.

...— bolalar folklori janri, bolalarning bирор-bир xislati ustidan kуluvchi hajviy she'r.

...— adabiy asardagi muqaddimaning bir turi bo'lib, unda yozuvchi niyati, asarning qisqacha mazmuni bayon etiladi.

...— musiqali drama asari bo'lib, qatnashuvchi shaxslar kuy

jo‘rligida so‘zlashadilar.

...— epik turning hajm jihatdan kichik turi.

...— asar badiiyatini tashkil etuvchi unsurlar majmui.

...—badiiy asar syujeti asosida yotuvchi konfliktni boshlab beruvchi nuqta.

...—san’at va adabiyotda hayotni o‘ziga xos badiiy shaklda aks ettirgan manzara va xarakterlar.

A	G	I	O	G	R	A	F	I	Y	A
N	N	S	C	H	P	R	O	L	O	G
R	O	Z	E	P	I	G	R	A	F	X
X	V	P	T	U	G	U	N	C	H	S
M	E	L	O	D	R	A	M	A	X	J
Q	L	Z	S	N	O	V	E	L	L	A
Z	L	P	O	E	T	I	K	A	B	N
K	A	L	A	K	A	Q	S	H	S	R

#### IV. Ketma-ketlikning mosini toping. Keltirilgan asarlar qaysi janrga mansub.

	Roman		«O‘g‘ri»
	Qasida		«Alpomish»
	Doston		«Qaro ko‘zim»
	Qissa		«O‘zbegin»
	G‘azal		«Sinchalak»
	Qissa		«O‘tkan kunlar»
	Hikoya		«Oq kema»
	Doston		«Xellados»
	Hikoya		«Iliada»
	Ruboiy		«Yo Rab, ul shahd-u shakar yolabdurus»
	Tuyuq		«Jonimdag‘i «jim» ikki dolingga fido»
	G‘azal		«Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun debon»
	Qit‘a		«Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo»
	Drama		«Yo, Jamshid!»
	Hikoya		«Padarkush»
	she‘r		«Otello»
	Roman		«Biz baxtli bo‘lamiz»

	Qissa		«Geklberri Fin»
	Roman		«Tinch Don»
	Tragediya		«Usta va Margarita»

Javob *									
11.	12.	13.	14.	15.	16.	17.	18.	19.	20.

#### V. Muvofig‘ini moslang.

1	Badiiy asar poetikasi	A	Asarlarning tasvir obyekti ustidan chiqarilgan «hukm», ya’ni hayot hodisalari haqida kishilarning tasavvurlari va o’sha hodisalarga munosabatlarini ifodalaydigan tafakkurlari.
2	Badiiy asar pafosi	B	Badiiy adabiyotda aks ettirilgan inson obrazi deb ham yuritiladi.
3	Badiiy asar mavzusi	C	Asarning tuzilishi, syujet va kompozitsiyasi, til xususiyatlari, hikoya qilish yo’sini, ifoda tarzi, tasvir usullari va vositalari, ohangi, umuman, uning badiiy olami tushuniladi.
4	Badiiy g’oya	D	(yun. «hissiyot», «ehtiros», «iztirob») yozuvchini maftun etgan va butun asarga singib ketgan, undagi badiiy tasvirning yo’nalishini belgilab beradigan jo’shqin tuyg’u, go’ya va his-hayajon.
5	Badiiy asar kompozitsiyasi	E	Yozuvchini hayajonga solgan va qo’liga qalam olishga majbur etgan hayotiy material. U, odatda yozuvchi yoritmoqchi bo’lgan ijtimoiy yoki axloqiy muammo bilan birga tug’iladi.
6	Badiiy asar qahramoni	F	(lot. «tuzib chiqish, tartibga solish») – badiiy asardagi qismlar, obrazlar va badiiy vositalarning ma’lum bir g’oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi, ularning tasvirdagi mezoni va muvofigqligi.

Javob	1	2	3	4	5	6

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Марио Варгас Льоса. Ёш романнависга мактуб // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2017 й. январь. – Б. 140.
2. Парандовский Я. Сўз кимёси. /Жаҳон адиллари адабиёт ҳақида. Озод Шарафиддинов таржималари. – Т.: Маънавият, 2010. – 390 б.
3. Султон И. Адабиёт назарияси.- Т.: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2012. – 254 b.
5. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 336 б.

## BADIY ASAR SYUJETI

### Reja:

1. Syujet – badiiy shaklning eng muhim unsuri.
2. Syujet turlari.
3. Syujet unsurlari.
4. Konflikt – syujetning o‘zagi.

**Tayanch tushunchalar:** *syujet, yasama, tayyor, sayyor syujetlar, xronikal syujet, konsentrik syujet, xronikal-konsentrik syujet, prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, epilog.*

Asarda hikoya qilinayotgan voqea «syujet» deb ataladi. Syujet transuzcha «predmet», ya’ni tasvirlanayotgan yoki bayon etilayotgan narsa demakdir. Adabiyotning kichik asarlarida (masalan, hikoya) ko‘pincha bir kichik voqea va uning tafsiloti tasvirlanadi, bu holda asarning ixcham syujetliligi haqida so‘z yuritiladi. Yirik janrlarga mansub asarlar syujeti esa ko‘p tarmoqli bo‘ladi. Bunday chog‘da syujetning murakkabligi xususida gap boradi. Har ikki holda ham syujet asar mazmuniga asos bo‘lgan kichik yoki katta voqea bo‘lib qoladi. Syujetga M.Gorkiy tomonidan berilgan ta’rif adabiyotshunoslikda eng mukammal hisoblanadi, chunki unda adabiyotning bosh vazifasi bo‘lgan xarakterlar tasvirida syujetning roli uqtirib o‘tilgan. Buyuk yozuvchining fikricha, syujet badiiy asarda tasvirlangan «odamlarning o‘zaro aloqalari, ammo oralaridagi qarama-qarshiliklar, bir-birlarini yoqtirish yoki yoqtirmasliklari – umuman, kishilar orasidagi munosabatlar – u yoki bu xarakterning, tipning tarixi, o‘sishi, tashkil topib borishidir»<sup>1</sup>. Gorkiy ta’rifi epik va dramatik asarlarga taalluqli.

Syujet asar mazmunini tashkil etgan voqealar tizimi bo‘lsa, motiv shu voqelikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ya’ni epik asar qurilma-strukturasini motivlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Epik asarlarning syujet va motivi haqida mutaxassis olimlarning qarashlari turliha. Biroq ko‘pchilik olimlar rus olimi A.N.Veselovskiyning bu boradagi fikrlariga asos sifatida tayanishadi.

<sup>1</sup> Горький М. Собр соч. в 30 томах. Т. 27. – М.: Наука, 1968-1976. – С.215.

Mazkur olim motivlarning syujetni yuzaga keltiruvchi eng asosiy bo‘g‘in ekanini ta’kidlab, «Motivlar birlashib, syujet halqasini yuzaga keltiradi», – deydi<sup>1</sup>. «Motiv syujetning mag‘zidir», deydi B.Putilov<sup>2</sup>. Bu o‘rinda olim motivlarning tabiiy evolyutsion jarayonini nazarda tutadi. Ma’lumki, epik asar syujeti, albatta, biror makon va zamonda kechar ekan, bu harakat, shubhasiz, motivlar harakati orqali amalgalashiriladi<sup>3</sup>.

Badiiy syujetlar turli yo‘llar bilan yaratilishi mumkin.

1. Asarda tasvirlanayotgan voqealar yozuvchi tasavvuri mahsuli bo‘ladi. ulardagи voqealarning barchasi badiiy to‘qima (fantaziya) yordamida yaratiladi. Uni **«yasama» syujet** deb atasa bo‘ladi. Jumladan, «Gulliverning sayohatlari» (J.Swift), «Odam amfibiya» (A.Belyayev), «Oydagи birinchi odamlar»(G.Uells)ini isbot misolida ko‘rsatish mumkin.

2. Asar syujeti hayotdagi tayyor voqealar asosiga quriladi. «Prototip» shaklidagi hayotiy va tarixiy voqealarning deyarli barchasi asarda aks etgan bo‘ladi va ular **«tayyor» yoki «hayotiy» syujetlar** deb yuritiladi. «Ulug‘bek xazinasi»(O.Yoqubov), «Yulduzli tunlar»(P.Qodirov), «Graf Monte Kristo»(A.Dyuma), «Aka-uka Karamazovlar» (F.Dostoyevskiy) kabilar ana shu yo‘l bilan yaratilgan asarlardir.

3. Yozuvchilar o‘zlarigacha yozma adabiyotda ma’lum bo‘lgan syujetlarga asoslanadilar, ularni qayta ishlaydilar, o‘z salohiyatlari va mahoratlariga asoslanib, ularni yangicha talqin qiladilar. Bu **«sayyor» yoki «o‘zlashtirilgan»** syujetdir. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy tomonidan yaratilgan «Xamsa»chilik an’anasi **«sayyor» yoki «o‘zlashtirilgan»** syujetning eng go‘zal namunasi. Ularning har biri – mustaqil asar, ulardagи kashf qilingan xarakterlar betakror bo‘lishidan qat’i nazar qoliplovchi voqea (syujet)ning asosi yagonadir.

Adabiyotshunoslikda voqealarning ro‘y berish tarzi, ularning o‘zaro munosabatiga ko‘ra syujetlar xronikali va konsentrik bo‘ladi,

<sup>1</sup> Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989. – Б. 300.

<sup>2</sup> Путилов Б. Мотив как сюжетообразующий элемент // Типологические исследования по фольклору. – М.: Наука, 1975.– С. 141–155.

<sup>3</sup> Жаббор Эшонкул. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 2011. – Б. 120.

deyiladi. A voqealarning ketma-ket yuz berishi «xronikali syujet»dir. «Konsentrik syujet» esa A voqealarning ketma-ket yuz berishi «xronikali syujet»dir. Xronikali syujetga asoslangan asarlar (Rashod Nuri Guntekining «Choliqush», P.Qodirovning «Yulduzli tunlar», Ulug‘bek Hamdamning «Muvozanat» romanlari kabi)da voqealar ketma-ket izchillikda, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq tarzda kechadi. Konsentrik syujetli asarlarda esa voqealar bitta asosiy voqealarning qurʼaniy qismi atrofida aylanadi. Bunday asarlarda voqealar shiddat bilan rivojlanib boradi va o‘quvchining diqqatini boshqa voqealarga bevosita aloqador asosiy muammoga qaratiladi. Chingiz Aytmatovning «Kassandra tamg‘asi», Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasi» romanlari bunga misol bo‘la oladi. Ayrim asarlarda syujetning har ikkala ko‘rinishi namoyon bo‘ladi. A.Qodiriyning «O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», Cho‘lponning «Kecha va kunduz», Paulo Koelonning «Alkimyogar», Xolid Husayniyning «Shamol ortidan yugurib», Ahmad Lutfiy Qozonchining «O‘gay ona» romanlarida; Ernst Xemingueyning «Chol va dengiz», Chingiz Aytmatovning «Somon yo‘li» qissalarida xronikali syujet yetakchilik qilsa-da, ularda konsentrik syujetga xos xususiyatlar ham mavjudligi aniq seziladi.

Uchinchi tip – ikki xil syujet birlashadi: xronikal – konsentrik syujetni voqealarning qurʼaniy qismi qiladi. Xronikal-konsentrik syujetda esa bir nechta yo‘nalishdagi yirik voqealar bir-biriga mustahkam bog‘lanadi. Hayot panoramasi keng va chuqur tahlil etiladi. Qahramon xarakteri va qalbidagi o‘ziga xosliklar, yangilanishlar, o‘sish-o‘zgarishlarning barchasi asoslanadi. «Urush va tinchlik»(L.Tolstoy), «Forsaytlar haqida qissalar» (Golsuorsi), «Qullar»(S.Ayniy), «Asrni qaritgan kum»(Ch.Aytmatov), «Ufq»(S.Ahmad) kabi asarlar dalil bo‘la oladi.

Syujetning uch xil tipi hamon amaliyotda qo‘llaniladi, ularni yaratish, kashf etish imkoniyatlari cheksizdir. Faqatgina ularni tanlash – yozuvchining iqtidoriga, mahoratiga bog‘liq, yanada to‘g‘riroq‘i, yozuvchi ifoda qilmoqchi bo‘lgan g‘oyaga, g‘oyaning sertarmoqligiga, chuqurligiga borib taqaladi.

Badiiy (konsentrik tipdagi epik va dramatik) asarlarda voqealar silsilasi muayyan bosqichlar bilan o‘sib borishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularning har biri turli ilmiy tushunchalar bilan yuritiladi.

1. **Prolog** (gr.pro-old, avval, logos-so‘z) – **muqaddima** (arab.

kirish, debocha, asarning dastlabki tushuntirish, boshlanish qismi ma'nolarini beradi)da yozuvchining niyati va maqsadi yoki tasvirlamoqchi bo'lgan voqealarining qisqacha, siqiq tarzdag'i izbori beriladi. Ba'zida asosiy voqeadan uzoq bo'lgan, lekin keyinchalik shu voqeani oydinlashtiruvchi biron-bir ko'rinish tasvirlanishi mumkin.

2. **Ekspozisiya** (lat. expositio-tushuntirish) – **dastlabki holatda** asarda yuz beruvchi voqealarning o'rni, joyi, asar qahramonlarining harakatlariga turki beruvchi dastlabki voqealar tasvirlanadi.

3. **Tugun** – badiiy asardagi harakatning boshlanishi, konfliktning «urug'i». U ilk tarzda «urug» shaklida ko'ringan qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Konfliktning boshlanish jarayonidan xabar beradi.

4. **Voqeа rivoji**. Tugundan boshlab to kulminatsion cho'qqigacha tasvirini topgan voqealar – voqeа rivoji hisoblanadi. Voqeа rivojida – obrazlarning o'zaro munosabatlari (kurashlari, simpatiya va antipatiyalari) keng va batafsil tasvirlanadi, xarakterlarning qirralari ochiladi, asarda aks ettiriluvchi muammo o'zligini bo'yи-basti bilan yaqqol ko'rsatadi.

6. **Yechimda** asar syujetidagi voqeа va qahramonlar taqdiri hal qilinadi. Tugun yechiladi. Kurash xotima topadi.

7. **Epilog** (yun. epi – so'ng, logos – so'z) – **xotima** (ar. Biro narsaning oxiri, tamom bo'lishi) syujetning asosiy voqealarini tamom bo'lsa-da, hamon taqdiri aniq bo'limgan ba'zi qahramonlarning qismati xotima topadi.

«Asarning syujetli bo'lishi uning estetik qimmatining eng muhim shartlaridan biridir. Syujetsizlik badiysizlikka olib keladi» (N.Chernishevskiy) ekan, u adabiyotning uchinchi elementi (M.Gorkiy) sanalarkan, demak, syujet badiiy adabiyotning barcha turlari va janrlarida bo'lishi tabiiydir. Lekin uning voqe bo'lishi har bir tur va janrning predmetiga, tabiatiga mos bo'ladi. Chunonchi, g'azalda ham syujet mavjud, unda, ayniqsa, syujetning to'rtta tarkibiy qismi (tugun, voqeа rivoji, kulminasiya, yechim) doimo mavjud bo'ladi. Eng asosiysi, unda voqeа rivoji yaqqol ko'rinmasada, tasvirlanayotgan kechinma (hislar, tuyg'ular silsilasi) tarixi, taraqqiyoti, rivoji, yakuni ko'zga tashlanadi.

Har bir asar syujeti asosida yotgan ana shu hayotiy ziddiyat konflikt deb ataladi. Konflikt – badiiy asarda tasvirlangan xarakterlar, ifoda etilgan g'oyalar, kayfiyatlarining kurashidir. Konflikt lotincha

«to‘qnashuv» demakdir. Konflikt termini adabiyotshunoslik va tanqidda kolliziya terminini siqib chiqardi. Kolliziya termini hozirgi vaqtida hali ro‘yobga chiqmagan konflikt ma’nosida ko‘proq ishlataladi, konflikt esa kolliziyaning o‘tkir namoyon bo‘lishi ma’nosida qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Syujetida konflikt bo‘limgan asar ta\*sirchan emas, chunki unda hayotiy haqiqat to‘la va izchil ifodalanmaydi. Faqat xarakterlarning to‘qnashuvi natijasidagina ularning ichki dunyosi to‘liq ochiladi. Konflikt butun asar syujeti va mazmunining yo‘nalishini ta’min etadi. Konfliktsiz syujet «yasash» mumkin emas. Chunki o‘zining chuqur mohiyati jihatidan syujet harakat etayotgan kolliziyadir.

Hayotda konfliktning uch xili ko‘proq uchraydi va badiiy adabiyotda ham asosan shu uch xil konflikt o‘z aksini topadi.

1. Asar qahramonlari bilan ular yashayotgan hayotiy sharoit orasidagi konflikt.

2. Bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar o‘rtasidagi konflikt.

3. Asar qahramonlarining ichki dunyosidagi qarama-qarshilikning in’ikosi sifatida ularning xarakteridagi ojiz jihatlar bilan kuchli tomonlarining kurashi tarzida namoyon bo‘ladigan konflikt.

Badiiy asarga yaxlit tizim sifatida qarashlar jiddiy tus olayotgan hozirgi davr adabiyotshunoslida muayyan bir ijodkor uslubi yoki aniq bir asar uslubi tadqiq qilinganda syujet qurilishi masalasiga ham e’tibor beriladi. Badiiy asarda hikoya qilinayotgan voqeа odatda «syujet» deb yuritiladi<sup>1</sup>. Tabiiyki, yozuvchi badiiy asarning bevosita mazmun-mohiyatini tashkil etadigan, o‘zaro ichki bog‘lanishga ega hamda rivojlanib boradigan hayotiy voqealar tizimini o‘z poetik tasakkuriga mos ravishda ishlab chiqadi. Badiiy asar syujetida qahramonlar xarakteri aks etadi, shu bilan birga ichki to‘qnashuvlar, konflikt va kolliziylar syujetni umumlashtiradi.

<sup>1</sup> Ходжоров Д. Ҳозирги ўзбек киссаларида бадиий услуб муаммоси (Шойим йўтеп ва Назар Эшонқул киссалари мисолида): Филол. фан.фал. д-ри ...дисс. Т., 2017. – Б.78.

## Savol va topshiriqlar:

1. Syujet – xarakterlar namoyon bo‘ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi ekanligini muayyan asar misolida izohlang.
2. «Yasama», «Tayyor», «Sayyor» (Ko‘chib yuruvchi) syujetlar asosida yaratilgan badiiy asarlarni tahlil qiling.
3. Konflikt – syujetni harakatga soluvchi kuch ekanini Xolid Husayniyning «Shamol ortidan yugurib» romani asosida tahlil qiling.
4. Syujetning tarkibiy qismlari: prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminasiya, yechim va epilogni «Qiyomat» romani asosida tahlil qiling.
5. Bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar o‘rtasidagi konfliktni «Hamlet» tragediyasi asosida izohlang.

### Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan test topshiriqlari

#### I. «O‘tkan kunlar» romanidan olingan parchalarni tahlil qilib, syujet unsurlarining muvofig‘ini yozing.

T/r	Syujet Unsurlari	«O‘tkan kunlar» romanidan olingan parchalar
		Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dostonchiliq, ro‘monchiliq va hikoyachiliqlarda ham yangarishg‘a, xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo‘r»lari bilan tanishdirishka o‘zimizda majburiyat his etamiz.
		1264-inchi hijriy, dalv oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir... Darbozasi sharqi-janubiyiga qaratib qurilg‘an bu dong-dor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarları egallaganlar, saroydagı bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qarag‘anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kkta ko‘tgudek.

		<p>— So'zingizning to'g'rilig'ida shubha yo'q, — dedi, — ammo shuni ham qo'shamoq kerakki, oladirg'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xoting'a muvofiquttab' bo'lsin.</p> <p>— Xoting'a muvofiq bo'lish va bo'lmasliqni uncha keragi yo'q, — dedi Homid e'tirozlanib, — xotinlarga «er» degan ismnинг o'zi kifoya... ammo jiyan aytkандек, xotin degan erga muvofiq bo'lsa bas.</p> <p>Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham isteh-zolik tabassum orasi Homidga ko'z qirimi tashladi.</p>
		<p>Otabek Kumushga uylanadi. Kumushdan benasib qolgan Homid tuhmat uyuştiradi: uning chaqimchiligi natijasida Otabek va Qutidor qamoqqa olinib, dorga oishsga hukm qilinadilar. Gunohsizligi oshkor bo'lib, dor yonidan qaytadilar. O'zbek oyim tazyiqi (to'g'rirog'i orzusi) tufayli Otabek Zaynabga uylanadi. Homid Otabek nomidan «ataloq xati»ni uyuştiradi. Qutidor kuyovini darbozasi oldida «Uyatsizga manim uyimdan o'rinn yo'q, uysatsiz bilan so'zlashishga ham toqatim yo'q» — deya quvlaydi. Kumush Komilbekka unashtiriladi. Komilbek o'ldiriladi. Homidning siri fosh bo'ladi. Otabek u bilan kurashishga bel bog'laydi.</p>
		<p>Otabek bilan Homidning hayot-mamot kurashining yakuni, ya'ni Kumushni o'g'irlashga urinish kechasi Otabek tomonidan avval Mutual polvon, so'ng Sodiq tomteshar, keyin Homidning o'ldirilishi.</p>
		<p>Kumushning vafoti, Otabekning shahid bo'lishi.</p>
		<p>Keyingi Marg'ilon borishimda yaqin o'rtoqlardan Yodgorbek to'g'risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o'n to'qquz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o'g'ul qolibdir. O'g'ullaridan bittasi bu kunda Marg'ilonning mas'ul ishchilaridan bo'lib, ikkinchisi Farg'ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nom-u nishonsiz, o'luk-tirigi ma'lum emas, deydlar.</p>

## II. Keltirilgan parcha qaysi mashhur asardan olingan va konfliktning qaysi turi qo'llanilgan? Quyidagi beriladigan fikrlarning qaysilari to'g'ri bo'lsa «ha», noto'g'ri bo'lsa «yo'q» so'zlarini qo'ying.

Dedi: Qaydinsen, ey majnuni gumrah,

Dedi: Majnun vatandin qayda ogah.

Dedi: Nedur sanga olamda pesha

Dedi: Ishq ichra majnunluq hamesha.

Dedi: Bu ishdin o'lmas kasb ro'zi,

Dedi: Kasb o'lsa basdur ishq so'zi.  
 Dedikim: Ishq o'tidin de fasona!  
 Dedi: Kuymay kishi topmas nishona.  
 Dedikim: Kuymagingni ayla ma'lum!  
 Dedi: Andin erur joh ahli mahrum!  
 Dedi: Qay chog'din o'ldung ishq aro mast.  
 Dedi: Ruh ermas erdi tang'a payvast.  
 Dedi: Bu ishqdin inkor qilg'il!  
 Dedi: Bu so'zdin istig'for qilg'il!  
 Dedi: Oshiqqa ne ish ko'p qilur zo'r.  
 Dedi: Furqat kuni ishqqi balosho'r.  
 Dedi: Ishq ahlining nedur hayoti  
 Dedi: Vasl ichra jonon iltifoti.  
 Dedikim: Dilbaringning de sifotin!  
 Dedi: Til g'ayratidin tutmon otin!  
 Dedikim: Ishqig'a ko'nglung o'rundur.  
 Dedi: Ko'nglumda jondek yoshurundur.  
 Dedi: Vaslig'a borsen orzumand.  
 Dedi: Bormen xayoli birla xursand.  
 Dedi: No'shi labidin topqay el bahr  
 Dedi: Ul no'shdin el qismidur zahr.  
 Dedi: Joningni olsa la'li yodi  
 Dedikim: Ushbudur jonom murodi.  
 Dedi: Ko'ksungni gar chok etsa bebok  
 Dedi: Ko'nglum tutay ham ayla deb chok!

Javob	Psixologik (ruhiy) konflikt	Ijtimoiy konflikt	Shaxsiy- intim konflikt

### III. Mazkur asarlarning syujet turlaridan qaysisiga mansubligini aniqlang.

1.	«Alpomish» (o'zbek xalq dostoni)
2.	«Odisseya» (Gomer)
3.	«Sariq devni minib» (X.To'xtaboyev)
4.	«Shohnoma» (Firdavsiy)
5.	«Gildebrand va Gadubrand» (nemis xalq dostoni)

6.	«Gulliverning sayohatlari» (J.Swift)
7.	«Odam amfibiya» (A.Belyayev)
8.	«Oydagi birinchi odamlar» (G.Uells)
9.	«Xamsa» (Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Navoiy tomonidan yaratilgan «Xamsa»chilik an'anaşı)
10.	«Navoiy»(Oybek)
11.	«Ulug‘bek xazinası» (O.Yoqubov)
12.	«Yulduzli tunlar» (P.Qodirov)
13.	«Bolalik» (Oybek)
14.	«O‘tmishdan ertaklar» (A.Qahhor)
15.	«Otandan qolgan dalalar» (Tog‘ay Murod)
16.	«Graf Monte Kristo» (A.Dyuma)
17.	«Akka-uka Karamazovlar» (F.Dostoyevskiy)
18.	«Oxirzamon nishonaları» (Ch.Aytamatov)
19.	«Uliss» (J.Joys)
20.	«Shamol ortidan yugurib» (X. Husayniy)

Javob	«dayyor» yoki «hayotiy» syujet	«yasama» syujet	«sayyor» syujet

## VI. Syujet unsurlarini izohi bilan moslang.

Prolog	syujetning kirish, boshlanma qismi; asar voqeasi bo‘lib o‘tdigan joy, qahramonlarning konfliktgacha bo‘lgan paytdagi qiyofasi, holatini namoyon etadigan vaziyat, shart-sharoit tasviri.
Yechim	badiiy asar syujetida konflikt va harakatning paydo bo‘lishi, boshlanishiga sabab bo‘ladigan voqeasi.
Epilog	syujet tugunidan so‘ng asarda voqealining zo‘rayib, kengayib, keskinlashib borishi.
Kulminatsiya	asardagi voqealar rivojining yuksak cho‘qqisi.
Fugun	asarda tasvirlangan voqealarning rivojlaniishi natijasida yuzaga kelgan qahramonlarning holati, ular o‘rtasidagi kurashning xotimasi.
Ikkospozitsiya	adabiy asardagi muqaddimaning bir turi bo‘lib, bunday muqaddima kitobxonni muallif niyati, asarda tasvirlanadigan voqealardan avvalgi voqealarning qisqacha mazmuni bilan, pyesalarda esa qatnashuvchilar bilan tanishtiradi.
Vieqea rivoji	badiiy asar oxirida qahamonlarning keyingi taqdirini so‘zlab beruvchi xotima.

Javob						
-------	--	--	--	--	--	--

## V. Syujet turlarini izohi bilan moslang

1	Xronikali	A	Voqealar birin-ketin hikoya qilinmay, ma'lum joyida to'xtalib so'ng oldingi voqealarga murojaat qilinadi. Ba'zi asarlar umumiyligida qaytishga asoslansa, ayrim masalalarda vaqtiga vaqtiga bilan voqealar hamda qahramonlarning o'tmishiga qaytib turiladi.
2	Retrospektiv	B	Igarilarasi asosan lirik asarlar uchun xarakterli bo'lib, lirika tashqi hodisalarga shoirning munosabati yoki tashqi hodisa-lar ta'sirida shoir shaxsida tug'ilgan tuyg'u va kechinmalarga asoslanardi. Hozirda yirik nasriy va dramatik asarlar uchun ham xos bo'lib qolmoqda. Bunday asarlarda hikoya qilinmaydi, balki qahramonning xotira-lari, o'y-xayollari, tasavvurlari oqimi beriladi.
3	Kontsentrik	C	A voqeaya yuz berganidan keyin B voqeaya sodir bo'lishi, ya'ni bir-biri bilan bog'liq voqealarning ketma-ket yuz berishi, vaqt bilan o'zaro bog'langan voqealar
4	Assotsiativ	D	Voqealari biror sabab bilan bog'langan bo'lib, voqealar bitta asosiy voqeaya atrofida aylanadi. Bunday asarlarda voqealar shiddat bilan rivojlanib boradi va o'quvchining diqqatini boshqa voqealarga bevosita aloqador asosiy muammoga qaratiladi

Javob	1	2	3	4
-------	---	---	---	---

## Foydalanilgan adabiyotlar:

- Горький М. Собр. соч.: в 30 т. М.: ГИХЛ, 1953. Т. 27. – 589 с.
- Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989. – 648 с.
- Путилов Б. Мотив как сюжетообразующий элемент // Типологические исследования по фольклору. – М.: Наука, 1975. – С. 141–155.
- Жаббор Эшонкул. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 2011. – 304 б.

## BADIY ASAR KOMPOZITSIYASI

### Reja:

1. Kompozitsiyaning mohiyati, funksiyasi va ahamiyati.
2. Kompozitsiya unsurlari.
3. Asar sarlavhasi – semiotik kalit.
4. Badiy zamon va makon (xronotop).

*Tayanch tushunchalar: kompozitsiya, arxitektonika, kompozitsion tafakkur, epigraf, sarlavha, lirk chekinish, qistirma epizod, asar annotatsiyasi, semiotik kalit, badiy qoliplash, xronotop, badiy zamon, badiy makon.*

Kompozitsiya lotincha so‘z bo‘lib, «tuzilish, qurilish, tarkib» demakdir. Badiy asar kompozitsiyasiga: «badiy asar qismlari, detallari, badiy tasvir vositalarining ma’lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishi» deb ta’rif beriladi. Bundan kompozitsiya badiy asarning barcha unsurlari bilan uzviy aloqador ekanligi anglashiladi. Har qanday asarning mazmuni, g‘oyasi, qahramonlari qiyofasi, ta’sirchanlik darajasi uning kompozitsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Chunki ijodkorning mahorati, uning hayotni, inson obrazini ko‘rsatishdagi o‘ziga xos izlanishlari, avvalo, asar kompozitsiyasida aniq namoyon bo‘ladi. Chunki kompozitsiya asarning barcha jihat - qahramonlar qiyofasi, ularning xatti-harakati, holati, nutqi, voqealar yuz bergen joy manzarasi va hokazolarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Arxitektonika esa adabiy asarning tashqi qurilishi, ya’ni uning asosiy qismlari (boblar, fasllar; parda, ko‘rinish) ning yaxlit birlashtirishidir. «Kompozitsiya» termini arxitektonikaga nisbatan keng qamrovli tushuncha bo‘lib, arxitektonika ham uning tarkibiga kiruvchi unsurdir. Kompozitsiya esa badiy asar qismlarini yaxlit badiy niyat asosida joylashtirish asosida badiy mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun asardagi barcha qismlarni muayyan maqsadga muvofiq o‘zaro uyg‘unlashtirishdir. Shunga erishilgani-da asar tarkibidagi har bir unsur o‘ziga xos vazifani bajaradi. Asar tarkibidagi matn qurilishi (bob, sarlavha, asosiy va yondosh matn), badiy nutq shakllari (hikoyalash, tavsif, dialog), rivoya sub’ektlari (muallif, personaj, o‘zga shaxs), nuqtai nazar (roviy yoki personaj

nigohi orqali ko‘rish)larning maqsadli almashinib turishi, personajlar sistemasi (bosh, ikkinchi darajali va yordamchi personajlar tarzida darajalanishi, ularning shunga mos o‘zaro munosabati), syujet qurilishi (voqealarning zamon yoki sabab-natija munosabati asosida -gi aloqadorligi, yuz berish va hikoya qilinish vaqtiga, turli makon va zamonda kechayotgan voqealarning o‘zaro bog‘liqligi, makoniylari o‘zgarishlarning asoslanishi va boshqa) kabilar kompozitsiyaning asosiy unsurlaridir. Bundan kompozitsiya asarni san’at hodisasiga aylantiradigan eng muhim omil ekanligi ayon bo‘ladi. Shuning uchun muayyan asar badiiyati haqida gap ketganda, ijodkorning badiiy mahorati haqida so‘z borganda, albatta, birinchi navbatda, asar kompozitsiyasiga e’tibor qaratiladi. Chunki aynan kompozitsiya tufayli badiiy asarda hayot muayyan badiiy shaklga solingan holda aks ettiriladi, unda yangi reallik - badiiy voqelik yaratiladi<sup>1</sup>. Kompozistiya asar mazmunini eng mukammal tusda reallashtiruvchi shakliy kategoriadir. U ijodiy metod, adabiy yo‘nalish, oqim va ularga xos ijod tamoyillari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Jahon adabiyotshunosligida amebey kompozitsiya termini mavjud. Amebey kompozitsiya – (gr. amidaios – o‘zaro so‘zidan). Badiiy asarning parallelizmiga, biror asosiy qismlari yoki obrazlarining takrorlanishiga asoslangan qurilishi. Amebey kompozitsiya dastlab qadimgi grek adabiyotida yuzaga kelgan. U xalq she’riyatida ko‘p uchraydi. Amebey kompozistiya asosida qurilgan asarlarning badiiy ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi.

Kompozitsiyaning mohiyati, funksiyasi va ahamiyati haqida qarashlar mushtarak bo‘lsa-da, uning elementlari – kompozitsion birliklar masalasida turlicha fikrlar mavjud. Jumladan, ayrim mutaxassislar asarning bitta tasvir shakli (rivoya, tavsif, dialog, monolog, ichki monolog, maktub, lirik chekinish kabi) saqlangan qismini, boshqa birlari esa uning bitta nuqtai nazardan tasvirlangan qismini bitta kompozitsion birlik hisoblaydilar. Shuningdek, kompozitsiyani asar nutqiy qurilishidan kelib chiqqan holda tavsiflash yoki u haqda syujetni asos qilib olgan holda fikrlash an’anasi ham mavjud.

Kompozitsiya syujetdan kengroq hodisa sanaladi, chunki u

---

<sup>1</sup> Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 60.

syujetni ham, syujetdan tashqarida qoluvchi vositalarni ham o‘zida jamg‘aradi. Syujetdan tashqarida qolgan badiiy unsurlar – **kompozitsion vositalar** deb yuritiladi va ularning barchasi asarning birbutun va mukammal bo‘lishiga xizmat giladi. Shuning uchun ham kompozitsiyani adabiy asarga tugallik va yaxlitlik baxshida etuvchi, yakunlovchi adabiy-badiiy shakl deb yuritadilar. Kompozitsion vositalardan ba’zilarini hukmingizga havola qilamiz.

1. **Asar sarlavhasi.** «Aniqlik va qisqalik nasning birinchi ustunligidir. U fikrni talab etadi, busiz go‘zal ifoda hech narsaga xizmat qilmaydi» ekan, asar sarlavhasi bir yoki bir necha so‘zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan mazmunni o‘zida aniq jamg‘arishi, nomlanishidanoq kitobxonnnini o‘ziga jalb qilishi lozim.

2. **Epigraf** (yun. Epigraphe-yozuv). Dastavval, u qadimgi Gretsiyada qabr toshlariga yozilgan she’rlarning janri bo‘lgan. Keyinchalik va hozir ham xalq og‘zaki ijodi yoki yozma adabiyotdan olingan hikmatli so‘z, maqol, parcha yoki iboralarning boshqa bir asar (uning sarlavhasidan keyin, qismi va bobining boshlanishi)da bittasini yoki bir nechtasini keltirilishiga epigraf atamasi ishlataladi. Epiraf hamma asarlarda bo‘lavermaydi, lekin u doimo qisqa, sodda bo‘lishi, ibratlari mazmunni o‘zida jamg‘arishi lozim. Eng asosiysi, muayyan asarning mazmunini o‘zida tashishi yoki shu mazmun qanday bo‘lishiga urg‘u berishi (ba’zida isbotlashi) talab qilinadi.

3. **Lirik chekinish.** San’atkor asarida yaratayotgan syujet voqealaridan ba’zida o‘zi ham ta’sirlanib ketadi, qalbida tug‘yonlar, hislar, fikrlar quyulib kelaveradi. Shu jarayonda syujet voqealarini to‘xtatadi-da, ana shu kechinmalarni ifodalaydi. Bu holat – lirik chekinishni keltirib chiqaradi. Lirik asar – shoir kechinmalarining ifodasi, dramatik asarda muallif nutqi ishtirok etmasligini hisobga olsak, lirik chekinishlar liro-epik asarlarda uchraydi.

4. **Qistirma epizod.** Syujet yo‘nalishiga bevosita aloqador bo‘lmagan, ammo asar g‘oyaviy mazmunini ko‘p tarmoqli qiladigan, uni bilvosita chuqurlashtiradigan va yangi taqdirlar misolida ta’kidlaydigan qo‘srimcha voqe – qistirma epizod sanaladi.

5. **Badiiy qoliplash.** Bosh voqeа doirasi ichida, unga g‘oyaviy mazmun va kompozitsion jihatdan bog‘lab, turli mustaqil voqealarni tasvirlash usuli – badiiy qoliplash deb yuritiladi.

6. **Asar annotatsiyasi** (lat. Annotacio – xabar, ma’lumot). Unda

asarning qisqacha xarakteristikasi beriladi: uning mazmuni, ahamiyati juda siqiq tarzda bayon qilinadi. Ba'zida asarning qaysi kitobxonlarga mo'ljallangani ham aytildi. Asar annotatsiyasi, asosan, muayyan asar titul varag'ining ikkinchi betida joylashadi. Asar annotatsiyasi (qisqa qaydlar yoki ma'lumotlar) hamma asarlarda ham bo'lishi shart emas. Lekin agar bo'lsa, u kitobxonni asarni o'qishga yetaklashi lozim.

Kompozitsiya syujetning hamma yo'nalişlarini bir g'oyaviy markazga to'playdi va uning talabiga muvofiq tarzda, tasvir me'yoriga amal qilgan holda uning qismalarini hattoki syujetdan tashqarida yashovchi unsurlar (asar sarlavhasi, epigraf, lirik chekinish, qistirma epizod va h.)ni ham joy-joyiga tartiblashtiradi.

Badiiy asarning nomi – semiotik kalit. Kalit esa mohiyati, borlig'ini belgilovchi konsepsiyaning aniq, lo'nda ifodasi. Ifodalanayotgan konsepsiya hayotiy, to'liq anglab yetilgan bo'lsa, yozuvi dastxati ravon, jumlayu kalomlar mag'izi to'q bo'ladi. Badiiy asar konsepsiysi goho tasvir predmeti salmog'i deb ham ataladi. Tasvir predmeti salmog'i janri belgilashda qo'l keladi. Janrlar, xususan, roman, qissa, hikoya ta'rifi berilganda ko'pincha tashqi (yuzaki) salmoqqa e'tibor qaratish udumi avj olgan. Janr, sarlavha, konsepsiya (tasvir predmeti salmog'i) asarning ilk semiotik markazida yarqirab ko'zga tashlanadi. Ilk semiotik markaz deganda aksariyat hollarda birinchi misra (satr, jumla) tushuniladi. Ilk jumla (satr, misra) birinchi taassurot, asar haqidagi g'ayrishuuriy anglash manbai ekanligidan tashqari semiotik markazga yo'l ko'rsatuvchi ishora hamdir. Semiotik markaz she'riyatda ko'proq tugallanmada, portlovchi oxirgi bayt yoxud misrada bo'ladi!

Ivan Bunin asarning ilk jumlesi, ya'ni sarlavhaning mohiyati, qimmatini shunday baholaydi: «Ijodning ilk bosqichida asarning umumiy ohangi qulog'imga chalinadi. Muhimi, dastlabki yozilgan jumlaning asar taqdirini hal etuvchi ahamiyatga egaligida. Ilk jumla asar janrini, maromini belgilab beradi... Modomiki, qulqoqqa chalingan o'sha ohang rivoj topmasa, shubhasiz, chalg'ib ketasan, boshlagan asaringni bir chetga surib qo'yasan yoki undan bir narsa chiqmaydi, tashlab yuborasan».

Har qanday asarning asosi sanalgan syujet va kompozitsiya juda

murakkab hodisa bo‘lib, ular asarning boshqa unsurlarini ham qamrab oladi. Badiiy asar matnida zamon va makon ta’siri ham alohida o‘rin egallaydi. Adabiyotda badiiy o‘zlashtirilgan zamon va makon munosabatlarining o‘zaro muhim aloqasi **xronotop** (**zamonmakon**) deyiladi. Xronotop adabiyotning shakl-mazmun kategoriyasi sifatida talqin etiladi. «Xronotopda zamon va makon belgilari anglangan va aniq yaxlitlikda uyg‘unlashuvi ko‘zga tashlanadi. Bunda zamon tig‘izlashadi, zichlashadi, badiiy sezilarli bo‘ladi, makon esa zamon, syujet, tarix harakatlariga intensivlashadi, tortiladi. Zamonning ko‘rinish belgi-alomatlari makonda namoyon bo‘ladi, makon esa zamon orqali anglanadi va o‘lchanadi»<sup>1</sup>. Aynan shu sababdan ham badiiy asarda zamonni makondan yoki aksincha, makonni zamondan, garchi ular alohida-alohida mustaqil adabiy-estetik hodisa-kategoriyalar hisoblansa-da, ustuvorlikda qarash mumkin emas. Chunki badiiy asarda zamon va makonning ham shakl, ham mazmun jihatdan ahamiyatlari bir xil. Yaxlit makon olamida zamonni ko‘rish qobiliyatini M.M.Baxtin haqiqiy so‘z san’atkorining eng qimmatli fazilatlaridan biri hisoblaydi<sup>2</sup>. Badiiy asar zamonining o‘ziga xosligi unga vogelikdagi o‘zgarishlarni, shakllanish, rivojlanish jarayonlarini berish imkonini tug‘diradi.

Adabiyot san’at namunasi maqomida shakllangan davrlardan beri qaysi adabiy tur, janrga taalluqliligidan qat‘i nazar, zamon va makonni badiiy vogelikning mustaqil jabhasi, asar badiiy to‘qimasining o‘ziga xos hodisasi, asar mazmunini tashkil etishning faol vositalaridan biri sifatlarida ijodiy-estetik o‘zlashtirish bilan badiiy takomillashib kelmoqda. Badiiy so‘z ustasi o‘z ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda, zamon va makonni adabiy yangicha kashf qilish, ularni istagancha erkin tanlash, bir kunga asrlarni, asrga esa bir kunni sig‘dirishdek badiiy zamon hamda badiiy makondan ijodiy erkin foydalanish san’atini namoyon qiladi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худож. лит., 1975.  
– С.234-235.

<sup>2</sup> Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Худож. лит., 1986.  
– С.21.

<sup>3</sup> Тўраева Б. Тарихий романларда бадний замон муаммоси (О.Ёқубов ва И.Қодиров романлари мисолида): Филол. фан.фал. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2018.  
– Ь. 16.

Badiiy adabiyot dinamik san'at guruhiga mansub. Shunga qaramay, adabiy-poetik obraz asar matni izchilligi o'laroq, zamon-makonda rasman mufassallashib, o'z mazmuni bilan dunyoning zamon-makon «modeli»ni ramziy yaxlit aks ettiradi. Badiiy asarni obrazlar ritmining zamon-makonda amalga oshiradigan qaydi, deyilishi sababi ana shunda. «Obraz, albatta, shunday ma'noda berilganki, – deb ta'kidlaydi N.K. Gey, – uning istalgan har qanday mazmuni kim bilandir bog'langan, qayerdadir va qachonlardir sodir bo'lganligini chamalaydi. Bu yozuvchi uchun zarur bo'lgan uch boshlang'ich miqdor – badiiy olamning uch o'Ichovidir... Mazkur o'zgarmas son-miqdorlarsiz obraz o'zini namoyon qila olmaydi. M.Baxtin ifodasi bilan aytganda: «Tafakkur kengliklariga tomon har qanday parvoz faqat xronotop qopqasi orqali bo'ladi<sup>1</sup>. Xronotop – tub mohiyatiga ko'ra tarixiy tushuncha. Ushbu nazariy istiloh yunoncha chronos (zamon, vaqt) va topos (makon, joy) so'zlarining qo'shilmasidan hosil qilingan bo'lib, o'zbek tilida zamon-makon degan ma'noni bildiradi. Barcha tabiiy-astronomik, ijtimoiy-tarixiy, madaniy-falsafiy, badiiy-estetik hodisalar jarayonida zamon-makonning uyg'un harakatini ifodalaydi. Badiiy adabiyot xronotopning barcha tip, shakllarini ma'lum ma'noda qamrab oladi. Bunda, albatta, badiiy asarning mazmun va shakl ko'lami muhim ahamiyat kasb etadi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Kompozitsiya va arxitektonika terminlarini izohlang.
2. «Somon yo'li» qissasini kompozitsiya unsurlariga ko'ra tahlil qiling.
3. Asar strukturasi, syujet va kompozitsiyasini uyuştirishda, badiiy voqelikning tugal yaxlitlikda qabul qilinishini ta'minlashda badiiy zamonning ahamiyati qanday?
4. Badiiy asar sarlavhasi qanday badiiy yuk tashiydi?
5. Badiiy asarda bir asrga teng voqealarni bir kunda tasvirlanishi («Asrga tatigulik kun») yoki yuz yillarga sochib yuborilishi

---

<sup>1</sup> Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтиканан очерклар. Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси. – Тошкент: Академнашр, 2015. – б. 257.

(«Tanhilikning yuz yili»)da yozuvchining g‘oyaviy niyati nimadan iborat?

### **Blum taksonomiyasи asosida tuzilgan test topshiriqlari**

**I. «O‘tkan kunlar» romanidan olingen parchalarni tahlil qilib, kompozitsiya unsurlarining muvofiq‘ini yozing.**

T/r	Kompozitsiya unsurlari	«O‘tkan kunlar» romanidan olingen parchalar
		«O‘tkan kunlar»
		Qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o‘lturdi. Sariq rupoh atlas ko‘ynakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi bir oz ko‘tarilib turmoq-da edi. Turib o‘lturgach boshini bir silkitdi-da. ijirg‘anib qo‘ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to‘zg‘ig‘an soch tolalari o‘rab olib jonso‘z bir suratka kirdizdi.
		Men – yozg‘uchi, «O‘tkan kunlar» hikoyalari otam marhumdan necha qaytalab eshitsam ham zerikmas edim, faqat bir joyigina meni zeriktirar edi. Bu kun men shu «O‘tkan kunlar»ni qalamga olganimda ham o‘sha o‘zimni zeriktirgan faslini tashlab o‘tishka majbur bo‘ldim. Darhaqiqat, o‘z oramizda kundash janjalini kim bilmasin? Arzimagan gap ustida dunyo buzg‘an kundash to‘polonlari kimning qulog‘ig‘a yoqsin? O‘qug‘uchining qimmatlik vaqtini ayag‘animdek, qalamni ham bu g‘idi-bididan ozod qilishni muvofiq ko‘rdim. Meni kechirsinlar.
		Kuz kunlarining oyog‘i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to‘kilib tugalgan, yer yuzi o‘zining qishqi sariq kiyimini kiygan edi. To‘rt tomonining o‘ralg‘anlig‘i soyasida yaproqlarini to‘kilishdan saqlab qolg‘an bu gilos yog‘ochlari ham bu kun tungi qora sovuqqa chidalmay, yelning ozg‘ina harakati bilan-da barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning o‘zi ham bu kun uncha ta’siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi.

		( <i>Usta Alim hikoyasi</i> ). Otabek usta Alimni juda yuqori darajaga qo‘yg‘anidek, uning majlisi bilan ham ancha yengillashar, o‘n yillardin beri usta Alim yuragida saqlang‘an va qabrg‘a ham birga ketishi kutilgan ishq tarixini qayta-qayta eshitkusi kelaberar, usta Alim ham o‘zining o‘lgan Saodati to‘g‘risidag‘i ipidan-ignasigacha bo‘lg‘an xotiralarini takror-takror hikoya qilib, hikoyasi oxirida: «Peshonamga sig‘madi-da, o‘ldi», deb qo‘yar, bu so‘z Otabekning ham yuragiga sovuq suv sepkan ta’sirini berib, ul ham ko‘nglidan: «Manim ham peshonamga sig‘madi-da, tiriklayin o‘ldi» degan so‘zni o‘tquzar edi.
		Roman syujetining barcha chiziqlari Otabek va Kumush syujet chizig‘iga tutashishi, ya‘ni voqealarning qoliplanishi

## II. Amebey kompozitsiyasi terminiga berilgan to‘g‘ri izohlarni aniqlang va javoblar jadvaliga ha yokiy yo‘q so‘zlarini yozing.

1. Badiiy asarlarning parallelizmga, biror asosiy qismlari yoki obrazning takrorlanishiga asoslangan qurilishi.
2. Dastlab qadimgi grek adabiyotida yuzaga kelgan.
3. Xalq she’riyatida umuman uchramaydi.
4. Ushbu kompozitsiya asosida qurilgan asarlarning badiiy ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi.
5. Bu komozitsiya orqali badiiy asarda hayot muayyan badiiy shaklga solingan holda aks ettiriladi.

	1.	2.	3.	4.	5.
Javob					

## III. Kompozitsion vositalarni izohlari bilan juftlang.

1	Lirk chekinish	A	Badiiy asarda aks ettirilgan tabiat tasviri.
2	Kirish hikoya	B	Badiiy asarga muqqadima sifatida kiritilib, uning asosiy mazmuniga singdirilib yuborilgan, yordamchi hikoya sifatida asosiy bir ochqich vazifasini o‘taydigan hikoya.

3	Peyzaj	C	Badiiy asardagi yozuvchi nutqining bir turi bo'lib, ijodkor biror munosabat bilan asardagi asosiy bayonni to'xtatib, tasvirlanayotgan voqeaga o'z munosabatini yoki shu voqeaga ta'sirida vujudga kelgan kechinmani bayon etadi.
4	Portret	D	Asarda voqealar boshlanmasidan avval unga ishora qiluvchi lavha
5	Epigraf	E	Adabiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siyomosi, kiyim-kechagi va hokazolar tasviri

Javob	1.	2.	3.	4.	5.

#### IV. Epigraflarni qaysi asardan olinganini aniqlab, muvofig'i bilan moslang. Asar mazmun-mohiyatini ochishda mazkur epigraflarning o'rnnini aniqlang.

Takabburlik bilan ham mehr-muhabbat qozonish mumkin. Jil Visenti	Abdulhamid Cho'lpon. «Kecha va kunduz» (roman)
...Kimsan, ayt! — Men hargiz yomonlik tilab — Yaxshilik qilguvchi kuchning bir qismi. Gyote, «Faust»	A.Pushkin. «Yevgeniy Onegin» (she'riy roman)
Ham yashashga oshiqadi, ham his etishga shoshadi. K.Vyazemskiy	Mixail Bulgakov. «Usta va Margarita» (roman)
Hamal keldi, amal keldi. Xalq maqoli	Gabriel Garsia Markes. «Oshkora qotillik qissasi» (qissa).
Har kimning tug'ilgan yeri – Misr shahri	Chingiz Aytmatov. Asrni qaritgan kun» (roman)
Nafing qancha bo'lsa, umring shuncha	Abdulla Qahhor. «O'g'ri» (hikoya)
Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q, go'daklar nayza boshida	Abdulla Qahhor. «Bemor» (hikoya).
Bul kitob jismu fig'onimdir mening, Bu kalom jonu jahonimdir mening. Grigor Narekatsi «Musibatnomá», X asr	Ibroyim Yusupov. «Qadrdon so'qmoqlar» (she'r)

	Osmon yiroq, yer qattiq. (Xalq maqoli)		Cho'lpon. «Yong'in» (she'r)
	Otning o'limi – itning bayrami. (Xalq maqoli)		«Asqad Muxtor. «9-palata» (hikoya)
	Chirimoqda Sibirda ulug' turk shoirlari. Mehmed Emin Yurdaqul		Said Ahmad. «Qorako'z Majnun» (hikoya)
	Eng zo'r chiqish yo'li hamisha oradan o'tadi. Robert Frost		«Shoyim Bo'tayev. «Hisomiddin Al-Yog'iy» (tarixiy hikoya)
	Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobi) amallari, xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar. «Baqara» surasining 217-oyati		Halima Hudoyberdiyeva. «Uyg'on so'zin aytgach» (she'r)
	Rabbim de. Mariya! Valentin Rasputin		Faxriyor. «Kechinma» (she'r)

Javob							
	8.	9.	10.	11.	12.	13.	14.

## V. Syujet va kompozitsiyaga daxldor bo'lgan fikrlarni tahlil qilib, mos raqamlarni jadvalning javob qismiga yozing.

1. Adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi hayotiy voqealar majmui, kengroq ma'noda, konkret voqealar tizmasida namoyon bo'ladigan xarakterlar tarixi, poetik fikr-tuyg'ular oqimi.

2. Tasvirlanayotgan birliklarning va nutq vositalarining badiiy asar matnidagi o'zaro bog'liqligi va joylashish tartibi.

3. Badiiy asarni tashkil etuvchi va intizomga bo'ysundiruvchi kuch. Uning vazifasi biron-bir narsaning chetga chiqib ketishiga yo'qo'ymaslik, ayni chog'da, uning birbutunlikka birikishini nazorat qilishdir.

4. Fransuzcha, predmet, mazmun degan ma'nolarni anglatadi.

5. To'rt tipi mavjud: 1) xronikal; 2) retrospektiv; 3) konsentrik; 4) assotsiativ.

6. Asar sarlavhasi; epigraf; lirik chekinish; qistirma epizod; badiiy qoliplash; asar annotatsiyasi kabi vositalarni o‘z ichiga oladi.

Javob	Syujet	*
	Kompozitsiya	

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худож. лит., 1975. – 504 с.
2. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Худож. лит., 1986. – 424 с.
3. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикандан очерклар. Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 288 б.
4. Гей Н.К. Искусство слово. – М.: Наука, 1967. – 364 с.
5. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. – 336 б.
6. Тўраева Б. Тарихий романларда бадиий замон муаммоси (О.Ёқубов ва П.Қодиров романлари мисолида): Филол. фан.фал. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2018. – 148 б.
7. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 308 b.

## BADIY OBRAZ VA OBRAZLILIK

### Reja:

1. Obrazlilik – san’atning spetsifik xususiyati sifatida.
2. Badiy obraz tushunchasi.
3. Inson obrazi va uni yaratish yo‘llari.
4. Badiy obraz turlari.

*Tayanch tushunchalar: realistik obraz, romantik obraz, epik obraz, lirik obraz, dramatik obraz, xayoliy-fantastik obraz, afsonaviy obraz, mifologik obraz, majoziy obraz, kinoyaviy obraz, satirik obraz, yumoristik obraz, ijobiy obraz, salbiy obraz, tarixiy obraz, zamonaviy obraz, bosh obraz, yordamchi obraz, personaj, qahramon.*

Obraz san’at asaridagi inson tasviri sanalsa, obrazlilik san’atning umumiy xususiyati, hayotni aks ettirishning spetsifik shakli va usuli bo‘lib, adabiy ijodning umumiy xususiyatlarni: adabiy qahramon, badiy til, tabiat, predmet, hayvonot dunyosi tasviri va hokazolarni qamrab oladi. Demak, obrazlilik - keng ma’noda, badiy obraz – tor ma’noda qo‘llaniladi. Biroq «obraz» atamasining o‘zi ham ikki ma’noda, ya’ni keng va tor ma’nolarda ishlataladi. «Obraz» atamasi, keng ma’noda qo‘llanganda, obraz tushunchasi doirasiga inson tasviridan tashqari, peyzaj, detallar, buyumlar, predmetlar, jismlar, hayvonot dunyosi, asar tilidagi tasvir vositalari kiritiladi. «Obraz» atamasi tor ma’noda qo‘llanganda esa faqat inson hayotining badiiy manzaralari nazarda tutiladi. Badiy obraz deganda, borliq (undagi inson, narsa, hodisalarning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi tushuniladi. Albatta, bu aksda borliqning ko‘plab tanish izlari bor, biroq endi u biz bilgan borliqning ayni o‘zi emas, balki undan shartlilik asosida ajralgan yangi mavjudlik – badiy borliqdir. Xuddi shu hol badiy obrazni ob’ektiv va sub’ektiv ibtidolar birligiga aylantiradi. Ya’ni bir tomonidan, borliqning aksi sifatida badiy obraz makon va zamonda mavjud bo‘lgan konkret narsadek his etiladi. Ikkinchi tomondan, u tushuncha, tasavvur, faraz va sh.k. tafakkur unsurlariga xos xususiyatlarga ega: ijodkor badiy obraz vositasida fikrlaydi, borliqni oddiygina aks ettirmasdan, uni ijodiy qayta yaratadi. Shunga ko‘ra,

badiiy obrazning vujudga kelishini quyidagicha sxemada ko'rsatish mumkin: borliqning hislar orqali ongda akslanishi – tafakkur kuchi bilan o'z ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos ijodiy qayta ishlash va umumlashtirish – konkret his etiladigan tarzda (badiiy obraz shaklida) ifodalash. Konkret his etiladigan tarzda ifodalangan badiiy obraz qator spetsifik xususiyatlarga ega. Avvalo, badiiy obraz individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. Muallifni obraz va personajlardan ajratib bo'lmaydi. U bu obrazlar tarkibiga uning ajralmas qismi sifatida kiradi (obrazlar ikki turli va ba'zan ikkiovozlidir). Lekin muallif obrazini personajlar obrazlaridan ajratish zarur, ya'ni bu obraz muallifning o'zi tomonidan yaratilgan va shuning uchun ikkilikdir. Ko'pincha, personaj obrazlari o'tniga tirik insonlar nazarda tutiladi<sup>2</sup>.

Badiiy obraz obrazlilik tushunchasining bir qismi bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga munosabatda aniq bilinadi. Ma'lumki, san'at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettiriladi. San'atkor hayotni kuzatadi, kuzatib, diqqatini jalb etgan voqealarni tafakkur olamidan o'tkazadi, ularni qayta tashkil qilib, yana jonli hayot shaklida yaratadi. G'oyaviy – badiiy yetuk asarlardagi kishilar obrazi orqali biz muayyan davr ijtimoiy hayoti to'g'risida keng va konkret ma'lumot olamiz. «Obraz» deganda inson hayotining badiiy manzaralari tushuniladi<sup>3</sup>.

Adabiyotshunoslik ilmining kuzatishlariga ko'ra obraz yaratishning ikki yo'li mayjud:

1. Jamlash yo'li bilan obraz yaratish. Bu haqda N.G.Chernishevskiy «San'atning voqelikka estetik munosabatlari» asarida shunday yozadi: yozuvchi «ko'pgina individual shaxslarni kuzatadi; bularning hech qaysi tip bo'lib xizmat qila olmaydi; lekin u har biridan umumiylip xususiyatlarini aniqlaydi; barcha tasodifiy xislatlarni

<sup>1</sup> Куропов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Ташкент: Академнашр, 2013. – Б. 44.

<sup>2</sup> Болтабоев Х. XX asr адабиётшунослигига диалогизм ва Михаил Бактишининг адабий-эстетик таълимоти// Филология масалалари. – Т., 2016. № 4. – Б. 8-15.

<sup>3</sup> Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi./ Universitetlar va pedagogika institutlari filologiya, jurnalistika fakultetlari talabalari uchun darslik. – T.: G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 57.

chiqarib tashlab, har xil kishilarga xos bo‘lgan xususiyatlarni badiiy birbutunlikka birlashtirish yo‘li bilan xarakter yaratadi».

2. Prototip asosida badiiy obraz yaratish. Prototip (yunoncha protos-ilk, dastlabki; tupos-nuqta, nishona) – badiiy obraz uchun asos, nuqta bo‘ladi. Hayotda mavjud bo‘lgan tarixiy yoki zamondosh shaxsga tayanib yozuvchi obraz yaratar ekan, albatta, yuqorida ta’kidlangan obraz yaratishning barcha unsurlaridan foydalananadi. «Agar badiiy obraz jonli organizm deb faraz qilinadigan bo‘lsa, prototip shu organizmning skeleti, badiiy to‘qima – uning eti, estetik ideal esa qoni-joni. Tirik organizmning etini skeletidan, skeletini qoni-jonidan ajratib bo‘lamanidek, badiiy obraz «organizmi»dagi prototip badiiy to‘qimadan, badiiy to‘qimani estetik idealdan uzib olib bo‘lmaydi. Ular bir-birlariga payvandlashib, qo‘silib-chatishib ketadi»<sup>1</sup>.

Ijodiy metod taqozosiga ko‘ra obrazlar romantik va realistik bo‘ladi.

Romantik obrazlarda yozuvchi turmush haqidagi orzu va umidlarini tasvirlaydi. Bunday obrazlar garchi yozuvchi yashab turgan jamiyatda bo‘lmasa-da, yozuvchi orzu qilgan voqelikning ifodasi hisoblanadi.

Xarakter xususiyatlari, faoliyati hayotdagি real odamlarga mos keladigan tarzda umumlashtirib va aniqlashtirib, tipik sharoitda haqqoniylashtirib yaratiladigan obrazlarga realistik obrazlar deyiladi. Bunday obrazlarda ro‘y-rostlik, chinlik yorqin ifodasini topadi.

Adabiy tur va janrlar, uslub va tasviriyo vositalarga ko‘ra obrazlar quyidagicha bo‘ladilar:

1. Epik obrazlarda hayot voqeа-hodisalari keng va atroficha tasvirlanadi. Voqeabandlik, ob’ektiv tasvir ustunlik qiladi. Epik turlarning hamma janrlarida yaratilgan obrazlar – epiklik xislatlariga ega bo‘ladi.

2. Lirik obrazda voqelik inson kechinmalari (tuyg‘ulari, hislari, o‘ylari) orqali ifoda topadi. Lirik turning janrlari (she‘r, g‘azal, qasida, ruboiy, qo‘sish, ashula, yor-yor, alla va sh.k.)dagi lirik qahramon (oshiq, yor, raqib) obrazi – tipik misoldir.

<sup>1</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: “Ўзбекистон”, 2002. – Б. 48-49.

3. Dramatik obrazda voqelik harakat orqali sahnada voqe bo‘ladi. Tragediya, komediya, drama, libretto, miniatyura kabi janrlarda yaratilgan obrazlar – dramatik obrazlar deb yuritiladi.

4. Xayoliy-fantastik obrazlar – haddan tashqari bo‘rttirilgan, ilohiylashtirilgan, mo‘jizaviy xarakterga ega bo‘lgan qiyofalardir. Xalq og‘zaki ijodi (doston, ertak) dagi uchar gilam, ur to‘qmoq, dev, ajina, jin obrazlari.

5. Afsonaviy obrazlar – butunlay xayolning mevasidir, ular bitmas-tuganmas qudratgiga, yuksak fazilatlarga, mo‘jizaga ega bo‘ladilar.

6. Mifologik obrazlar – afsona asosida yaratilgan asotiriy qahramonlardir.

7. Ma’joziy (simvolik) obrazlar – predmetlar, o’simliklar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarни umumlashtirib ifodalash demakdir. Ma’joziy obrazlarda ifodalangan tasvirdan bevosita insonlarning munosabatini, ruhiy olamini anglaymiz.

8. Kinoyaviy (allegorik) obrazlar – hayvonlar, hasharotlar – turli jonivorlar insoniyashtiriladi, ayrim odamlarning fe'l-atvorigagi kamchilik, illatlar achchiq kulgu, yengil hazil bilan fosh qilinadi.

9. Satirik obrazlarda hayotdagi qusurlar ustidan zaharxanda kulgu, sarkazm, masxaralash usuli yetakchilik qiladi. Qahramonlardagi tashqi jihatdan ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin ichki jihatdan yaramas, arzimas odatlar fosh etiladi.

10. Yumoristik obrazlarda hayotdagi ayrim nuqsonlar yengil, quvnoq kulgu ostiga olinadi va ularni tuzatishga chorlaydi.

Asar qurilishida tutgan o‘rniga qarab obrazlar quyidagicha turlarga bo‘linadi:

1. Asar voqealarining markazida turib, asar syujetini harakatga keltiradigan va oxirigacha rivojlantiradigan, asar bosh g‘oyasini o‘zida tashiydigan shaxslar – Bosh obraz yoki Bosh qahramon deb yuritiladi.

2. Badiiy asarda ma’lum bir g‘oyani (asardagi bosh g‘oyaning kichik bir bo‘lagini) ifodalovchi, syujet davomida bir, ikki ko‘zga ko‘ringan obrazlar epizodik yoki yordamchi obrazlar deyiladi.

Adabiyot hayotni ikki xil yo‘l bilan tadqiq etadi: biri – tasdiqlash, ikkinchisi – inkor etish. Shunga ko‘ra obrazlar quyidagicha turlarga bo‘linadi:

1. Xatti-harakati, xarakter xususiyati bilan asosan ijobjiy xislatlarni

o‘zida tashisa va kitobxon uchun o‘rnak bo‘la olsa, jamiyatni ezgulik va komillikka yetaklay bilsa, u – ijobiy obrazdir.

2. Xatti-harakati, xarakter xususiyati bilan, asosan salbiy xislatlarni o‘zida tashisa, kitobxonni o‘ziga nisbatan nafratini uyg‘otsa, jamiyatni tanazzulga tortsa, u – salbiy obrazdir.

Adabiyot tarix va zamona materialiga murojaat qilishiga ko‘ra quyidagi obrazlarni vujudga keltiradi:

1. Yozuvchi «tarix orqali zamonaning ichiga kirsa» (A.Tolstoy), tarixda bo‘lib o‘tgan voqelikni obrazlarda gavdalantirsa, ular tarixiy shaxslar obrazi deb yuritiladi.

2. Yozuvchi bugungi jamiyatning taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan yangi g‘oyalarni ifoda etsa, bu g‘oyalarni zamondosh, «tanish bo‘lgan notanish» xarakterlarda gavdalantirsa, bu zamonaviy obraz yoki zamondosh obrazi deb yuritiladi.

Badiiy asardagi bir-biri bilan uzviy bog‘liq obrazlar majmui – obrazlar (sistemasi) tizimi deb yuritiladi.

Adabiyotshunoslikda «obraz» tushunchasi bilan ba’zida teng, ba’zida farqli ishlatildigan «personaj», «qahramon» tushunchalari ham bor.

Personaj (lat. Personal-shaxs so‘zidan) atamasi badiiy asarda ishtirok etuvchi hamma shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Ko‘pincha asardagi epizodik obrazlar – personajlar deb yuritiladi, shu sabab uning tushunchasi obrazga nisbatan tor hisoblanadi. Qahramon deganda, shijoati, dovyurakligi, botirligi bilan shuhrat qozongan, jonbozlik, mardlik qilib o‘zini ko‘rsatgan kishi tasavvurga kelsa-da, bu tushuncha umuman asarda ishtirok etuvchi ijobiy yoki salbiyligidan qat‘i nazar hamma shaxslarga, ko‘pincha, bosh ishtirokchilarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki, har qanday salbiy qahramon ham adabiy asarga to‘qib-bichib kiritilar ekan, u ham asardagi biror voqeahodisaning yuzaga kelishida asosiy rol o‘ynashi, shubhasizdir<sup>1</sup>.

Umumlashtirish darajasiga ko‘ra – muayyan darajada turg‘un shaklni olgan holda adabiy-badiiy jarayonda takrorlanishi nuqtai nazaridan badiiy obrazning motiv, topos, arxetip deb yuritiluvchi ko‘rinishlari ajratiladi<sup>2</sup>:

<sup>1</sup> Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2012. – В. 226-230.

<sup>2</sup> Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнапр, 2018. – Б. 101.

Motiv (motiv obraz) shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg‘unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir. Gyote talqinicha, motivlar aslida takrorlangan va yana takrorlanadigan Inson ruhiyatni fenomenlari bo‘lib, ular yozuvchi tomonidan tarixiy voqealari sifatida taqdim etiladi<sup>1</sup>.

Topos motivga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u umuman milliy madaniyatda, katta bir adabiy davr mobaynida takrorlanuvchi obraz sanaladi. Shu jihatdan o‘zbek mumtoz she’riyatidagi payg‘ambarlar obrazlari, gul va bulbul, sham va parvona kabi qator takrorlanuvchi obrazlar topas sanalishi mumkin.

Arxetip deyilganda inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo‘lgan turg‘un «sxema»lar, konstruktsiyalar, qoliqlar tushunilib, ularning izlarini eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi adabiyotgacha ko‘rish mumkin bo‘ladi. Arxetip konstruktsiya va sxemalardan o‘ziga xos «syujet va syujet holatlari» jamg‘armasi hosil bo‘ladiki, ular asardan asarga, davrdan davrga ko‘chib yuradi. Masalan, «Qobil – Iqlima – Hobil» arxetipi «bulbul - gul – chaqirtikanak», «oshiq – yor – ag‘yor» kabi ko‘rinishlarda hozirgi adabiyotga qadar yetib kelgan.

### Savol va topshiriqlar:

1. «Real borliq», «individual borliq» va «badiiy voqelik» tushunchalarini izohlang. Ularning o‘zaro munosabatini tushuntiring.
2. «Badiiy obraz – badiiy adabiyot va san’atning tafakkur shakli» deyilishining boisini tushuntirib bering. Badiiy obrazning konkretliligi deganda nimani tushunasiz?
3. Artur Konan Doylning mashhur obrazi «Sherlok Xolms»ning prototipi aslida muallifning o‘zi bo‘lganini, yozuvchi o‘z qahramoni kabi juda sinchkov, o‘tkir zehnli va topqir bo‘lganini zamondoshlari ko‘p bora e’tirof etishgan. Yozuvchi o‘z qahramonining prototipi bo‘lishini izohlang.
4. Aleksandr Dyuma o‘z qahramonlarini tifrik deb hisoblagan. U o‘z obrazlari haqida qayg‘urgan. Ular bilan suhbatlashgan, kulishgan,

<sup>1</sup> Йоҳанн Вольфранг Гёте/ Заковат дурдоналари (олмои тилидан М.Акбаров таржимаси). – Т.: “Янги аср авлоди”, 2013. – Б. 133.

dardlashgan. Nima uchun ijod onlaridagi san'atkor «O'z ideal olamida yashaydi» deb aytamiz?

5. Obraz voqelikning oddiy in'ikosi bo'lmay, balki uni umumlashtirib, alohida, o'tkinchi, tasodifly hodisaning eng mohiyatli, o'zgarmas muqin, adabiy jihatlarini ochib berishini tahlil qiling.

### **Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan test topshiriqlari**

#### **I. Ijodiy metod taqozosiga ko'ra obrazlarning turini tahlili bilan moslang.**

1	Realistik obraz	A	hayotda aynan bo'lмаган, ammo bo'lishi orzu qilin-gan mo'jizakor kuch-quvvat egasi bo'lgan, ko'tarinki ruh bilan yaratilgan obrazlar. Masalan, A.Navoiyning «Xamsa»sidagi Farhod, Shirin, Mehinbonu, Shopur, Dilorom, Layli, Majnun
2	Romantik obrazlar	B	mifologiya (mif) asosida yaratilgan asotiryi obrazlar: Odami Od, Qayumars, Er Xubbi
3	Xayoliy-fantastik obrazlar	D	butunlay xayoliy obrazlar bo'lib, ular bitmas-tuganmas kuch-qudratga, yuksak fazilatga ega bo'ladi. Masalan, Alpomish, Go'ro'g'li
4	Afsonaviy obrazlar	E	hayot haqiqatiga monand obrazlar bo'lib, ular jonli odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. XX asr o'zbek adabiyotining asosiy qahramonlari
5	Simvolik obrazlar	F	haddan tashqari bo'rttirilgan, ilohiylashtirilgan, mo'jizaviy xarakterga ega bo'lgan obrazlar. Bunday obrazlar ko'pincha xalq og'zaki ijodida ko'p uchra-ydi. «Ming bir kecha»dagi Dev.
6	Mifologik obrazlar	G	predmetlar, o'simliklar, narsalar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarini umumlashtirish demakdir. Kabutar – tinchlik ramzi, gul va bulbul – mashuqa va oshiq ramzi.

Javob	1	2	3	4	5	6

## II. Umumlashtiruvchi darajasiga ko‘ra badiiy obraz turlarini tahlil qiling.

1	Motiv	A	Motivga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u umuman milliy madaniyatda, katta bir adabiy davr mobaynida takrorlanuvchi obraz sanaladi. O‘zbek mumtoz she‘riyatidagi payg‘ambarlar obrazlari, gul va bulbul, shamova parvona, may va soqiy kabi qator takrorlanuvchi obrazlari.
2	Topos	B	Inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo‘lgan turg‘un sxemalar, konstruksiyalari, qoliqlar tushunilib, ularning izzarini eng qadimgi davrlardan boshlab, to hozirgi adabiyotgacha ko‘rish mumkin. Konstruksiya va sxemalardan o‘ziga xos «syujet va syujet holatlari» jamg‘armasi hosil bo‘ladiki, ular asardan asarga, davrdan davrga ko‘chib yuradi.
3	Arx-etip	C	Shakily va mazmuniy jihatlardan muayyan turg‘unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obraz.

Javob	1	2	3

## III. Obraz turlarini tahlili bilan moslang.

1.	Epik obraz	A	Voqelik harakat orqali sahnada mujassam bo‘ladi
2.	Lirik obraz	B	Afsona asosida yaratilgan asotiriyl qahramonlar
3.	Dramatik obraz	C	Ushbu obraz turida hayot hodisalari keng va atroficha tasvirlanadi
4.	Xayoliy – fantastik obraz	D	Predmetlar, o‘simliklar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarini umumlashtirib ifodalash
5.	Afsonaviy obraz	E	Hayvonlar, hasharotlar, turli jonivorlar insoniyashtiriladi, ayrim odamlarning fe’l atvoridagi kamchilik illatlar achiq kulgu, yengil hazil bilan fosh qilinadi
6.	Mifologik obraz	F	Hayotdagi qusurlar ustidan zaharxanda kulgu, sarkazm masxaralash usuli yetakchilik qiladi
7.	Majoziy obraz	G	Voqelik inson kechinmalari orqali ifoda topadi.
8.	Kinoyaviy obraz	H	Hayotdagi ayrim nuqsonlar yengil, quvnoq kulgu ostiga olinadi va ularni tuzatishga chorlaydi
9.	Satirik obraz	I	Haddan tashqari bo‘rttirilgan, ilohiyashtirilgan, mo‘jizaviy xarakterga ega bo‘lgan qiyofalar
10.	Yumoristik obraz	J	Ushbu obrazlar butunlay xayolning mevasidir, ular bitmas-tuganmas qudratga, yuksak fazilatlarga, mo‘jizaga ega bo‘ladilar

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.

#### IV. Obraz terminiga berilgan to‘g‘ri izohlarni aniqlang va javoblar jadvaliga ha yoki yo‘q so‘zlarini yozing.

1. Voqelikni faqat san‘atga xos usulda o‘zlashtirib va o‘zgartirib xarakterlovchi estetik kategoriya.
2. Badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan faqat birgina voqeal obraz deyiladi.
3. Obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qilish qorishib ketadi.
4. Ramziylik xususiyati bilan real voqelikdan umuman farq qilmaydi.
5. Xayolot, bo‘yoq, tovush, so‘z va boshqalarni ijodiy ishslash yo‘li bilan yaratiladi.

Javob	1.	2.	3.	4.	5.

#### V. Badiiy obraz turlarini izohi bilan juftlang.

1.	ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko‘ra		realistik, romantik
	ijodiy metodga ko‘ra		ijobiyl va salbiy obrazlar
	yaratilish usuliga ko‘ra		inson obrazi, jonivorlar obrazi, narsa-buyumlar obrazi
	badiiy obrazning tasvir planiga ko‘ra		fantastik, grotesk
	xarakter xususiyati va estetik belgisiga ko‘ra		tragik, satirik, humoristik obrazlar
	predmetlilik darajasiga ko‘ra		1) detal obrazlar; 2) voqeal hodisalar obrazi; 3) xarakter va sharoit; 4) dunyo va taqdir obrazi (badiiy reallik)

Javob						

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: «Ўзбекистон», 2002. – 560 б.
2. Йоҳанн Вольфранг Гёте/ Заковат дурдоналари (олмон тилидан М.Акбаров таржимаси). – Т.: «Янги аср авлоди», 2013. – 148 б.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2012. – 254 b.
4. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi/ Universitetlar va pedagogika institutlari filologiya, jurnalistika fakultetlari talabalari uchun darslik. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyи, 2018. – 308 b.
5. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T. Iqtisod – Moliya, 2007. – 272 b.
6. Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 411 б.
7. Курунов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018. – 480 б.

## BADIY ASAR TILINING XUSUSIYATLARI

### Reja:

1. Til – badiy asar komponenti sifatida.
2. Jonli til, adabiy til va badiy til.
3. Muallif va personajlar nutqi.
4. Tilning maxsus tasviriy vositalari.

*Tayanch tushunchalar: badiy til, monolog, dialog, shevaga xos so‘zlar, maxsus leksik resurslar, badiy tasvir vositalari, epitet, o‘xshatish, metafora, metonimiya, badiy nutq poetikasi, she’riy san’atlar.*

Adabiyot, uning badiyligi va xosiyat mezoni til bilan ham shartlashgan. Adabiyotning milliyligi ham oldin tildan boshlanadi. Izzat Sultonning fikricha, «Badiy asarning hamma komponentlari faqat til orqali ifoda etiladi».

Terri Igltionning qayd qilishicha, Adabiyotning birdan-bir quroli – so‘z eng qudratli vosita sifatida shunga imkon bergen edi. Bundan ayon bo‘ladiki, o‘tmishda nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham hukmron sinf so‘z san‘atiga befarq qaramagan, badiy so‘zning qudratiga ishongan va uning jamiyat ma’naviy hayotining tayanchi deb bilgan. Adabiy asar esa o‘zining badiy tili orqali kishilarning hissiyoti, ong-tafakkuriga ta’sir etadi<sup>1</sup>.

Ijodkor ana shunday sir-sinoatli hodisadan foydalanib, adabiy-badiy asar yaratadi. U so‘z vositasida hayot hodisalarini suratlantiradi. Adabiy-badiy asarda so‘z qo‘llanishi, shoir, adibning so‘zdan foydalanishi, badiy mahorati haqida mulohaza bildirilganda «badiy asar tili» iborasi qo‘llanadi. Jumladan, tadqiqotlarda «badiy asar tili badiy asar mazmunini ro‘yobga chiqaruvchi birdan-bir vositadir», deyiladi. Badiy asar tili esa darslik va qo‘llanmalarda qayd qilinganidek, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamragan, adabiy til me’yorlariga tayanadigan, ijodkorlar

<sup>1</sup> Иглтон Т. Теория литературы: Введение / пер. Е. Бучкиной под ред. М. Маяцкого и Д. Субботина. – М.: Издательский дом «Территория будущего», 2010. –С. 52.

tomonidan jilolangan tildir. Yozuvchi, shoir badiiy asar yozish – obraz va manzaralar chizish uchun so‘z va iboralar tanlaydi, ularning asl va ko‘chma ma’nolarini aniqlaydi, sinonim va antonimlarni topadi, umumxalq tilining gap qurilishi usullaridan, arxaizm va jargonlardan foydalanadi. Shuning uchun «adabiyot – hayotni so‘z orqali tasvirlash san’ati» deyiladi<sup>1</sup>.

So‘z xususida so‘z ketganda, Jaloliddin Rumiyning «So‘z Haqning soyasi... Insonni soya o‘ziga tortar ekan, unda haqiqat yanada yaxshiroqjazb etadi. Har narsaning asli – so‘z... So‘z amal daraxtining mevasidir. Chunki u amaldan tug‘iladi. Ulug‘ Tangri olamni so‘z bilan yaratdi va «bo‘l!» deyishi bilan bo‘ldi... So‘z insonning qiymati qadar qadrlidir» kabi qur’oniylari So‘zning nafaqat muqaddas kitob yoki inson sharifligining boisi, balki amaliy hayot mevasi ekani ma’lum bo‘ladi. Jaloliddin Rumiyning o‘z ustozlari xususida so‘z ketganda, «Attor ruh bud... mo bad az Attor omadim» (Attor ruh edi... biz Attordan keyin keldik) so‘zlarini eslab, buyuk mutasavvifning ruhi bo‘lgan Farididdin Attorga so‘z beramiz: «Ikki olamning asosi so‘zdir, chunki so‘z Haqdan mujda bo‘lib keldi. Axir arshi a‘loda bitilgan «Lavhul mahfuz» ham so‘zdir. Hamma narsa So‘zdan ijod etilgan va So‘zga qaytadi...». Ushbu iqrornoma So‘z haqidagi qarashlarimizni bir oz bo‘lsin-da teranlashtirib, azal va oxirat kitobi «Lavhu-l-mahfuz» ham so‘z bilan ijod etilganini eslatadi. Nafaqat islomiy manbalarda, balki jumla jahon kitobdorlariga nozil bo‘lgan muqaddas bitiklarda so‘zning martabasi ulug‘ ekani yakdil ifodalangan. Yangi Ahd kitobi (Injil)dagi Yuhannoning birinchi maktubida shunday yozuv bor: «Koinotning Tangrisi O‘z ne‘matlarida yagona emas edi. Uning yonida niyatlarini tushunadigan, butun yaralmish maxluqlarga baxt ato etishda Uning quvonchidan bahramand bo‘lgan Zot bor edi: «Azalda Kalom bor edi. Kalom Xudo nazdida edi. Kalom – Xudo edi. Azaldanoq U Xudoda edi» (Yuh. 1, 1.2). «U O‘z qadratli kalomi ila koinotni asraydi» (Ibr. 1, 3)4. Demak, so‘zni dunyoning ibtidoyu intihosi deb bilish faqatgina musulmon olamiga xos bir ruhoniylar holat emas, balki barcha yaralmishlar tomonidan fitrat etilgan (yaratilgan)

<sup>1</sup> Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 235.

ne'matlarda ulug‘ kalom sifatida aks etgan<sup>1</sup>.

Badiiy asar badiiy tilda yoziladi. Badiiy til xalq tiliga suyangan, adabiy tilning bir ko‘rinishidir, adabiy til esa matbuot va yozuv tilidir, ammo badiiy til emas. Jonli til, adabiy til, badiiy til xalq tilining muhim sohalaridir.

Albatta, til so‘z bilan ish yuritadi. Adabiy asar badiiy degan maqomga munosib bo‘lishi uchun unga yuksak so‘z shaklini berish zarur, bu shaklini hikoya va romanga sodda, aniq, ravshan, tejamli til beradi. Adabiyot ommaviy xususiyatga ega, uning badiiy tili ham shu ommaga anglashilarli bo‘lishi shart. Adabiyot hammaga tushunarli va hamma joyda qabul qilinuvchi tilni ishlab chiqishni xohlaydi. Badiiy til emotsiyal ta’sir kuchi jihatidan qudratlidir; zavqli, hayajonli, serqatlam, obrazli, tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan, tarixiydir. Badiiy til siru asrorga to‘la bo‘lgan bir tilsimotdir, bebafo xazinadir, uni har bir shoir va yozuvchi o‘zi, kalit bilan emas, balki did, bilim va malaka bilan ochib, ichkari kiradi va egallaydi. Badiiylikni yaratishda til mavqeい hal qiluvchi ahamiyatlardan biriga ega, chunki bu, adabiyotning o‘ziga xos tomoni bilan bog‘liq. Badiiy tilning xususiyatlari hayotni ko‘rsatish va obraz yaratishdir. Badiiy adabiyotning tilini estetik va lingvistik tomonni qorishtirib o‘rganish mavjud. Badiiy adabiyot tilini estetik rejada o‘rganish adabiyot ilmi uchun ahamiyatli, lingvistik o‘rganish esa tilshunoslikka taalluqlidir.

«Yosh adibning kelajagi haqida uning tiliga qarab, hukm chiqarish mumkin. Agar muallifning o‘z uslubi, o‘ziga xos badiiy tili bo‘lmasa, undan yozuvchi chiqmaydi», degan edi A.Chexov. A.Qodiriy esa «Yo‘sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so‘zdan jumlalar to‘qimoq fazilat sanalmaydi... so‘z – qolip, fikr – uning ichiga qo‘yilgan g‘isht bo‘lsin, ko‘pchilik xumdonida pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo‘lib yotsin», degan edi.

Adabiy asar tili (hikoyachi – muallif va personaj nutqi) tipiklashtirilgan, ya’ni umumlashtirilgan va individuallashtirilgan tildir. Yozuvchi o‘z asari uchun umumxalq tili lug‘at tarkibidan so‘z olishda san’atning tipiklashtirish qonuniyatiga amal qilar ekan, ana shundagina haqiqiy san’at asari paydo bo‘ladi. Shunisi ham

---

<sup>1</sup> Болтабоев X. Бадиий сўз табиати/ <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/manba-talqinlar/925-magola.html>

e'tiborliki, har bir yozuvchi asarida so'z qo'llash jarayonida ham o'z uslubini namoyon qiladi – natijada bir yozuvchining tili ikkinchi yozuvchining tilidan ozmi-ko'pmi farqlanib turadi. Chinakam san'at asarlari tili xalqchillik ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi. «Yozuvchining «men»i – hikoya qilayotgan yoki asa'dagi boshqa bir personaj. U erkak ham, ayol ham bo'lishi mumkin. Hikoyachi birinchi, ikkinchi yo uchinchi shaxs tilida gapiradi, fikrlari va hissiyotlarini ifodalaydi, shu tariqa uch xil kompozitsiya shakllanishi mumkin.

Insoniyat tamadduni bilan bir vaqtida yuzaga kelgan til hayotning o'zi kabi ajoyib, ifoda kuchi esa – tuganmas. Yozuvchining vazifasi – tilning yashirinib yotgan quvvatini kashf qilish va rivojlashtirishdan iborat<sup>1</sup>.

Badiiy asar tili – obrazli til. Maxsus badiiy tavsir vositalarni, maxsus leksik resurslarni, poetik figuralarni, so'z o'yinlarini mohirona qo'llash yo'li orqali asar tilining obrazliliga erishiladi. Migel Anxel Asturiasning ta'kidlashicha, «Bizning romanlar faqat so'zlar bilan emas, obrazlar bilan ham yozilgan. Romanlarimizni o'qigan ko'pchilik kinofilm ko'rgandek bo'ladi. Amerika prozaiklari o'ziga xoslikni ko'rgazmali tarzda tasvirlashga harakat qilganidangina emas, balki tilimizning barcha jarangdorligi, ahamiyati va obrazliligi imkonlaridan foydalanib, o'z xalqlarining ovozini umumlashtirishga o'zlarini burchli deb hisoblaganlari uchun ham shunday qildilar. Obrazlar tili nutqning barcha boyliklarini yoki «poetik proza» degan narsani o'ziga sig'dirish uchun sun'iy ravishda yaratilgan emas»<sup>2</sup>.

Adabiy turlar va ularning ayrim janrlarida til va badiiylik munosabati o'zgacha. Epik obraz tili dialogikdir va muallif tiliga ega. Lirkik qahramonning nutqi – monologik. Dramatik obrazning tili – faqat dialogik<sup>3</sup>.

Orxan Pamuk badiiy so'z yordamida yangi dunyo yaralishini

<sup>1</sup> Gao Sintszyan. Adabiyotning yashash huquqi (Nobel ma'ruzasi)/ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/gao-sinszyan/gao-sintszyan-adabijotning-yashash-u-u-i-nobel-mukofoti-ma-ruzasi/?lng=lat>

<sup>2</sup> Migel Anxel Asturias. Lotin Amerikasi romani – davr shohidi/ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/migel-anhel-asturias-1899-1974-gvatemala/migel-anhel-asturias-lotin-amerikasi-romani-davr-shohidi/>

<sup>3</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маҳомлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 105-107.

e'tirof etadi: «Ijod botinga yo'naltirilgan nigohni so'zlarga ko'chirish, insonning o'z ko'nglida yaralgan yangi olamni sabr, jur'at va mammuniyat bilan tadqiq etishdir. Men stoldagi toza qog'ozga astasekin yangi so'zlarni bitarkanman, kunlar, oylar, yillar o'tgan sari o'zim uchun yangi olam yaratayotganimni, botinimdag'i boshqa bir insonni toshma-tosh ko'priq yoki qubba tiklagan kimsadek o'rtaqa chiqarganimni his qilardim. Biz yozuvchilarining teradigan toshlari shu so'zlardir. Ularga qo'l uzatib, o'zaro bog'liqliklarini his qilib, yillar davomida jur'at, sabr va umid bilan yangi dunyolar yaratamiz»<sup>1</sup>.

Badiiy asar tili bilan adabiy til o'rtaasida muayyan tafovut mavjud. Ular aynan bir hodisa emas. Badiiy asar tili adabiy tilga nisbatan keng hodisadir. Chunki adabiy-badiiy asarlar tilida adabiy tilning o'zi ham, sheva, kasb-hunar, jargonga oid so'zlar ham, tasviriy ifodalar, turli iboralar ham aks etadi. Adabiy til esa me'yoriy grammatika qoidalariga asoslangan, umumiy talaffuz qoidalariga ega bo'lgan va shu asosda xalq jonli tilidagi har xilliklarni bir xillashtirgan tildir. Shu boisdan o'quv-ta'lim ishlari, rasmiy ish qog'ozlari, ilm-fan, publitsistika, matbuot adabiy tilda olib boriladi. Adabiy til ham millat madaniyatining o'ziga xos bir ko'rinishidir. Biroq badiiy asar tili ham, adabiy til ham umumxalq tiliga asoslanadi. Umumxalq tili adabiy til va badiiy asarlar tilining tub asosidir. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik (tasviriylik) va emotsiyonallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda «poetik vositalar», «sintaktik figuralar», «stalistik figuralar» kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning bunisi tasvir, bunisi ifoda vositasi deyishlik ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Ya'ni ko'p hollarda bitta vositaning o'zi ham tasvir, ham ifodaga xizmat qiladi. Faqat lirik asarlarda qo'llaniluvchi ayrim vositalar (mas, tovush takrorlari) borki, ular asosan ifodaviylikni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Badiiy asar tili o'zida shunday xususiyatlarni mujassamlashtirgani bois kishilar nutqiga, ularning dunyoqarash, madaniyat darajasiga ham samarali

<sup>1</sup> Orxan Pamuk. Otamning jomadoni (Nobel ma'ruzasi)/ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/orxan-pamuk/orhan-pamuk-otamning-jomadoni-nobel-maruzasi/?lng=lat>

ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asar tili so'zning nozik tovlanishlarini his qilishga va buni kishilar ongi, ruhiga singdirishga imkon beradi.

Badiiy asar matnining asosiy qismi muallif tilidan tarkib topadi. Chunki ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, yechimi kabi syujet qismlari, peyzaj, qahramonlarning ruhiy holatlari muallif so 'zi orqali gavdalantiriladi. Umuman, muallif o'z asarining hikoyachisi, naqlchisidir. Shu bois ko'pgina asarlar muallif so 'zi bilan boshlanadi. Aslida ham asarning barcha qahramonlari muallifning yordami, aniqrog'i, uning so'zлari bilan harakat qiladi. Ayrim asarlarda voqealar qahramon tilidan hikoya qilinadi. Masalan, Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasida bola, «Somon yo'li» qissasida asar voqealari To'lg'anoy tilidan bayon etiladi.

Manbalarda tilning turli tasviriy-ifodaviy vositalari (sintaktik figuralar, ko'chimlar) bilan birga ifoda tarzi, she'rning kompozitsion qurilishi, ritmik-intonatsion tarhi, nutq talablari va odobi bilan bog'liq tushunchalar ham «san'at» sifatida talqin qilingani san'atlarni yagona bir tamoyil asosida tasniflash imkonini cheklab qo'yadi.

San'atlarning *yuzaga kelish asosiga* ko'ra tasnifi:

1. Takror asosidagi san'atlar: *tajnis, ishtiqoq, radd (qaytarish), tardu aks, tardid, taattuf, mukarrar, takrir, raddul matla', tarji'*.
2. Zidlash asosidagi san'atlar: *tazod (mutobaqa), muqobala*.
3. O'xshatish asosidagi san'atlar: *tashbih, tamsil, talmih, irsolu-l-masal, laff va nashr*.
4. Majoz asosidagi san'atlar: *istiora, kinoya, tashxis, intoq*.
5. Ohangdoshlik (qofiyadoshlik) asosidagi san'atlar: *tarsi', saj', mumosala, tashtir, tajziya, tasri', tashri', tazmini muzdavaj, tavsim*.
6. Matnlararo aloqa asosidagi san'atlar: *iqtibos, tazmin*.
7. Uslubiy mutanosiblik asosidagi san'atlar: *jam', tafriq, taqsim, jam'u tafriq, jam'u taqsim, tanosub*.
8. Belgini kuchaytirish asosidagi san'atlar: *mubolag'a (tablig'; ig'roq, g'uluvv), tafrit, iyg'ol, takmil, tajrid*.
9. Zakiyona ifoda asosidagi san'atlar: *mutazalzil, tayjih, iyhom (tavriya), ta'kidu-l-madh bimo yashbahu-z-zam, ta'kidu-z-zam bimo yashbahu-l-madh, istibto', idmoj, ta'liq, hazlun murodu bihi-l-jidd, tahakkum*.
10. Ifoda usullari asosidagi san'atlar: *mulamma', tajohulu orif, mazhabiy kalomiy, husni ta'lil, tafri', tazyil, tatmim, ruju', istitrod*,

*tafsir, iltifot, ulubi-i hakim, qavl bi-l-mujib, ta'riz, taajjub, istifhom, savolu javob, nido.*

11. Shakl o'yinlari asosidagi san'atlar: *tavshih, talavvun, tarofuq, magru-l-lug*'atayn, *murabba'*, *mu'aqqad, mudavvar, mushajjar, muammo*.

12. Yozuv asosidagi san'atlar: *tajnisi xat, qalb, muqatta', muvassal, raqto, xayfo, jomi'u-l-huruf, hazf*.

Badiiy asar tili muallif tili, personajlar tili, dialog, monolog, arxaik so'zlar, shevaga, kasb-hunarga oid so 'zlar, jargonlar, neologizmlar, antonim, sinonim, omonim, badiiy tasvir vositalari (metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, poetik sintaksis (intonatsiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, antiteza, ritorik munosabat, ritorik so'roq) kabilardan tarkib topadi. Bu unsurlar badiiy asar tilining jozibali, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Cho'lpionning «Go'zal» she'rida ko'chimning qanday turlari qo'llangan?

2. Rashod Nuri Guntekinning «Choliqushi» romanidagi muallif, hikoyachi va qahramon nutqini aniqlang va izoh bering?

3. Asarda tasvirlanayotgan hududga xos bo'yoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personaj xarakterini to'laqonli badiiy talqin etish uchun dialektizmlardan muallif qay darajada foydalangan (Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romani)?

4. Sinonim va antonimlar, arxaizm va neologizmlar, dialektizm va jargon, professionalizm va varvarizmlar qanday tasviriy vosita sifatida ifodalananadi (Misollar bilan isbotlang)? Muhitga mansublikni ifodalashda varvarizmlar, vulgarizmlar, argo va jargonlarning ahamiyati qay darajada?

5. Yozuvchi tili voqelikni qayta taqdim etmasligi, uni faqat anglatishi lozim. Rolan Bart anglatish deganda nimani nazarda tutgan?

---

<sup>1</sup> Mamajonov Z. A. O'xshatish asosidagi she'riy san'atlarning nazariy tavsifi va tasnifi: Filol. fan. fal. d-ri. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 49 b.

## Blum taksonomiyasи asosida tuzilgan test topshiriqlari

### I. Badiiy asar tili va nutq turlarini izohi bilan moslang

1.	Poetik til	A.	hamma uchun tushunarli ifodalarni qamragan, ijodkorlar tomonidan jilolangan va badiiy asarlar yozishda ishlatalidigan til
2.	Badiiy asar tili	B.	me'yoriy grammatik qoidalarga asoslangan, umumiyl taffuz qoidalariiga ega bo'lgan va shu asosda xalq jonli tilidagi har xilliklarni bir xillashtirgan til
3.	Adabiy til	C.	go'zal tashbehu istioralar yoxud boshqa tasvir va ifoda vositalari (o'xshatish, metafora, ramz va h.) ishlataligan, bezakdor, bo'yoq dor, jimjimador til
4.	Muallif tili	D.	badiiy asar tilining tarkibiy qismi bo'lib, u personajning fikr va hissiyotini, turmush hodisalariga bo'lgan munosabatini anglatuvchi til
5.	Personajlar tili	E.	asarda tasvirlangan badiiy vogelikni yaxlitlashiruvchi subyektiv asos bo'lgandek, asarning moddiy tarafini yaxlitlashiruvchi unsur
6.	Monolog	F.	ikki kishi o'rtasidagi so'zlashuv
7.	Dialog	G.	personajlarning o'z-o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.

### II. Personaj nutqi va muallif nutqiga daxldor bo'lgan fikrlarni tahlil qilib, mos raqamlarni jadvalning javob qismiga yozing.

1. Badiiy asarlarda qahramonlar nutqidan farqlanuvchi yozuvchi bayoni va izohlari, ko'pincha, syujet ekspozitsiyasi, peyzaj tasviri va obrazlarning psixologik holatlari ifodalanadi.

2. Badiiy asar tilining tarkibiy qismi bo'lib, u personajning fikr va hissiyotini, turmush hodisalariga bo'lgan munosabatini anglatadi.

3. Ayrim hollarda bu nutq asar personajlari va voqealari bayoni bilan bog'lanmagan bo'ladi. Bunda u lirk chekinishlardan iborat bolib, bunday lirk chekinishlar yozuvchining munosabatini ifodelaydi, bayon qilinayotgan voqealarni izohlaydi, to'ldiradi.

4. Bu nutqi yozuvchi nutqi bilan bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Chunki yozuvchi personaj nutqi va harakatlarini boshqarib boradi.

Javob	Personaj nutqi	
	Muallif nutqi	

### III. Apostrofa, anafora va alliteratsiya qo'llangan baytlarni tahlil qiling va muvofig'ini yozing.

Eh, o'rik! Soya ham do'st bo'ladimi? Laqqa tushibsan-da lof ursa. Do'st bo'lsa, har qanday ob-havoda Yoningda tursa....	
<b>She'rim!</b> Yana o'zing yaxshisan, Bog'ga kirsang gullar sharmanda.	
Tang tangri kalti, Tang tangri o'zi kalti («Tong tangrisiga madhiya»)	
<b>Bir zum</b> maysalarga ona bo'lsin u. <b>Bir zum</b> zamin bo'lib yashasin zamin.	
Qarqaralik, qaydan kelding qoshimga. Qaydag'i savdoni solding boshimga. Uzoq-uzoqlarga ketib, uzayib, Uzaytadi mening umrimni.	
<b>«Sochilgan sochingdek sochilsa siring...»</b>	
Shag'irlaydi osmon va havo, Shag'irlaydi butun koinot.	
Mendan nafisroqning husniga oshiq, Mendan yonoqrog'i tortmadi sani.	
Kishan, gavdamdag'i izlar bukun ham bitgani yo'qdir! Temir barmoqlaringni dog'i butkul ketgani yo'qdir!	
She'riyat, mazlumga homiylik qilding, Qaroli bo'imading zo'ravonlarning. Olding panohingga notavonlarni, Zolimlarni esa dushman deb bilding.	

### IV. Ko'chim turlarini tahlili bilan moslang.

1	Metafora	A	narsa-hodisalarining xususiyat, belgilarini kuchaytirib, ortitrib tasvirlash, muayyan narsa-hodisalarini boshqalaridan alohida ajratib ko'rsatish maqsadida qo'llanadi.
2	Metonomiya	B	ertak va masallarda, ayniqsa, keng qo'llanadi, fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng qulay shakli
3	Sinekdoxa	C	jonlantrishdan birmuncha farq qiladigan badiyi tasvir vositasidir, narsa-hodisaniн biror belgi, xususiyatini aniq ravshan ajratib ko'rsatish.

4	Allegoriya	D	unda bir qism yoki bo'lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Ya'ni bir butun hodisa orqali uning ayrim bo'lagi haqida mulohaza yuritiladi.
5	Jonlantirish	E	Predmetlar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan poetik ko'chim, o'xshashli ko'chimdir.
6	Sifatlash	F	kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko'chirishdir. A'sarlarda tog'-tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o'xshatib gapirtiriladi.
7	O'xshatish	G	ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chimdir. «Qayta nomlash» demakdir. Tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga aloqador, biroq bir-biriga o'xshamagan narsa-buyumlar belgilari chog'ishtiriladi.
8	Mubolag'a	K	narsa-buyuming ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyuma solishtirishdir.

Javob	1	2	3	4	5	6	7	8

**V. Muhibbiy – Sulton Sulaymon Qonuniy (1494-1566) qalamiga mansub g'azalda ifodalangan tasviriy vositalarni aniqlab, javoblar jadvaliga ha yoki yo'q so'zlarini yozing.**

Jolisi xilvatim, borim, habibim mohi tobоним,  
 Anisim, mahramim, borim, go'zallar shohi sultonim.  
 Hayotim, hosilim, umrim, sharobi kavsарим, adnim,  
 Bahorim, sevinchim, ro'zim, nigorim vardi xandonim.  
 Nishotim, ishratim, bazmim, charog'im, nurliyim, sha'mim,  
 Turunju noru norinjim, mening sham'i shabistonim.  
 Nabotim, shakkарим, ganjim, jahon ichinda beranjim,  
 Azizim, Yusufim borim, ko'ngul Misrindagi xonim.  
 Sitanbulim, Karamоним, diyori mulkati Rumim,  
 Badahshоним va Qipchog'im va Bag'dодим, Xurosonim.  
 Sochi morim, qoshi yoyim, ko'zi purfitna bemорим,  
 O'lursam bo'ynugga qоним, madad hey nomusulmonim.  
 Eshigingda maddohingman, seni madh etgayman doim,  
 Yurak purg'am, ko'zim purnam, Muhibbiyingman, xush holim.

Javob	Mubolag'a	Tanosub	Sifatlash	O'xshatish	Metafora	Tazod

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Болтабоев Ҳ. Бадиий сўз табиати <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/manba-talqinlar/925-maqola.html>
2. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 508 б.
3. Иглтон Т. Теория литературы: Введение / пер. Е. Бучкиной под ред. М. Маяцкого и Д. Субботина. – М.: Издательский дом «Территория будущего», 2010. – 296 с.
4. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 308 b.
5. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T. Iqtisod – Moliya, 2007. 272 b.

## ADABIY TUR VA JANRLAR. EPIK TUR VA UNING JANRLARI

**Reja:**

1. Badiiy adabiyotni turlarga ajratish prinsiplari.
2. Adabiy turlar orasida chegaraning shartliligi.
3. Adabiy janr tushunchasi.
4. Epik tur va uning janrlari.

**Tayanch tushunchalar:** *adabiy tur, janr, epos, lirika, drama, mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, roman, povest, hikoya, doston, novella, masal.*

Adabiy turlar bir-biridan, avvalo, voqelikni gavdalantirish tarziga ko‘ra farqlanadi. Eposga mansub asarlar ko‘pincha bo‘lib o‘tgan voqealarni ko‘rsatayotganday taassurot uyg‘otsa, lirik turga oid asarlar ayni chog‘da bo‘lib o‘tgan voqealarni gavdalantirayotganday tasavvur yaratadi. Drama asarlarida esa voqealar xuddi hozir bo‘lib o‘tayotganday ko‘rinadi. Biroq eposga xos xususiyatlar muayyan darajada lirik asarda yoki komediya, drama, tragediyada ham ko‘rinadi. Lirkaga xos xususiyatlar roman, qissa, hikoya yoki drama asarlarida namoyon bo‘ladi. Dramaning xos belgilari esa epos, lirkada ham seziladi. Chunki adabiy turlar bir-biri bilan mustahkam aloqador hodisadir. Ularning tasvir ob‘ekti ham, mavzusi ham insondir. Adabiy turlarga mansub janrlar ana shu ob‘ektni har xil ko‘rinishda gavdalantirishi bilan bir-biridan farq qiladi.

Aristotel qoldirib ketgan nazariyaga hech qanday muhim yangilik qo‘sholgan emas. Uning «Poetika»si janrlar nazariyasining mustahkam poydevori bo‘lib qolaveradi. Faqat bu poydevor gohida shu qadar chuqurlikka o‘rnashadiki, uni ko‘rishning o‘zi amri mahol bo‘lib qoladi» deydi (Baxtin M.M. Literaturno-kriticheskie stati. – M., Xudoj. lit., 1986. – S.396.). Bu ulug‘ rus adabiyotshunosi «Epos va roman» tadqiqotida roman janrining o‘ziga xos jihatlari

to‘g‘risida mulohaza yuritish asnosida adabiyotshunoslikning nazariy muammolariga ham e‘tibor qaratib: «O‘tmishning yirik va tugal poetikalari – Aristotel, Goratsiy va Bualo poetikalari adabiyotning yaxlitligini va bu yaxlitlik ichida barcha janrlarning mukammal uyg‘unlik hosil qilishini chuqur his etish ruhi bilan sug‘orilgan. Ular mazkur janrlar uyg‘unligini go‘yo ayon eshitib turadilar. Bu poetikalarning kuchi, betakror yaxlitlik sifatidagi mukammalligi va tugalligi shunda», deb ta‘kidlaydi<sup>1</sup>.

Fitrat «Adabiyot qoidalari» darsligining «Adabiy asarlarning turlari» qismida tur va janrlarga doir qator masalalar xususida to‘xtaladi. Adabiy asarlarda she’riy ijodlarni uchka ajratadirlar:

1. Yurakchilik – lirika.
2. Rivoya – epos.
3. Tomosha.

Lirika: shoir o‘zining qayg‘i-armonlarini, tilak-orzularini, tuyg‘u-sezgilarini tasvir etmak tilagi bilan to‘lqunli, hayajonli shakkarda yaratilg‘an asarlarga lirika deyiladir. «Yurakchilik – lirika» she’rlarning rivoya, tomosha asarlardidan ayirmasi kattadir.

Rivoya: tomosha asarlari onglatish yo‘li bilan yuriadir.

«Yurakchilik – lirika» esa sezdirish, tuyg‘ulantirish, to‘lqun-lashtirish tilaklari bilan maydonga kiradir.

Rivoya, tomosha asarlari voqeadiagi xayoldan bir voqeani tasvir qilish yo‘li bilan maqsadlariga qarab borsalar, «yurakchilik–lirika» she’rlarida eng katta rolni ohanglar, xayollar, to‘lqunlar, tuyg‘ular o‘ynaydirlar<sup>2</sup>.

Epos (roman, qissa, hikoya) voqeani, lirika insonning ruhiy holat, kechinmasini, drama kishining xarakterini gavdalantiradi, deyilsa-da, ammo roman, qissa, hikoya ham insonning ruhiy holati, kechinmalari ko‘rsatiladi. She’riy asarlarda xuddi hikoya, qissadagidek voqealar bayon etiladi. Drama asarlarda ham qahramonning kayfiyati, qalbidagi alg‘ov-dalg‘ovlar jarayoni akslanadi. Ayni chog‘da epos, lirika, drama o‘rtasida jiddiy farq ham mavjud. Epos so‘zlashuv nutqiga yaqin bir tarzda yozilsa, lirika misra, qofiya, turoq singari

<sup>1</sup> Улугов А. Арасту англатган адабиёт //Жаҳон адабиёти, 2018. – № 2. <https://jahonadabiyoti.uz/2018/04/24>

<sup>2</sup> Фитрат. Танланган асарлар, 4-жилд. – Тошкент: Матнавият, 2006. – Б. 78.

unsurlarga asoslanadi, drama dialog, monologlardan tarkib topadi<sup>1</sup>.

O‘zbek folklorida quyidagi tur va janrlar mavjud?

1. Epik tur: mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston.

2. Lirik tur: marosim folklarining rcha ko‘rinishlari, bolalar folklorining ko‘pgina turlari, qo‘schiqning hamma turlari, ashula.

3. Dramatik tur: og‘zaki drama, qo‘g‘irchoq o‘yin, askiya, xalq teatrлари.

4. Maxsus tur: maqol, matal, topishmoq.

Yozma adabiyotda tur va janrlar quyidagicha:

1. Epik tur: roman, povest, hikoya, doston, novella, masal, ertak.

2. Lirik tur: epigramma, qo‘schiq, romans, g‘azal, ruboiy, fard, tuyuq, qit‘a, musallas, murabba, muxammas, musamman, musabba<sup>2</sup>, qasida, gimn, elegiya.

3. Dramatik tur: komediya, drama, tragediya.

Epik tur va uning janrlari. Hikoya, qissa va roman eposning asosiy janrlari sanaladi. Shu bilan birga, epik turning asosiy bo‘lmagan qator janrlari ham mayjud. Ularni hayotni badiiy qamrash ko‘lami jihatidan quyidagi tartibda tasniflash mumkin: a) kichik epik shakllar: latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse; b) o‘rta epik shakllar: qissa (povest); v) katta epik shakllar: xalq eposi, epik doston, roman, epopeya. Mazkur tasnifga ayrim izohlarni kiritib o‘tish zarur. Masalan, badia, etyud, ocherk kabilar sof badiiy proza namunasi bo‘lmay, badiiy-publitsistik janrlardir. Hozirgi adabiyotda ommalashib borayotgan esse janri, birinchidan, badiiy-publitsistik xarakterga egaligi, ikkinchidan, hajm e’tibori bilan turlicha ko‘rinishlarga (kichik hikoya shaklidan to katta roman shakligacha) egaligi bilan xarakterlanadi<sup>2</sup>.

Epik turga mansub janrlar orasida eng salmoqlisi romandir.

Roman – (fr. roman – dastlab rumovi (roman) tillarida yozilgan asar so‘zidan) yangi davr adabiyotidagi katta hajmli epik asar bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari inson hayotini butun murakkabligi bilan har tomonlama va to‘liq tasvirlashdan, ishtirok etuvchi shaxslar

<sup>1</sup> Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B.131.

<sup>2</sup> Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B.136.

taqdirini aks ettiruvchi ko‘p qatlamlı syujetga ega bo‘lishdan iboratdir. Gyotening talqinicha, roman sub’ektiv epopeya bo‘lib, unda muallif dunyo haqida o‘z uslubi bo‘yicha fikr yuritishga ijozat so‘raydi<sup>1</sup>.

Roman janr sifatida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Unga bir tomondan Uyg‘onish davrining novellachiligi, ikkinchi tomondan, ko‘p asrlik xalq eposi asos bo‘ldi. Chunki katta hayotiy qamrovga ega bo‘lish, shunga mos katta epik tasvir faqat xalq eposiga xos xususiyat edi. Shunga qaramay roman janri xalq eposidan o‘zining juda ko‘p xususiyatlari bilan farqlanadi.

Romanlar mavzusi, qamrab olgan voqealar ko‘lamiga ko‘ra tarixiy roman, falsafiy roman, fantastik roman, sarguzasht roman, ijtimoiy-siyosiy roman, avtobiografik roman kabilarga ajratiladi. Biroq tarixiy romanda falsafiy mushohadalar yoki avtobiografik romanda ijtimoiy-siyosiy voqealar tahliliga keng o‘rin berilishi mumkin. Shu boisdan, romanlarni mavzusiga ko‘ra guruhlarga ajratish nisbiy.

Jahon adabiyotshunosligida tarbiya romani janrining (nem.: Bildungsroman, ing.: coming-of-age novel, education novel, novel of development, novel of formation. rus.: roman vospitaniya, vospitatelniy roman, roman stanovleniya, pedagogicheskiy roman, roman formirovaniya, roman o nравах, personalnie romani, roman о взрослении; o‘zb.: tarbiya romani deb yuritiladi) nazariy-poetik xususiyatlari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning faol yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Janr ijtimoiy, maishiy va oilaviy muammolarni hal qila olgan qahramonning ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamollikkka erishuvining tadrijiga asoslanadi.

Tarbiya romani janri nazariyasi, kelib chiqishi va rivojlanishi V. Diltey, S. Kou, T. Djeffers, J. Bakli, M. Xirsh, F. Moretti, G. Lukach, M.M. Baxtin, A.V. Dialektova, I.A. Vlodavskaya, V.N. Pashigorev, S.V. Gayyyunas va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Tarbiya romani janri yoxud nemischa «Bildungsroman» rasman 1910 yilda Britannika qomusiy nashrida qayd etilgan: «Tarbiya romani – o‘sib-ulg‘ayish jarayoni tasviri bilan bog‘liq holda qahramonning axloqiy va ruhiy rivojlanish omillarini va sabablarini tasvirlaydigan janr sanaladi». «Bildung» so‘zi «surat», «rasm», «shakllanish» va «rivo-

<sup>1</sup> Йоҳанн Вольфранг Гёте/ Заковат дурдоналари (олмон тилидан М.Акбаров таржимаси). – Т.: “Янги аср авлоди”, 2013. – Б. 50.

jlanish» ma'nolarini anglatadi, bularning ma'nosи u yoki bu ma'noda rivojlanish va tarbiya bilan bog'liq<sup>1</sup>.

Qahramonlar hayoti ikki kitobda ko'rsatilsa, dilogiya; uch kitobda ifodalansa, trilogiya; to'rt kitobda aks ettirilsa, tetralogiya; besh kitobda bayon qilinsa, pentalogiya deyiladi.

Roman janri epik proza janrlarining eng yuksak va eng oxirgi rivojlanish nuqtasi bo'ldi. O'zbek romani XX asr boshlarida yuzaga keldi. Garchi ko'p asrlik xalq eposi, mumtoz adabiyotdagi dostonnavislik boy an'analarga ega bo'lsa-da, biroq ular o'zbek adabiyotidagi nasriy janrga keng epik tasvir jihatidangina asos bo'ldi. Tom ma'nodagi roman janri esa rus hamda G'arb romanchiligi ta'sirida yuzaga keldi. Bunda A.Qodiri, Cho'lpon, S.Ayniy kabi san'atkorlarning xizmatlari beqiyos. Keyinchalik ularning an'analari Oybek, A.Qahhor, A.Muxtor, G'.G'ulom, S.Ahmad, Mirmuhsin, Shuhrat, P.Qodirov, O.Yoqubov, O'.Hoshimov, Omon Muxtor, T.Murod singari adiblar tomonidan rivojlantirildi. Hozir o'zbek romanchiligidagi U.Hamdam, L.Bo'rixon kabi iste'dodli qalamkashlar ham barakali ijod qilmoqdalar. Xullas, roman hayotni nisbatan keng va batatsil aks ettiruvchi epik turga mansub katta janr hisoblanadi.

Povest – qissa. O'rta hajmli nasriy epik, rivoyaviy janrnning bir xili bo'lib, u o'ziga xos belgilarga ega. Bu belgilar adabiyotshunoslikda turlicha talqin etiladi. Povest hayotiy voqeа-hodisalar qamrovi jihatidan romanga nisbatan kichik, hikoyaga nisbatan kattaroq va murakkabroq bayon shakliga ega bo'lgan janrdir. Povestda u yoki bu shaxs hayotining muayyan davri izchil bayon etiladi. Romanda qahramon hayoti nisbatan to'liqroq, povestda ma'lum bir davri, hikoyada esa uning hayotidan bir yoki bir nechta epizod tanlab olinadi. D.S.Lixachev e'tiroficha, «Povest romandan ko'ra qisqaroq,

<sup>1</sup> Махмудова Н.А. Своеобразие жанра романа воспитания в творчестве Ч. Диккенса// «Филологические науки. Вопросы теории и практики». – Тамбов, 2011. – № 3(7). – С. 106-110. <https://www.gramota.net/materials/2/20103/29.html>; Dombey and Son as Bildungsroman: peculiarities of plot development// Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2011. – № 28. – С. 62-65. <https://cyberleninka.ru/article/n/dombey-and-son-as-bildungsroman-peculiarities-of-plot-development>; «Оливер Твист» как роман воспитания: детство-отчество// Научно-методический электронный журнал «Иностранные языки в Узбекистане». – Ташкент, 2020. – № 2 (31). С. – 292-313. <https://journal.fledu.uz/ru/oliver-twist-ch-dikkensa-kak-roman-vospitaniya-detstvo-otrochestvo/>

personajlar ham kamroq, syujet ixcham, hatto keskinroq»<sup>1</sup>. M.V. Golovkoning ta'kidicha, «Bu janr butunlay o'zgaruvchan, qorishiq (gibrildir). Povest bilan hikoya, povest bilan roman o'rtasidagi chegaralar muttasil o'zgaruvchan»<sup>2</sup>, V.G.Belinskiy esa «povest inson taqdiri haqidagi tugallanmagan romanidan qisqa bir manzara»<sup>3</sup>, – deya izohlaydi.

«Adabiyotshunoslikda qissa bilan povest terminlarining qo'l-lanishi turlicha: ular sinonim sifatida ham, boshqa-boshqa janr nomlari sifatida ham ishlatiladi. Qissa bilan povestni boshqa-boshqa janrlar deb tushunish yetarli asosga ega emas, shuning uchun ularni sinonim sifatida tushunish kengroq ommalashgan»<sup>4</sup>.

Hikoya janriga mansub asarlarda inson hayotidagi birgina voqeа ma'lum qilinib, shu orqali uning ichki dunyosi, fe'l-atvori ochib beriladi. Hikoyalarda roman, qissalardan farqli tarzda, qahramon xarakteri shakllangan holda taqdim etiladi, syujetda voqealar rivoji voqealar doirasini kengaytirmsandan, epizoddan epizodga o'sib boradi. Hikoya jahon adabiyotshunoslida novella terminiga muvofiq keladi. Janr sifatida novella quyidagi belgilarga ega bo'lishi: a) aniq bir shaxs hayotiga oid voqealarni ixcham, badiiy jihatdan mukammal shaklda aks ettirishi; b) asardagi personajlar miqdori o'ta chegaralangan va shunda ham epik bayonnnng bir personaj bilan bog'liq bo'lishi; v) novelladagi syujetning kutilmagan boshlanma va yechimlarga, keskin dramatik taranglikka ega bo'lishi; g) kichik hajmda katta davrga xos asosiy xususiyatlarni sig'dira olishi va shunga mos holda lo'nda bayon etishi; d) ko'pincha asarni bir muhim detal asosiga qurish lozimligi. Novellalar ijodkori *novellanavis*, *hikoyanavis* atamalari bilan ifodalanadi. 2) Keskin burilish nuqtalariga ega bo'lган, qisqa hajmli hikoyalar ham *novella* deb yuritiladi.

**Ocherk** – (rus. ocherkat – tasvirlash so'zidan) o'z hajmi jihatidan hikoyaga yaqin turgan, epik turga mansub badiiy publististik janrlardan biri. Ocherk g'oyaviy-estetik jihatdan muhim

<sup>1</sup> Лихачев Л.С. Неравнодушная проза. – Москва: Художественная литература, 1984. – С. 3.

<sup>2</sup> Головко В.М. Поэтика русской повести. – Саратов, 1992. – С. 6.

<sup>3</sup> Белинский В.Г. Собрание сочинений. т.3 . – Москва: 1978. – Б. 271.

<sup>4</sup> Курунов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 381.

ahamiyatga ega bo‘lib, badiiy ijodga xos hamma xususiyat va talablar asosida yaratiladi<sup>1</sup>. Hikoyanavis ko‘pgina hayotiy voqealarni umumlashtiruvchi, aksariyat hollarda o‘zi kuzatgan hayotiy voqealar asosida badiiy to‘qimaga asoslanib, ularni ifodalovchi butunlay yangi voqeа yaratsa, ocherknavis aniq tarixiy davrda yuz bergen voqeanning muhim nuqtalarini aynan tanlab olish orqali uni tipiklashtiradi. Xuddi shuning uchun ham ocherknavis bevosita o‘zi ko‘rgan, eshitgan voqealar, kishilar haqida yozadi va badiiy to‘qimaga keng yo‘l bera olmaydi. Shu ma’noda ocherkdan hamma vaqt hujatlilik talab qilinadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Epik tur va uning janrlari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Roman va qissaning asosiy farqlarinini aniqlang va to‘liq izoh bering?
3. Hikoya syujet tizimida voqealar rivoji goh pasayadi, goh kuchayadi? Shuni isbotlang va misollar keltiring?
4. Romandagi qaysi holatni kulminatsion cho‘qqi sifatida baholash mumkin?
5. Hikoya va qissa janrlarining hozirgi kundagi holatini tahlil qiling?

### **Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan test topshiriqlari**

#### **I. Atamalar raqamini ularning ta’rifi bilan juftlang.**

1.	Epos	A	badiiy obrazni qurishning o‘ziga xos turi bilan ajralib turadi – bu muallifning shaxsiy hissiy va ruhiy tajribasini o‘zida mujassam etgan tasvir-tajriba. Bu turni adabiyotning eng sirli turi deb atash mumkin, chunki u insonning ichki dunyosiga, uning subyektiv sezgilariga, g‘oyalariga, g‘oyalariga bag‘ishlangan.
----	------	---	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

<sup>1</sup> O‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug‘ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 170 b.

2.	Lirika	B	bu adabiyotning bir turi bo‘lib, uning asosiy xususiyati asarlarning sahna dizayni hisoblanadi. Uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning sahnada ijro etilishidir. Bunday asarlarda voqealar rivoji tasvirname yo‘l bilan, ya’ni asar qahramonlarining bayoni orqali ifodalanadi. Masalan: dialog, monolog orqali. Bu janrlar negizida harakat yotadi.
3.	Drama	C	bu muallif uchun tashqi hodisalar, hodisalar, jarayonlarning tasviridir. Inson hayotining ob‘ektiv yo‘nalishini aks ettiradi. Mualliflar turli badiiy vositalardan foydalangan holda, butun jamiyat va uning har bir vakillari yashaydigan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, psixologik va boshqa muammolarni tasvirlaydilar.
4.	Foja	D	dramatik turga mansub janrlardan biri bo‘lib, bunda voqealar, xarakterlar, kolliziya kulgi fonida tasvirlanadi. Kulgi, komizm inson va jamiyat hayotidagi ziddiyatlar ustidan hajv qilish yoki engil yumor vositalaridan biridir.
5.	Komediya	E	bu qahramonning o‘limi bilan tugaydigan kuchli belgilari va ehtiroslarning qizg‘in kurashini tasvirlaydigan qaytarib bo‘lmaydigan mojaro bilan dramatik asar.

Javob	1.	2.	3.	4.	5.

## II. Asarlarning janrini aniqlang.

- 1) Nodar Dumbadze, «Kukaracha»;
- 2) O‘tkir Hoshimov, «Dunyoning ishlari»;
- 3) Murod Muhammad Do‘s, «Bir toychoqning xuni»;
- 4) Muhammad Ali, «Mironshoh Mirzo»;
- 5) Abdulla Qahhor, «O‘g‘ri»;
- 6) Erkin A’zam, «Javob»;
- 7) Said Ahmad, «Qorako‘z majnun»;
- 8) O‘tkir Hoshimov, «Cho‘l havosi»;
- 9) Normurod Norqobilov, «Olim o‘g‘il»;
- 10) Abdurashid Normurod, «Qon hidi»;
- 11) Shuhrat, «Oltin zanglamas»;
- 12) Odil Yoqubov, «Tengdoshlar»;
- 13) Tog‘ay Murod, «Ot kishnagan oqshom»;
- 14) Nazar Eshonqul, «Qora kitob»;
- 15) G‘afur G‘ulom, «Mening o‘g‘rigina bolam».

Hikoya	Javob	Roman	Qissa

**III. Ketma-ketlikning mosini toping. keltirilgan asarlar qaysi janrga mansub.**

1.	Qissa	A.	«Adolat manzili»
2.	Drama	B.	«Yorqinoy»
3.	Roman	C.	«Don Kixot»
4.	Roman	D.	So‘lmas chechaklar»
5.	She'r	E.	«Abadiyat qonuni»
6.	Doston	F.	«Ona tilim»
7.	Roman	G.	«So‘nggi saboq»
8.	Doston	H.	«Hayotga muhabbat»
9.	Qissa	I.	«Ko‘zlar»
10.	Roman	J.	«Kichkintoy»
11.	Hikoya	K.	«Germaniya. Qish ertagi»
12.	Hikoya	L.	«Erk»
13.	She'r	M.	«Baxtsiz kuyov»
14.	Drama	N.	«Hellados»
15.	Roman	O.	«Hafta»
16.	Pyesa	P.	«Erkaklar zamini»
17.	Drama	Q.	«Kapitan qizi»
18.	She'r	R.	«Lolaqizg‘aldoq»
19.	Roman	S.	«Inson sadoqati»
20.	Hikoya	T.	«Fotima va Zuhra»

Javob									
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.
11.	12.	13.	14.	15.	16.	17.	18.	19.	20.

#### IV. Epik turga mansub janrlarni tahlili bilan moslang.

1.	Ertak	A.	Voqeа, hikoya tarzida bayon qilinadigan, katta hajmдagi she'riy janr
2.	Doston	B.	Kichik syujetli she'rdan iborat bo'lib, unda voqeа bilan birga shoirning his-tuyg'ulari ham aks etadi.
3.	Poema	C.	O'rta va Yaqin Sharq xalqlari, jumladan turkiy xalqlar og'zaki va yozma adabiyotidagi katta hajmga ega bo'lgan epik asar. Xalq og'zaki va yozma adabiyotdagi bunday asarlar, garchi bir nom bilan atalsalar-da, biroq yaratilishi, takomillashib borishi, shakliy xususiyatlari, ijro etish jihatini bilan bir-biridan farqlanadi.
4.	Ballada	D.	O'rta hajmli nasriy janr. Hayotiy voqeа-hodisalarining qamrovi jihatidan romanga nisbatan kichik, hikoyaga nisbatan kattaroq va murakkabroq bayon shakliga ega bo'lgan janrdir.
5.	Latifa	E.	Katta hajmli epik asar. Yirik epik qamrovi, inson hayotini butun murakkabligi bilan har tomonlama va to'liq tasvirlashi, ishtirok etuvchi shaxslar taqdирining polifonik talqini bilan ajralib turadi.
6.	Ocherk	F.	Arab, fors-tojik, o'zbek va Yaqin Sharqdagi boshqa xalqlar folklori va adabiyotidagi janrlardan biri. Paydo bo'lishi jihatidan xalq ijodiga mansub bo'lsa ham, biroq o'zbek adabiyotida bu janr ham og'zaki, ham yozma shaklda keng tarqaldi. Yozma adabiyotdagi ko'proq o'z hayoti, ishlari va xulqi bilan o'zgalarga namuna bo'ladigan shaxslar haqidagi kichik-kichik, go'zal hikoyachalar shaklida bo'lgan.
7.	Qissa	G.	Biror tarixiy hodisa yoki kechinma voqeani fantastik tarzda tasvirlovchi asar. Hikoya qilish, rivoyat keltirish
8.	Roman	H.	Epik turga mansub kichik hajmli janr bo'lib, u o'ziga xos imkoniyat va hayotiy qamrovga ega. Syujet va kompozitsiya jihatidan soddaligi, bayoni asosan bir shaxs tomonidan olib borilishi bilan boshqa epik jaordan farqlanib turadi.
9.	Hikoya	I.	Hajm jihatidan hikoyaga yaqin turgan, epik turga mansub badiiy publisistik janr.
10.	Rivoyat	J.	Xalq og'zaki ijodiga xos epik tur janri. Bu janr barcha xalqlar og'zaki ijodiga xos qadimiy janrdir. Har bir xalqning ushbu janrida mazkur xalqning dunyoqarashi, milliy xarakteri, sinifiy munosabatlari, turmushi ma'lum darajada o'z ifodasini topadi.

Javob	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

**V. Roman va hikoyaga daxldor bo‘lgan fikrlarni tahlil qilib, mos raqamlarni jadvalning javob qismiga yozing.**

1. Inson hayotini jamiyat bilan bog‘lab, keng tasvirlovchi yirik epik janr.
2. Inson hayotidagi bo‘lgan hodisani psixologik konfliktni xarakter bilan bog‘lagan holda rivoyaviy usulda tasvirlovchi kichik epik janr.
3. Induvidual taqdir prizmalari orqali ijtimoiy hayotning, xalq turmushining ko‘p jihatlari badiiy tadqiq qilinadi.
4. U epik turning kichik janri.
5. U antik davrda ham juda ko‘p yaratilgan ammo rivojlangan davri Uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi.
6. Muayyan vaziyatda kishi hayotining bir parchasi.
7. U janr sifatida Volter Skott asarlari bilan yuksak badiiy taraqqiyotga erishgan.

Javob	Roman	Hikoya

**Foydalanimagan adabiyotlar:**

1. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 308 b.
2. Лихачев Д.С. Неравнодушная проза. Предисловие к книге Кузьмина А.И. Повесть как жанр литературы. – М., 1984. – С. 3-4.
3. Куронов Д., ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 411 б.
4. O‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug‘ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 170 b.

## LIRIK VA DRAMATIK TURNING JANRLARI

### Reja:

1. Lirk tur va uning janrlari.
2. Dramatik tur va uning janrlari.
3. Dramatik asar va uning sahna talqini.

**Tayanch tushunchalar:** *lirika, drama, shoir, lirk tur, epigramma, qo'shiq, romans, g'azal, ruboiy, fard, tuyuq, qit'a, musallas, murabba, muxammas, musamman, musabba', qasida, gimn, elegiya, dramatik tur, komediya, drama, tragediya.*

She'r ohang jihatdan muayyan tartibga solingen his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli, ritmik nutq. Biroq bu she'rning eng mukammal, har jihatdan yetuk ta'rifi emas. Mutribiy Samarcandiy (1556–1630/1650)ning «Tazkirat ush shuar» (1605)sida: «She'r» so'zining lug'aviy ma'nosi «topmoq va bilmoq»dir. Shu jihatdan shoirni «biluvchi va topuvchi» deb ataydilar. Chunki shoir boshqalar topa olmaydigan sara so'zlarni topadi va ular tizimiga o'zgalar eplay olmaydigan darajadagi shaklni beradi.

Shoirlikshunday san'atki,(shoir)busan'atorqalihayajonlantiruvchi tushunchalarni hosil qiladi va ta'sirchan qiyoslarni bir-biriga ulaydi. Ilhom san'ati bilan g'azab hamda hissiy quvvatlarni qo'zg'atadi, natijada kishilar tabiatida qayg'u yoki xurramlik paydo bo'ladi. Bu esa ulug' kishilar faoliyatida olamni tartibga solib turish uchun xizmat qiladi. Shoirlar ruhi toza, fikri keng, tab'i latif, ko'ngli to'g'ri va zehni o'tkir bo'lmog'i lozim. U yana turli fanlardan xabardor bo'lishi, har xil odatlar bilan tanish bo'lmog'i kerak. Chunki she'r har bir ilmda qo'l kelishi va har xil ilm she'rda ifodalanishi mumkin<sup>1</sup>. Erkin Vohidov ta'biricha, she'r shoir qalbida tug'ilgan hayotiy tuyg'ularni ifoda qiladi va shu bilan o'quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o'zi yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi, qalb hislarida otash bo'limasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday she'riy jimmimalardan, badiiy vositalardan, mahoratdan

<sup>1</sup> Низомий Арузий Самаркандий. Нодир ҳикоятлар. (Мажмаъун наводир). – Т.: Faafur Fulom nomidagi Adabiyet va san'at naşriyoti, 1985. – Б. 81.

naf yo‘q. Erling Kristining fikricha, poeziya voqelikka taqlid emas, voqelikning talqini, tafsiri ham emas. Poeziya – o‘z-o‘zicha voqelikdir, hayotiy voqelikdan ko‘ra yuksakroq darajadagi voqelikdir... yaxshi she’r – kitobxon shuurida portlaydigan siqiq voqelikdir. Leo Ferre esa poeziyani ovozga qiyoslaydi. Uni tinglay bilish kerak. Xuddi musiqani tinglagandek. U, kamoncha ishga tushishi bilan g‘ijjakka jon kirgandek, tovush pardalari harakati bilangina jonlanadi. Ko‘z qog‘ozdag‘i bosma harflar navosini tinglashi lozim. Yaroslav Seyfert poeziyaning ahamiyati to‘g‘risida shunday degan edi: poeziya bizning madaniy hayotimizda muhim o‘ringa ega. She’riyat nafaqat odamlar bilan chin dildan gaplashish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, biz poeziya tilidan turli xavf-xatarlardan bekinadigan makon sifatida foydalanamiz<sup>1</sup>. Shoir Aziz Said she’r va shoirlik haqida shunday e’tirof etgan: «Men she’riyatni insonning o‘z-o‘zi bilan, odamlar bilan, tabiat bilan, Xudo bilan ruhoni suhbat deb bilaman. Bu suhbatga ehtiyoj qachon tug‘iladi? Ishonchim komilki, odamzod dun-yoga kelganda bu olamning pok tasviri qalbiga muhrlangan bo‘ladi – ota-on, Vatan, do‘sstdan tortib Yaratuvchigacha, mehr, muhabbat,adolat va hurlikdan tortib e’tiqodgacha. U ro‘baro‘ kelgan hayot ana shu pok – ideal tasavvurday go‘zal bo‘ls, zavqlanadi, unga mos kelmasa, iztirob chekadi. Kim bilandir ruhoni suhbat ehtiyoji tug‘iladi. Yuragida tug‘ilgan dardlarga malham, savollarga javob olgisi keladi, ruh taskin va hamdard izlaydi»<sup>2</sup>.

Istiloh sifatida «she’r» so ‘zi ma’no, vazn va qofiyaning hamohang kelishini anglatadi. Chunki yaratuvchisi ularni ana shu bir-biriga bog‘liqlik holatida shakllantiradi» deyiladi<sup>3</sup>.

R.Orzibekovning hisoblashicha, bиргина mumtoz o‘zbek she’riyada 30 ga yaqin lirk Janr va shakllar bor. Bular: debocha, nazira, faxriya, marsiya, soqiyonna, qasida, ta’rix, bag‘ishlov, hasbi hol; madhiya, qo‘schiq, ashula, alla, lapar, yor-yor; mushoira, shiru-shakar, muvashshah, g‘azal, tuyuq, ruboiy, fard, masnaviy, mustazod, sonet, tarjeband, tarkiband; to‘rtlik, musallas, murabba, muxammas,

<sup>1</sup> <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik>

<sup>2</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sheriyat-va-qalb-tarbiyasi-shoir-aziz-said-bilan-suhbat.html>

<sup>3</sup> Самаркандий М. Тазкират уш шуаро. - Т.: “Мумтоз сўз”, 2013. – Б. 21.

musaddas, musabba, musamman, mutassa, muashshar va h<sup>1</sup>.

**Fard** (arabcha so‘z bo‘lib, yakka, yolg‘iz, toq ma’nolarini beradi) «shoir tomonidan ma’lum mavzu va g‘oyaviy maqsadda ijod qilingan mustaqil she’riy baytdir. Fard bir bayt hajmidagi, shaklidagi she’riy asardir.

**Ruboiy** (ar. - to‘rtlik) – «ikki baytli she’r» bo‘lib, uning yuzaga kelishiga, xalq she’riyatidagi to‘rtliklar asos bo‘lgan» (B.Sarimsoqov, N.Hotamov). Aruz hukmronlik qilgan davrlarda «hazaj bahrining «ahram» va «ahrab» shajaralaridagi 24 sho‘bada yaratilgan... uning yetakchi janr belgisi – undagi chuqur mazmunni hazaj bahri vaznlarida ifodalash» (R.Orzibekov) sanalgan.

Ruboiy qofiyalanishga qarab ikki xil bo‘ladi. Agar u a-a-b-a tarzida qofiyalansa **xosiy ruboiy**, -a-a-a-a tarzida qofiyalansa **taronai ruboiy** deb yuritiladi.

**Tuyuq** (ar. – tuslash, tuymoq) – lirikaning o‘ynoqi, shoirning so‘z san’atini yaqqol ko‘rsatuvchi janrdir. Uning tadqiqotchilaridan R.Orzibekovning ta‘kidlashicha, tuyuq «to‘rt misradan iborat mustaqil va to‘liq ma’noga ega bir butun asar ekanligi; 2) ko‘proq a,a,b,a ba’zan a, a, a, a shaklidagi qofiyalanish; 3) xuddi ruboiydagি singari tezis (1-misra), antitezis (2-misra), moddai tuyuq (3-misra) va sintez (4-misra) kompozitsiyasiga ega bo‘lishi va nihoyat 4) murabba’ she’rlaridan farqli o‘laroq so‘nggi misralarda shoir taxallusining ko‘rsatilmasligi kabi xususiyatlari bilan ruboilarga o‘xshasa ham, ammo o‘ziga xos yagona vazn – «ramali musaddasi maqsur» (foilotun foilotun foilun)da yozilishi va shu «vazn bilan o‘z badaniga noz libosini kiyishi» (A.Jomiy) aksar qofiyalarining tajnisli so‘zlardan iborat bo‘lishi bilan farq qiladi».

**To‘rtlik** – ruboiy va tuyuq janri talablari (vazni)ga javob bermaydigan to‘rt misralik barcha she’riy asarlarni to‘rtlik(qorishiq) janri deb yuritish asoslidir. To‘rtliklarning mavzu va mundarijasi – hayotning barcha jihatlarini qamrab oladi; ularda bu jihatlar siqiq tarzda poetiklashadi.

**G‘azal** (arabcha so‘z, ma’nosi «Ayollarga sevgi va munosabat izhor qilish») asosan ishq-muhabbatni kuylovchi, muhabbat kabi judayam qadimiyl, doimo yangi bo‘lgan lirik she’rdir. G‘azal mavlono Fuzuliy

---

<sup>1</sup> Орзивеков Р. Ўзбек шеърияти жанрлари. – Самарқанд, 1998. – Б. 10.

ta’biricha, «Shoir qudratini bildiruvchi, hunarning guli-guliston»dir, Mavlono Vohid Abdulla nazdida «Qalb qonidan ochilgan lola»dir.

G’azal aruzda ikki misrali bayt usulida yoziladi. Uning birinchi bayti «matla’» («bosqlanma») deb yuritiladi va undagi ikki misra qofiyadosh (a,a) bo‘ladi. Keyingi baytlarning ikkinchi misralari matla’ga qofiyadosh (ba, va, ga, da ... va h.) bo‘ladilar. G’azalning oxirgi – xulosaviy bayti «maqta’» («tugallanma») deb yuritiladi va unda g’azal muallifining ismi yoxud taxallusi («qutilish, xalos bo‘lish») qo‘llaniladi. G’azalda, ko‘pincha, qofiyadan so‘ng radif keladi.

G’azal 3 baytdan 19 baytgacha bo‘lishi mumkin. Uning mumtoz shakli 7 baytdir. Jumladan, Alisher Navoiyning «Xazoinul maoni» devonidagi 3244 asardan 2600 tasi g’azal bo‘lib, ularning 1774 tasi 7 baytlidir. Ushbu ta’kiddan ko‘rinadiki, g’azal mumtoz adabiyotimizda janrlarning sardori bo‘lib kelgan. Qofiyalanish tartibiga ko‘ra g’azal: 1) oddiy (a-a, b-a, v-a, g-a...), 2) husni matla’ (a-a, a-a, b-a, v-a, g-a...), 3) zulqofiyatayn (a-a, b-b, v-v, g-g...), 4) zebqofiyatayn (a-a, a-a, a-a, a-a...), g’azal-mushoira, g’azal-chiston, g’azal-nazira, g’azal-muvashshah, g’azal-musajja’, g’azal-qit’a ko‘rinishlariga ega bo‘lgan<sup>1</sup>.

Dramatik turda hayot va insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ifodasi tomoshabin ko‘z o‘ngida, muayyan sahna vaqtি ichida **harakatda** sodir bo‘ladi, shu sabab unda so‘z va sahna san’ati birlashadi, birbutunlik kasb etadi.

Dramatik asarda bir voqeanning o‘zi kimlar uchun kulguli, kimlar uchun qayg‘ulidir. Demak, poetik mulohazaning qanday janrga mansubligi shoirning maksadi, goyasi bilan bogliq<sup>2</sup>.

Quyidagi janrlarga bo‘linadi: tragediya, komediya, drama, tragikomediya, melodrama, insenirovka, intermediya, monodrama va sh.k.

Drama – (gr. drama – harakat so‘zidan). Bu janr harakatdan va odamlarning o‘zaro suhbatlari – dialogdan tarkib topadi. Dramaning kelib chiqish tarixini qadimgi zamon olimlari va hozirgi davr

<sup>1</sup> Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2012. – B. 226-230.

<sup>2</sup> Арасту «Поэтика»си Форобий талқинида/ Арасту. Поэтика. Ахлоқи кибір. Риторика. – Т.: «Янги аср авлоди», 2011. – Б. 114.

ilm ahli xalq diniy marosimlari bilan bog'laydilar. Dramaning uziga xos xususiyatlaridan biri uning sahnada ijro etilishidir. Dramatik asar sahnada qo'yilmas ekan, tomoshabin uning harakat va holatini kuzatib, so'zlarini tinglamas ekan, u haqiqiy badiiy asar darajasiga ko'tarila olmaydi. Sahna asari aktyorlarning mahorati, bezaklarning aniqligi, musiqa va yorug'likning me'yori jihatidan ham o'ziga xoslik kasb etadi. Sahnada o'ynalishidan tashqari, dramaning adabiy asosi hisoblanmish asar matnida uning poetik xususiyatlari ham mujassamlashgan bo'ladi. Bu poetik xususiyatlari bilan drama epos va lirika adabiy turlariga mansub janrlardan ajralib turadi. Chunki dramada har bir obraz o'z xarakteriga xos xislatlarini o'z tili, xatti-harakati orqali ochadi. Epos, lirika turlariga mansub janrlardan tubdan farq qilib, dramada muallif bayoni yo'q. Dramada biror hayotiy voqeа boshdan-oyoq batafsil tasvirlanmaydi, unda shaxs hayotining eng muhim nuqtalari aks ettiriladi, ya'ni dramaturg o'z g'oyaviy niyatlariga qarab butun voqealarни shunday markazlashtiradiki, tomoshabin katta-katta voqealar mohiyatini ham kichkina shtrixlardan anglab oladi.

**Tragediya** – (gr. *tragos* – echki va *ode* – qo'shiq so'zlaridan) fofia. Asosida kelishitirib bo'lmaydigan ziddiyat yotuvchi, oqibatda fojia bilan tugovchi dramatik turga mansub janr. Tragediya o'z asosida konfliktning xarakteri va xarakterlarning o'ziga xosligi bilan drama va komedyadan ajralib turadi. Tragediyadagi konflikt juda ham shiddatli, keskin bo'lishi bilan birga, u hamma vaqt ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot, insoniyatning ilg'or ma'naviy hayoti bilan bog'liq holda hal etiladi. Shuning uchun ham tragediyada inson maishiy hayotining, tarixiy taraqqiyotning muhim masalalari falsafiy tarzda keskin hal etiladi. Hayotdagи ikir-chikir voqeа-hodisalar, mahalliy yoki shaxsiy to'qnashuvlar tragediya uchun asos bo'la olmaydi. Mana shularni nazarda tutgan rus tanqidchisi V.G.Belinskiy tragediyaga «dramatik poeziyaning oliy bosqichi va gultojidir», deb baho bergen edi.

Tragediya ko'p o'zgarishlarni kechirgach, o'ziga xos tabiiy xususiyatlarini kashf etgan holda yetilib qoldi. Aktyorlar ishtiroki masalasiga kelganda, Esxil bitta aktyor o'rniga ikkita kiritdi, xor qismini ozaytirdi va dialogni birinchi o'ringa qo'ydi, Sofokl esa aktyorlarni uchtaga yetkazdi va dekoratsiyalar kiritdi. Kamolot masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, kichik afsonalar va kulgili ifoda usulidan

boshlanib, satirik tomoshalar yo‘lini bosib o‘tgan tragediya allaqachon o‘zining ulug‘vorlik bosqichiga erishdi; uning vazni ham (trox-aik) tetrametrdan yambga aylandi<sup>1</sup>.

Tragediya eramizgacha bo'lgan V asrda juda ham taraqqiy etdi. Uning bunday rivojida Esxil, Sofokl, Evripid kabi qadimgi dramaturglarning roli benihoya katta bo'ldi. O'zbek adabiyotida tragediya janri yangi hodisa sifatida rus va boshqa xalqlar adabiyoti ta'sirida paydo bo'ldi.

**Tragikomediya** – o‘zida tragediya va komediya xususiyatlarini birlashtirgan drama asari. Tragikomediyada fojiaviy holatlar bilan komik personajlar bir paytda sahnaga chiqadi. Voqelik tasvirida fojiaviylik o‘rnini kulgi, kulgili holatlar o‘rnini esa fojia egallaydi. Tragikomediya kuldirib yig‘latish va yig‘latib kuldirish holatlari asosiga quriladi. Tragikomediyaning dastlabki namunalari Evripid ijodida uchraydi. XIX asr oxiri va XX asrning ikkinchi yarmidagi Evropa adabiyotida, xususan, G.Gauptman, A.P.Chexov, G.Lorka, E.Ionesko, S.Bekket ijodida tragikomediya namunalari mavjud. O‘zbek adabiyotida Sh.Boshbekovning «Temir xotin» asari tragikomediyaga misol bo‘ladi.

**Komediya** – (gr. somos – xushchaqchaq olomon va oide – qo'shiq so'zlaridan) dramatik turga mansub janrlardan biri bo'lib, bunda voqealar, xarakterlar, kolliziya kulgi fonida tasvirlanadi. Kulgi, komizm inson va jamiyat hayotidagi ziddiyatlar ustidan hajv qilish yoki engil yumor vositalaridan biridir. Komediya dastlab Gnostiyada eramizdan oldingi V-IV asrlarda yuzaga kelgan bo'lib, uning asoschisi Aristofandir. Qadimgi Rimda esa Terenstiy, Plavtlar bo'lib komediyalar yaratdilar. Keyinchalik Italiya va boshqa Sharbiy Evropa mamlakatlarida komediya keng tarqaldi. Rus dramaturgiyasida komediya XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Komediyaning ham ma'lum vazni bo'ladi, unda yomon fe'lavor zikr qilinadi, odamlar, ularning axloqlarida qoralanadigan va such ko'tilmagan tabiatlar hajv qilinadi. Ko'pincha uning bo'laklariga ohang-nag malar qo'shilib, ularda ham qoralanadigan xulq-atvorlar

Артикул: Понтика. Ахлохи кабир. Риторика. – Т.: «Янги аср авлоди», 2011.

Qayyusova D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug'ati. – T.:  
Toshkent, 2015. – B. 128.

eslanadi. Bu eslangan xulq-atvorlarda inson, hayvon va ikkoviga aloqador bo‘lgan xunuk shakl – timsollar ishtirok etadi<sup>1</sup>.

O‘zbek komediysi xalq o‘rtasida *muqallid*, *taqlid* kabi janrlar sifatida juda uzoq zamonlardan mavjud edi. Biroq haqiqiy komediya janri XX asrning 20-yillaridan yuzaga keldi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Poeziya – o‘z-o‘zicha voqelikdir, hayotiy voqelikdan ko‘ra yuksakroq darajadagi voqelikdir... yaxshi she’r – kitobxon shuurida portlaydigan siqiq voqelikdir. She’r – shoir – shuur uchligini tahlil qiling.
2. Mumtoz g‘azallar va hozirgi kunda yaratilayotgan g‘azallarning mavzu ko‘lamidagi mushtaraklikni aniqlang.
3. Birinchi o‘zbek adabiyotidagi dramatik asar va unga izoh bering?
4. Tragediya janri va uning xususiyatlarini sharhlang. Yunon-rim adabiyotida nega oliy janr sifatida baholangan?
5. Dramatik asarda asosiy holat monolog va dialoglarda namoyon bo‘ladi, shunday ekan muallif nutqi nima deb nomlanadi?

### Blum taksonomiyasи asosida tuzilgan test topshiriqlari

#### I. Mustazod va mufradotga daxldor bo‘lgan fikrlarni tahlil qilib, mos raqamlarni jadvalning javob qismiga yozing.

1. Klassik she’riy shakklardan biri bo‘lib, asosan g‘azalga o‘xshab qofiyalanadi. Biroq o‘zining misra tuzilishi jihatidan g‘azaldan farq qiladi, ya’ni har bir misradan so‘ng shu misradagi ikki ruknga teng qisqa misra ham keltiriladi.
2. Qisqa misralar, odatda, o‘zi ergashib kelgan misradagi fikrni davom ettiradi, ta’kidlaydi va xulosalaydi.
3. Bir baytdan iborat mustaqil she’riy asar, *fardlar majmuasi*.
4. Navoiy o‘zining “Mezonul-avzon” asarida u asosan turkiy xalqlar poeziyasidagi vaznda yaratilishini, o‘ziga xos tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatib o‘tgan.

<sup>1</sup> Арасту. Поэтика. Ахлоқи қабир. Риторика. – Т.: «Янги аср авлоди», 2011.  
– Б. 69.

5. O‘zbek klassik adabiyotida keng tarqalgan she’riy shakl bo‘lib, u fikrni ixcham, lo‘nda bayon qilishi hamda masnaviyga o‘xshash qofiyalanishi bilan alohida o‘rin tutadi.

<b>Javob</b>	<b>Mustazod</b>	
	<b>Mufradot</b>	

## II. She’riy shakllarni izohi bilan moslang.

1	Misra	A	She’rning muayyan tartibga ega bo‘lgan, mazmun va ohang jihatidan tugallangan, musiqiylikni yuzaga keltiruvchi yirik ritmik bo‘lak.
2	Bayt	B	Qofiya asosini tashkil etgan tub so‘zlarda o‘zak oxirida, yasama so‘zlarda esa negiz so‘ngida keluvchi cho‘ziq unli yoki undosh, ohangdorlikni hosil qiluvchi tirkak toyush.
3	Band	C	Eshikning bir tabaqasi, bir qator she’r.
4	Raviy	D	Ritmik jihatdan uyusghan nutqda, ya’ni she’riy misralarning muayyan bir o‘rnida, ko‘proq misra so‘ngida so‘z, ba’zan birikmalarning ohangdosh bo‘lib kelishi.
5	Qofiya	E	Qofiyadan so‘ng butun she’r davomida aynan takrorlanib keluvchi so‘zlar birikmasi.
6	Radif	F	Ikki misra she’r
7	Hojib	G	She’rda qofiyadosh so‘zlar orasida aynan takrorlanib keluvchi birikma.

<b>Javob</b>	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.

## III. She’riy janrlarni izohi bilan moslang.

1	Musamman	A	Aruz she’riy sistemasida 4 baytdan 19 baytgacha bo‘lgan sharq xalqlari adabiyotidagi janr.
2	Qasida	B	10 banddan iborat bo‘lib, uning har bir bandi 10 misradan tashkil topgan
3	Muashshar	C	O‘zaro qofiyalangan, to‘rtlik shakldagi bir necha bandlardan tashkil topgan lirik janr.
4	Murabba	D	5 misradan tuzilgan bir necha banlardan iborat bo‘lib, AAAA, BBBA va hokazo tarzda qofiyalanadi.
5	Muxammas	E	Falsafiy, ishqiy, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, diniy mazmunlarda yoziladigan to‘rt misradan iborat lirik janr.

6	G'azal	F	G'arb va rus poeziyasida biror kishi sha'niga yoki muhim voqealari bilan yaratilgan tantanalari she'r.
7	Ruboiy	G	8 misrali, bir necha banddan iborat bo'lgan, birinchi band yagona qofiyalanishga ega, qolgan bandlarning 7 misrasi o'zaro, sakkizinchali misrasi birinchi bandga qofiyadosh bo'lgan she'r shakli.

Javob	1	2	3	4	5	6	7

#### IV. Muvashshah va munojotga daxldor bo'lgan fikrlarni tahlil qilib, mos raqamlarni jadvalning javob qismiga yozing.

- She'riy san'at bo'lib, unga ko'ra shoirning ismi, laqab hosil bo'ladi.
- O'rta va Yaqin Sharq xalqlari adabiyotidagi lirik-epik an'anaviy kirish qismida hamddan keyin, na'tdan oldin keladigan qismi bo'lib, unda Xudodan najot tilanadi, tavba va iltijolar qilinadi.
- Undagi yashiringan so'z ikki xil bo'ladi: 1) she'r baytdagi toq misralarning birinchi harfi asarida; 2) she'rdagi juft misralarning (g'azal baytining qofiyali misralari) boshidagi harflar asosida topiladi.
- Ayrim nasriy asarlarda uchrashi bilan birga, ba'zan mustaqil asar holida ham yoziladi.
- Lirik janrlardagi she'rlarda, xususan, g'azallarda ko'proq uchraydi.
- O'zbek xalq kuyalaridan biri ham shu termin bilan yuritiladi.

Javob	Muvashshah	Munojot

#### V. Epik(A), lirik(V) va dramatik(S) turlarga xos janrlarni aniqlang va jadvalning javob qismiga yozing.

- |           |              |               |
|-----------|--------------|---------------|
| 1. G'azal | 6. Hikoya    | 11. Tragediya |
| 2. Ruboiy | 7. Drama     | 12. Doston    |
| 3. Tuyuq  | 8. Fard      | 13. Qit'a     |
| 4. Roman  | 9. Ocherk    | 14. Muxammas  |
| 5. Qissa  | 10. Komediya | 15. Epopeya   |

Javob	A	V	S

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамажонов З.А. Ўхшатиш асосидаги шеърий санъатларнинг назарий тавсифи ва таснифи: Филол. фан. фал. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 49 б.
2. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоятлар. (Мажмаъун наводир). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 96 б.
3. Орзивеков Р. Ўзбек шеърияти жанрлари. – Самарқанд, 1998. – 112 б.
4. Самарқандий М. Шоирлар бўстони («Тазкират уш шуаро»дан). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 224 б.
5. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarcand, 2012. – 254 b.
6. O‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug‘ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 170 b.
7. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik>

## ADABIY YO'NALISH VA OQIMLAR

### Reja:

1. Hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari.
2. Ijodiy metod va uslub.
3. Adabiy yo'nalish.

*Tayanch tushunchalar: realistik va norealistik ijodiy metodlar, adabiy maktab, klassitsizm, barokko, sentimentalizm, ma'rifatchilik, romantizm, realizm, simvolizm, modernizm.*

Hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari 30-40-yillar adabiyotshunosligida «metod» deb yuritilib, unga ko'ra badiiy adabiyotda ikkita – realistik va norealistik ijodiy metodlar mavjud deb sanalgan. Keyinroq metod atamasi ostida badiiy asarning g'oyaviy mazmuni bilan bog'liq bo'lgan hayot materialini tanlash, badiiy idrok etish va baholash prinsiplari tushunila boshlangan. Ya'ni metod endi badiiy tafakkur tarzi sanalib, u badiiy adabiyot e'tiborini voqelikning u yoki bu qirralariga qaratishi, tipiklashtirishi va baholashida namoyon bo'luvchi hodisa sanalgan. Badiiy tafakkur tarzini anglatuvchi metod gnoseologik (ya'ni, badiiy bilish bilan bog'liq) kategoriya bo'lsa, uslub antropologik (ya'ni, ijodkor shaxsi bilan bog'liq) kategoriyadir. Bundan ko'rindiki, metod g'oyaviylik hodisasi bo'lsa, uslub badiiylik hodisasidir. Uslub ijodkorning ijodiy individualligini belgilaydi, ijodiy individuallik esa u yaratgan badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari – poetika) namoyon bo'ladi. «Uslub – odam» degan qarashning vujudga kelishi bejiz emas: asar o'zida ijodkor shaxsini ifodalar ekan, buni uslubda namoyon etadi<sup>1</sup>. Ma'lum tarixiy davrda o'z mafkurasi va tajribasi bilan bir-biriga yaqin turgan ko'plab yozuvchilar ijodidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar – mavzu, g'oya, badiiy tasvir usullari va h.k. birligi. Har bir yo'nalishning o'ziga xos g'oyaviy-estetik tamoyillari, ya'ni dasturi, shu yo'nalish vakillari ijodida bajarilishi shart bo'lganligi adabiy yo'nalishning muhim belgisidir. Masalan, klassitsistlar ratsionalizm tamoyiliga

<sup>1</sup> Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академиашр, 2018. –Б.

amal qilib, badiiy tasvirda uch birlikka rioya etganlar. Biroq bu klassitsistlar asarlarini ma'lum bir qolipga solib qo'ydi. Shuning uchun Jan Lafonten klassitsizm yo'naliishiga, uning ijodiy tamoyillar jihatidan chegaralanishiga qarshi chiqdt. Adabiy yo'naliish u yoki bu milliy adabiyotda ma'lum bir davrda yuzaga keladi. *Adabiy yo'naliish* bilan *adabiy oqim* tushunchalarini bir-biriga qorishtirib yubormaslik lozim. Bu ikki tushuncha bir-biridan keskin farqlanadi. Adabiy yo'naliish adabiy oqimga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u ma'lum bir davrda biror adabiyot doirasida harakat qiladi. Adabiy oqim esa adabiy yo'naliishga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u yoki bu umumadabiy doirada harakat qila olmaydi. Masalan, *klassitsizm* XVII-XVIII asrlar umumevropa adabiyotida asosiy yo'naliish bo'lgan bo'lsa, adabiy oqim bunday keng miqiyosda harakat qila olmaydi. XVIII asrning 80–90-yillarda nemis klassitsizm adabiyotida paydo bo'lgan *Veymar klassitsizmi oqimi* buning yaqqol misolidir. Ma'lum bir davr adabiyotida **adabiy yo'naliish** bitta bo'lib, u shu davr adabiy jarayonini ma'lum bir tomonga yo'naltirib yuboradi. Masalan, *romantizm yo'naliishi, realistik yo'naliish* va h.k. Biror davr adabiyotida bir nechta **adabiy oqim** bo'lishi mumkin, ammo u umumadabiyotni biror tomonga yo'naltira olmaydi. Masalan, *naturalizm, sentimentalizm, futurizm* va h.k.

**Adabiy matab.** Keng ma'noda – adabiy oqim; tor ma'noda – biror buyuk san'atkor ijodining boshqa yozuvchilar uchun badiiy mahorat maktabi bo'lishi.

**Adabiy to'garaklar.** Tarixan adiblarning bir xil qarashlar, manfaatlar, g'oyalar va h.k. negizida tashkil etilgan ijodiy uyushmalar!

Ma'rifatchilik adabiyoti uchun Uyg'onish davri zamin tayyorlab berdi. Ma'rifatchilik adabiyoti paydo bo'lgunicha zohid avliyolarni ulug'lovchi, ilohiy sevgini dunyoviy sevgidan ustun qo'yuvchi, g'aroyibotlarni tasvirlovchi klassitsizm va barokko yo'naliishidagi asarlar mavjud edi. Bu oqimlar jahon adabiyotiga Lope de Vega, Torkvato Tasso, Per Kalderon, Jon Milton, Jeffri Choser, Per Kornel, Jan Rasin, Moler, Bomarshe kabi buyuk ijodkorlarni berdi. Ma'rifatchilik adabiyotiga uch adabiy oqim asos bo'ldi: 1) G'arb

---

<sup>1</sup> <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/atama/304-atama.html>

Uyg‘onish davrining gumanistik realizmi; 2) antik madaniyatga ergashuvchi klassitsizm; 3) muhtasham gotik qasrlarni eslatuvchi, mo‘jizalar va ajoyibotlarga boy barokko. Bu adabiy oqimlar uch xil usulni vujudga keltirdi. Keyinroq bu ijodiy usullardan Gyote, Klinger, Shiller, Lessing, Bayron, Gyugo, Balzak, Flober ham foydalandi.<sup>1</sup>

Adabiyotda ikki xil shakl mavjud:

1. Voqelikka xos bo‘lgan in’ikos shakli.
2. Voqelikka xos bo‘lmagan in’ikos shakli.

San’at bu – voqelikning obrazlar vositasida in’ikos etilishi. Ilmda mantiqiy tafakkur, san’atda badiiy tafakkur bor. Tafakkurning muayyan bosqichlari quyidagilar: mifologik, romantik, realistik. Bular voqelikning xarakteridan kelib chiqqan. Hozirgi san’at faqat hayotni in’ikos etmaydi, balki borliqni aks ettiradi<sup>2</sup>.

San’at va adabiyotda hayot hodisalarini gavdalantirishning umumiyligi ijodiy metod deb yuritiladi. Adabiy yo‘nalish – adabiy oqim, adabiy maktab kabi tushunchalar qatorida adabiy jarayonga tegishli kategoriyalari, biroq ulardan harakat yo‘nalishining izchilligi, qat’iy qoida va talablar asosida yo‘nalgani bilan farq qiladi. Adabiy yo‘nalish Yevropa adabiyotshunosligida XIX asr boshidan ilmiy istiloh sifatida taomilga kiritilgan. Odadta quyidagi larni adabiy yo‘nalish sifatida keltirish urf bo‘lgan: klassitsizm, barokko, sentimentalizm, ma’rifatchilik, romantizm, realizm, simvolizm, modernizm. Ularning har biri o‘z shakli, taraqqiyot yo‘li, nazariy asoslari, vakillariga ega. Bir davrda yoki bir ijodiy maneradagi adiblar asarlарining umumiyligi xususiyatlari, tipologik o‘xshashliklar asosida shakllangan. Bu umumiylilik hayot haqiqatini qabul qilish, o‘zlashtirish va ifoda qilish tamoyillarida, ijodkor uslubi va metodida ko‘rinadi<sup>3</sup>.

**Romantizm** hayot haqidagi, inson to‘g‘risidagi orzular ifodasiidir. Bu yo‘nalishda yaratilgan asarlarda xayoliy voqealar, orzulardagi obrazlar asosiy o‘rin tutadi. Romantizm tushunchasi faqat san’at

<sup>1</sup> <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/mahkam-mahmudov-alisher-mahmudov-lessing-va-herder/> Mahkam Mahmudov, Alisher Mahmudov. Lessing va Herder

<sup>2</sup> Адабиёт – инсонни кашф килиш/ Тўплам. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Хуршид Дўстмуҳаммад. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – Б.60.

<sup>3</sup> Адабиёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев.– Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2015. – Б.220-221.

va san'atshunoslik sohasiga tegishli emas. Romantizm – orzumid, estetik ideal, teran fikr, jo'shqin ehtiros, kurash va yovuzlarga qarshi isyon demakdir. Adabiyotshunos I.Terteryan «Romantizm yaxlit hodisa» maqolasida aytganiday, «Konservativ, reaksiy় (yoki passiv) deyilgan romantiklar ko'pincha, davr (epoxa) ziddiyatlarini anglashda, san'atning kelgusi taraqqiyot yo'llarini bashorat qilishda (Novalis, Xofman) revolyutsion romantiklarga nisbatan teranroq, nozikroq fikrlar, ba'zilari (Vordsvord, Kleyst) o'z asarlari bilan adabiyotda chinakam inqilob yasagan edilar», – deb yozgan<sup>1</sup>. Romantizm vogelik emas, balki vogelik haqidagi idealni aks ettiradi.

Realizm – (*lat. realis* – narsaga oid, haqiqiy so'zidan) adabiyot va san'atdagi asosiy ijodiy metodlardan biri. Vogelikni, hayotni badiiy obrazlarda murakkabligi va butun to'laligi bilan to'g'ri va haqqoniy aks ettirish. Realizm kurtaklari adabiyot va san'at tarixining dastlabki bosqichlaridayoq mayjud edi. U adabiyot hamda san'atning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib, turli davrda turlicha xarakter kasb etdi va nihoyat ijodiy metodga aylandi. Realizm insoniyat ongingin tarixiy taraqqiyoti, katta ijtimoiy-siyosiy rivojlanishlar bilan bog'liq holda tor ma'nodagi realizmning yanada rivojlanishi, adabiyotda yetakchi tasvir tamoyiliga aylanishi natijasida yuzaga keladi.

Realizm ijodiy metod sifatida ijodkorga hayotiy haqiqatni to'la va mukammal tasvirlash, uni badiiy umumlashtirish imkonini beradi. Realizm ijodiy metod sifatida aniq va tarixiy xarakter kasb etadi. Chunki u ijtimoiy hayot, inson ongingin yuksalishi bilan bog'liq holda o'sib, rivojlanib boradi. Shuning uchun ham realizm tarixini tadqiq etishda adabiyotning aniq tarixiy davriga qarab nomlash ma'quldir. Masalan: antik realizm, ma'rifatchilik realizmi yoki uyg'onish davri realizmi kabi.

**Klassitsizm** – (*lat. «classicus»* – namunaviy so'zidan) XVII asr dan XIX asr boshlariga qadar Evropa san'atida tarqalgan oqim. Antik davrda o'z rivojining yuqori cho'qqisiga erishgan qadimgi Yunon va Rim san'ati merosida shakllanib, unga taqlid qilish natijasida yuzaga

<sup>1</sup> Қаршибаева У.Д. Француз романтизм прозасининг поетик хусусиятлари (Шатобриан ва Гюго романлари мисолида): Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 82 б.

kelgan adabiyot va san'atdagi uslub, yo‘nalish. Klassitsistlar antik adabiyotni klassik – mumtoz adabiyot deb hisoblaganlar va o‘z ijodlarida antik adabiyot an’alarini tiklashni maqsad qilganlar.

Klassitsizm tarafdarlari XVII-XIX asrlarda Franstiyada, keyinroq Evropaning boshqa mamlakatlarida Uyg‘onish davri an’alarini davom ettirgan holda (inson aql-zakovatiga ishonish, antik davr yaratgan ideal mutanosiblikni va nisbatlarni tan olish va e’zozlash), o‘z zamonasining ijtimoiy hamda estetik talablariga javob tariqasida vujudga kelgan. Antik davr mifologiyasi (rivoyatlari), tavrot voqealariga murojaat qilib, ulardan olingen syujetlar orqali o‘z davarlarining etik-axloqiy va siyosiy muammolarini ko‘tarishga harakat qildilar.

Klassitsizmda adabiy janrlar «oliy» va «past» tarzda tasniflanib, ular orasiga qat’iy chegara ham qo‘yilgan. «Oliy» janrga tragediya, epopeya va qasida kiritilgan, ularda davlat hayoti, tarixiy voqeа-hodisalar, miflar tasvirlangan va ularning asosiy qahramonlari qо‘mondonlar, davlat boshliqlari, mifologik personajlar, din peshvolari bo‘lgan. Klassitsizmning «past» janriga esa komediya, satira va masal kiritilgan. Bularda o‘rtahol insonlarning kundalik hayotidan olingen voqeа-hodisalar tasvirlanishi ko‘zda tutilgan.

**Germenevtika** – adabiyotshunoslik metodlaridan biri bo‘lib, matn asosida ish ko‘rishdir. Germenevtika grekcha so‘zdan olingen bo‘lib, «talqin», «tushuntirish» degan ma’nolarni bildiradi. Qadimgi adabiy yodgorliklarni talqin etish nazariyasi va san’ati ma’nosida qo‘llanadi. Bugungi kunda germenevtika o‘zining lug‘aviy ma’nosidan o‘sib chiqqan yangi bir mazmun kasb etmoqda. Chunki avvallari bu atama ostida faqat qadimgi adabiy yodgorliklarni talqin etish nazariyasi yotgan bo‘lsa, endilikda istagan bir badiiy asar yoxud uning bir bo‘lagini tahlil va talqin etish tushuniladi.

Germenevtikaning ikki ma’nosи bor. Birinchisi, u matnni talqin qilish nazariyasi va metodologiyasi (anglash, tushunish san’ati) bo‘lsa, ikkinchisi, unda asarga xos xususiyatlar izohlab beriladi. Germenevtikaning mustaqil usul sifatida shakllanishida Shleyermaxerning hissasi katta bo‘ldi.

Germenevtikaning vazifasini u yoki bu matnning mazmunini anglashga yetaklash tashkil qiladi. Uning oldida har doim ikkita vazifa turadi: 1) u matnni umumiy til hodisasi sifatida o‘rgatsa; 2) uni

alohida shaxsning ijod mahsuli sifatida talqin qiladi. Shuning uchun germenevtikaning birinchi vazifasi grammatik, ikkinchi vazifasi psixologik mohiyat kash etadi. Grammatik talqin bo'yicha asarning leksik tizimi, til qurilishi o'rganilsa, psixologik tomonidan uni yaratgan ijodkorning individual uslubi, ifoda-tasvir kombinatsiyasi o'rganiladi.

Adabiyotshunoslikda tarixiy-madaniy tahlil metodiga asoslangan yo'nalish XVIII asrda G'arbiy Yevropada paydo bo'Igan va uning asoschisi fransuz adabiyotshunosi Ippolit Ten hisoblanadi. Uning «San'at falsafasi» asarida har qanday janrda yozilgan asarda, birinchi galda, biror-bir millatning tarixi va madaniyati, muayyan davrdagi rivojlanish yo'llari aks etishi ta'kidlanadi. Uning besh jilddan iborat «Angliya adabiyoti tarixi» nomli fundamental tadqiqotining kirish qismida ham madaniy-tarixiy metodning mohiyati keng yoritilgan. Bu asar «adabiyot orqali» yoritilgan ingliz irqi va tamaddunining tarixidir. ...Ten ko'proq umumiy va milliy qonuniyatlar bilan qiziqadi. Pozitivizmnning sodiq tarafdoi, naturalistik nazariyaning asoschilaridan biri sifatida Ten san'atda, xuddi fanda bo'Iganidek, o'zi tayanadigan mustahkam asoslarga qurilgan sistemani qidiradi».<sup>1</sup> Madaniy-tarixiy metodlarga asoslangan tadqiqotlarga xos muhim jihatlardan biri – unda tadqiqotchi xalqning ruhiy dunyosiga, tarixiy hayotining turli bosqichlariga e'tibor qaratishi bilan izohlanadi. Madaniy-tarixiy metod tarafдорлардан biri S.Renanning fikricha, «Homerning asarlari emas, balki Homer davri hayoti, insoniyat umrining Homer tomonidan aks ettirilgan bosqichlarining o'zi go'zaldir»<sup>2</sup>.

Yuqorida keltirilgan, umuman, madaniy-tarixiy metodga oid ta'rif-tavsiflar, nazarimizda, istiqloldan keyingi davrda yaratilgan bir qator «ma'rifiy» atamasi bilan atalgan asarlarning strukturasini, yozilish usuli, tili va boshqa ilmiy-badiiy jihatlarini tushunishga yordam beradi. Zero, bu asarlar tarixiy mavzuda yozilgan sof badiiy asarlardan ilmiyligining bo'rtib ko'rinishi va publisistik talqinining yetakchiligi bilan farqlanadi. Bunday asarlar muayyan xronologik

<sup>1</sup> Зинченко В.Г. и др. Методы изучения литературы. – М., 2002. – С.58.

<sup>2</sup> Йўлдошев К., Йўлдошева М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2015. – Б. 354.

tizimga asoslangan bo‘lib, ularda muayyan tarixiy, adabiy figuraning siyimosi ilmiy-badiiy aspektida yaratiladi. Shu xususiyatlariga ko‘ra, bunday asarlar badiiy ijod namunasi emas, balki ilmiy ijod namunalari sifatida tadqiq etiladi<sup>1</sup>.

Modernizm fransuzcha so‘z bo‘lib «*eng yangi, zamonaviy*» degan ma’noni bildiradi. Bu tushuncha XIX asr oxiri XX asr boshlarida ommalashgan. Tabiiyki, adabiyot va san’atda keng tarqalgan mazkur hodisa bo‘sh joyda paydo bo‘lgan emas, uning kurtaklari avvaldan mavjud edi. Jumladan, ilgariroq vujudga kelgan «san’at vosita emas – maqsad», «san’at – o‘zni ifodalash», «sof san’at» qabilidagi nazariy qarashlar, barokko doirasida sanaluvchi *manyerizm gongorizm, pret-sioz adabiyot* namoyandalarining ijod amaliyotida modernizmga xos jihatlarni kuzatish mumkin. Aslida, adabiy jarayonda hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari (realistik va norealistik), adabiyotning mohiyati, bilish imkonlari, vazifasi va sh.k. masalalarda ziddiyatli qarashlar azaldan mavjud bo‘lgani e’tiborga olinsa, modernizm kurtaklarini juda qadim zamonlardan ham topish mumkin bo‘ladi. Ya’ni modernizmga realistik va norealistik yo‘nalishlar orasidagi ziddiyatning muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda quyuqlashib, keskin namoyon bo‘lishi, yangilangan nazariy asoslarga ega bo‘lishi va ommalashishi sifatida qarash mumkin. Modernizm o‘tgan asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy maktab va yo‘nalishlarni o‘ziga asos bilgan estetik tizim, ijodiy metod sifatida tushuniladi<sup>2</sup>.

Komparativizm – adabiyotshunoslikdagi maktablardan biri, qiyosiy-tarixiy metod, adabiy tekshirish usuli. Komparativizm XIX asrda Yevropada paydo bo‘ladi. Komparativistika (lot.comparativus – qiyosiy) turli xil jarayonlarning qiyosiy o‘rganilishiga asoslangan fan yo‘nalishi bo‘lib, boshqa sohalar qatorida qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikni, tarixiy poetikani ham qamrab oladi. Rus olimisi M.G.Bogatkina o‘z maqolasida zamonaviy komparativistika ilmiy metodologiyasi qiyosiy-tarixiy maktab an’analariga asoslanganligi

<sup>1</sup> Жабборова Д.Е. Истиқлол даври ўзбек адабиётшунослигига Чўлпон ижоди талкинлари/(шеърияти ва насрий асарлари мисолида): Филол. фан. фал. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 47 б.

<sup>2</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Т: «Академнашр», 2010. Б.176.

va matnni o‘rganishning qiyosiy metodlari majmuasidan iboratligi haqidagi fikrni bildiradi<sup>1</sup>. Turli xalqlarning adabiyotda aks etgan mushtarak madaniy va ijtimoiy tomonlarini kuzatgan tadqiqotchilar, bu jarayonning sababini tushuntirishga harakat qilganlar. Bu jihatdan ayrim asarlar, adabiy janrlar va stillar, mualliflar ijodining o‘ziga xos tomonlari, adabiy oqimlar qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikning tadqiqot ob’ekti bo‘lib xizmat qildi. Syujet va motivlarning bir xalqdan ikkinchisiga ko‘chishi va takrorlanishi nazariyasi shu davr rus akadem adabiyotshunosligining asosiy konsepsiyalardan biriga aylandi.<sup>2</sup>

### Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbek adabiyotida A.Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlari nima uchun romantizm metodiga mos kelishini izohlang?
2. Metodlarning paydo bo‘lish sabablarini tahlil qiling (Har bir metod asosida yaratilgan asarlarga misollar keltiring).
3. O‘zbek adabiyotida realizm metodiga mos asarlarni sanang va ularga izoh bering?
4. Klassitsizm, naturalizm, syurrealizm oqimi namoyandalarini aniqlang.
5. Adabiy oqim tushunchasiga sizning munosabatingiz qanday?

---

<sup>1</sup> Боровков А.К Бадаи ал-лугат Словар к сочинениям Алишера Навои. – М.,1961.

<sup>2</sup> Халиева Г. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти/ Монография. – Т.: –Б.32-33.

## Blum taksonomiyası asosida tuzilgan test topshiriqlari

### I. Adabiy oqimlarni izohi bilan moslang.

1.	Klassitsizm	A.	XVIII asr oxirida Evropa adabiyotida paydo bo'lgan adabiy oqim. Feodal jamiyatni inqirozga yuz tutib, kapitalistik munosabatlar rivojlanayotgan davrda Angliyada paydo bo'ldi. Bu oqim vakillari insonning ruhiy dunyosini, kapitalistik munosabatlar sharoitida bu ruhiy dunyo fojasini tasvirladilar. Ular yaratgan qahramonlar, odatda, ijtimoiy munosabatlardan chetda edi.
2.	Sentimentalizm	B.	Turmushga taqlid etishni, aql idrokka muvofiq harakat qilishni, antik adabiyot va san'at asarlarini namuna qilib olib, uning an'anaviy qoidalariga tayanishni taqozo qiladigan adabiy oqim.
3.	Naturalizm	C.	XIX asrning oxirida Franstiyyadagi burjua adabiyotida paydo bo'lgan, xalqqa yot, mazmunsiz san'atni targ'ib etadigan adabiy oqim. XX asr jahon san'ati, jumladan, adabiyotida inqirozga uchragan turli-tuman hodisalarning, norealistik oqimlarning umumiy shartli nomi. Bu oqim tarafdorlari <i>dekadent</i> atamasi bilan ifodalanadi.
4.	Modernizm	D.	XIX asrning 70-yillarida G'arbiy Evropa adabiyotida yuzaga kelgan badiiy usulardan biri, XIX asrning 80-90-yillarida fransuz yozuvchisi Emil Zolya boshchiligidagi paydo bo'lgan oqim. Bu oqim san'atni demokratlashtirishni, voqealikni haqqoniy aks ettirishni, hayot voqealari, ko'rinishlarini, turli ijtimoiy tabaqalarga mansub kishilar turmushini to'g'ri ifodalashni ma'qul ko'radi.
5.	Didaktik adabiyot	E.	axloqiy-ta'limiylar xarakterga ega bo'lgan badiiy asarlar. Qadimgi grek adabiyotida eramizdan oldinroq yuzaga kelgan bo'lib, u qadimgi Sharq va G'arb adabiyotida rivojlanib keng tarqalgan

Javob	1.	2.	3.	4.	5.

## **II. Sentimentalizm oqimiga berilgan to‘g‘ri izohlarni aniqlang va javoblar jadvaliga ha yoki yo‘q so‘zlarini yozing.**

1. 18-asr 2-yarmi – 19-asr boshida Yevropa va AQSH adabiyoti va san‘atidagi oqim.

2. Hissiyot yaxshilik va yomonlikni belgilovchi, insonning qadr-qimmatini aniqlovchi asosiy me’yor sifatida talqin qilinadi.

3. Asarlarda inson his-tuyg‘ulari har tomonlama badiiy tadqiq qilinib, psixologik tahlilga keng o‘rin beriladi. Ayniqsa, his-tuygularning tabiiyligi ulug‘lanadi.

4. Oqim XVIII asr o‘rtalari Angliyada feodalizm sarqitlariga qarshi kurashni, oddiy kishilarning oliyjanobligini, qalbini tasvir markaziga olgan.

5. Oqim oddiy qahramonlar qismatini har qanday kitobxonni achintiradigan tarzda tasvirlaydi. Qahramonlar hayoti va qalbining chuqur va ta’sirchan ochilishi achinish tuyg‘usini – insoniylikning zarur belgisini voqeа qiladi.

6. Oqim vakillari «Adabiyot saroy va shahar uchun yaratilishi kerak» deb hisoblaganlar va janrlarni tabaqalashtirganlar. Ularning estetik tushunchalaricha, drama eng yuksak janr, komediya quyi janr hisoblangan. Roman, qissa, hikoya janrlariga ikkinchi darajali unsurlar deb qarashgan.

7. Oqimga xos bo‘lgan adabiy asar tilining – oddiy va soddaligi, his-tuyg‘ular dunyosi tasvirining chuqurligi, rahm-shafqat ham insoniylik o‘lchovi ekanligi xususiyatlari hamon adabiy jarayonda tirikdir.

8. Fransiyada XX asr boshlarida dunyoga kelgan. Hayot voqeа-hodisalarining mohiyatini, ichki dunyonи murakkab ramz va shakllarda, kutilmagan obrazlarda tasvirlashgan.

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.

## **III. Syurrealizm oqimiga berilgan to‘g‘ri izohlarni aniqlang va javoblar jadvaliga ha yoki yo‘q so‘zlarini yozing.**

1. XX asrning 10–20-yillarda fransuz adabiyotida paydo bo‘lib, tasviriy san‘at, haykaltaroshlik, teatr, kino sohalariga, keyinchalik boshqa mamlakatlar (Belgiya, Chexoslovakiya, Yugoslavia, AQSH,

Meksika, Yaponiya)ga ham tarqalgan avangardlik yo‘nalishi.

2. Markiz de Sad, J. Nerval, shuningdek, A. Rembo, Lotreamon dan A. Jarri, G. Apolliner va S. Reverdiga qadar bo‘lgan yozuvchilar ijodi uning paydo bo‘lishida manba vazifasini o‘tagan.

3. Bu oqim vakillari aqliy faoliyatdagi, hatto jamiyat hayotidagi shakllangan tizimni tubdan o‘zgartirish da’vosi bilan chiqqanlar.

4. Miyaga ilk bor kelib qolgan so‘z, nutq parchalari, turli-tuman xayollarning dastlabki, kutilmagan bir holatdagi ajabtovur shaklini har qanday ijodiy faoliyatning xamirturushi, asosi, deb e’lon qilgan.

5. Bu oqim adabiy-badiiy yo‘nalish sifatida o‘z umrini o‘tagan bo‘lsada, uning gullagan davrida ishlab chiqilgan ayrim badiiy usul va vositalardan tasviriy san’at, teatr va kinodan tashqari, amaliy san’atda ham istifoda etilmoqda.

6. Dastavval, XIX asrning oxirida Fransiyada paydo bo‘lgan. Hayotni yuzaki, aynan tasvirlashdan, uni etika va estetika chegarasidan chiqib aks ettirishdan ko‘ra voqeа-hodisalarining falsafiy mohiyatini, ichki jarayonini tasvirlashni afzal bildi.

7. Fransiyada XX asr boshlarida dunyoga kelgan.

8. U feodal jamiyati inqirozga yuz tutib, kapitalistik munosabatlар rivojlanayotgan davrda Angliyada paydo bo‘ldi.

9. Bu oqim jahoniy xislat kasb etgani uchun uning vakillarini turli adabiyotlarda ko‘plab uchratish mumkin. Pol Varlen, Pol Elyuar, Emil Verxare, Oskar Uayld, Anna Axmatova, Marina Svetayeva, Aleksandr Blok, Garsiya Lorka, Pablo Neruda, Nozim Hikmat, Rauf Parfi kabi san’atkorlarning ijodlarida ularning dilbar namunalarini ko‘rsa bo‘ladi.

10. Adabiyotshunoslikdagi maktablardan biri, qiyosiy-tarixiy metod, adabiy tekshirish usuli.

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.
-------	----	----	----	----	----	----	----	----	----	-----

#### IV. Adabiy yo‘nalishlarni izohi bilan moslang.

1	Adabiy yo‘nalish	A	Adabiyot va san’atdagi asosiy ijodiy metodlaridan bo‘lib, voqelikni, hayotni badiiy obrazlarda murakkabligi va butun murakkabligi bilan bo‘lmay, hayot haqqoniyatiga mos holda tasvirlash.
---	------------------	---	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

2	Romantizm	B	San'at va adabiyotdagi ijodiy metodlardan biri bo'lib, u hayotning o'zidan ko'ra ko'proq turmush haqidagi orzu-umidlarni tasvirlash prinsipiiga asoslanadi.
3	Realizm	C	XVIII asr oxirida Yevropa adabiyotida paydo bo'lgan adaib oqim. Feodal jamiyatni inqirozga yuz tutib, kapitalistik munosabatlar rivojlanayotgan davrda Angliyada paydo bo'ldi.
4	Klassitizm	D	Ma'lum tarixiy davrda o'z mafkurasi va qarashlari bilan bir-biriga yaqin turgan bir necha yozuvchilar ijodidagi g'oyaviy xususiyatlar – tema, g'oya, badiiy vositalar va boshqalar birligi.
5	Modernizm	E	XVII asrning boshlari Yevropa xalqlari adabiyoti va san'atida yuzaga kelgan ijodiy metod bo'lib, asar syujeti va kompozitsiyasiga «uch birlik» (harakat, joy, vaqt birligi) qoidasiga amal qilish talabini qo'yadi.
6	Sentimentalizm	F	XIX asrning ohirida Fransiya adabiyotida paydo bo'lgan. Klassitsizm va naturalizm ta'sirida kuchayib ketgan taqlidbozlikka zid ravishda paydo bo'ldi.

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.

## V. Adabiy oqimlarini tahlili bilan moslang.

1.	Modernizm	A.	Bu yo'nalishi vakillari asarlarida iztirob ichidagi inson qiyofasini ko'rsatish asosiy o'r'in tutadi. Ularda insonning tubanliklari oshkora gavdalantiriladi. Tushkunlikka tushgan kishilarning xatti-harakatlari, o'y-kechinmalari batafsil ifodalanadi
2.	Ekzistenssionalizm	B.	Namoyandalari diqqatini qaratgan xavotir, qo'rquv, iztirob, tubanlik va ular keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlar esa real hodisalaridir. Ular inson hayotining ajralmas bo'laklaridir. Inson tabiati, fe'l-avtori, hayot tarzining ana shu jihatlarini yoritish esa adabiyotning insonshunoslik mohiyatini yanada yorqinroq ochadi.
3.	Surrealizm	C.	Fransuzcha surrealisme so'z bo'lib, «yuksak realizm», «realizmdan ham yuksak» degan ma'noni anglatadi. Bu yo'nalish vakillarining qayd etishicha, ratsionalizm barcha narsani mantiq qonunlari asosida tushuntirmoqchi boiadi. U bevosita tajribaga asoslangan hodisalarini idrok etishdan nariga o'tolmaydi. Mantiq mezonlariga muvofiq kelmaydigan narsalarni inkor etish esa kishilarning akl-tafakkuri, orzu-xayoli, tasavvuri ravnaqiga to'sqinlik qiladi.

4.	Abstraksionizm	D.	Lotincha abstrastio so'z bo'lib, «uzoqlashish», «mavhumlik» degan ma'noni anglatadi. Abstraksionistlarning asarları biz ko'nikkan an'anaviy asarlardan tamomila farq qiladi. Abstraksionizm nazariyasiga ko'ra, san'at borliqni aks ettirmaydi, balki ijodkorning his-tuyg'ularini ifodalaydi. Bu oqim namoyandalari fikricha, har qanday shakl o'zida muayyan mazmunni mujassamlashtiradi. Haqiqatan, har qanday san'at asarida ijodkorning his-tuyg'ulari o'z aksini topadi.
5.	Futurizm	E.	Lotincha futurum so'z bo'lib, «keljak» demakdir. Bu yo'naliш nazariyasiga ko'ra, badiiy ijod borliqni aks ettirish vositasi emas, balki uning bevosita davomi bo'lishi lozim. U shunda inson erkining ijodkorligiga tayanib, yangi dunyoni yaratadi
6.	Naturalizm	F.	XIX asr 60-yillardan yevropa adabiyotida shakllangan adabiy yo'naliш bo'lib, u tabiiy fanlarda erishilgan ulkan muvaffaqiyatlar ta'sirida paydo bo'lgan. Naturalizm ham xuddi klassitsizm singari dastlab Fransiyada vujudga kelgan
7.	Sentimentalizm	G.	Fransuzcha sentiment so'z bo'lib, «his, his qilish» degan ma'noni bildiradi. Qahramonlari qismati, fojeasiga achinish hissini uyg'otadigan asarlar kishilar qalbida insonparvarlik, insonga muhabbat tuyg'ularini ulg'aytiradi. XVIII asr ikkinchi yarmida yevropa adabiyotida vujudga kelgan oqim

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.

### Foydalanalig'an adabiyotlar:

1. Адабиётэнциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев.– Тошкент: «Мумтоз сўз», 2015. – 664 б.

2. Адабиёт – инсонни кашф қилиш/ Тўплам. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Хуршид Дўстмуҳаммад. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – 118 б.

3. Боровков А.К Бадаи ал-лугат Словар к сочинениям Алишера Навои. – М.,1961. – 265 с.

4. Жабборова Д.Е. Истиқлол даври ўзбек адабиётшунослигига Чўлпон ижоди талқинлари/(шөърияти ва насрий асарлари

мисолида): Филол. фан. фал. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 47 б.

5. Жирмунский В. Стихотворение Гёте и Байрона: Ты знаешь край? / Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. – Ленинград: «Наука», 1979. – С. 408-427. \*

6. Зинченко В.Г., Зусман В.Г., Кирнозе З.И. Методы изучения литературы. Системный подход: Учебное. пособие. – М.: Флинта: Наука, 2002. – 200 с.

7. O'rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug`ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 170 b.

8. Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2015. – 464 б.

9. Қаршибаева У.Д. Француз романтизм прозасининг поетик хусусиятлари (Шатобриан ва Гюго раманлари мисолида): Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 82 б.

10. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Т: «Академнашр», 2010. – 411 б.

11. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018. – 480 б.

12. Халлиева Г. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти/ Монография. – Т., 2018. – 274 б.

13. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/atama/304-atama.html>

14. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/mahkam-mahmudov-alisher-mahmudov-lessing-va-herder/> Mahkam Mahmudov, Alisher Mahmudov. Lessing va Herder

## **HOZIRGI ADABIY JARAYON MANZARALARI**

### **Reja:**

1. Adabiy jarayon tushunchasi.
2. Adabiyot va ijtimoiy-tarixiy sharoit.
3. Adabiy jarayonni davrlashtirish.

XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti ushbu davrda yuz bergen ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotdagি o‘zgarishlarni aks ettiradi. XXI asr adabiyotining poydevorida ikkita muhim narsa bo‘lishi kerak: biri – adabiyotimiz, san’atimiz sohasidagi milliy an’ana va ikkinchisi – jahon adabiyotining badiiy tafakkurining darajasi va jahon adabiyotida erishilgan tajriba<sup>1</sup>.

Hakimjon Karimov ilgari surgan paradigma in’ikos nazariyasiga va ijtimoiy-madaniy hamda adabiy tafakkurning rivojlanishida ong kategoriyasining roliga asoslanadi. Tadqiqotchi yozish uslubi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini nasrning janr prinsipiiga asosan bo‘linishidan kelib chiqqan holda ko‘rsatib o‘tadi: 1) adabiyotda g‘oya va mavzu maydonining kengayishi; 2) ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy, oilaviy masalalarga e’tiborning kuchayishi; 3) insonparvarlik mazmuni va psixologizmning chuqurlashuvi; 4) o‘zbek xalqining o‘zligini tanishi va mentaliteti masalalariga murojaat etilishi; 5) hayot mazmunini falsafiy mushohada etish.

Qator adiblar ijodida «bozor sharoitidagi inson taqdiri» mavzusi ustuvor muammo sifatida ajralib ko‘rinadi. Ularning asarlaridagi bosh qahramon bozor munosabatlariiga moslashib olgan yoki «ortiqcha odam»ga aylangan kishidir. Y. Solijonovning fikricha, «har bir adib yolg‘izlik fojiasini o‘zicha ochib beradi». Olim Tohir Malik, Xurshid Do‘stmuhhammad, Zulfiya Qurolboy qizi va boshqa bir qator adiblarni sanab o‘tar ekan, quyidagi belgilariiga ko‘ra, zamonaviy badiiy asar yaratishda o‘zbek adabiyoti uchun yangilik bo‘lgan o‘ziga xos tendensiyalarni keltirib o‘tadi. Bular: 1) nasihatgo‘ylikdan qochish; 2) zamonaviy jamiyatda ayol rolining o‘zgarganligiga urg‘u berish, ikki yo‘l o‘rtasida turgan ayolning

<sup>1</sup> Solihov T. Adabiyot – insonni kashf qilish. – T.: Yangi asr avlodи, 2016. – 135 b.

ruhiy kechinmalarini yaratish; 3) ijtimoiy-madaniy, g‘oyaviy-axloqiy tiplarning yonma-yon, bir-birlariga ijobi yoki salbiy ta’sir ko‘rsatib yashashi; 4) o‘zbek xalqining sobiq sho‘rolar davridagi hayotini mushohada qilishga urinish; 5) jo‘shqin syujetlarga intilish («bozor adiblari» va «bozor adabiyoti»ni yaratgan salbiy tendensiya sifatida); 6) tasviriylik va publitsistikaga moyillik. Tadqiqotchi XX asr oxiri – XXI asr boshi o‘zbek adabiy jarayoni rivojlanishining quyidagi tendensiyalarini ko‘rsatib o‘tadi: 1) realistik va modernistik poetikaning yagona badiiy maydonga birlashishi; 2) ijtimoiy-shaxsiy muammolardan shaxsiy-maishiy muammolarga ko‘chish; 3) yangicha mifologik yozish uslubini yaratgan ramzlardan foydalanish (bu ramzlar Sharqning o‘ziga xos xususiyatlari va milliy an’analariga (masalan, zardushtiylik obrazlari, xalq asotirlari va shu kabilar) asoslangan); 4) «mo‘jizaviy realizm» tendensiyalariga moyillik; 5) real voqelikning sun‘iy in’ikosi bo‘lgan, «abadiy olam» yaralishi haqidagi diniyafsonaviy model elementlari syujetdan tashqari unsurlar sifatida «purkab qo‘yilgan» asarlar, shuningdek, reallik va afsonaviylik o‘rtasidagi syujet chegaralari bo‘lman, syujet liniyasi turli xil afsonaviy tuzilmalar (afsona, rivoyat, hikoyat) bilan uyg‘unlashgan asarlarning yaratilishi; 6) «... o‘zgacha ko‘rinishdagi tahliliy psixologizm»ni vujudga keltirgan chuqr majozlashtirish tendensiyasi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur davr ijodkorlari adabiy pozitsiyalarining turlicha ekanligiga qaramay, boshqa-boshqa qutblarga ajralib ketmadilar. Bundan tashqari, sobiq sho‘rolar davrini qayta baholaydigan, siyosiy qatag‘onlar va «shaxsga sig‘inish», sho‘rolar davriga tegishli bo‘lgan «xususiyatlar» – milliy an’analar va urf-odatlarni mensimaslik natijasida kelib chiqqan oqibatlar haqida hikoya qiluvchi asarlar yaratildi.

O‘zbek adabiyoti bugungi kunda murakkab va individual taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tmoxda:

1. «*O’tish*» davri (XX asrning 80-yillar oxiri – 90-yillar). Bu davr qator omillar bilan belgilanadi:

- mumtoz merosning (XII-XIX asrlar adabiyoti) tiklanishi, o‘z vaqtida ta’qilangan ijodkorlar (Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy va jadid adabiyoti vakillari) asarlarning chop etilishi munosabati bilan o‘zbek adabiyoti tarixidagi «oq dog‘«larning yo‘q bo‘lishi;

- diniy va ma’naviy qadriyatlar hamda tasavvuf adabiyotiga

qiziqishning ortishi (Yugnakiy, Bolasog‘uniy, Yassaviy asarlarining e’lon qilinishi);

– o‘zbek xalqi tarixiga nisbatan to‘g‘ri munosabatning tiklanishi va tarixiy-biografik janr ulushining ko‘payishi (Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Bobur va shu kabi siymolar haqida qator asarlarning yaratilishi);

– rus klassik adabiyoti an’analariiga qiziqishning susayishi, O‘rtayer dengizi va Amerika adabiyotiga (xususan, Eujenio Montale, Salvatore Kvazimodo, Kamilo Xose Sela, Garsia Markes kabi adiblarning ijodiga) qiziqishning ortishi;

– «g‘oyaviy bo‘shliq»qa barham berilishi va o‘zbek madaniyati hamda adabiyotida milliy g‘oyaning shakllanishi.

O‘zbek adabiyotidagi «o‘tish» davri vatanparvarlik ruhi yorqin aks etgan ko‘plab asarlarning (xususan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shavkat Rahmon she’riyati, Shukur Xolmirzayev va Omon Muxtorning qator nasriy asarlari) vujudga kelishi hamda tarixiy siymolar va xalq qahramonlari obrazi yaratilishida ko‘rinadi. Bunga Maqsud Qoriyevning «Ibn Sino», «Beruniy», Muhammad Alining «Sarbadorlar», Sa’dulla Siyoevning «Yassaviyning so‘nggi safari», Asad Dilmurodning «Mahmud Torobiy» kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Bu hodisaning mohiyati shundaki, xalqimizning o‘z-o‘zini anglashi, o‘zining millat sifatida noyob ekanligini idrok etishi, mustaqil hayot qurish uchun ilhomlanish manbalarini topishi zarur edi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mazkur davr ijodkorlari adabiy pozitsiyalarining turlicha ekanligiga qaramay, boshqa-boshqa qutblarga ajralib ketmadilar.

«Manzillar o‘zgarishi va tahlillar» davri (1990–2000 yillar). Bu davrda o‘zbek adabiyoti «milliy o‘zlik – globallashuv», «estetik qadriyatlar – bozor iqtisodiyoti» kabi bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar bilan tavsiflanuvchi vaziyatga tushib qoldi. Bu ho‘ladabiy maydonga sezilarli ta‘sir o‘tkazdi. Adabiyotning estetik prinsiplar va shakliy eksperimentlarga ko‘ra turli qatlamlarga ajralishi kuzatildi. Masalan, mavjud voqelikni Sharq mumtoz an’analari, xalq og‘zaki ijodi va «oltmishinchı yillar» avlodi badiiy tajribalari bilan birgalikda o‘zlashtirgan an’anaviy realizm ruhida yaratilgan asarlar bilan bir qatorda ko‘plab adiblar ijodida modernistik va postmodernistik tendensiyaga ergashish paydo bo‘lganini ham qayd etish lozim.

O‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos bu jarayonga adabiyotshunos olimlar va tanqidchilar o‘z vaqtida e’tibor qaratishdi.

«*Verdandi*» davri (2000–2014 yillar). Bugungi adabiyot mumtoz adabiyot va realizm an’analari, modernizm, postmodernizm tendensiyalarining yonma-yon yashayotgani bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy o‘zbek adabiy jarayonida realizm pozitsiyasi ancha kuchli. Misoł tariqasida Abduqayum Yo‘ldoshning «Bankir», «Puankare», Hakim Sattoriyning «Sog‘inch», Zulfiya Misbaxning «So‘fito‘rg‘ay», Shodmon Otabekning «Agar oshiqligim aytsam...» kabi jamoatchilik e’tiboriga hamda tanqidchilar e’tirofiga sazovor bo‘lgan asarlarini keltirish mumkin. Fikrimizcha, realizm badiiy metod sifatida kelajakda ham asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Binobarin, adiblarimiz hali bu metodning ko‘plab usul va vositalarini o‘zlashtirishlari lozim. Turgan gapki, bu yangilangan realizm bo‘ladi, deb aytishga asosimiz bor. Chunki hayotiylik badiiyati mavjud vogelik tasvirini zamonaviy vositalar majmuida berilishini talab etadi. Ehtimol, bugun o‘zbek adabiyotida ildiz otgan boshqa tendensiya neorealizmnинг vujudga kelishidan nishonadir<sup>1</sup>.

Iste’dodli adib va zukko adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam fikricha, chinakam adabiyot yukini iste’dod yoki daho san’atkorlar dast ko‘tarib yelkalariga olishlari mumkin: nasrda Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Rahimjon Rahmat, Abduqayum Yo‘ldosh kabi, nazmda Abduvali Qutbiddin, Halima Ahmedova, Faxriyor, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Go‘zal Begim, Mehrinoz Abbosova, adabiyotshunoslik ilmida Dilmurod Quronov, Bahodir Karim, Uzoq Jo‘raqul, Sa‘dullo Quronov singari adib, shoir va olimlar o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligida ko‘p ishlarni amalga oshirishdi va yana ko‘piga qodir<sup>2</sup>

Adabiyotshunos No‘mon Rahimjonov e’tiroficha, «Adabiyotshunosligimizda adabiy hodisalarni, badiiy asarlarni, ijodkor fenomenini ma’naviy madaniyatning, milliy qadriyatlarning o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi tariqasida o‘rganish, baholash, ilmiy xulosalar chiqarish tamoyili qaror topdi. Adabiyotshunoslikning ham adabiy-

<sup>1</sup> Komilova S. Zamonaviy o‘zbek adabiy jarayoni konsepsiysi. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/zamonaviy-ozbek-adabiy-jarayoni-konsepsiysi/>

<sup>2</sup> Hozirgi o‘zbek adabiyotiga bir nazar /<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek-hozirgi-ozbek-adabiyotiga-bir-nazar.html>

ot va san'at singari davr didini, millatning badiiy-estetik saviyasini, jamiyat ma'naviyatini kamol topdirishda betakror o'rni bor. Ilm ahli o'z zamonasidagi ana shu yuksak mas'uliyatni teran anglagan holda, adabiyotni, madaniy-tarixiy-diniy merosni umubashariy qadriyat sifatida o'rganishi, baholashi, asnosida, nazariy umumlashtirish madaniyati tobora takomillashib bormoqda.

Xullas, adabiyotshunoslik ilmini jahon andozalari darajasiga ko'tarish borasidagi sharafti izlanishlar uning kelajagiga katta umid uyg'otadi<sup>1</sup>. Bugun biz o'zbek adabiyotini jahon adabiy jarayonining ajralmas va tarkibiy qismi sifatida tasavvur etamiz. Adabiyotshunoslarning tafakkuridagi bu o'zgarish bizdan hozirgi o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq etishni, buning uchun esa o'zbek-xorijiy adabiy aloqalarini yangi va yuksak bosqichga ko'tarishni taqozo etadi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Hozirgi adabiy jarayonni kimlar baholab boradi?
2. Yangi badiiy asarlar dastlab qaysi jurnallarda e'lon qilinadi?
3. Hozirgi adabiy jarayonda badiiy tafakkurdagi o'zgarishlarni tahlil qiling.
4. Globallashuv jarayonida qanday mavzu va g'oya asosida asarlar yaratilmoqda?
5. Ijodkor bilan kitobxon muloqotining bugungi kundagi holatini izohlang.

### Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan test topshiriqlari

#### I. Parchalarning qaysi asardan olinganligini aniqlang va mutanosiblikni ta'minlang.

<sup>1</sup> Rahimjonov N. Adabiyotshunoslarning yangi bosqichi/ <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslarning-yangi-bosqichi/>

1.	Hijriy 935-yilda Agraga ko'chib kelgan Xonzoda begim o'n yildan beri Hindistonda istiqomat qilayotgan bo'lsa ham, hanuzgacha bu yerdagi yil fasllarining g'aroyibligiga o'rghanolmaydi. Uning nazarida, Agraning kuzi va qishi yo'q, bahori bilan yozi esa yil bo'yи davom etadi. Kech kuzda, beginning yoshligi o'tgan Farg'ona vodisida, daraxtlar bargini duv to'kadigan xazonrezlik paytida Agraning yam-yashil xurmozorlari xuddi yozdagidek meva berib turadi.	A.	«Chingizxon-ning oq bulut» (qissa). Chingiz Aytmatov
2.	Bu tomonlarda poezdlar g'arbdan sharqqa va sharqdan g'arbg'a qatnagani qatnagan... Sario'zakning biyday dalalari bo'ylab ayozli shamol g'azabnok quturib, oppoq qor unini osmoni falakkacha to'zg' itib yurgan qahraton qish chillasida oq libos kiygan dashtdagi tungi Bo'ronli bekatini qor uyumlari orasidan topish poezd haydovchilar uchun oson emas edi. O'ynoqlagan qor bo'ronlariga burkangan tungi poezdlar nim qorong'ida yomon tushdagiday bezovta kelib ketaveradi... Xuddi ana shu poyonsiz ovloq sayhonlikdagi bekatda har kecha tong otguncha mo'jazgina uyning bir derazasida chiroq o'chmaydi: u yerda kimdir og'ir darddan jon talvasasida to'lq'anmoqda yoki birov uyqusizlik kasalidan azob chekayotir deb o'ylaysan kishi. Bekat yonidagi ana shu hujrada Abutalip Qutiboev oilasi yashar edi.	B.	«Avlodlar dovonii» (roman) Pirimqul Qodirov
3.	Rutubatl, izg'irinli, qop-qorong'i tun qo'ynda hayhotdan yastanib yotgan Oxota dengizi sohillarida tabiatning ikki qudratli kuchi — quruqlik bilan dengiz o'rtasida azaliy, tinimsiz kurash davom etadi: quruqlik dengizning asov to'lqinlariga to'sqinlik qilishga intiladi, dengiz esa quruqlikka hujum qilishda tim bilmaydi. Dengiz to'lqinlari zulmat qo'ynda guvillab, o'kirib, shiddat bilan qoyalarga kelib urilib, parchalanib ketadi. Dengiz hamlalarini qaytaraverib, tosh-metin bo'lib ketgan qirg'oq xo'rsinib, uf tortadi.	C.	«Sohil yoqalab chopayotgan olapar» (qissa). Chingiz Aytmatov
4.	Alkimyogar kitobni qo'liga oldi, uni sayyohlardan kimdir olib kelgan edi. Kitob muqovasiz edi, biroq u muallifning ism-sharifini topdi — Oskar Uayld — va uni varaqlab, tuyqusdan nigohi Nargis haqidagi rivoyatga tushdi. Kun-uzzun anhor bo'yida o'z aksiga mahliyo bo'lib o'tiradigan sohibjamol bo'zbola haqidagi rivoyat Alkimyogarga ma'lum edi: Nargis shu qadar mahliyo bo'lib anhorga termilib qolgan ediki, oxir-oqibat suvg'a qulab, cho'kib ketdi, qirg'oqdan esa gul unib chiqdi, gulni uning nomi bilan atashdi.	D.	Choliqushi (roman). Rashod Nuri Guntekin

5.	<p>To‘rtinchi sinfda edim. Yoshim o‘n ikkilarda bo‘lishi kerak. Fransuz tili muallimamiz Aleksi opa bir kun bizga inshodan vazifa topshirdi. «Hayotdagি ilk xotiralaringizni yozishga harakat qiling. Ko‘raylik-chi, nimalarni eslar ekansizlar. Sizlar uchun bu ajoyib xayol mashqi bo‘ladi», — degan edi u. Hech esimdan chiqmaydi: sho‘xligimdan, sergapligimdan bezor bo‘lgan murabbiyalarni meni o‘rtoqlarimdan ayirib, sinf burchagidagi bir kishilik kichkina partaga o‘tqazib qo‘yishgan edi. Mudira aytgandek, men «dars paytida qo‘snilarimni gapga tutmaslikni, o‘qituvchimizning so‘zlarini odob bilan tinglashni o‘rganguniimga qadar» u yerda surgun hayot kechirishga mahkum edim.</p>	E.	«Alkimyo-gar» (qissa). Paolo Koelo
6.	<p>Ogayo qishi hukmon edi: eshik va derazalar taqa-taq yopilgan, oynalarni qalin qirov bosgan; tomlarning qirralaridan nayzasimon sumalaklar osilib turar, bolalar tepaliktardan chang‘ilarda o‘qdek uchar, qora ayiq mo‘ynasidan tikilgan po‘stinli ayollar sirpanchiq ko‘chalarda kezinar edilar. To‘satdan issiq havo to‘lqini shahar bo‘ylab yoyildi, xuddi tasodifan ochiq qolgan novvoyxonaeshigidan chiqqan hovur singari hammayoqni issiq havo qopladi. Uylardan shovullab suvlar oqdi. Butalar va bolalarning egnilar ho‘l bo‘ldi. Tomlardan sumalaklar uzilib tushar, yerga tushib mayda-mayda bo‘lar va erib ketar edi. Eshiklar lang ochildi. Osmonda bulutning choki so‘kildi. Bolalar egnilaridan sviterlarini yechib otdilar. Onajonlar ham ayiq mo‘yna po‘stinlarini yelkalaridan tashladilar. Qor erib, o‘tloqzorda bulturgi maysalar mung‘ayib ko‘rindi.</p>	F.	«Kecha va kunduz» (roman). Cho‘lpon
7.	<p>Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi... Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopulkulari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi, o‘zlarini horg‘in-horg‘in oqsalarda, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash’asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko‘rina boshladi. Birinchi ko‘ringan ko‘klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash’asini beradi. Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi...</p>	G.	«Marsga hujum» (roman). Rey Bredberi

8.	Men uyg'a dala bilan qaytdim. Yozning qoq o'rtasi edi. O't o'rilib olingen va qora bug'doyni o'rishga endigina harakat qilinmoqda edi. Yilning bu paytida rang-barang chiroylı gullar — qizil, oq, pushti, xushbo'y, momiqqli chinnigullar, sut singari oq, o'rtasi och-sariq, yoqimli hid sochuvchi «muhabbat gullari», bol hidli sariq gulira'nolar, gunafsha rangli va oq lolaga o'xshash qomatdor karnaygullar, chirmashib o'suvchi no'xatgullar, sariq, qizil, pushti skabiazlar, gunafsha rangli, och pushti jig'alik va sezilar-sezilmas yoqimli hid beruvchi otquluoq gullar, quyoshda va yoshniholligida tiniq ko'k, kechqurunlari hamda qarigan vaqtida ko'kimtir va qizg'imtir bo'lib tovlanuvchi va latif, bodom hidli, guli darrov so'lib qoladigan chirmovgullar ko'p bo'ladi.	H.	«Hojimurod» (qissa). Lev Tolstoy
----	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----	----------------------------------

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.

## II. Asarlarning janrini aniqlang.

1) O'limas Umarbekov, «Sovg'a»; 2) Shukur Xolmirzayev, «Qariya»; 3) Tohir Malik, «Shaytanat»; 4) O'tkir Xoshimov, «Dunyoning ishlari»; 5) Murod Muhammad Do'st, «Dasht-u dalalarda»; 6) Tog'ay Murod, «Ot kishnagan oqshom»; 7) Xurshid Do'stmuhammad, «Beozor qushning qarg'ishi»; 8) Erkin A'zamov, «Ko'k eshik»; 9) Xayriddin Sultonov, «Yo, Jamshid!»; 10) Shoyim Bo'tayev, «Hisomiddin al-yog'iy»; 11) Nazar Eshonqul, «Maymun yetaklagan odam»; 12) Shuhrat, «Oltin zanglamas»; 13) Odil Yoqubov, «Ulug'bek xazinasи»; 14) Luqmon Bo'rixon, «Jaziramadagi odamlar»; 15) Salomat Vafo, «Tilsim sultanati»; 16) Normurod Norqobil, «Dashtu dalala'rda»; 17) To'xtamurod Rustamov, «Kapalaklar o'yini».

Javob	Hikoya	Qissa	Roman

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Адабиётэнциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев.— Тошкент: «Мумтоз сўз», 2015. – 664 б.
2. Жабборова Д.Е. Истиқлол даври ўзбек адабиётшунослигига Чўлпон ижоди талқинлари/(шеърияти ва насрый асарлари мисолида): Филол. фан. фал. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 47 б.
3. Йўлдошев К., Йўлдошева М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2015. – 464 б.
4. Komilova S. Zamonaviy o'zbek adabiy jarayoni konsepsiysi. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/zamonaviy-ozbek-adabiy-jarayoni-konsepsiyas/>
5. Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т: «Академнашр», 2010. – 411 б.
6. Курунов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018. – 480 б.
7. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/atama/304-atama.html>

## BADIY ASAR TAHLILI

### Reja:

1. Badiiy tahlil tushunchasining mohiyati.
2. Badiiy tahlilni turlarga ajratishning ilmiy asoslari.
3. Badiiy tahlil tamoyillari.
4. Badiiy tahlilning yo‘nalishlari.

**Tayanch tushunchalar:** badiiy tahlil, tahlil turlari, tahlil tamoyillari, filologik tahlil, o‘quv tahlili, estetik tizim, tarixiylik, tizimlilik, yaxlitlik, genetik, tipologik, funksional, falsafiy, psixologik tahlil.

«Tahlil» atamasi arabcha so‘z bo‘lib, «eritib yuborish», «murakkab butunni qismlarga ajratish» ma’nolarini anglatadigan «halala» o‘zagidan kelib chiqqan. Ba’zilar adabiyotshunoslikda bu so‘z zamiriga «halollah» ma’nosи ham yuklangan, deb hisoblashadi. Ya’ni tahlil deyilganda, badiiy matnning ma’nosи va jozibasi nimadan iborat ekanini xolis ko‘rsatish va o‘quvchiga begona bo‘lgan matnni eritib, uning shuuriga joylashga qaratilgan faoliyat ko‘zda tutiladi. San’at asaridan kelib chiqadigan hayotiy ma’noni topish, uning badiiy tasviriga joziba bag‘ishlagan estetik unsurlarni kashf etish, o‘rganilayotgan asarning boshqa bitiklardan farqini aniqlash, milliy estetik tafakkur rivojiga qo‘sghan hissasini ko‘rsatish g‘oyat muhim. Hozirda struktural analiz, psixoanalitik usul, immanent analiz, sistem tahlil, kontekstual talqin, ekzistensial yondashuv, lingvopoetika, «yangi tanqid», germenevtik metod, intertekstuallik, intuitiv metod, mifopoetika va boshqa nazariy tushunchalarni amaliyotda qo‘llashda dunyo adabiyotshunosligi katta tajribaga ega. Albatta, o‘z mustaqil dunyoqarashiga, o‘z aytar so‘ziga ega adabiyotshunos bunday an‘anaviy va yangi metodlarni puxta o‘rganishi, milliy tafakkuri chig‘irig‘idan o‘tkazishi hamda sintezlab o‘zlashtirishi shart.

Ingliz faylasufi F.Bekon fikricha, umumiy metodlar ilmiy-falsafiy bilishga tabbiqan uch qismga bo‘linadi:

1. O‘rgimchak yo‘li – usuli. Faqat aqliy tafakkurga tayanadiganlar, o‘rgimchakka o‘xshab, «o‘z aqllaridan fikr tolalarini to‘qib chiqaradi». Oqillik yetakchilik qiladigan bu usulda olimlar o‘zi uchun o‘zi qoidalar yasab oladilar.

2. Chumoli yo‘li – usuli. Tajribani xush ko‘radigan tafakkur egalari chumoliga o‘xshab faktlar jamlaydi va shu bilan qanoatlanadi. Ko‘pincha tashqi omillarga e’tibor beradi; topganini aralashtirib «qozon»ga tashlaydi.

3. Asalari yo‘li – usuli. Go‘yo «bog‘ va dala gullaridan manbalar saralab oladigan», o‘z qobiliyati asosida o‘sha manbalarni tafakkurida qayta ishlab o‘zlashtiradigan «asalari» usuli tarafdorlari tajriba bilan aql-idrokni uyg‘unlashtiradilar.

Shu jihatdan bugungi adabiy-ilmiy hayotga nazar solinsa, «asalari usuli»ga zarurat kuchli ekani, «chumoli»ning ko‘proq ommagaga xosligi va «o‘rgimchak» yo‘li tanqidga uchrashi ham mumkinligi ma’lum bo‘ladi. Bugun o‘zbek adabiyotshunosligida dunyo tajribasidan o‘rganilayotgan bir necha metodlar ibtidosi kuzatiladi. Ularga nisbiylik xos; birortasiga o‘zgarmas va haqqoniy metod sifatida qarab bo‘lmaydi. Har birida yutuq, badiiy asarning qaysidir jihatini ochib beradigan kalit bor<sup>1</sup>.

Badiiy tahlil shakliga ko‘ra: a) og‘zaki; b) yozma singari ikki turga bo‘linadi.

Ma’lumki, badiiy asar og‘zaki shaklda ham tahlil qilinadi. Turli adabiy yig‘inlar, bahs-munozaralar asnosida qilinadigan tahlil og‘zaki badiiy tahlil hisoblanadi. Badiiy tahlilning og‘zaki turida ilmiy faoliyatning tizimlilik va izchillik singari asosiy tamoyillariga amal qilish qiyinroq kechadi. Shuning uchun ham badiiy tahlil amaliyotida yozma shaklga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Badiiy asar tahlili undan kuzatilgan maqsadga ko‘ra: a) ilmiy (filologik); b) o‘quv ( didaktik) singari ikki turga bo‘linadi.

Filologik (ilmiy) tahlil adabiy asarning muallif ko‘zda tutgan hamda asar tekshirilayotgan vaqtdagi hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglashga yo‘naltirilgan hissiy-intellektual faoliyatdir. Ilmiy tahlilda tekshirilgan asar yuzasidan chiqarilgan xulosalarning ayni damda adabiyotshunoslik ilmi erishgan darajaga muvofiq bo‘lishi talab etiladi. Bunda bildirilgan fikr ham, mantiqiy tushunchalar ham, estetik qonuniyatlar bilan asoslangan bo‘lishi

---

<sup>1</sup> Karimov B. Mohiyatga eltuvchi yo‘l. Bugungi adabiyotshunoslikka bir nazar/  
<https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/mohiyatga-eltuvchi-yol-bugungi-adabiyotshunoslikka-bir-nazar/>

lozimdir.

O'quv tahlili o'quvchi yoki talabalarda asar mohiyatini anglashga xizmat qiladigan miqdordagi badiiy bilim va ko'nikmalar shakllantirish orqali ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyatdir. Shu jihatdan o'quv tahlilini amalga oshirish filologik tahlilga nisbatan murakkabroqdir.

Tekshirilayotgan badiiy asarning butun sechu joyibasi to'liq namoyon bo'lishi uchun tahlilni amalga oshirishda bir qator tamoyillarga tayanilishi kerak.

1. Mukammal va tugal tahlilning bo'lishi mumkin emasligi badiiy asar tahlilini amalga oshirishda rivoja qilinadigan birinchi tamoyildir. Chinakam badiiy matn uni idrok etgan shaxslarning saviyasi, didi, intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli davrlarda turlicha qabul etilaveradi.

2. Har qanday tahlilning shaxsiy mulohaza ekanini va u hech qachon mutlaq haqiqat bo'lmasligidir. Tahlilchi qanchalik bilimdon va mohir bo'lmasin, uning fikrlari hamisha faqat shaxsiy mulohaza maqomida bo'ladi.

3. San'at asariga g'oya ifodalash vositasigina deb qaramaslik va uning, birinchi navbatda, estetik hodisa ekanini hisobga olish keraklidir.

4. Badiiy asarga borliqning nusxasi tarzida yondashish mumkin emasligidir. Badiiy mantiq hamisha ham hayot mantig'iga muvofiq kelavermaydi. Ba'zan badiiy tasvir hayot hodisasidan teranroq, ahamiyatliroq, salmoqliroq bo'lishi ham mumkin.

5. Yaxlitlik talabi o'rganiladigan badiiy asarga mustahkam estetik tizim sifatida istalgancha tarkibiy qismlarga ajratib tashlash mumkin bo'Imagan butunlik tarzida yondashishni ko'zda tutadi. San'at asarining butunligiga daxl qilinmagandagina uning ichiga kirib borish, mohiyatini anglash mumkin.

6. Badiiy asarga mo'jizaviy bir butunlik tarzida yondashilmasa, uning siru joyibasi yo'qqa chiqib, ta'sir qudratidan mahrum bo'ladi.

7. Tizimlilik yaxlitlik tamoyilining mantiqiy davomi bo'lib, unda badiiy asarni tashkil etgan unsurlarning muayyan tizimli ko'rinishda bo'lishi hisobga olinadi. Asl san'at asaridagi barcha badiiy unsurlar biri ikkinchisiga chambarchas bog'liq bo'ladi.

8. Badiiy asar tahlilida hamisha suyanilishi lozim bo'lgan tamoy-

illardan biri tarixiylikdir. Har qanday badiiy asarning yaratilgan va tekshirilayotgan davrlarga xos xususiyatlarini hisobga olmay turib, asosli estetik to‘xtamga kelish imkonsiz. O‘rganilayotgan asarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashilmasa, qahramonlar ruhiy holatini ham, ularni biror xatti-harakatga undagan sabablarni ham tushunmaslik mumkin.

9. Adabiy asarni tahlil qilishning muhim prinsiplaridan biri estetik asoslarning ustuvorligi tamoyilidir. Matndagi yashirin nafosatni, zariflikni anglash, uning badiiy qatlamlarini kashf etish uchun muayyan adabiy bilim va estetik diddan tashqari go‘zallikni kerakli joydan qidira bilish malakasi ham shakllangan bo‘lishi kerak.

10. Badiiy tahlilni amalga oshirishda emotsiyonallik tamoyili ham katta o‘rin tutadi. Tahlil kishining tuyg‘ular olamiga daxl qilsagina, asarning badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik jozibasi ochiladi.

Badiiy tahlil ilmida asar tahlili genetik, tipologik, funksional, falfasif, psixologik va filologik singari olti yo‘nalishda amalga oshirilishi qayd etiladi. Albatta, tahlil yo‘nalishlarining bu xildagi tasnifi birmuncha shartlidir. Negaki, odatda badiiy tahlil jarayonida bu yo‘nalishlardan birortasi ustuvor o‘rin tutsa-da, deyarli hech qachon faqat bittasidan foydalanilib, boshqasi chetlab o‘tilmaydi.

Badiiy asar genetik yo‘nalishda tahlil etilganda, asarning yuzaga kelish jarayoni, variantlari, yozilish sabablari tadqiq etiladi. Bunda asarni yuzaga keltirgan omillar ko‘rsatilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Tipologik yo‘nalishda tahlil qilinayotgan asarni yuzaga keltirgan badiiy yoki hayotiy manbalar, tahlil etilayotgan asarning o‘sha davrda yaratilgan boshqa asarlarga o‘xshash hamda farqli tomonlari, asar muallifi bilan o‘zga adiblar orasidagi ijodiy ta’sir, badiiy vorislik kabilarni aniqlashga e’tibor qaratiladi.

Funksional yo‘nalishdagi tahlilda asarning ijtimoiy ta’sir kuchini aniqlashga alohida diqqat qilinadi. Unda o‘rganilayotgan asarning muayyan millat ma’naviyatida qanday o‘rin tutishi tekshiriladi. Tahlil qilinayotgan asarning milliy adabiy jarayondagi o‘rni, yaratilgan zamonidagi yoki tekshirilayotgan davrdagi kishilar tafakkuriga qilgan ta’siriga alohida ahamiyat beriladi. Asardagi qaysi obraz yoki tasvir orqali qanday ijtimoiy qonuniyat yoxud muammo yoritilgani tekshiriladi. O‘zbek badiiy tahlil amaliyotida funksional yo‘nalish-

dan keng foydalaniadi. Bu yo‘nalish qator ijobjiy xususiyatlar bilan birgalikda tendensiozlik, matnning badiiy jozibasini e’tibordan qochirish singari salbiy jihatlarga ham ega.

Badiiy asar falsafiy yo‘nalishda tahlil qilinganda, yozuvchining dunyoqarashi va e’tiqodi, olamni ko‘rish, anglash, tushuntirish hamda tasvirlashda tayanadigan falsafiy asos tekshiriladi. Bu yo‘nalishdagi badiiy tahlil matndan uzilgan falsafiy mushohadalardan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Tekshirilayotgan asar matnidan kelib chiqmaydigan har qanday falsafiy-nazariy xulosa amaliy ahamiyat kasb etmaydi.

Psixologik yo‘nalishda o‘rganilayotgan asar muallifi shaxsiyatidagi o‘ziga xoslik, adibning asar ustida ishlash usuli, ijodiy jarayon psixologiyasi, shu kechimdagи ruhiy holati va uning tahlillanayotgan asarda qoldirgan nuqsi, muallif ruhiy dunyosining matn saviyasiga ko‘rsatgan ta’siri kabi jihatlar o‘rganiladi. Tahlilning bu yo‘nalishida muallifning tasvir uslubini tayin etgan omillar, shaxsiyatga xos jihatlarning badiiy haqiqatga evrilish yo‘sini tekshiriladi.

Lingvistik yo‘nalishdagi badiiy tahlilda asosiy e’tibor asarning til jihatiga qaratiladi. Bu yo‘nalishda asar filologik hodisa sifatida til va tasvir vositalarini qo‘llash, tilning tasvir imkoniyatlari doirasida badiiy shakllar yaratish nuqtai nazaridan tekshiriladi. Bunda muallifning faoliyati an’naviyilik va novatorlik pozitsiyasidan baholanadi. So‘zning o‘z va badiiy ma’nosi, kontekstdagi jozibasi, badiiy matn zamiriga yashirilgan mazmun va bu yashirilganlikning hayotiy-estetik sabablari singari jihatlarga e’tibor qaratiladi.

Ta’kidlash kerakki, yuqorida sanalgan yo‘nalishlar deyarli hech qachon bittadan qo‘llanilmaydi va hamisha bir nechasi yoxud barchasidan aralash holda foydalaniadi<sup>1</sup>.

### Savol va topshiriqlar:

1. Olamni estetik idrok etish va badiiy tasvirlashning ijodkor dunyoqarashiga aloqadorligi deganda nimani tushunasiz?

<sup>1</sup> Yo‘ldoshev Q. Mohiyatni anglatish yo‘li. <http://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/qozoqboy-yoldoshev-mohiyatni-anglatish-yoli-qozoqboy-yoldoshev-menning-kutubxonam-korsatuvida.html>

2. Asar tahlili jarayonida badiiy tasvir vositalariga xos jihatlarni hisobga olishning zaruriyati nimada?
3. Muallif, kitobxon va matn munosabati dialektikasi ilmiy tahlil etilganda qaysi jihatlarga e'tibor beriladi?
4. Tahlil jarayonida shakl va mazmun munosabatining ahamiyati qay darajada?
5. Badiiy tahlil tamoyillarining tahlil amaliyotidagi o'rmini izohlang.

### **Blum taksonomiyasи asosida tuzilgan test topshiriqlari**

#### **I. Badiiy asarlardan olingan parchalardagi syujet unsurni izohlang. Parchalarning qaysi asardan olinganligini aniqlang va mutanosibligini ta'minlang.**

1	Boyluk, hasad, hirs-u havas barchangizning ko'zingizni ko'r, shuuringizni shafaq qilib qo'ygan. Sizlar yolg'onni haqiqat, hamoqatni nafosat deyishga o'rganib qol-gansiz.	A	«Olim o'g'il» (hikoya) Normurod Norqobilov
2	Tom ustiga chiqib olgach, u bir muddat nari-beri borib keladi. Osmonlarga qaraydi, oy-u yulduzlarni tomosha qilgan bo'ladi. So'ng asta kelib qayig'iga o'rnashib o'tiradi-da, tevarak-atrofn'i yana bir qur ko'zdan ke-chirgach, ikki yondagi eshkaklarni qo'lga oladi. Eshkak esha boshlaydi.	B	«Tanbo qayiq» (drama) Erkin A'zam
3	Qiz sho'rlik, u bir umr qovog'i o'yig'liq va yuzi kulmas otadan hech bir xayriyat kutmaydi. Otasi to'g'risida o'ylagan vaqtida o'zini o'limga mahkum bir odam, otasini mahkumaning jallodi kabi ko'radi...va titraydi.	D	«Shum bola» (qissa) G'afur G'ulom
4	Saldan so'ng tobora olislashib borayotgan jahldor otaning uzuq-yuluq so'kinishlari-yu, onaning jonsarak koyinishlari mashina ovoziga qorishib ketdi. Shovqinni eshitib, o'g'il sekin boshini ko'tardi. Ko'zi devor ortida harakatlanayotgan somon g'aramiga tusharkan, olgan bilimi bu dargohda sariq chaqalik qimmatga ega emasligini favqulodda anglab yetganday, asta yulqinib, darvoza tomon yurdi.	E	«Garov» (hikoya) Chekhov

5	O'sha kuni hoji buvining chorborg'ida sumalak bo'ldi. Qiyyos gullagan o'rik tagiga sholcha yozilgan, hamma topganini olib chiqqan, xotinlar bir-biriga gap bermay chuvullashgar, biz bolalar ham sumalak yalashdan benasib qolmaslik uchun atrofda o'ralashar edik.	F	«Shaytanat» (qissa) Tahir Malik
6	Bu qarg'ishni o'shanda yer yutganday bo'lib edi. Odam o'lib ketaverar ekan-u, biroq uning qarg'ishi o'lmay, yer yuzi bo'ylab o'jasini ta'qib etib yuraverarkan. Restoran boshlig'i o'sha voqeadan keyin ko'p yashamadi. Avval xotini, so'ng o'zi bu dunyoni la'natlay-la'natlay tashlab ketishdi. Ha, unutmabdi, o'zi ko'milsa ham, qarg'ishini qoldirib ketibdi.	G	«Dunyoning ishlari» (qissa) O'tkir Hoshimov
7	Kampir bomdod namozini o'qiyotib, har sajdaga bosh qo'yanida joynamozga ko'z yoshlari tomardi. U joynamoz burchagini qayririb, eriga atab qur'on tilovat qildi. Baxti chopmagan Qumriga bag'ishlab shu farishtaganining yo'lini och, deb Allohga iltijo qildi. G'oy-ibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmadi.	H	«Kecha va kunduz» (roman) Cho'pon
8	Bu gap ikkovimizga ham ma'qul tushdi. To'n-telpakni pushtaga qo'yib, sabzi kavlashga tushib ketdik. Sabzisi qurg'ur juda ham bitgan ekan, eng kichkinasi qayroq-toshday. Biroz kavlagandan keyin bitta ikkitadan sabzini etakka artib, tozalab, qarsillatib mazza qilib yeb oldik.	I	«Qorako'z Majnun» (hikoya) Said Ahmad

Javob	1	2	3	4	5	6	7	8

**II. Keltirilgan parcha qaysi mashhur asardan olingan va konfliktning qaysi turi qo'llanilgan? Quyidagi beriladigan fikrning qaysilarini to'g'ri bo'lsa "ha", noto'g'ri bo'lsa "yo'q" so'zlarini qo'ying.**

Anchagina so'zsiz o'lturg'andan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi.

- O'g'lim, hali san eshitdingmi, yo'qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

Otabek ma'lumki, ularning "qilib qo'yg'an yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlarini", albatta, bilar edi. Shundoq ham bo'lsa bilmagan-ga solindi:

- Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari, albatta, no-

ma'qul bo'lmash, - dedi.

Hoji o'g'lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotinig'a qarab oldi. Yana orag'a jumlilik kirdi. Bu so'zsizlik ma'nosig'a O'zbek oyim tushuna olmag'an edi. Biroz qarab o'Iturg'ach, yuragi qaynab ketkandek bo'ldi:

- Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig'a unashib qo'ydiq... Endi san bilan to'y maslahatini qilishmoqchi edik...

- Sizlarni ranjitiib bo'lsa ham bir martaba uylangan edim-ku? Endi...

- San uylansang biz ranjirmidik?-dedi kulib hoji.

- Ranjimasalaringiz.....

- Bu ranjishdan emas, hojatdan, o'g'lim.

- Nima hojat?

- Hasanalinining so'ziga qarag'anda, qayin otang qizini Toshkandga yubormas ekan. O'g'il o'sdirib katta qilg'an onangning bo'lsa oldig'a kelin qayg'usi keladir...

Javob	psixologik-ruhiy	ijtimoiy konflikt	shaxsiy-intim

### III. Atamalar raqamini ularning ta'rifi bilan juftlang.

1	<b>Asl matn</b>	A	tushuntirish ilmi. XVIII-XIX asrlarda nemis olimlari tomonidan fan sifatida tafakkur maydoniga tashlangan. Boshqa ko'rinishda azaldan Sharqda ham mavjud bo'lgan bilish, tushunish, sharhlash va izohlash bilan bog'liq ta'limotdir. G'arba Injil matnlarini izohlaganlaridek, bizda ham Qur'oni karim oyatlarini tafsir va ta'vil qiladigan, hadisi sharif ma'nolarini izohlaydigan, mutafakkir ajdodlarimizning asarlarini sharhlaydigan mufassirlar, muhaddislar, faqihlar ilmi azaldan shakllanib, rivojlanib kelgan.
2	<b>Bayon</b>	B	qo'lyozma nusxalarning hoshiyalarida uchraydigan izohlar, to'ldirishlar, aniqlik kirituvchi mulohazalar, boshqa manbalarga havolalar, oyat va hadislarning hoshiyadagi tafsirlari.
3	<b>Germenevtika</b>	C	glossalar to'plami, majmuasi; qadimgi asarlardagi eskirgan yoki tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni izohlovchi lug'at.

4	<b>Glossariy</b>	D	ifoda yo'llari haqidagi ilm. Muhammad Fazlihaq Rompuriyining «Mahorat quyoshlari» (مَهْرَبَلَا سُوْدَنْ) asarida ta'riflanishicha, bu ilm shunday qoidalardan iboratki, ular bir ma'noni turli shaklda, o'sha ma'noga ochiq dalolat qiladigan har xil jumlalar orqali ifodalashni o'rgatadi.
5	<b>Sharh</b>	E	ma'lum vaqt mobaynida sub'ektiv (muallif, kotib, nashrga tayyorlovchi, muharrir) va ob'ektiv (ijtimoiy) omillar ta'sirida o'zgarishga uchragan matndagi o'zgarishlarni aniqlab, ularni tarixiy, ilmiy dalillar bilan asoslash.

Javob:	1.	2.	3.	4.	5.

#### **IV. She'riy parchalarda qo'llangan badiiy san'atlarning muqobilini aniqlang.**

1.	Ulkim ko'ngul oldi zulfi xoli, Ko'ngludin emas xayoli xoli. (Lutfiy)	A.	Tanosib
2.	Qaro zulfiq firoqida parishon ro'zg'orim bor, Yuzungdin ishtiyoqida ne sabru ne qarorim bor. (Bobur)	B.	Tasdir
3.	Zulfiq cheriki jamol mulkin. Oldi ko'zung ittifoqi birla. (Atoiy)	C.	Tajnis(Jinos) san'ati
4.	Jonbaxsh la'ling ustida ul xoli hindularmudur, Yo chashmai hayvon uza zog'i siyahmo'larmudur. (K.Xorazmiy)	D.	Tashbehi sareh (tashbehi mutlaq, ochiq o'xhatish)
5.	Orazin yopqach ko'zundin, sochilur har lahza yosh, O'yakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh. (A.Navoyi)	E.	Tajohuli orif (bilib turib bilmaslikka olish)
6.	Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor, Qaysi bulbulning seningdek bir guli bahori bor. (Munis)	F.	Tazod (zid qo'yish, qarshilantirish)
7.	Men bu yuz mushtoqidurmen, bog'i bo'stonkim bo'lur, Bo'lmasin nasrinu lola, arg'uvon sensiz menga. (Atoiy)	G.	Qat'i
8.	Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi. (Bobur)	H.	Radd — us — sadr ilal — ibrido (bayt boshidagi so'zning ikkinci misra boshida kelishi)

9.	Shahar chu do‘zax kabi zindon edi, Tashqari bir ravzai rízvon edi. («Yusuf va Zulayho»)	I.	Tardi aks (teskari qilib takrorlash)
10.	Podshoh yo‘qlatsalar nogoh, gado deb axtaring, Tutmang hargiz nomini, baxti qaro deb axtaring. (Muqimiy)	J.	Husni ta‘lil (chiroyli daillash)
11.	Garchi shuncha mag‘rur tursa ham, Piylaga egilar choynak. Shunday ekan, manmanlik nechun, Kibru havo nimaga kerak? (E.Vohidov)	K.	Tajziya (bo‘lak-bo‘lak qilish) san‘ati
12.	Bir o‘lka bor dunyoda biroq Bitilmagan dostondir bori. Faqt ojiz qalamim manim O‘zbekiston Vatanim manim. (A.Oripov)	L.	Takrir (takrorlash)
13.	Husnni to huvaydo qildi xoliq, Husn birla vafo bo‘lmas muvofiq. (Xorazmiy)	M.	Tazmin
14.	Erusen shoh – agar ogohsen, sen, Agar ogohsen, sen – shohsen sen. (A.Navoiy)	N.	Tamsil (misol keltirish)

Javob	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.
	8.	9.	10.	11.	12.	13.	14.

## V. Badiiy asar mazmunining spetsifik xususiyatlarini izohi bilan moslang.

1.	Originallik	A.	unda inson uchun, million-million kishilar uchun muhim bo‘lgan g‘oyalarning mavjud. Darhaqiqat, chinakam badiiy asarda, uning katta yo kichikligidan qat‘i nazar, bashariy qimatga molik mazmun yotadi.
2.	Universallik	B.	hayotiylik bilan bog‘liq ekani shubhasiz. Lekin uni baholashning yagona mezoni qilib olish ham xato. Adabiyotshunosligimizda uzoq yillard davomida u reallikka qiyosan baholab kelindi. Badiiy reallikning o‘z haqqoniyatni bor bo‘lib, bu haqqoniyat mavjud reallikdan kelib chiqib emas, balki badiiy reallikning o‘zidan kelib chiqib baholanishi lozim.

3.	Salmoq dorlik	C.	badiiy mazmun bir paytning o‘zida o‘tmish, hozir va kelajakni qamrab olaveradi. Badiiy obrazning ko‘p ma’noli bo‘lishi, badiiy vogelik muallif tomonidan anglangan mohiyatning badiiy modeli ekanii va ayni modelning muallif ko‘rganidan o‘zga hayotiy holatlarga ham ko‘pincha mos tushishi mazmun universalligini ta’minlovchi yana bir muhim omildir.
4.	Hayotiylik	D.	har bir ijodkorning alohida va betakror individ ekanligi, uning o‘ziga xos qarashi, fikrashi bilan bog‘liq yuzaga chiqadigan yangilik. Ya’ni bu o‘rinda muhabbat o‘zi eski narsa, lekin har bir yurak uni o‘zicha yangilaydi, qabilidagi holat nazarda tutiladi.
5.	Ta’sirdorlik		asar mutolaasi davomida o‘quvchi muallif yo personajlar his-tuyg‘ularini o‘ziga «yuqtiradi», ular bilan turli hayotiy vaziyatlarda yuzaga keluvchi kechinmalarni qalbidan, o‘y-fikrlarni ongidan kechiradi.

Javob	1.	2.	3.	4.	5.

## I. EPIK TURGA MANSUB ASARNING TAHLIL MEZONLARI

- Asarni janriy xususiyatlariga ko‘ra tahlil qiling.
- Muallifning ijodiy metodi (realizm yoki romantizm)ni aniqlang.
- Asarning tematik tasnifi (tarixiy, fantastik, biografik, detektiv va h.k.)ni izohlang.
- Asar mavzusi nima haqidagi?
- Asarning asosiyligi va leytmotivini aniqlang.
- Asar sarlavhasi haqidagi fikringiz (Nima uchun muallif aynan shu mavzuni tanlagan?)
- Portret va personaj tasvirining qahramon psixologiyasi, kayfiyatiga hamohang ravishda aks ettirilganligini izohlang.
- Muallif va personaj nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling. Badiiy asarda xalq tilining qanday imkoniyatlaridan foydalanilgan?
- Ichki monologning qahramon tuyg‘u va kechinmalarini ochishdagisi vazifasini sharhlang.
- Ko‘p ovozli (polifonik) tasvirning voqealar silsilasiga ta’siri

qay tarzda ekanligini aniqlang.

11. Asar voqealari qachon va qayerda ro'y berganligi (xronotop) ga aniqlik kiriting.

12. Tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning asar syujetidagi o'rni qay darajada?

13. Motivning badiiy-estetik vazifalarini, har bir motivning boshqa motivlar bilan bog'liq jihatlarini, ichki harakat va xususiyatlarini, asar mazmun-mohiyatini yoritishdagi o'rnini izohlang. Mas., tush, farzandsizlik, safar, sinov, uylanish, homiy, xatar, o'lim motivlari.

14. Badiiy asarni syujet unsurlari (prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim va epilog)ga ko'ra tahlil qiling.

15. Badiiy asar kompozitsiyasi (asar sarlavhasi, epigraf, lirik chekinish, qistirma epizod, badiiy qoliplash, asar annotasiyasi)ni tahlil qiling.

16. Asarda qo'llangan badiiy tasvir vositalarini aniqlang (metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, poetik sintaksis (intonatsiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, antiteza, ritorik munosabat, ritorik so'roq).

17. Muhit (varvarizmlar, vulgarizmlar, argo va jargon), davr (arxaizm, istorizm, neologizm) hudud (dialekt)ga mansublikni ifodalovchi tasviriy vositalarni tahlil qiling.

18. Asardagi milliy kolorit (qanday milliy an'analar, udumlar aks etganligi) qay darajada ifodalangan?

19. Badiiy asarda konfliktning qanday turlaridan (inson – inson, inson – texnika, inson – tabiat, inson – jamiyat) foydalilanigan.

20. Asarda mavjud folklor namunalari (maqol, mif, ertak, rivoyat, afsona va hk.)ni aniqlang va asar mohiyatini ochishdagi vazifasini baholang.

21. Asarda qo'llangan badiiy detalning ahamiyatini izohlang.

22. Aforizm yoki falsafiy mushohadalarning asar g'oyasini ochishdagi o'rnini izohlang.

23. Asardan olgan taassurotingiz. Sizga ma'qul bo'lgan va bo'limgan jihatlar<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Tahlil mezonlarini ishlab chiqishda f.f.d., prof. G.Xalliyevaning "Adabiyot-shunoslik" o'quv qo'llanmasidagi tasnifga tayanildi.

## **II. LIRIK TURGA MANSUB ASARNING TAHLIL MEZONLARI**

1. Ijtimoiy yoki intim lirikaning nazariy qonuniyatlariga asoslanib, tahlil qiling.
2. Janriy xususiyatlarini aniqlang.
3. Aruz, barmoq, erkin vaznga xos xususiyatlarni lirk asarning vaznidan kelib chiqib, tahlil qiling.
4. Qofiya tiplari va turlariga ko‘ra qofiyalanish tartibini izohlang.
5. Radif va hojibning ohangdoshlikni ta’minlashdagi o‘rnini aniqlang.
6. Qofiyadosh bo‘lib kelgan tub so‘zlar oxiridagi, yasama so‘zlar negizining oxirgi tovushi raviyni aniqlang.
7. Qanday badiiy san’atlar qo‘llangan?
8. Qanday mavzu va g‘oya tarannum etilgan? Shoir she’rda qanday kechinmalarni ifoda etgan?

## **III. DRAMATIK TURGA MANSUB ASARNING TAHLIL MEZONLARI**

1. Dramatik turning qaysi janriga mansub?
2. Asar nechta parda va ko‘rinishdan iborat?
3. Remarka (asarda ishtirok etuvchi shaxslarning yoshi, tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, kiyinishi, qalb kechinmasi, so‘zidagi intonatsiya, shuningdek, voqealar kechadigan shart-sharoit)ni tahlil qiling.
4. Replikaga izoh bering.
5. Monolog va dialoglarning asardagi mohiyatini sharhlang.
6. Muallif g‘oyasini, asarning umumiyligi g‘oyasini anglatishda intonatsiyaning o‘rnini izohlang.
7. Intriga (asardagi voqealar rivojining shiddatli kechishi, keskinlik va dramatik taranglik) xarakterga xos xislatlarning to‘laroq namoyon bo‘lishiga va yozuvchi ijodining g‘oyaviy yo‘nalishini belgilashdagi ahamiyatini belgilang.
8. Xorning asar mazmunini to‘ldirishga yordam beradigan epizodik detal sifatidagi vazifasiga oydinlik kiriting.

9. Asar voqealarini badiiy zamон va makon kategoriyasiga ko‘ра таҳліл qiling.

**Foydalaniлgan adabiyotlar:**

1. Адабиёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймалар, асарлар ва нашрлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев.— Тошкент: «Мумтоз сўз», 2015. – 664 б.
2. Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2015. – 464 б.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т: «Академнашр», 2010. – 411 б.
4. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018. – 480 б.

## **MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI:**

1. «O'tkan kunlar» (Abdulla Qodiriy) romanida aks etgan millat ruhini mujassam etgan o'ziga xos urf-udumlar, an'analar, qadriyatlар, millatning orzulari, armonlarining badiiy ifodasini; millatning axloqi, irodasi, e'tiqodi yaxlit holda milliy tuhn ni tashkil qilishini izohlang.
2. «Kecha va kunduz» (Cho'lpon) romanidagi shaxs va jamiyat munosabatlarini konflikt nazariyasi asosida tahlil qiling.
3. «Ulug'bek xazinasi» (Odil Yoqubov) romanida tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning o'rni qay darajada?
4. «O'zbegim» (Erkin Vohidov) qasidasida qanday mavzu va g'oya tarannum etilgan? Shoир qanday kechinmalarni ifoda etgan?
5. «Ruhlar isyonii» (Erkin Vohidov) dostonida intriga (asardagi voqealar rivojining shiddatli kechishi, keskinlik va dramatik taranglik) xarakterga xos xislatlarning to'laroq namoyon etishdagi ahamiyatini izohlang.
6. «O'rik gullaganda» (Hamid Olimjon) she'rida aks etgan peyzaj tasvirida shoир mahoratini tahlil qilihg.
7. «Shaytonning tangriga isyonii» (Abdurauf Fitrat) she'riy dramasida monolog va dialoglarning mohiyatini sharhlang.
8. «Temir xotin» (Sharof Boshbekov) tragikomediyasida remarka (asarda ishtirok etuvchi shaxslarning yoshi, tashqi ko'rinishi, xatti-harakati, kiyinishi, qalb kechinmasi, so'zidagi intonatsiya, shuningdek, voqealar kechadigan shart-sharoit)ni tahlil qiling.
9. «Jannatga yo'l» (Abdulla Oripov) dostoni voqealarini badiiy zamon va makon kategoriyasiga ko'ra tahlil qiling.
10. «Dunyoning ishlari» (O'tkir Hoshimov) asarida portret va personaj tasvirining qahramon psixologiyasi, kayfiyatiga hamohang ravishda aks ettirilganligini izohlang.
11. «Boqiy darbadar» (Isajon Sulton) romanida muallif va personaj nutqining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling. Badiiy asarda xalq tilining qanday imkoniyatlaridan foydalananligan?
12. «Muhabbat va nafrat» (Zulfiya Qurolboy qizi) hikoyasida konfliktning qanday turlaridan (inson – inson, inson – texnika, inson – tabiat, inson – jamiyat) foydalananligan
13. «Asrni qaritgan kun» (Ch.Aytmatov) asarida mayjud folklor

namunalari (maqol, mif, rivoyat, afsona va qo'shiq)ni asar mohiyatini ochishdagi vazifasini baholang.

14. «Uzuklar hukmdori», Jon R.R. Tolkien (The Lord of the Rings by J.R.R. Tolkien) asarini janriy xususiyatlariga ko'ra tahlil qiling.

15. «Andisha va g'urur», Jeyn Ostin (Pride and Prejudice by Jane Austen) asarini tematik xususiyatiga ko'ra tasnif (tarixiy, fantastik, biografik, detektiv va h.k.)lang.

16. «Alkimyogar», Paulo Koelo (The Alchemist by Paulo Coelho) asari mavzusi (kitob nima haqida?)ni tahlil qiling (abadiy, tarixiy yoki zamonaviy mavzu).

17. «Chol va dengiz» (Ernst Xeminguey) asarining asosiy g'oya-si va leytmotivini aniqlang.

18. «Urush va tinchlik», Lev Tolstoy (War and Peace by Leo Tolstoy) asari sarlavhasi haqidagi fikringiz (nima uchun muallif aynan shu mavzuni tanlagan?)

19. «Shamollarda qolgan hislarim», Margaret Michel (Gone with the Wind by Margaret Mitchell) asarida portret va personaj tasvirining qahramon psixologiyasi, kayfiyatiga hamohang ravishda aks ettirilganligini izohlang.

20. «Buyuk umidlar», Charlz Dikkens (Great Expectations by Charles Dickens) asarida muallif va personaj nutqining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling. Badiiy asarda xalq tilining qanday imkoniyatlaridan foydalaniilgan?

21. «Qiyiq qizning quyilishi» (Uil'yan Shekspir) asarida ichki monologning qahramon tuyg'u va kechinmalarini ochishdagi vazifasini sharhlang.

22. «Jinoyat va jazo», Fyodr Dostoevskiy (Crime and Punishment by Fyodor Dostoyevsky) romanida ko'p ovozli (polifonik) tasvirning voqealar silsilasiga ta'siri qay tarzda ekanligini aniqlang.

23. "Buyuk Temur" (Allan Edgar Po) kitobida tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning asar syujetidagi o'rni qay darajada?

24. «Iliada» dostonida motivning badiiy-estetik vazifalarini, har bir motivning boshqa motivlar bilan bog'liq jihatlarini, ichki harakat va xususiyatlarini, asar mazmun-mohiyatini yoritishdagi o'rnini izohlang. Mas., tush, farzandsizlik, safar, sinov, uylanish, horriy, xatar, o'lim motivlari...

25. «Jeyn Eyr», Sharlotta Bronte (Jane Eyre by Charlotte Brontë)

asarini syujet unsurlari (prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim va epilog) tasnifiga ko'ra tahlil qiling.

26. «Yo'qolgan dunyo» (Artur Konan Doyl) ilmiy-fantastik roman kompozitsiyasi (asar sarlavhasi, epigraf, lirik chekinish, qistirma yepizod, badiiy qoliplash, asar annotasiyasi)ni tahlil qiling.

27. «Amerika fojeasi» (Teodor Drayzer) asarini lingvistik jihatdan tahlil qiling:

- a) frazeologizmlarni toping (5-6 ta)
- v) kasb-hunarga oid so'zlar (7-8 ta)
- s) toponimlar – joy nomlari (5-6 ta)

28. «Halokat» (Rabindranat Tagor) asaridagi milliy kolorit (qanday milliy an'analar, udumlar aks etganligi) qay darajada ifoda-langan?

29. «Sag'ri teri tilsimi» (Balzak) asarida konfliktning qanday turlaridan (inson – inson, inson – texnika, inson – tabiat, inson – jamiyat va h.k.) foydalilanilgan.

30. «Choliquushi» (Rashod Nuri Guntegin) asarida mavjud folklor namunalari (maqol, mif, ertak, afsona va hk.)ni aniqlang va asar mohiyatini ochishdagi vazifasini baholang.

31. «Martin Iden» (Jek London) asarida aforizm yoki falsafiy mushohadalarning asar g'oyasini ochishdagi o'rnini izohlang.

32. «Sharqu G'arb» devoni (Gyote)da qanday badiiy san'atlar qo'llanilgan?

33. «Ilohiy komediyası» (Dante) asarida qanday mavzu va g'oya ifoda etilgan?

34. «Makr va muhabbat» (Fridrix Shiller) dramasida remarka (asarda ishtirok etuvchi shaxslarning yoshi, tashqi ko'rinishi, xatti-harakati, kiyinishi, qalb kechinmasi, so'zidagi intonatsiya, shuningdek, voqealar kechadigan shart-sharoit)ni tahlil qiling.

35. «Faust» (Gyote Yoxann Wolfgang) asarida monolog va dialoglarning mohiyatini sharhlang.

36. «Manfred»(Jorj Gordon Bayron) asaridagi obrazlarni tahlil qiling.

37. «Qirol Lir» (Shekspir) tragediyasida intriga (asardagi voqealar rivojining shiddatli kechishi, keskinlik va dramatik taranglik) xarakterga xos xislatlarning to'laroq namoyon bo'lishiga va yozuvchi ijodining g'oyaviy yo'naliшини belgilashdagi ahamiyatini

belgilang.

38. «Medeya» (Evripid) asarida xorning epizodik detal sifatidagi vazifasiga oydinlik kirting.

39. «Ayvengo» (V.Skott) asari voqealarini badiiy zamon va mazmun kategoriyasiga ko'ra tahlil qiling.

40. «Qayrag'och soyasida» (Yujin O'nil) dramasini shakl va mazmun kategoriyasiga ko'ra tahlil qiling.

## ILOVA GLOSSARIY

**Antiteza** – (gr. antithesis – qarama-qarshi qo‘yish so‘zidan) qarshilantirish yoki tazod. Badiiy asarda voqealar yo‘tushunchalar bir-biriga qat‘iy qarshilantirilsa, antiteza kelib chiqadi. Antiteza nutqning emostional ta’sirini orttiradi, qarshilantirilayotgan narsalar orqali aytimoqchi bo‘lgan fikrni ta’kidlaydi.

**Antologiya** – (gr. anthologia – guldasta, gullar to‘plami so‘zidan). Bir nechta shoir va yozuvchilarining tanlangan asarlari to‘plami. Antologiya o‘z xususiyati bilan «tazkira»ga monanddir.

**Antropomorfizm** – (gr. anthropos – odam va morphos – ko‘rinish, shakl so‘zlaridan) tabiatdagi narsa-hodisalarni inson qiyofasida tasavvur qilish. Jonlantirishning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda tasvirlanayotgan narsa yoki predmetga insonga xos xislatlar beriladi yoki u inson singari harakat qildiriladi. U sharq adabiyotshunosligida «tashxis» (shaxslashtirish) deyiladi.

**Apostrofa** – (gr. arostrophe – og‘ish so‘zidan). Stilikfiguralardan biri bo‘lib, unda poetik jonsiz narsa va hodisaga jonli narsa va hodisadek yoki o‘zi yo‘q shaxsga xuddi ishtirot etayotgandek murojaat qilinadi.

**Arxaizm** – (gr. archaios – qadimiy so‘zidan). Hozirgi tilda eskirib qolgan so‘z, ibora va turli qo‘srimchalar bo‘lib, u tildagi uslublarning almashinishi, ayrim narsa va predmetlarning jamiyat hayotidan butunlay yo‘qolishi natijasida yuzaga keladi.

**Arxitektonika** – (gr. arshtectonike – qurilish san’ati so‘zidan). Badiiy asar qismlarining o‘zaro muvofiq yaxlit uzviy qurilishi.

**Aforizm** – (gr. aphorisuos – hikmatli so‘z). «Aniqlovchi», «chegegaralovchi» degan ma’nolarni anglatadi. Bu so‘zni ilk bor olim Gippokrat tibbiyot haqidagi traktatida simptom va kasallik tashxisi bilan bog‘liq tarzda qo‘llagan. Xalq maqollaridan farqli ravishda aforizmlarning muallifi hamma vaqt aniq bo‘ladi. Aforizmda so‘z qancha oz bo‘lsa, uning ifodaliligi, o‘tkirligi shuncha ortadi.

**Badiiy asar poetikasi** deganda asarning tuzilishi, syujet va kompozitsiyasi, til xususiyatlari, hikoya qilish yo‘sini, ifoda tarzi, tasvir usullari va vositalari, ohangi va umuman, uning badiiy olami tushuniladi. «Poetika» so‘zi yunoncha bo‘lib, «san’at, badiiyat»

kabi ma'nolarni anglatadi.

**Ballada** – lirik poeziyaning epik xarakterdagi janrlaridan biri. Ballada – kichik syujetli she'rdan iborat bo'lib, unda voqeal bilan birga shoirning his-tuyg'ulari ham aks etadi.

**Belletristika** – keng ma'noda badiiy adabiyotga nisbatan, tor ma'noda faqat nasriy badiiy asarlar uchun qo'llanadigan atama.

Verlibr – (*fr.* vers – she'r, libres – erkin so'zlaridan) erkin she'r demakdir. U o'ziga xos tuzilishga ega she'r turlaridan biri. O'zbek she'riyatida erkin she'r barmoq she'riy tizimi asosida yuzaga kelgan bo'lsa ham, biroq bunda misralardagi hijolar miqdori, ularning cho'ziq yoki qisqaligi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Misralarning turlicha turoqlanishi, qofiyalanishdagi erkinlik shoirga o'z fikrini izchil ifodalash imkonini beradi.

**Gradatsiya** – (*gr.* gradatio – sekin-asta so'zidan). Badiiy asardagi u yoki bu holatning sekin-asta oshib yoxud pasayib borishidan iborat stilistik figuralardan biri; bir xildagi tavsiflarni muntazam tartibda guruhlashtirib, ularning mazmuniy yoki emostional ahamiyatini kuchaytirib (*q.* Klimaks) yoki pasaytirib (*q.* Antiklimaks) tasvirlashdan iborat poetik nutq usuli.

**Detektiv adabiyot** – (*lat.* detection – fosh etish; *ing.* detect – ochilish, detective – josus so'zlaridan) biror jinoiy ish bilan bog'liq bo'lган yashirin sirni mantiqiy jihatdan murakkab tahlil orqali ochishga bag'ishlangan badiiy asarlar majmui.

**Improvizastiya** – badiha. Oldindan maxsus tayyorgarlik ko'rilmay, ijodkorning biror voqeal yoki narsadan ta'sirlanishi yoxud ilhom olishi bilan bog'liq bo'lган ijodiy jarayon. Binobarin, oldindan tayyorgarlik ko'rmay she'r aytgan yoki musiqa asari yaratgan ijodkor *improvizator*, *badihago* y'atamalari bilan ifodalanadi.

**Komediya** – (*gr.* somos – xushchaqchaq olomon va oide – qo'shiq so'zlaridan) dramatik turga mansub janrlardan biri bo'lib, bunda voqealar, xarakterlar, kolliziya kulgi fonida tasvirlanadi. Kulgi, komizm inson va jamiyat hayotidagi ziddiyatlar ustidan hajv qilish yoki engil yumor vositalaridan biridir.

**Komparativizm** – (*gr.* somparare – qiyoslash so'zidan) adabiyotshunoslikdagi maktablardan biri, qiyosiy-tarixiy metod, adabiy tekshirish usuli. Komparativizm XIX asrda Evropada paydo bo'ldi. Germaniyada I.G.Gerder va Angliyada J.Denlonning

tadqiqotlari bu maktabning dastlabki ishlari sanaladi. F.I. Buslaev Rossiyada komparativizm g'oyalarining targ'ibotchisi edi.

**Kompozitsiya** (lot. «tuzib chiqish, tartibga solish») – badiiy asardagi qismlar, obrazlar va badiiy vositalarning ma'lum bir g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi, ularning tasvirdagi mezoni va muvofiqligi hisoblanadi.

Lirika – (gr. lyircos – torli cholg'u asbobi lira jo'rлиgida aytildigan so'zidan) badiiy adabiyotdagi uch asosiy turning biri. Lirkada epik va dramatik turlardan farqli o'laroq voqelik shaxsning his-tuyg'ulari, kechinmalari, idroki orqali aks etadi. Lirika badiiy adabiyotning qadimiy turlaridan bo'lib, unga mansub janrlar turlicha tasnif qilib kelinadi.

**Litota** – (gr. litotes – oddiylik so'zidan) kichraytirish. Badiiy adabiyotda biror narsa, voqeа va belgini kichraytirib, zaiflashtirib tasvirlash usuli. Qadimgi adabiyotshunoslikda litota tafrit, ya'ni mo'tadillikkdan pastki holat deb yuritilgan. Ijodkor uyg'un narsa yoki hodisaning ahamiyatini ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida boshqa narsa yoki hodisani uning ulug'verligi hamda qudratiga nisbatan kichraytirib tasvirlaydi.

**Mavzu** yozuvchini hayajonga solgan va qo'liga qalam olishga majbur etgan hayotiy materialdir. U odatda yozuvchi yortimoqchi bo'lgan ijtimoiy yoki axloqiy muammo bilan birga tug'iladi.

**Metamorfoza** – ertak qahramonining turli-tuman narsa-buyumlarga, hayvon va parrandalarga aylanishi.

**Motiv** – (fr. motif – kuy, ohang so'zidan). 1. Syujet tarkibidagi halqalardan biri. 2. Adabiyotshunoslikda motiv atamasi asarning asosiy mavzui va g'oyasini to'ldirishga xizmat qiluvchi qo'shimcha mavzu yoki g'oyaviy yo'nalishga nisbatan qo'llaniladi.

Novella – (ital. novella – yangilik so'zidan) epik rivoyyaning hajm jihatidan kichik bir turi bo'lib, hozir kki xil ma'noda qo'llaniladi: 1) maxsus kichik epik janr, unday novella mustaqil rivoyaviy shakl sifatida XIV-XV asrlarda Italiyada Uyg'onish davrida yuzaga keldi. Uning dastlabki namunalari Bokkachcho, Sakketti, Mazuchcholar ijodida uchraydi.

**Obraz** – san'at va adabiyotda hayotni o'ziga xos badiiy shaklda aks ettirgan manzara va xarakterlar. *Obraz* tushunchasi o'z xarakteri va mazmuniga ko'ra juda murakkab va ayni paytda keng qamrovli

tushunchadir. Ob'ektiv voqelikning u yoki bu tarzda inson ongidagi in'ikosi keng ma'noda obrazning asosini tashkil etadi.

**Ocherk** – (*rus.* ocherkat – tasvirlash so‘zidan) o‘z hajmi jihatidan hikoyaga yaqin turgan, epik turga mansub badiiy publististik janrlardan biri. Ocherk g‘oyaviy-estetik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, badiiy ijodga xos hamma xususiyat va talablar asosida yaratiladi. Ocherk janrining o‘ziga xosligi uning tuzilishida ham o‘z aksini topgan. Ocherk hujjatli, voqeiy-badiiy hikoyadir.

**Parallelizm** – (*gr.* rараллелос – yonma-yon boruvchi so‘zidan) shakl va mazmun jihatidan bir-birini takrorlayotgan ikki yoki undan ortiq hodisa, holat yoxud narsaning obraz, obrazli tasvir va ifoda sifatida yonma-yon qo‘yilishi orqali fikrni poetik ifodalash usulidir. Bunda yonma-yon qo‘yilayotgan hodisa, holat, narsa obrazi, tasviri o‘zaro qiyoslanishi, bir-biriga o‘xshatilishi yoki qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin.

**Pafos** (yun. «*hissiyot*», «*ehtiros*», «*iztirob*») yozuvchini maftun etgan va butun asarga singib ketgan undagi badiiy tasvirning yo‘nalishini belgilab beradigan jo‘shqin tuyg‘u, g‘oya, his-hayajondir.

**Peyzaj** – (*fr.* raysage – mamlakat, joy so‘zlaridan) badiiy asarda aks ettirilgan joy, tabiat tasviri bo‘lib, u yozuvchining usuli va uslubi bilan bog‘liq holda turlicha vazifalarni o‘taydi. Agar Peyzaj qahramonning ruhiy holatini ifodalashda fon vazifasini bajarishi, parallelizm yoki kontrastga xizmat qilishi mumkin. Umuman, peyzaj badiiy asar kompozistiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida juda ko‘p vazifa bajaradi.

**Personaj** – (*lat.* persona – shaxs so‘zidan). 1. Badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslarning jami. 2. Asarda ishtirok etuvchi ikkinchi darajali shaxslar.

**Povest** – qissa. O‘rtalajmi nasriy epik, rivoyaviy janrning bir xili bo‘lib, u o‘ziga xos belgilarga egadir. Bu belgililar adabiyotshunoslikda turlicha talqin etib kelinadi. Povest hayotiy voqe-a-hodisalar qamrovi jihatidan romanga nisbatan kichik, hikoyaga nisbatan kattaroq va murakkabroq bayon shakliga ega bo‘lgan janrdir.

**Portret** – (*fr.* portrait – tasvir so‘zidan). 1. Adabiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi, o‘zini tutishi va h.k tasviri. Portret yozuvchining shaxsiy uslubi, mahorati va maqsadiga bog‘liq holda turlicha darajada berilishi mumkin.

**Poeziya** – (gr. roieo – yarataman, ijod qilaman so‘zidan) she’riyat. 1. Dastlab mazkur atama keng ma’noda badiiy adabiyot ma’nosida ham qo‘llanilgan. Bunda badiiy adabiyotning voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettirishiga asoslanilgan. Poeziyaga lirika, she’riy dramatik asarlar, xalq eposining she’riy qismlari, o‘rta asrlardagi she’riy dostonlar kiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hali ham poeziya atamasining qo‘llanilish doirasi keng va universal xarakter kasb etadi.

**Poema** – (gr. roiein – ijod qilmoq, roiema – ijod so‘zlaridan) she’riy shakldagi, katta hajmli lirik-epik janr, she’riy-rivoyaviy asar, doston. Poemaning o‘ziga xos xususiyati bayon qilinayotgan epik voqeani lirik qahramon munosabati orqali ifodalashdan iboratdir.

**Poetizm** – 1.XX asrning 20-yillarda chex san’atida shakllangan oqim. 2. Poetik, ya’ni badiiy so‘z yoki ibora.

**Poetika** – (gr. roietike – poetik san’at so‘zidan) eng qadimiy atamalardan biri bo‘lib, u adabiyotshunoslikda turli davrlarda turlicha ma’noda qo‘llanilgan. Badiiy adabiyot, uning qonuniyatları adabiyot nazariyasi, adabiyot qoidalari; janr, uning shakl va mazmun jihatlarining o‘zaro munosabati, kompozistiya tiplari, syujet qurilishi va hokazolar poetika atamasi bilan yuritiladi. Bunda *poetika* atamasi bevosita adabiyot nazariyasi atamasining sinonimi vazifasini o‘taydi. Tor ma’noda she’riy asar va uning tuzilishi, har bir she’riy janr va uning taraqqiyoti, ularning kelib chiqishi va taqdiri, she’riy stilistika, she’riy nutq va uning xarakteri, turli she’riy san’at va tasvir vositalari ham *poetika* atamasi bilan yuritiladi.

**Prolog** – (gr. rro – old, avval, logos – so‘z iboralaridan) adabiy asardagi muqaddimaning bir turi bo‘lib, unda muallif niyati, asarning qisqacha mazmuni bayon etiladi.

**Prototip** – (gr. prototypon – obraz asosidagi shaxs so‘zidan). U *proobraz* ham deb yuritiladi. Biror badiiy asardagi obraz uchun asos bo‘lgan shaxs yoki adabiy personaj. Prototipning hayotiyligini aniqlash masalasi badiiy adabiyotning, ayniqsa, realistik adabiyotning hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi muhim xususiyatdir. Yozuvchi ko‘plab kishilarni kuzatish asosida obraz yaratadi. Ba’zi hollarda yozuvchi boshqa ijodkorlarning asarlaridagi obraz yoki personajlarni prototip qilib olishi ham mumkin.

**Remarka** – (fr. remarque – izoh so‘zidan) dramatik asardagi

muallif izohi. Remarkada asarda ishtirok etuvchi shaxslarning yoshi, tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, kiyinishi, qalb kechinmasi, so‘zidagi intonastiya, shuningdek, voqealar kechadigan shart-sharoit, payt va o‘rin kabilar izohlanishi mumkin. Remarka pesani tushunish, sahnaga qo‘yish va rollarni to‘g‘ri o‘ynashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Replika** – (*fr.* rerlique – e‘tiroz bildiraman, javob beraman so‘zidan) luqma. Asarda ishtirok etuvchi shaxslarning boshqa personajlarga javobi, luqma tashlashi. Replika asosidagina asarda dialog yuzaga keladi. Teatr san‘atida har bir aktyor nutqining oxirgi so‘zi ham replika deb yuritiladi. Ana shunday replikadan so‘ng boshqa aktyor o‘z nutqini boshlaydi.

**Retardastiya** – (*lat.* retardatio – kechikish so‘zidan) qo‘srimcha personajlar, epizod yoki voqealar, lirk chékinishlar, tabiat tasvirlari kabilarni kiritish orqali asardagi voqealar rivojini kechiktirishdan iborat badiiy usul.

**Simvol** – (*gr.* sumbolon – shartli belgi so‘zidan) ramz. Metafora (q)ning bir ko‘rinishi bo‘lib, shartli ravishda ko‘chma ma’noda qo‘llaniladigan so‘z birikmasi, rasm, predmet. Simvol obrazli ifodaning bir ko‘rinishi bo‘lib, badiiy nutqda hayotiy voqealari, tushunchasi va narsalarni ifodalash uchun shartli ravishda ko‘chma ma’noda ishlatiladigan so‘z yoki so‘zlar birikmasidir.

**Sonet** – (*ital.* sonare – jaranglamoq so‘zidan) o‘n to‘rt misradan iborat she‘r turi bo‘lib, ko‘pincha a-b-b-a – a-b-b-a – v-v-g – d-g-d (boshqa xil variantlari ham bor) shaklida qofiyalanadi. Dastlab XIII asrda Italiya adabiyotida paydo bo‘lgan. Sonetning dastlabki to‘rt misrasini u tezis sifatida katren, keyingi to‘rtligini antitezis sifatida ikkinchi katren va so‘nggi ikki uchlikni sintez deb atadi.

**Stilizastiya** – (stil so‘zidan) biror yozuvchi ijodiga xos g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarga, ifoda usuliga, tili va uslubiga asoslanib, yangi asar yaratish. Stilizastiya uslubga monandlik, unga o‘xshatib asar yaratish degan ma’nolarni ifodalaydi. Yozma adabiyotda folklorning turli jihatlari alohida-alohida stilizastiya qilinib, bir necha turdagisi folklorizmlar yaratilgan.

**Stil** – (*gr.* styllos – yozish uchun foydalilaniladigan narsa so‘zidan) – uslub. 1. Yozuvchi ijodi uchun xos bo‘lgan fikrni ifodalash yo‘li, g‘oyalar birligi, dunyoqarashning umumiyligi. 2. Ifodalash usuli. Uslubning dastlabki ta’rifini Gyote va Gegel tushuntirib bergan. Ular

uslubni sub'ekt va ob'ektning birligi deb baholashgan. Metodning o'zgarishi uslubga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Uslubning qanday bo'lishi yozuvchi iqtidori bilan ham bog'liq. Uslub tarixiy, jamiyat taraqqiyoti bilan o'zgaruvchi hodisadir. Uslub hodisasi an'ana, adabiy ta'sir masalalari bilan ham bog'liq.

**Syujet** – (*fr. sujet* – narsa, mavzu, mazmun so'zidan) badiiy asarlarning bevosita mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi hayotiy voqealar tizimi. Syujet xarakter bilan uzviy bog'liq bo'lib, badiiy ijodda muhim o'rinni tutadi. Syujet badiiy adabiyotning barcha turlari va janrlarida mavjud. Syujet xarakter bilan voqealar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Syujet personajlar harakati tufayli shakllanadi. Syujet ekspozistiya (q), situastiya (q), tugun, voqealar rivoji, kulminastiya (q) va echim kabi qismlardan tashkil topadi. Bularning hammasi badiiy asar syujetining tarkibiy qismlari bo'lib, asar kompozistiyasi (tuzilishi)da muhim rol o'yнaydi. Prolog (q) va epilog (q) esa syujetning shart bo'lmagan qismlaridir. Syujet uni tashkil etuvchi voqealar tartibiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Vaqt bilan o'zaro bog'langan voqealar *xronikal syujet* deyiladi. Voqealar biror sabab bilan bog'langan syujet esa *konstentrik syujet* deb ataladi.

**Semiotika** – badiiy asardagi lisoniy belgilarning ma'no qirralarini o'rjanuvchi soha.

**Fabula** – (*lat. fabula* – masal, hikoya qilish so'zidan) asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog'liqlikdagi yaxlit silsilasi. Ayrim adabiyotshunoslar fabulani asar voqealarining izchil bayoni, aniq skeleti, syujet esa badiiy asar voqealarining barcha qismlari bilan birgalikda qamrab olingan ifodasi sifatida ta'riflaydilar. O'z ma'nosi va mohiyatiga ko'ra, fabula va syujet atamalari bir-biriga sinonim bo'lib, hozirgi adabiyotshunoslikda syujet atamasi faolroq qo'llaniladi. *Fabula* atamasi esa asta-sekin iste'moldan tushib qolmoqda.

**Folklor** – (*ing. «folk» – xalq, «lore» – donolik so'zlaridan*) «xalq donoligi, xalq donishmandligi» ma'nolarini anglatadi. Uni birinchi marta 1846 yilda Vilyam Toms ilmiy istiloh sifatida qo'lladi. O'zbek folklori xilma-xil janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, xalqimizning dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, simpatiya va antipatiyasini, orzu va intilishlarini aks ettiradi.

**Xarakter** – (gr. character – belgi, alohida xususiyat, o‘ziga xoslik so‘zlaridan) badiiy ijodda individual xususiyatlar asosida har tomonlama to‘liq yaratilgan inson obrazining mukammal turi. U aynan ko‘chirma holatda berilmaydi. Badiiy adabiyotdagi adabiy xarakter ham real hayot, ham ijodkor fantaziyasi asosida shakllanadi.

**Epizod** – (gr. epeisodion – begona, aloqasiz so‘zidan). 1. Qadimgi grek dramasidagi xorlar orasida namoyish etiladigan qisqa voqealar. 2. Nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan asar voqeasi, badiiy asarning bo‘linmaydigan eng kichik qismi. Badiiy asardagi epizodlar ijodkor g‘oyasini ro‘yobga chiqarishda o‘zaro mantiqiy izchillilikda, bir-biri bilan bog‘lanib, asar syujetini tashkil etadi.

**Estetik ideal** – badiiy ijodga xos eng muhim tushunchalardan biri bo‘lib, u ijodkorning xohishi, istagi asosida yotuvchi narsa yoki shaxsnинг qanday darajada bo‘lishini anglatadi. Estetik ideal ijodkordan hamma vaqt hayotiy haqiqatning badiiy asar maqsadiga mos bo‘lishini talab etadi. San‘at asaridagi reallik va ideallik o‘rtasida o‘zaro aloqa va shartlanganlik mavjud, ya’ni reallik asosida yaratilayotgan obrazning ideal tasviri yuzaga keladi, chunki ijodkor narsaning qanday ekanligini aytishdan tashqari, uning qanday bo‘lishi kerakligini ham aks ettiradi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Glossاري мазкур маңба асосида таъyorланди: О‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug‘ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 170 b.

## O'ZBEK ADIBLARI ADABIYOT TO'G'RISIDA<sup>1</sup>

Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagи to‘lqinlarnи so‘zlar, gaplar yordами bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddи shу to‘lqinlarnи yaratmoqdir. Bu ta’rif adabiyotning to‘g‘ri ta’rifidir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladir. (**Fitrat**)

Adabiyot so‘zini tuzukkina anglatmoq uchun boshlab san’at ham go‘zal san’atlar degan so‘zni ta’rif qilib o‘tish lozimdir... Go‘zal san’atlarda tovar (material) tovush ohang bo‘lsa, go‘zal san’at musiqiy bo‘ladir; bo‘yovlar, chiziqlar bo‘lsa, rasm bo‘ladir; tosh yo boshqa turli ma’dan esa haykalchilik bo‘ladir; tosh, yog‘och, kirkich, ganch turnoq (tuproq, loy) bo‘lsa, me’morlik bo‘ladir; tan, mug‘a (qo‘l, qosh, ko‘z) harakatlari esa o‘yin (tans) bo‘ladir; gap, so‘z esa adabiyot bo‘ladir... Go‘zal sao‘atlarning mana shu olti turlari bir-biriga yaqinlashmoq e’tibori bilan ikki turkumga ayrıladir. Adabiyot, musiqa, o‘yin (tans) – bir turkum; rasm, haykalchilik, me’morlik bir turkum bo‘ladir. (**Fitrat**)

Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngil tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik) har xil tusda va rangda bitishgan, fayzli til birga taqdir etula olmaydirg‘on bir guldur. Ushbu yashadigimiz muhit doirasinda oning to‘lquni odamning har xil maishatiga qarab o‘zgaradur...

Adabiyot chin ma’nosи ila o‘lgan, so‘ngan, qoralangan, o‘chgan, majruh, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan qora balchiqlarnи tozalaydirg‘on, o‘tkir yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralagan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirk‘on buloq suvi bo‘lg‘onlig‘idan bizga g‘oyat kerakdir... (**Cho‘Ipon**)

Adabiyot – fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqallanadigan, to‘xtashni bilmaydigan, borgan sari hamisha nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan bir soha...

... Adabiyot turmushni aks ettiradi, turmushdagи voqealar, hodisalar, fikr va tuyg‘ularnи umumiylashtirib, obrazlar bilan turmushni, dunyonи anglashga tirishadi...

... Adabiyotimizning tasvir obekti – xalqimiz turmushi. U o‘z

<sup>1</sup> <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/vozuvchilar-adabiyot-togrisida/>

taraqqiyotida xalq hayotini, kurashini, orzu-armonlarini, his-tuyg‘ularini, fikr-xayollarini yangi jamiyat qurish yo‘lidagi faoliyatini badiiy aks ettirib rivojlandi, benihoya yutuqlarni qo‘lga kiritdi...**(Oybek)**

Adabiy asarlar turmushni jonli ko‘rsatib, odamlarning fikr va tuyg‘ulariga kuchli ta’sir qiladi. Badiiy chuqur, fikr-his jihatidan to‘la adabiy asarlar o‘quvchini uzoq vaqt bog‘lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushni abstrakt (mavhum) tushuntir-may, konkret (aniq) badiiy umumlashtirib, jonli anglatadi. Adabiy asarlar ila ma’lum bir yo‘nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko‘rsatish mumkin. Davrni to‘lqinlantirgan ulug‘ ideyalar, vazifalar, millionlarning hayotida ko‘rilgan o‘zgarishlar san’at asarlarida ta-jassumlanishi kerak. Adabiyot xalqning jon-tani bo‘lgan bir ishdir, shuning uchun bizning bu sohadagi har bir muvaffaqiyatimizni, may-donga chiqqan har bir qimmatli asarni xalq o‘z g‘alabasi, deb biladi. **(Oybek)**

Adabiyot – ko‘ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi – meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yoi topadi, ki-tobxonning ko‘nglida meva tugadi...

... Quyosh, havo, yer, suv barcha jonvor va ko‘katlarga ozuqa bergenidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qanchalik iste’dodli, uning qalam tutgan qo‘li qan-chalik tajribali bo‘lsa, xalq undan shunchalik chuqurroq minnatdor bo‘ladi, uning ijodini, umuman, Adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi. **(Abdulla Qahhor)**

San’at asari chaqmoq, mushak, kamalak singari lahzani obod qiladigan umri qisqa, mag‘zi puch go‘zallik emas, balki adabiyotni bezaydigan, umri boqiy va mag‘zi to‘q go‘zallikdir...

... o‘qishli kitob go‘zallikdir, lekin go‘zallikda ham go‘zallik bor. Qorong‘i kechada otilgan mushak ham go‘zal, quyosh-ga qarab xandon tashlab turgan gul ham go‘zal, Osmonda sochilib ketgan rang-barang olov va oqish izlar go‘zalligi qamashtirsa ham puch go‘zallik, shuning uchun bebahodir. Gulning go‘zalligi esa to‘q go‘zallik, chunki uning bag‘rida hayot bor, shuning uchun abadiy go‘zallikdir. g‘uncha guldan ham go‘zalroq, chunki uning bag‘rida ikki hayot — o‘z hayoti va yana gul hayoti bor. **(Abdulla Qahhor)**

Lirika — inson qalbini, zamondoshimiz qalbini kashf etish, un-

ing orzu va intilishlarini, muqarrar dramalarini idrok etisb demakdir. Kishilarning ruhiy olami nechog'lik chuqur payqab va ilg'ab olinsa, she'riyat shu qadar boy va ta'sirchan bo'ladi. Lekin kashf etish fikr qilish, o'ylash demakdir. Hozirgi zamon she'riyatining mohiyati, rivojlanishining asosiy yo'nalishi ham ana shundadir...

... Mening hayotimda o'ta baxtli kunlar ham, musibatli oniar ham ko'p bo'lidi. Biroq hatto og'ir, mushkul daqiqalarda ham o'zimning dard-u hasratlarimni she'rga tushirarkanman, meni muhabbatimning g'olib qudrati hech qachon tark etma-di. Mening shaxsiy hayotim — xalq hayotining bir zarrasi. Men xuddi shunda ham grajdaniqlikning ifodasini ko'raman. (**Zulfiya**)

Qatrada quyosh aks etganidek, lirikaning eng kichik janri-da ham katta hayotiy mazmun va olijanob tuyg'ular ifoda etiladi. Shuning uchun ham u qiyin, shuning uchun ham u san'at asari, deb yuksak qadrlanadi... Ammo ba'zi bir shoirlarimizda kichik janrlarga nisbatan o'ta mas'uliyatsizlik bilan yondoshilayotganligi sezilib qolmoqda. o'zbek poeziyasining quyoshi deb ataganimiz Alisher Navoiyning ham umr bo'yi yozgan ruboilylari barmoq bilan sanarlidir. Biroq bu ruboilylaming har birida bir jahon mazmun bor. (**Zulfiya**)

She'r — tuyg'ular, hayotdan olingen taassurot va tafakkurlar mevasi!..

... Tuyg'ular! She'r — tuyg'ular farzandi. Chuqur fikrlar, yoniq, samimiyl hislar farzandi bo'ladi she'r... (**Zulfiya**)

Fransuz faylasufi Gelvetsiy: «She'r yo yuksak cho'qqilarda, yoki g'orlarda yaratiladi», deydi. Darhaqiqat, she'r inson ruhining birmuncha g'ayritabiyy, ayricha holatidan tug'iladiki, zukko faylasuf buni obratzli qilib ifoda etgan. o'sha cheksiz ufqlar, sirli miltiragan son-siz yulduzlar kimda ham his-tuyg'ular uyg'otmaydi, deysiz! Albatta, hammada ham. Faqat ijod dardiga chalingan odamda bu tuyg'u cheksiz armonga, go'zal iztirobga, qondirilishi nihoyatda zarur bo'lgan ehtiyojga aylanadi. (**Abdulla Oripov**)

She'r shoir qalbida tug'ilgan hayotiy tuyg'ularni ifoda qila-di va shu bilan o'quvchi yuragini rom qiladi. Shoир o'zi yonmasa, bosh-qalarni yondirolmaydi, qalb hislarida otash bo'lmasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday she'riy jimjimaldan, badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo'q. (**Erkin Vohidov**)

Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va

tunlari, orom va zilzilalari bor. She'riyat yurak sadosi bo'lganidan ana shu murakkab tuyg'ular olamini ifoda qiladi. Shuning uchun ham bir she'rni o'qib quvonsak, ko'ksimiz g'urur va iftixor tuyg'ulariga to'lsa, ikkinchi bir she'rni o'qib, hayolga tushamiz, inson dardlariga oshno bo'lamiz.

Shoirlikxo'sha tuyg'ulaming tabiiyligi va haqqoniyligiga she'rxonni ishontira olishdir. Ishontira olish — iste'dodning ibtidosi. (**Erkin Vohidov**)

Aziz va yosh do'stlarim!.. She'riyat quyoshi, musiqasining sehrli kuylari, bahor shabadasi kabi, sizning qalbingizga eng go'zal inson husnini beradi, eng nafis zavq bag'ishlaydi. She'r va muzika dunyosida xulqingiz nozik go'zallik, chuqr hissiyot kashf etadi. (**Oybek**)

## JAHON ADIBLARI ADABIYOT HAQIDA<sup>1</sup>

Yaxshi tanqidchi nafaqat o‘qigan asarlarini tahlil qiladi, balki u o‘z qalbining kechinmalari — sarguzashtlarini ham bayon qiladi. (Anatol Frans)

Faqat o‘zing yaxshi o‘rgangan, yaxshi biladigan narsalar haqida yozish, yozganda ham samimiylar va rost yozish kerak; tasvirlangan holat inson qalbini o‘rtab yuborsin, voqelikni baholashga yordam bersin, o‘quvchi boshidan kechirgan voqelikning bir qismiga aylanib qolsin. (Ernest Xeminguey)

Dorilfununlardagi, korxonalardagi, birjalardagi va ko‘ngilxushlik qiladigan joylardagi «real» hayot har qancha hayajonli bo‘lmasisin, biz har kuni ikki soat vaqtimizni o‘tgan zamonlarning falsafasini va adabiy asarlarini mutolaa qilish bilan o‘tkazmasak, haqiqiy hayotga yaqinroq bo‘la olmaymiz. (Herman Hesse)

Romanning kelajagi yozuvchilik uslubidagi muayyan bir urfga ergashishga bog‘liq emas; biror-bir iqtisodiy sharoitga ham bog‘liq emas. Romanning kelajagi faqat ikkita xususiyatga bog‘liq. Bu xususiyatlar Ulug‘vorlik va Jozibadorlikdir. (Jon Golsuorsi)

Har bir avlod o‘zini dunyonи qayta qurishga mas’ul, deb hisoblaydi. Men mansub bo‘lgan avlod esa bunday qilolmasligini biladi. Bir-oq uning vazifasi, ehtimol, undan-da kattaroqdir. Bu vazifa yer kurassis yo‘q bo‘lib ketishiga xalal berishdan iborat. (Alber Kamyu)

San‘at faqatgina hayotni qalamga olish emas, shuningdek, borliqning birligini aytish ham... O‘z davrining e’tiborga loyiq yozuvchisi noma'lum, betakror, yagona tirik hayot haqiqatini tasvirga olishga qodir kashfiyotchidir. (Boris Pasternak)

Poeziya nafaqat dunyonи bilish, balki u hayotning o‘zi hamdir, butun borlig‘i bilan hayotning o‘zi. Shoirlilik qabilachilik zamonida yerto‘lalarda yashagan odamning qalbida ham bor edi, u atom asri odamining ruhida ham yashaydi... Borki mavjudotga sadoqati bilan shoir bizga bizning dunyomizning boqiyligi va birligini his etishimizga yordam beradi... Va agar shoir o‘z davrining xastalangan vijdonini gavdalantira olsa, unga boshqa talab yo‘q. (Sen-Jon Pers)

Adabiyot muallifga insoniy ongni saqlab qolish imkonini beradi,

<sup>1</sup> <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/jahon-adiblari-adabiyot-haqida/>

adabiyot bizning o‘zimiz bilan o‘zimiz gaplashadigan narsalardan boshlanadi. Bu o‘rinda o‘zaro aloqa ikkilamchi vazifa. Adabiyotni bizning ichki his-tuyg‘ularimizning amalga oshishiga bo‘lgan ehtiyojimiz paydo qiladi. Kitob, jamiyatga ta’sir etadimi, yo‘qmi – bu boshqa masala, bu savolning javobi uning muallifiga mutlaqo bog‘liq emas. (**Gao Sintszyan**)

So‘z tuyg‘usi, nutq ohanglari va ranglarini his etishni she’r o‘qish va yaxshi proza asarini mutolaa qilish orqali o‘stirsa bo‘ladi, ammo bu xususiyatlar, yaxlit ohangda, tug‘ma did va musiqiy tuyg‘uga bog‘liq... Hech kim yozuvchini hayotni bunday kuzatmaslikka va bunday his etmaslikka, balki boshqacha his qilib, boshqacha ko‘rishga majburlay olmaydi. O‘qish va yozishni o‘rganganidan so‘ng ijodkor boshqalardan faqat bir narsani, ya’ni qanday yozmaslik kerakligini o‘rganmog‘i mumkin. Yozuvchining haqiqiy ustozi hayotning o‘zidir. (Jon Golsuorsi)

Yozuv san’atiga murojaat qilgan, biror sabab bilan qalam tebratgan har qanday odamni «yozuvchi», deb atash joiz emas. Yozuvchining so‘z san’atkori sifatidagi xarakterli belgilarini uning xayolotidan, ilhomidan, olamni juda teran idrok etishidan izlamoq kerak. Yozuvchining yozuvchiligi u tanlaydigan badiiy vositalarda namoyon bo‘ladi. Bu vositalar yozuvchi tasvirlaydigan voqeа-hodisalar kitobxonda imkon qadar keng va teran taassurot uyg‘otmog‘i talab etiladi. (**Yan Parandovskiy**)

Tarixchi olim bilan shoir o‘z asarlarini biri vaznsiz, ikkinchisi vaznga solib yozishi tufayligina bir-biridan farqlanmaydi. Agar Gerodotning asarlari she’riy vaznga solib yozib chiqilsa ham baribir tarixiy asarligicha qoladi. (Arastu)

Hozirgi dunyoda adabiyot murakkab sharoitga tushib qolgan. Favqulorra u keraksiz buyumga aylangandek, zero, qiziqishlar ham, his-hayajonlar ham oldingiday emas, bo‘lakcha. Burungi kitobxonlarimizning o‘y-xayollari endi boshqa narsalar bilan band. Bugungi kitobxonlar esa asl mutolaaning zavq-shavqidan, aftidan, bexabar. Shundan kelib chiqib endi nima qilish lozimligini birgalashib o‘ylab ko‘rishimiz kerak. (**Chingiz Aytmatov**)

Shoirning shaxsi kitobxonga tegishli emas. Kitobxon, daraxtdan ajratib olingan yog‘och kabi, muallifdan ajralib chiqqan asar haqida hukm chiqarishga haqli, xolos. Modomiki, munaqqid asardan si-

yosatchi shaxsini qidirarkan, bu o‘ta mantiqsiz harakatdir. (Sen-Jon Pers)

Mening ishim yozish, tanqidchilarning vazifasi esa tanqid qilish. Tanqidchilar hamma vaqt yozuvchilarga yordam berishgan. Men romanlarim haqidagi tanqidchilarning fikrlaridan xafa bo‘lganim yo‘q. Sodda, barchaga birdek tushunarli usulda<sup>\*</sup> yozganim sababli ular meni yaxshi yozmaydi, deb tanqid qilishadi. Nazarimda badiiy asar yozishning aniq bir yo‘l-yo‘rig‘i bo‘lmasa kerak. Har qaysi yozuchi o‘zi alohida shaxs, o‘ziga xos xislatlari, o‘ziga mos o‘quvchilari bor. Shu kungacha ko‘nglimda biror-bir tanqidchiga kek saqlamaganman. Mashhurligimdan mag‘rurlanib ketmadim ham. Har doimgidek ochiqko‘ngil, samimiyl insonlarga do‘sst-birodar bo‘lishga intilaman. (Paulo Koelo)

Adabiyotshunoslikning vazifasi badiiy asardan aynan qaysi g‘oyani, ma’noni izlash lozimligini ko‘rsatish, degan fikrdan voz kechish kerak. Adabiyotshunos badiiy asarga hech qanday ma’no «bag‘ishlamaydi», balki asardagi har qanday ma’no-mazmunning paydo bo‘lishi, yuzaga kelishi bilan bog‘liq mantiqni tahlil etadi, ta’riflaydi. (Rolan Bart)

Hayot u haqda yozish uchun emas, balki uni yashab o‘tish uchun berilganini men yoddan chiqarmaslikka harakat qildim. Tabiat menga nimani ravo ko‘rgan bo‘lsa, barchasini sinab ko‘rishga urindim. Ijodga esa, o‘zimning birdan-bir maqsadim deb emas, insoniyatga xos boshqa faoliyat turlari bilan uyg‘unlikda olib boriladigan bir soha sifatida qaradim. (Somerset Moem)

Jeyms Joys adabiy hodisa, endi u takrorlanmaydi, u mutlaqo benazir. Joysning maktabi bo‘imasligi mumkin, biroq uning jahon madaniyati va adabiyotidagi mavqeい beqiyos. (Dmitriy Lixachyov)

Qaysidir bir qayg‘uli, g‘amgin narsaga kulgan bo‘lsam, buning sababi yig‘lay olmaganimdandir. (Jorj Bayron)

Meningcha, hozirgi yoshlar maqsadlarini yo‘qotmagan, ular maqsadlarini parchalab yuborganlar. Fikrimcha, bugungi dunyoda bu muqarrar holat. Men qadriyatlarga e’tibor susaygan sharoitda noaniq maqsad ketidan yurgan odamlar haqidagi voqealarni yozaman. Ehtimol, kitobxonlarim orasida yoshlarning ko‘pligi shundandir. Mulkammal matn deganlari, aslida, yo‘q narsa. Xuddi butkul umidsizlik bo‘limganidek. (Xaruki Murakami)

«Insonni izlagan» Diogen boshqa haqiqat izlovchilardan dono-roqdir. Negaki faqat insonni topibgina haqiqatga erishish mumkin. (Bernar Dade)

Nazarimda, hozirgi zamon yapon yozuvchilari ruhiy erkinligini yo‘qotib qo‘ygandek. Bu meni tashvishlantiradi. Ular ko‘proq boshi bilan yozadi, yuragi bilan emas. (Kunikida Doppo)

Homer zamonlaridan beri adabiyotning oldiga ikkita talab qo‘yib kelinadi – birinchidan, asarda syujet bo‘lishi kerak, ikkinchidan, xarakter yaratilmog‘i shart. Inson tabiatini nihoyatda sekinlik bilan o‘zgaradigan xilqatki, ming yil ilgari ro‘y bergan voqeasi tasviri kuni kecha sodir bo‘lgandek qabul qilinadi. (Jon Golsuorsi)

Momiqday oppoq qor yoki kumushday yarqiragan oy chiroyiga mahliyo bo‘lganingda... go‘zallik bilan uchrashib zavq va huzurga to‘lib-toshganda beixtiyor do‘stingni sog‘inasan, uni ko‘rging keladi: sevinchingni u bilan baham ko‘rmoq istaysan. Go‘zallik bilan uchrashuv kuchli hamdardlik hissini, mehr-shafqat tuyg‘usini uyg‘otadi va shunda «do‘st» so‘zi «inson»dek jaranglaydi. (Yasunari Kavabata)

Baxtli, saodatli hayot sharoitiga erishganda hatto daho ijod-korning ham faoliyati susayadi, deyishadi. Yo‘q, yaratilgan ko‘plab go‘zal asarlar farovonlik samaralaridir. Masalan, Rable faqat istirohat chog‘larida ijod qilgan bo‘lsa, Rafael Rim xazinasidan bahramand bo‘lgan. Monteske, Byuffon, Volter boy-badavlat edi. Faylasuf Bekon davlatda yuqori lavozimda o‘tirgan. (Onore de Balzak)

Poeziya voqelikka taqlid emas, voqelikning talqini, tafsiri ham emas. Poeziya — o‘z-o‘zicha voqelikdir, hayotiy voqelikdan ko‘ra yuksakroq darajadagi voqelikdir... yaxshi she’r – kitobxon shuurida portlaydigan siqiq voqelikdir. (Erling Kristi)

Ishonchim komilki, go‘zallik sirini kashf etish nasib qilganda, tabiatning irodasini anglash imkonи tug‘ilganda – ana shunda yashashdan maqsad ham to‘la oydinlashadi. (Musyakodzi Saneasu)<sup>1</sup>

<sup>1</sup> «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2014-yil 39-52-sonlaridan olindi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й. 6-сон, 70-модда. 20-сон, 354-модда.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. 2018 йил 7 август/ <https://www.xabar.uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги «Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг камровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3775-сонли Қарори (Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.06.2018 й., 07/18/3775/1313-сон).

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – [President.uz сайти](https://president.uz/uz/lists/view/3324), 2020 йил 24 январь.<https://president.uz/uz/lists/view/3324>[мурожаат санаси: 04.02.2020]

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишлиланган тантанали маросимдаги нутқи/ <https://president.uz/uz/lists/view/3864>. 30.09.2020

6. Адабиёт – инсонни кашф қилиш/ Тўплам. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Хуршид Дўстмуҳаммад. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – 118 б.

7. Адабиёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймоплар, асалар ва нашрлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: «Mumtoz so'z», 2015. – 664 б.

8. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 352 б.

9. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий

поэтикан очерклар. Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 288 б.

10. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худож. лит., 1975. – 504 с.

11. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Худож. лит., 1986. – 424 с.

12. Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 263 б.

13. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: «Ўзбекистон», 2002. – 560 б.

14. Болтабоев Ҳ. Бадиий сўз табиити./<http://hozir.org/badiiy-soz-qudrati.html>

15. Борев Ю. Б. Теория литературы. Том IV. – М.: Наследие, 2001. – 574 с.

16. Bennett A., Nicholas R. An Introduction to Literature, Criticism and Theory. United Kingdom: Edinburgh Gate, 2006. – 361 p. [www.pearsoned.co.uk](http://www.pearsoned.co.uk)

17. Barry P. Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Studies. 2nd edn. Manchester: Manchester University Press, 2002. – 184 р.

18. Belsey C. Critical Practice. – London: Methuen, 1980. <http://epicnotes1.blogspot.com/2017/05/critical-practice-by-catherine-belsey.html>

19. Введение в литературоведение. Хрестоматия: Учеб. пособие/Сост.: П.А. Николаев, Е.Г. Руднева, В.Е. Хализев, В. Чернец, А.Я. Эсалнек, Е.А. Цурганова; Под ред. П.А. Николаева, А.Я. Эсалнек. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Высш. шк., 2006. – 463 с.

20. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989. – 648 с.

21. Голсуорси Ж. Адабиёт ва ҳаёт./ Жаҳон адиллари адабиёт ҳақида. Озод Шарафиддинов таржималари. – Т.: Маънавият, 2010. – 392 б.

22. Горький М. Собр соч. в 30 томах. Т. 27. – М.: Наука, 1968-1976. – 589 с.

23. Жаббор Эшонқул. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 2011. – 304 б.

24. Жабборова Д.Е. Истиқлол даври ўзбек адабиётшунослигига Чўлпон ижоди талқинлари/(шеърияти ва насрый асарлари мисолида): Филол. фан. фал. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 47 б.
25. Жирмунский В. Стихотворение Гёте и Байрона: Ты знаешь край? / Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. – Ленинград: «Наука», 1979. – С. 408-427.
26. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Т.: «Faafur Fулом номидаги нашриёт», 2015. – 356 б.
27. Жўракулов У. Алишер Навоий «Хамса»сида хронотоп поэтикаси. Монография. – Тошкент: Турон-иқбол нашриёти, 2017. – 260 б.
28. Зинченко В.Г., Зусман В.Г., Кирнозе З.И. Методы изучения литературы. Системный подход: Учебное. пособие. – М.: Флинта: Наука, 2002. – 200 с.
29. Иброҳим Ҳаққул. Мушоҳада ёғдуси. Адабий ўйлар, ҳикматлар, лутфлар. – Т.: Тафаккур, 2019. – 256 б.
30. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: «Камалак», 2016. – 464 б.
31. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: «O’zbekiston» НМИУ, 2008. – 535 б.
32. Карим Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Т.: «Фан», 2006. – 230 б.
33. Карим Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур: илмий монография / Б. Карим . – Тошкент: Akademnashr, 2014 - 256 б.
34. Карим Б. Қодирий насли – нафосат қасри. – Т.: «Ўзбекистон», 2014. –232 б.
35. Каримов Б. Руҳият алифбоси. –Т.: «Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи», 2016.
36. Komilova S. Zamonaviy o’zbek adabiy jarayoni konsepsiysi. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/zamonaviy-ozbek-adabiy-jarayoni-konsepsiysi/>
37. Jonathan Culler. Literary Theory: A Very Short Introduction. Oxford: Oxford University Press, 1997. – 184 p.
38. Jonathan Culler, On deconstruction: Theory and criticism af-

- ter structuralism. Ithaca: Cornell University Press, 1982. – 307 p.
39. Criticism and Fiction, reprinted in W. D. Howells: Selected Literary Criticism. Volume II: 1886–1869, ed. Donald Pizer and Christoph K. Lohmann. Bloomington and Indianapolis: Indiana University Press, 1993. – 298 p.
5. Лихачев Л.С. Неравнодушная проза. – Москва: Художественная литература, 1984. – С. 3-4.
40. Марио Варгас Льоса. Ёш романнависга мактуб // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2017. 2017 й. январь. – Б. 140.
41. Mamajonov Z.A. O'xshatish asosidagi she'riy san'atlarning nazariy tavsifi va tasnifi: Filol. fan. fal. d-ri. ... diss. yozuvchif. – Toshkent, 2017. – 49 б.
42. Mahkam Mahmudov, Alisher Mahmudov. Lessing va Herder. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/mahkam-mahmudov-alisher-mahmudov-lessing-va-herder/>
43. Муродов F. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. – Т.: «Фан», 2005. – 172 б.
44. Муродов F., Темирова Д. Тарихий романда сюжет муаммоси. – Т.: «Фан», 2008. – 40 б.
45. Nazar Eshonqul: Adabiyot inson qalbi uchun kurashdir. Xurshid Davron kh-dav ron.uz/nazar-eshonqul-adabiy ot-inson-qalbi-uchun-kurashdir.html 9/15. 26.10.13.
46. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир хикоятлар. (Мажмаъун наводир). – Т.:Faфур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 96 б.
47. Орзивеков Р. Ўзбек шеърияти жанрлари. – Самарқанд, 1998. – 112 б.
48. Парандовский Я. Сўз кимёси. /Жаҳон адилари адабиёт хақида. Озод Шарафиддинов таржималари. – Т.: Маънавият, 2010. – 392 б.
49. Поэтика: слов, актуал. терминов и понятий / [гл. науч. ред. Н.Д. Тамарченко]. – М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. –359 с.
50. Путилов Б. Мотив как сюжетообразующей элемент // Типологические исследования по фольклору. – М.: Наука, 1975. – С. 141–155.
51. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ,

2007. – 336 б.
52. Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб... – Т.: Маънавият, 1998. – 64 б.
53. Самарқандий М. Тазкират уш-шуаро. – Т.: «Мумтоз сўз», 2013. 224 б.
54. Содержание и форма литературного произведения / Крупчанов Л.М. Теория литературы. Учебник. -М.: Флинта, 2012 // www.litmir.me
55. Султон И. Адабиёт назарияси.- Т.: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
56. Solihov T. Adabiyot – insonni kashf qilish. – Т.: Yangi asr avlod, 2016. –135 б.
57. Силантьев И. В. Поэтика мотива. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 295 с.
58. Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория литературы. В двух томах. Том 1. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика: Учебное пособие. – М.: «Академия», 2004. – 513 с.
59. Terry Igleton. Teory literature. – London, 2010. – 348 р.
60. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 508 б.
61. Тўйчиева Ш. Ижодкор дунёқараши ва бадиий услуб. – Т.: Академия, 2009. – 12 б.
62. Улуғов А. Қалб қандили: адабий-танқидий мақолалар. Адабий портрэт. Адабий-танқидий очерк. – Т.: Akademnashr, 2013. – 288 б.
63. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 308 б.
64. Улугов А. Арасту англатган адабиёт //Жаҳон адабиёти, 2018. – № 2. <https://jahonadabiyoti.uz/2018/04/24>
65. Умурев Х. Бадиий ижод асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 120 б.
66. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarcand, 2012. – 254 б.
67. Хализов В.Е. Теория литературы: Учебник. – М.: «Высшая школа». 1999. – 400 с.
68. Халлиева Г. Адабиётшунослик. – Т.: ТДШИ нашриёти,

2017. – 60 б.

69. Халлиева Г. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти. Монография. – Т., 2018. – 274 б.
70. Халлиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Т.: Mumtoz so'z, 2020. – 198 б.
71. Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Писатель. 1975. – 477 с.
72. Шодиев Н. Идейно-художественные своеобразия крупных эпических форм литературы Средней Азии и Казахстана: Дисс. ...д-ри филол. наук. – Москва, 1986. – 302 с.
73. Шодиев Н. Горизонты эпоса: Худож.-эстет. богатство эпической прозе литератур Средней Азии и Казахстана. – Т.: Литература и искусство, 1986. – 175 с.
74. O'zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000./ [https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_milliy_ensiklopediyasi)
75. O'rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug'ati. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015. – 170 б.
76. Қаршибаева У.Д. Француз романтизм прозасининг поетик хусусиятлари (Шатобриан ва Гюго раманлари мисолида): Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 82 б.
77. Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 411 б.
78. Курунов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018. – 480 б.
79. Кўшжонов М. Бадиият қонуниятлари. Сайланма. (икки томлик), 1-том. – Т.: Faafur Fулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – 384 б.
80. Кўйлиева Г. Ўзбек насида трилогия. Монография. – Т.: «Tamaddun», 2016. – 192 б.
- INTERNET MANBALARI
81. <http://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/mario-vargas-losa-mutolaa-va-adabiyot-vasfi.html> Mario Vargas Losa. Мутолаа ва адабиёт васфи/nobel ma'ruzasi
82. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik>
83. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/atama/304-ata-ma.html>

84. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/adabiyotshunoslikning-yangi-bosqichi/>
85. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/mohiyatga-eltuvchi-yol-bugungi-adabiyotshunoslikka-bir-nazar/>
86. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:\\_O'zbek\\_badiiy\\_san'at\\_turlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:_O'zbek_badiiy_san'at_turlari)
87. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/jahon-adiblari-adabiyot-haqida/>
88. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/yozuvchilar-adabiyot-togrisida/>
89. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/mahkam-mahmudov-alisher-mahmudov-lessing-va-herder/>

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
ADABIYOTSHUNOSLIK – BADIY ADABIYOT HAQIDAGI FAN .....	5
BADIY ADABIYOT SAN’AT TURI SIFATIDA .....	18
BADIYLIK – ADABIYOTNING ASOSIY XUSUSIYATI.....	30
BADIY ASARDA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI.....	43
MAVZU VA G’OYA.....	52
BADIY ASAR SYUJETI.....	63
BADIY ASAR KOMPOZITSIYASI .....	73
BADIY OBRAZ VA OBRAZLILIK .....	84
BADIY ASAR TILINING XUSUSIYATLARI.....	94
ADABIY TUR VA JANRLAR. EPIK TUR VA UNING JANR- LARI .....	105
LIRIK VA DRAMATIK TURNING JANRLARI .....	116
ADABIY YO’NALISH VA OQIMLAR.....	126
HOZIRGI ADABIY JARAYON MANZARALARI .....	140
BADIY ASAR TAHLILI .....	149
MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI: .....	163
ILOVA.....	167
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI .....	183

**TO'RAYEVA B., KO'CHIMOV U.**

## **ADABIYOTSHUNOSLIK**

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: T. Raxmatullayev

Musahhih: N. Ismatova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2. 244. 25.08.2020 y.  
Bosishga ruxsat etildi 23.05.2022 y.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”  
garniturası. Hisob-nashr tabog‘i. 9,5.  
Adadi 300 dona. Buyurtma № 3.

«MALIK PRINT CO» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent viloyati., Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi.

ISBN 978-9943-7654-3-6

A standard one-dimensional barcode is positioned in the center of the white rectangular area. It consists of vertical black bars of varying widths on a white background.

9 789943 765436